



O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Samarqand davlat universitetining
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti



TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA

ILMIY-USLUBIY JURNAL

ISSN 2181-2659

2026/N^o1



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA
Ilmiy-uslubiy jurnali

ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО И ПЕДАГОГИКА
Научно-методический журнал

ENTREPRENEURSHIP AND PEDAGOGY
Scientific and methodical journal

2026-yil 1-son

DENOV – 2026



Tadbirkorlik va pedagogika ilmiy-uslubiy jurnali OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/5-son qaroriga asosan 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo‘yicha OAK (Oliy attestatsiya komissiyasi) nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan. Entrepreneurship and pedagogy scientific and methodical journal was included in the list of publications on Pedagogical Sciences at 13.00.00 based on the decision of the HAC (the Higher Attestation Commission) No. 325/5 dated September 30, 2022.

Tahrir kengashi raisi: Ruziyev Oybek Abdimo‘minovich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori.

Bosh muharrir: Shukurov Rustam Eshonqulovich – Imiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor.

Mas‘ul muharrir: Bo‘tayev Usmonjon Xayrullayevich – O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor.

Mas‘ul kotib: Jurayev Boxodir Turdaliyevich – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i.

Muharrir: Mordayev Bekzod Turobovich.

Chairman of the editorial board: Ruziyev Oybek Abdimuminovich – Rector of the Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy.

Editor-in-chief: Shukurov Rustam Eshonkulovich – Vice-Rector for scientific affairs and innovations.

Responsible editor: Butayev Usmonjon Khayrullayevich – Vice-Rector for academic affairs.

Responsible secretary: Jurayev Bokhodir Turdaliyevich – Head of the department of scientific research, innovations and scientific-pedagogical personnel training.

Editor: Mordayev Bekzod Turobovich.

Tahrir hay‘ati a‘zolari:

Raximov G‘anisher Xudoyqulovich – Filologiya fanlari doktori (DSc), professor, O‘zDJTU.

Suvonov Zavqiddin Norqulovich – Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, DTPI.

Rajapov O‘tkir Do‘snayevich – Iqtisod fanlari doktori (DSc), dotsent, DTPI.

Bozorov Ruslan Hamdamovich – Iqtisod fanlari doktori (DSc), dotsent, DTPI.

Allayarova Soliha Narzullayevna – Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent, TDYU.

Musurmonqulova Madina Nosirovna – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Melikov Otabek Maxmadaminovich – Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich – Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Shukurov Rustam Eshonqulovich – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Maxmudov Shokir Kamolovich – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

To‘raxonov Fozil Bobonazarovich – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Mirzayev Mutalib Jurayevich – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Norboyeva Sarvinoz Mengaliyevna – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Members of the Editorial Board:

Rakhimov Ganisher Khudoykulovich – Doctor of philological sciences (DSc), professor, UzSWLU.

Suvonov Zavqiddin Norqulovich – Doctor of philological sciences (DSc), associate professor, DIEP.

Rajapov O‘tkir Do‘snayevich – Doctor of economic sciences (DSc), associate professor, DIEP.

Bozorov Ruslan Hamdamovich – Doctor of economic sciences (DSc), associate professor, DIEP.

Allayarova Soliha Narzullaevna – Doctor of pedagogical sciences (DSc), associate professor, TSUL.

Musurmonkulova Madina Nosirovna – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Melikov Otabek Makhmadaminovich – Doctor of philosophy in economics (PhD), associate professor, DIEP.

Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich – Doctor of philosophy in economics (PhD), DIEP.

Shukurov Rustam Eshonkulovich – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), DIEP.

Makhmudov Shokir Kamolovich – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Turaxonov Fozil Bobonazarovich – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), DIEP.

Mirzaev Mutalib Juraevich – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Norboyeva Sarvinoz Mengaliyevna – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), associate professor, DIEP.



Xamroyeva Marg'uba Komilovna – Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Xolmurodov Mengboy Amirovich – Biologiya fanlari nomzodi, DTPI.

Jurayev Boxodir Turdaliyevich – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Nazirov Baxtiyor Safarovich – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Muminov Ulmas Ravshanqulovich – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Xo'janova Tamara Jo'rayevna – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Toshboboyev Maqsud Jalilovich – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Raxmatov Erkin Tog'aymurodovich – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Mamajanov Rahmatilla Yakubjanovich – Texnika fanlari nomzodi, dotsent, DTPI.

Sobirova Mavjuda Ro'ziyevna – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Ismatov Sunnatilla Shamsulloyevich – Texnika fanlari doktori (DSc), dotsent, DTPI.

Shukurov Dilmurod Xursanovich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent DTPI.

Primkulov Begali Sheraliyevich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Karimov Husniddin Rustamovich – Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Kulbosheva Xurshida Xasanovna – Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Khamroyeva Marguba Komilovna – Doctor of philosophy in biological sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Xolmurodov Mengboy Amirovich – Candidate of biological sciences, DIEP.

Jurayev Bokhodir Turdaliyevich – Doctor of philosophy in historical sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Nazirov Bakhtiyor Safarovich – Doctor of philosophy in historical sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Muminov Ulmas Ravshankulovich – Doctor of philosophy in historical sciences (PhD), DIEP.

Khujanova Tamara Zhurayevna – Doctor of philosophy in philosophical sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Toshboboev Maksud Jalilovich – Doctor of philosophy in philosophical sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Raxmatov Erkin Togaymurodovich – Doctor of philosophy in philosophical sciences (PhD), DIEP.

Mamajanov Rahmatilla Yakubjanovich – Candidate of technical sciences, associate professor, DIEP.

Sobirova Mavjuda Ruziyevna – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Ismatov Sunnatilla Shamsulloyevich – Doctor of technical sciences (DSc), associate professor, DIEP.

Shukurov Dilmurod Xursanovich – Doctor of philosophy in technical sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Primkulov Begali Sheraliyevich – Doctor of philosophy in technical sciences (PhD), DIEP.

Karimov Khusniddin Rustamovich – Doctor of philosophy in chemistry (PhD), DTPI.

Kulbosheva Xurshida Xasanovna – Doctor of philosophy in chemistry (PhD), DTPI.

Sodiqova Bakhtigul Ibodullayevna – Doctor of philosophy in philological sciences (PhD), DIEP.

IJTIMOIIY FANLAR

RUS MUSTAMLAKACHILIGI DAVRIDA TA'LIM TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA)

XASANOVA NODIRA IBRAGIMOVNA

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Tarix va falsafa” kafedrasi dotsenti
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Email: xasanovaoffice@gmail.com

UDK: 9:433:908

<https://orcid.org/0009-0004-5344-5182>

RO'ZIYEVA MOHICHEHRA RUSTAM QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Tarix va falsafa” kafedrasi talabasi
Email: roziyevamohichehra957@gmail.com

Tel: +998 95 745-06-04

Kalit so'zlar:

mustamlakachilik,
Turkiston, ta'lim,
maktab, madrasa,
maorif, islohot,
ruslashtirish,
siyosat, muallim,
mudarris, darslik.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada XIX asr oxiri - XX asr boshlarida rus mustamlakachiligi davrida Turkistonda ta'lim tizimida yuz bergan o'zgarishlar atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqotda mustamlakachilikdan avval faoliyat yuritgan an'anaviy maktab va madrasalarning o'rni, ularning ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari hamda jamiyat ma'naviy hayotidagi ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, Rossiya imperiyasi tomonidan joriy etilgan rus-tuzem maktablarining tashkil etilish sabablari, ularning maqsad va vazifalari, o'quv dasturlari hamda mahalliy aholi ongiga ko'rsatgan ta'siri tahlil etiladi. Maqolada jadidchilik harakati namoyandalarining ta'lim sohasidagi islohotchilik faoliyati, yangi usul maktablarining vujudga kelishi, ularning pedagogik yondashuvlari hamda milliy uyg'onish jarayonidagi tarixiy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rus mustamlakachiligi davrida Turkistonda ta'lim tizimi murakkab va ziddiyatli jarayonlar asosida rivojlangan. Ushbu jarayon bir tomondan mustamlakachilik manfaatlariga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy jamiyatda yangi ma'rifiy g'oyalari va islohotlar

shakllanishi uchun muhim zamin yaratgan.

ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ В ПЕРИОД РУССКОЙ КОЛОНИЗАЦИИ (КОНЕЦ XIX - НАЧАЛО XX ВЕКА)

Ключевые слова: колониализм, Туркестан, образование, школа, медресе, просвещение, реформа, русификация, политика, учитель, мударрис, учебник.

Аннотация: В данной статье подробно анализируются изменения, произошедшие в системе образования в Туркестане в конце XIX - начале XX веков в период российского колониализма. В исследовании освещается роль традиционных школ и медресе, действовавших до колониализма, их содержание образования, методы обучения и значение в духовной жизни общества. Также анализируются причины создания русско-туземных школ, введенных Российской империей, их цели и задачи, учебные программы и влияние на сознание местного населения. В статье особое внимание уделяется реформаторской деятельности представителей джадидского движения в сфере образования, возникновению новометодных школ, их педагогическим подходам и историческому значению в процессе национального возрождения. Результаты исследования показывают, что в период российского колониализма система образования в Туркестане развивалась на основе сложных и противоречивых процессов. Этот процесс, с одной стороны, служил интересам колониализма, а с другой стороны, создал важную почву для формирования новых просветительских идей и реформ в местном обществе.

CHANGES IN THE EDUCATION SYSTEM DURING RUSSIAN COLONIALIZATION (LATE 19TH - EARLY 20TH CENTURIES)

Keywords: colonialism, Turkestan, education, school, madrasa,

Abstract: This article thoroughly analyzes the changes that occurred in the education system of Turkestan during the Russian colonial period in the late 19th - early 20th centuries. The study highlights the role of traditional schools and madrasahs operating before colonialism, their educational

enlightenment,
reform, russification,
policy, teacher,
mudarris, textbook.

content, teaching methods, and significance in the spiritual life of society. Also, the reasons for the creation of Russian-native schools introduced by the Russian Empire, their goals and objectives, curricula, and the influence on the consciousness of the local population are analyzed. The article pays special attention to the reformist activities of representatives of the Jadid movement in the field of education, the emergence of new-method schools, their pedagogical approaches, and their historical significance in the process of national revival. The research results show that during the period of Russian colonialism, the education system in Turkestan developed on the basis of complex and contradictory processes. This process, on the one hand, served the interests of colonialism, and on the other hand, created an important basis for the formation of new educational ideas and reforms in local society.

KIRISH

Turkiston hududida ta'lim tizimi uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, asrlar davomida maktab va madrasalar orqali jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy hayotida muhim o'rin egallab kelgan. An'anaviy ta'lim tizimi asosan diniy bilimlarga tayangan bo'lsa-da, unda mantiq, hisob, falakiyot, handasa kabi dunyoviy fanlar ham o'qitilgan. Mazkur holat Turkiston hududidagi ta'lim tizimi nafaqat diniy, balki muayyan darajada ilmiy-amaliy yo'nalishga ega bo'lgan murakkab pedagogik tizim ekanligini ko'rsatadi.

Biroq XVI asrdan boshlab mintaqaning iqtisodiy va madaniy aloqalari torayib, jahon taraqqiyotidan ortda qolish jarayoni kuchaya boshladi. Natijada mintaqaning jahon taraqqiyotidan ortda qolish jarayoni yanada chuqurlashdi va tizimli xarakter kasb etdi. Akademik V.V. Bartold ta'kidlaganidek, XV asrdan boshlab Yevropada dengiz yo'llarining ochilishi, Amerikaning kashf etilishi hamda Hindistonga dengiz yo'lining topilishi jahon savdo yo'nalishlarini tubdan o'zgartirdi [3]. Natijada Buyuk ipak yo'lining iqtisodiy va strategik ahamiyati keskin pasayib, mintaqa global savdo va madaniy almashinuv tizimidan tobora chetlasha boshladi. Shuningdek, mintaqadagi siyosiy parokandalik, xususan uch xonlik – Buxoro, Xiva va Qo'qon o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning sekinlashuviga olib keldi [1].

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib esa Turkiston Rossiya imperiyasining harbiy istilosi natijasida mustamlaka hududiga aylana boshladi. Natijada mintaqadagi siyosiy



tuzum tubdan o'zgardi: Buxoro amirligi va Xiva xonligi mustaqil tashqi siyosat yuritish imkoniyatidan mahrum bo'ldi, Qo'qon xonligi esa zo'ravonlik va siyosiy hiyla yo'li bilan tugatilib, uning o'rnida Rossiya ma'muriy boshqaruv tizimi – Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi [2].

Rossiya imperiyasining Turkiston hududini bosib olishdan ko'zlagan asosiy strategik maqsadlaridan biri yangi iqtisodiy bozorlarni egallash va sanoat uchun zarur arzon xomashyo bazasini shakllantirishdan iborat edi. Mineral va tabiiy resurslarga boy bo'lgan O'rta Osiyo bu borada strategik jihatdan muhim hudud sifatida qaraldi. Ayniqsa, mintaqaning geosiyosiy o'rni ham alohida ahamiyat kasb etgan bo'lib, Afg'oniston va Hindiston yo'nalishida mustahkamlanib borayotgan Buyuk Britaniya bilan raqobat Rossiya imperiyasini ushbu hududda o'z ta'sirini kuchaytirishga undadi.

Mustamlakachilik siyosati faqat iqtisodiy va harbiy manfaatlar bilan cheklanib qolmadi. Rossiya ma'muriyati mintaqaning ijtimoiy-madaniy hayotiga ham faol aralasha boshladi. Xususan, Turkistonda asrlar davomida shakllangan islomiy ta'lim tizimi – maktab va madrasalarning jamiyatdagi nufuzini pasaytirishga qaratilgan siyosat yuritildi. Bu jarayon ochiqdan-ochiq qarshilik shaklida emas, balki ma'muriy nazorat, cheklovlar va muqobil ta'lim tizimini joriy etish orqali amalga oshirildi.

Akademik V.V. Bartold chor hukumatining milliy madaniyatga nisbatan siyosatini tanqid qilib, shunday deydi: “Turk millatlari va Rossiyaning boshqa ayrim millatlarining madaniy taraqqiyoti yo'lida chor hukumatining siyosati kishining eng ibtidoiy huquqlarini tahqirlash va masxara qilishdan iborat bo'lib, bu siyosat mazkur millatlarning o'z ota-bobolaridan meros bo'lib qolgan madaniyatini saqlash va rivojlantirishga bo'lgan har qanday imkoniyatlarini yo'q qilishga qaratilgan edi” [3]. Darhaqiqat, mustamlaka ma'muriyati milliy madaniyatni cheklash orqali ta'lim tizimini ham qat'iy nazorat ostiga olishga intilgan.

Natijada, an'anaviy ta'lim tizimiga muqobil sifatida yangi turdagi rus-tuzem maktablari (ya'ni mahalliy aholi uchun tashkil etilgan, rus tilida va rus dasturlari asosida faoliyat yuritgan ta'lim muassasalari) tashkil etildi. Mazkur maktablar nafaqat savodxonlikni oshirish vositasi, balki mustamlakachilik mafkurasini singdirish va mahalliy aholining ijtimoiy ongini transformatsiya qilishga qaratilgan ideologik instrument sifatida ham xizmat qilgan. Shu tariqa ta'lim sohasi mustamlakachilik siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylantirildi.

Shu bois mazkur maqolada rus mustamlakachiligi davrida Turkistonda ta'lim tizimida yuz bergan transformatsion o'zgarishlar, ularning tarixiy ildizlari hamda ijtimoiy-madaniy oqibatlari kompleks tarixiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqot doirasida rus mustamlakachiligi davrida Turkistonda ta'lim va madaniyat sohasida yuz bergan jarayonlarni yorituvchi mahalliy hamda xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy asarlari kompleks tarzda tahlil qilindi. Jumladan, Rustam Shamsutdinov, Baxtiyor Rasulov, Munavvar Qori Abdurashixonov hamda Ismoil Gaspirinskiy kabi olim va ma'rifatparvarlarning asarlari ushbu davrni o'rganishda muhim nazariy manba sifatida xizmat qiladi. Ularning ilmiy merosida Turkiston hududidagi an'anaviy ta'lim tizimi, uning mazmun-mohiyati, shuningdek, mustamlakachilik sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar chuqur yoritilgan.

Xususan, Rossiya imperiyasi hamda sovet hokimiyatining dastlabki yillarida amalga oshirilgan maorif siyosatini tahlil qilishga bag'ishlangan tarixiy, siyosiy va pedagogik yo'nalishdagi tadqiqotlar alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur adabiyotlarda mustamlakachilik siyosatining mahalliy aholi dunyoqarashi, diniy qadriyatlari hamda an'anaviy maktab va madrasa tizimiga ko'rsatgan ta'siri keng qamrovda tahlil etilgan. Shu bilan birga, ta'lim tizimi orqali amalga oshirilgan mafkuraviy ta'sir mexanizmlari ham ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Turkiston xalqlarining mazkur davrdagi tarixiy taraqqiyoti murakkab va ziddiyatli jarayonlar bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, musulmon maktab va madrasalar faoliyatining baholanishi turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Bu borada mavjud ilmiy adabiyotlar, xotiralar va davriy nashrlar muhim manba bo'lib xizmat qilsa-da, ularning barchasini mutlaq xolis manba sifatida qabul qilish mumkin emas. Chunki ayrim asarlar Rossiya imperiyasi ulug'davlatchilik mafkurasi yoki keyinchalik bolsheviklar ideologiyasi ta'sirida yaratilgan bo'lib, ularda voqelik ko'pincha biryozlama talqin qilingan.

Shu sababli mazkur tadqiqotda mavjud manbalarga tanqidiy yondashuv asosida qaraldi. Xususan, musulmon ta'lim muassasalari faoliyatini baholashda ularning nafaqat diniy, balki ijtimoiy-ma'rifiy funksiyalari ham inobatga olindi. Bu esa an'anaviy ta'lim tizimining jamiyat hayotidagi o'rnini yanada ob'ektivroq yoritish imkonini beradi.

Ma'lumki, Chor Rossiyasi Turkiston hududini istilo qilish jarayonida nafaqat harbiy-siyosiy ustunlikni qo'lga kiritishga, balki mahalliy aholining ma'naviy-madaniy asoslarini transformatsiya qilishga qaratilgan siyosatni ham amalga oshirgan. Xususan, ruslashtirish siyosati orqali milliy til, islom dini hamda asrlar davomida shakllangan qadriyatlarni siqib chiqarish ko'zda tutilgan [4]. Biroq bu jarayon ko'proq bilvosita usullar orqali – islom dinining jamiyat hayotidagi nufuzini pasaytirish, uning ta'lim, huquqiy va ijtimoiy institutlardagi ta'sirini cheklash orqali



olib borilgan.

Natijada, mustamlakachilik siyosati nafaqat siyosiy va iqtisodiy qaramlikni kuchaytirishga, balki mahalliy jamiyatning ma'naviy birligini zaiflashtirish va milliy o'zlikni anglash jarayonini susaytirishga xizmat qilgan. Shu nuqtai nazardan, mazkur davrga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish Turkistonda ta'lim tizimidagi o'zgarishlarning mohiyatini chuqurroq anglash, ularning tarixiy ildizlari va ijtimoiy oqibatlarini aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot rus mustamlakachiligi davrida Turkistonda ta'lim tizimi va madaniy hayotda yuz bergan o'zgarishlarni ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda tarixiylik, tizimlilik hamda qiyosiy-tahliliy yondashuvlar metodologik asos sifatida qo'llanildi.

Tarixiylik metodi yordamida Turkiston hududida mustamlakachilik siyosatining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning ta'lim tizimiga ko'rsatgan ta'siri davriy ketma-ketlikda tahlil qilindi. Ushbu yondashuv orqali an'anaviy maktab va madrasalarning faoliyati, ularning ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o'rni hamda mustamlakachilik davrida yuz bergan transformatsion o'zgarishlar tarixiy kontekstda yoritildi.

Tizimlilik yondashuvi asosida ta'lim, madaniyat va mafkura o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kompleks tizim sifatida o'rganildi. Bunda ta'lim tizimi jamiyatning muhim instituti sifatida qaralib, uning siyosiy va ideologik jarayonlar bilan uzviy aloqadorligi ochib berildi. Ayniqsa, mustamlakachilik sharoitida ta'lim tizimining mafkuraviy instrument sifatidagi roli alohida e'tiborga olindi.

Qiyosiy-tahliliy metod orqali rus mustamlakachiligi davrigacha mavjud bo'lgan an'anaviy ta'lim tizimi (maktab va madrasalar) bilan mustamlaka davrida joriy etilgan rus-tuzem maktablari o'rtasidagi farq va o'xshashliklar tahlil qilindi. Ushbu yondashuv ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, maqsad va vazifalaridagi tub o'zgarishlarni aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida manbashunoslik yondashuvi ham qo'llanilib, arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari, tarixiy asarlar hamda ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Bu esa olingan natijalarning ilmiy asoslanganligi va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi.

Xususan, sovet davri manbalarini tahlil qilishda ularning ideologik xususiyatlari e'tiborga olindi. Jumladan, 1926-yildan boshlab O'zbekiston Xalq Maorif Komissari lavozimida faoliyat yuritgan Davlat Rizo o'zining "O'zbekistonda maorif va madaniyat masalalari" to'plamida e'lon qilgan maqolasida shunday yozadi:

“...Nasllarimizning tarbiyasi ko‘p joylarda o‘sha xurofotchilik markazi bo‘lgan eski maktabga bog‘liqdir. Eski maktab quchog‘iga minglarcha ishchi-dehqon bolalari qurbon bo‘ladilar” [5].

Mazkur jarayonlar mahalliy aholining tarixiy-madaniy meros bilan uzviy aloqasini zaiflashtirish, ularni yangi mafkuraviy makonga moslashtirish hamda ruslashtirish siyosatini jadallashtirish vositasi sifatida talqin etildi.

Umuman olganda, qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar tadqiqot predmetini har tomonlama, chuqur va ob‘ektiv tahlil qilish, shuningdek, rus mustamlakachiligi davrida Turkistonda ta‘lim tizimida yuz bergan o‘zgarishlarning mohiyatini ilmiy asosda ochib berishga xizmat qildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Tadqiqot natijalari Turkistonda olib borilgan ta‘lim va madaniyat siyosati mahalliy aholining tarixiy taraqqiyotiga murakkab va ko‘p qirrali ta‘sir ko‘rsatganini tasdiqlaydi. Xususan, an‘anaviy maktab va madrasalar faoliyatining izchil ravishda cheklanishi hamda yozuv va imlo tizimining qisqa muddatlarda bir necha bor o‘zgartirilishi natijasida aholining savodxonlik darajasida beqarorlik yuzaga kelgan. Bu jarayon milliy-ma‘naviy qadriyatlar uzviyligini izdan chiqargan holda, avlodlar o‘rtasidagi tarixiy-madaniy merosning uzluksiz uzatilishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan.

Shu bilan birga, ta‘lim tizimining mafkuraviy vosita sifatida qo‘llanilishi, xususan sovet mafkurasini singdirish va ruslashtirish siyosatini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar jamiyatda ma‘naviy begonalashuv jarayonlarini kuchaytirgan. Natijada tarixiy xotiraning susayishi, milliy o‘zlikni anglash jarayonining sekinlashuvi hamda ijtimoiy ongda ziddiyatli holatlarning yuzaga kelishi kuzatilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mazkur siyosat qisqa muddatda muayyan tashkiliy natijalarni ta‘minlagan bo‘lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda mahalliy aholi orasida norozilik kayfiyatlarining ortishiga hamda ijtimoiy-ruhiy qarama-qarshiliklarning kuchayishiga olib kelgan.

Manbalar tahlili, jumladan Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman tomonidan tayyorlangan hisobotlar, musulmon maktablari va islom dinining mahalliy aholi hayotidagi o‘rni nihoyatda yuqori bo‘lganini tasdiqlaydi [6]. Shu sababli mustamlakachilik ma‘muriyati ushbu ta‘lim muassasalarining ijtimoiy ta‘sirini susaytirishga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarni ishlab chiqqan. Biroq ayrim mualliflarning o‘z siyosatini oqlashga intilishi natijasida mazkur maktablar faoliyati biryoqlama, salbiy ruhda talqin etilgan, hatto ayrim holatlarda tarixiy haqiqatning buzib ko‘rsatilganini ham kuzatish mumkin.

Bundan tashqari, ma‘rifatparvar ziyolilar va tajribali o‘qituvchilarning ta‘lim



tizimidan chetlashtirilishi yoki surgun qilinishi mahalliy ta'lim tizimining izchil rivojlanishiga jiddiy to'sqinlik qilgan. Jumladan, O'zbekiston Xalq Maorifi komissari Rahim Oxunjon o'g'li Inag'omov 1925-yil oktabr oyida bo'lib o'tgan O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Markaziy qo'mitasining yalpi majlisidagi ma'ruzasida musulmon maktablarini sovet hokimiyatiga qarshi faoliyat yurituvchi muassasalar sifatida baholab, ularni "aksilinqilobiy madaniy kuch" deb ataydi hamda bunday maktablarni bosqichma-bosqich yo'q qilish zarurligini ta'kidlaydi [7]. Ushbu yondashuv sovet ta'lim siyosatining asl maqsad va yo'nalishlarini ochib beradi.

Sovet mafkurasi doirasida an'anaviy maktab va madrasalar ko'pincha ilm-fan va zamonaviy taraqqiyotdan yiroq muassasalar sifatida talqin etilgan. Natijada ularning faoliyati keskin cheklanib, 1920-yillarning oxiriga kelib deyarli butunlay tugatilgan. Bu jarayon rasmiy manbalarda "xalq manfaatlariga zid bo'lgan eski ta'lim tizimini yo'q qilish" sifatida izohlangan bo'lsa-da, aslida milliy-ma'naviy meros va an'anaviy ta'lim tizimining izdan chiqishiga olib kelgan [8]. Holbuki, diniy maktablar nafaqat savod o'rgatish, balki axloqiy tarbiya, e'tiqod va milliy qadriyatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutgan.

Shuningdek, 1956-yilda o'tkazilgan O'zbekiston ziyolilarining I qurultoyida "inqilobga qadar mahalliy aholi orasida savodxonlik darajasi juda past bo'lgan" degan fikr ilgari surilgan [9]. Mazkur qarashlar sovet hokimiyati tomonidan o'z siyosatini oqlash va ideologik asoslash vositasi sifatida keng qo'llanilgan. Natijada davlat boshqaruvi tizimida boshqa millat vakillarining ustunligi kuchaygan, mahalliy aholi esa ko'proq jismoniy mehnatga yo'naltirilgan.

Mustaqillik yillarida esa ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilib, milliy qadriyatlar va tarixiy merosni tiklashga ustuvor ahamiyat qaratildi. Zamonaviy ta'lim standartlarining joriy etilishi, o'quv dasturlarining takomillashtirilishi hamda yosh avlodni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar natijasida jamiyatning intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligi sezilarli darajada oshdi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Turkistonda ta'lim tizimi mustamlakachilik davrida chuqur transformatsion o'zgarishlarga duch kelgan. Ushbu jarayon qisqa muddatda ayrim ijobiy tashkiliy natijalarni bergan bo'lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda mahalliy jamiyatning ma'naviy-madaniy rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, aynan ushbu tarixiy sharoit keyinchalik jadidchilik harakati va milliy uyg'onish g'oyalarining shakllanishi uchun muhim ijtimoiy-intellektual zamin yaratganini alohida ta'kidlash lozim.



XULOSA

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida joriy etilgan rus mustamlakachilik siyosati ta'lim tizimiga chuqur va salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mazkur tadqiqot rus mustamlakachiligi davrida Turkistonda ta'lim va madaniyat sohasida olib borilgan siyosatning mohiyati hamda uning ijtimoiy va ma'naviy oqibatlarini tarixiy manbalar asosida yoritib berdi.

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, mustamlakachilik siyosati faqat siyosiy va iqtisodiy ustunlikni ta'minlash bilan cheklanmay, balki ta'lim tizimi orqali mahalliy aholining milliy ongini susaytirish, diniy va madaniy qadriyatlarini cheklashga qaratilgan izchil mafkuraviy faoliyatni ham o'z ichiga olgan. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, an'anaviy maktab va madrasalarning faoliyatiga nisbatan olib borilgan cheklovlar hamda yozuv va imlo islohotlarining tez-tez o'zgartirilishi avlodlar o'rtasida ma'naviy uzilishlar yuzaga keltirgan. Bu holat mahalliy aholining tarixiy xotirasi va ilmiy-merosiy uzviyligiga jiddiy zarar yetkazgan.

Shu bilan birga, ta'lim tizimining sovet mafkurasi asosida qayta shakllantirilishi jamiyatda ruslashtirish siyosatining kuchayishiga xizmat qilgan. Biroq tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, mazkur murakkab tarixiy sharoitda jadid ma'rifatchilarining ta'lim va madaniyat sohasidagi faoliyati milliy o'zlikni saqlab qolish yo'lida muhim qarshilik harakati sifatida namoyon bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, rus mustamlakachiligi davridagi ta'lim va madaniyat siyosatini chuqur va xolis tahlil qilish bugungi kunda milliy ta'lim tizimini rivojlantirish, tarixiy xatolardan saboq olish hamda milliy-ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylash nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida ushbu mavzu bo'yicha yanada kengroq va chuqur ilmiy izlanishlar olib borish uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Serbov P. I., Nikiforov A. D. O'zbekistonda xalq maorifi. – Samarqand, 1927. – B. 3.
2. Shamsutdinov R., Rasulov B. Turkiston maktab va madrasalari tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). – Andijon, 1995. – B. 5.
3. Bartold V. V. Turk millatlarining tarixini o'rganishda hozirgi ahvol va yaqin masalalari // Birinchi Butunittifoq turkiyot qurultoyi majmuasi. – Samarqand, 1927. – B. 8.
4. Yusupova X. Chor Rossiyasida islom diniga munosabatning ba'zi masalalari // O'zbekiston ijtimoiy fanlar. 1994. № 6. – B. 39-40.



IJTIMOIIY FANLAR

SAMARQANDDAGI MUQADDAS QADAMJOLAR: TARIXIY VA MADANIY MEROS NUQTAI NAZARIDAN TAHLIL

TURSUNOV JAVLON AKROM O'G'LI

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

“O‘zbekiston tarixi” kafedrasi tayanch doktoranti

Email: j.tursunov@gmail.com

Tel.: +998 91 558-96-69

UDK: 9:433:908

<https://orcid.org/0000-0002-8580-4299>

Kalit so‘zlar:

Samarqand, muqaddas qadamjolar, Registon, Shohi Zinda, Chokardiza, tarixiy-madaniy tahlil.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Samarqand shahrining ko‘p asrlik tarixiy-madaniy merosida muhim o‘rin tutuvchi Shohi Zinda majmuasi, Xoja Doniyor maqbarasi hamda Imom al-Buxoriy ziyoratgohining shakllanish jarayonlari tarixiy manbalar va xalq og‘zaki ijodidagi rivoyatlar asosida tahlil etilgan. Tadqiqotda sovet mustabid tuzumi davrida islomiy qadamjolarga nisbatan olib borilgan ateistik siyosat, ziyoratgohlarning faoliyatdan chetlatilishi va ularning madaniy qiyofasiga yetkazilgan zararlar arxiv materiallari asosida yoritib berilgan. Shuningdek, mustaqillik yillarida mazkur muqaddas maskanlarning qayta tiklanishi, ularning zamonaviy jamiyatda turizmni rivojlantirish, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya hamda milliy o‘zlikni anglashdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. Maqolada Samarqand ziyoratgohlari islom sivilizatsiyasining muhim tarixiy va madaniy meros ob’ekti sifatida kompleks tahlil qilinadi.

СВЯЩЕННЫЕ МЕСТА САМАРКАНДА: АНАЛИЗ С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО И КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ

Ключевые слова:

Самарканд, священные места, Регистан, Шахи-Зинда,

Аннотация:

В данной статье на основе исторических источников и преданий устного народного творчества анализируются процессы формирования комплекса Шахи Зинда, мавзолея Ходжи Данияра и святыни Имама аль-Бухари, занимающих важное место в многовековом



Чокардица,
историко-
культурный
анализ.

историко-культурном наследии города Самарканда. В исследовании на основе архивных материалов освещена атеистическая политика, проводимая в отношении исламских святынь в период советского тоталитарного режима, отстранение святынь от деятельности и ущерб, нанесенный их культурному облику. Также научно-теоретически обосновано возрождение этих священных мест в годы независимости, их значение в развитии туризма в современном обществе, духовно-просветительском воспитании и национальном самосознании. В статье комплексно анализируются места паломничества Самарканда как важный объект исторического и культурного наследия исламской цивилизации.

SACRED SITES IN SAMARKAND: ANALYSIS FROM THE POINT OF VIEW OF HISTORICAL AND CULTURAL HERITAGE

Keywords:

Samarkand,
sacred sites,
Registan,
Shahizinda,
Chokardiza,
historical and
cultural analysis.

Abstract: In this article, the processes of formation of the Shahi-Zinda complex, the mausoleum of Khoja Daniyar, and the shrine of Imam al-Bukhari, which occupy an important place in the centuries-old historical and cultural heritage of the city of Samarkand, are analyzed based on historical sources and legends of oral folk art. The study, based on archival materials, highlights the atheistic policy towards Islamic sites during the Soviet totalitarian regime, the removal of pilgrimage sites from activity, and the damage caused to their cultural appearance. Also, during the years of independence, the restoration of these sacred places, their importance in the development of tourism in modern society, spiritual and educational education, and national identity are scientifically and theoretically substantiated. The article comprehensively analyzes the pilgrimage sites of Samarkand as an important historical and cultural heritage object of Islamic civilization.

KIRISH

Samarqand shahri Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining qadimiy markazlaridan biri sifatida nafaqat o'zining betakror me'moriy obidalari, balki diniy-ma'naviy hayot bilan chambarchas bog'liq muqaddas qadamjolari orqali ham alohida tarixiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu qadamjolar asrlar davomida islom madaniyati, tasavvuf ta'limoti hamda xalq e'tiqodining shakllanishida muhim o'rin tutib kelgan. Bugungi kunda ularni tarixiy va madaniy meros nuqtai nazaridan ilmiy tahlil qilish, shuningdek, jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rnini aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Globalashuv jarayonlari va madaniy merosga bo'lgan xalqaro qiziqishning ortib borishi sharoitida Samarqanddagi muqaddas qadamjolarini tizimli o'rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maskanlar nafaqat diniy ziyorat ob'ektlari, balki tarixiy xotira, milliy o'zlik va madaniy identifikatsiyaning muhim unsuri sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu bois qadamjolarining kelib chiqishi, tarixiy shakllanish bosqichlari hamda madaniy funksiyalarini ilmiy asosda tahlil qilish zamonaviy tarixshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Mamlakatimizda tarixiy-madaniy merosni asrash, muqaddas qadamjolarini restavratsiya qilish va ularni turizm infratuzilmasiga integratsiya etish borasida olib borilayotgan davlat siyosati mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, Samarqand shahrining UNESCO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgani qadamjolarining tarixiy, diniy va madaniy qiymatini chuqurroq o'rganishni taqozo etadi. Bu esa ularning nafaqat tashqi me'moriy qiyofasini, balki ichki ma'naviy-ma'rifiy mazmunini ham ochib berishni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan, Samarqanddagi muqaddas qadamjolarini tarixiy va madaniy meros ob'ekti sifatida kompleks tahlil qilish ilmiy, amaliy hamda tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotlar yosh avlodda tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish, shuningdek, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik g'oyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada, ushbu mavzu bugungi ilmiy tadqiqotlar doirasida o'z dolzarbligini to'liq saqlab qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqotni olib borishda Samarqanddagi muqaddas qadamjolarining tarixiy va madaniy meros sifatidagi ahamiyatini yorituvchi yozma manbalar hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tahliliga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, M.A. Yunusov va M.M. Saidovlarning "O'zbekiston me'moriy yodgorliklari" nomli ilmiy-ommabop asari [1] Samarqand va umuman O'zbekiston hududidagi tarixiy obidalar, ularning shakllanish bosqichlari hamda madaniy ahamiyatini yoritishda muhim



manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu asarda keltirilgan ma‘lumotlar muqaddas qadamjolarining me‘moriy va tarixiy kontekstini aniqlashda asosiy ilmiy tayanch sifatida foydalanildi.

Samarqand tarixini o‘rganishda Abu Tohirxo‘ja Samarqandiyning “Samariya” asari [2] alohida ahamiyatga ega. Mazkur manbada shaharning qadimiy hududlari, mashhur tarixiy shaxslar bilan bog‘liq maskanlar hamda muqaddas qadamjolar haqidagi muhim tarixiy ma‘lumotlar jamlangan. Xususan, asarda keltirilgan ma‘lumotlar Samarqand va uning atroflaridagi muqaddas joylarning kelib chiqishi, ularning shakllanish jarayoni hamda ular bilan bog‘liq rivoyatlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida “Samariya” asarining turli nashrlari solishtirma tahlil qilinib, matnlar o‘rtasidagi mazmuniy uyg‘unlik va ayrim tafovutlar aniqlashtirildi.

Shuningdek, o‘rta asrlar ijtimoiy-madaniy an‘analarini yorituvchi manbalar ham tadqiqot uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, o‘sha davrda mashhur va e‘tiborli shaxslarni o‘z bog‘lari yoki maxsus ajratilgan hududlarda dafn etish an‘anasi mavjud bo‘lgani haqidagi ma‘lumotlar Xoja Abdu Berun va Imom Doramiy kabi tarixiy shaxslar misolida tahlil qilindi. Bu holat muqaddas qadamjolarining faqat diniy emas, balki ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ham shakllanganini ko‘rsatadi. Sh.S.Kamaliddinovning “Kitab al-ansab” asariga bag‘ishlangan tadqiqoti [5] esa Samarqand va Movarounnahr tarixining genealogik hamda madaniy jihatlarini chuqurroq anglash imkonini berdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi tarixiylik, tizimlilik hamda qiyosiy-tahliliy yondashuvlarga asoslandi. Muqaddas qadamjolar bilan bog‘liq yozma manbalar, tarixiy ma‘lumotlar va rivoyatlar o‘zaro solishtirilib, ularning shakllanish jarayoni hamda tarixiy haqiqat bilan bog‘liqligi tahlil qilindi. Xususan, Hazrati Hizr haqidagi diniy va folklor tasavvurlar manbalar asosida o‘rganilib, ularning ilmiy asoslangan jihatlari hamda ramziy-ma‘naviy talqinlari aniqlab berildi.

Bundan tashqari, Bulung‘ur tumani hududida joylashgan muqaddas maskanlar haqidagi geografik va tarixiy ma‘lumotlar umumiy tadqiqot doirasiga kiritilib, Samarqand qadamjolari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Zamonaviy ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan ilmiy-ommabop maqolalar, jumladan M.A. Yunusovning Xo‘ja Doniyor (Doniyor payg‘ambar) haqidagi ilmiy mulohazalari [9] ham qo‘shimcha manba sifatida foydalanildi. Mazkur metodologik yondashuv Samarqanddagi muqaddas qadamjolarini tarixiy va madaniy meros ob‘ektlari sifatida kompleks va tizimli o‘rganishga xizmat qildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Shayboniylar daxmasi Registon maydonining shimoli-sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, u dastlab Bibixonim Jome masjidiga olib boruvchi yo‘l yoqasida qad rostlagan Shayboniyxon madrasasi hududidan ko‘chirilgan. Abu Tohirxo‘janing yozishicha, mazkur madrasa Shayboniyxonning o‘g‘li Muhammad Temurxonning rafiqasi Mahdiulyo xonim tomonidan bunyod etilgan. Muhammad Temurxon otasi Shayboniyxonning jasadini keltirib shu yerda dafn ettirgach, madrasa Shayboniyxon madrasasi nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Mazkur daxma balandligi taxminan 2 metr bo‘lib, kulrang marmardan yasalgan parallelepiped shakliga ega. Daxma ustiga Shayboniylar sulolasi vakillarining nomlari bitilgan qabrtoshlar o‘rnatilgan. Sufa ostiga Shayboniyxon (hijriy 916 / 1510-yilda vafot etgan), Mahmud Sulton (hijriy 909 / 1503-1504-yillarda vafot etgan), Mahdiy Sulton va Hamza Sultonlar (hijriy 917 / 1511-yilda vafot etgan), Muhammad Temur Sulton (hijriy 920 / 1514-yilda vafot etgan), Qutluq Muhammad Sulton (hijriy 952 / 1545-yilda vafot etgan), Abulhayr Sulton (hijriy 917 / 1511-yilda vafot etgan), Yodgor Sulton (hijriy 933 / 1526-yilda vafot etgan), Shahribonu xonim (hijriy 942 / 1535-yilda vafot etgan), Shoh Sulton xonim (hijriy 937 / 1530-yilda vafot etgan) hamda Suyunch Muhammad Sulton (hijriy 994 / 1586-yilda vafot etgan)lar dafn etilgan [1].

Registon maydonida, Sherdor madrasasining kirish eshigi o‘ng tomonida joylashgan Imom Ja‘far Sodiq maqbarasi mazkur madrasa majmuasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Abu Tohirxo‘ja ma‘lumotlariga ko‘ra, Bahodir Yalangto‘sh Sherdor madrasasini Imom Ja‘far Sodiq sharafiga bunyod ettirgan [2].

Mazkur hududdagi yana bir muqaddas qadamjo – Abu Mansur al-Moturudiy maqbarasidir. Ushbu maqbara fiqh va kalom ilmining yirik namoyandasi, moturidiylik ta‘limoti asoschisi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturudiy as-Samarqandiy sharafiga 2000-yilda bunyod etilgan. Tarixiy manbalarda bu hudud ko‘proq “Chokardiza mozori” nomi bilan tilga olinadi.

Chokardiza qabristoni Islom olamida Madinadagi Boqi’ va Makkadagi Muallo qabristonlaridan keyin uchinchi sharaflı maqomda turadi. Bu yerda yuzlab ulug‘ allomalar, sayyidlar, shayxlar, imomlar va g‘oziylar dafn etilgan. Chokardiza qabristonining shakllanishi Samarqand tarixiga oid muhim manbalar sanalgan “Qandiya” va “Samariya” asarlarida qayd etilishicha, Imomi Zohid Abu Is‘hoq ibn Ibrohim Samosiyning nomi bilan bog‘liqdir [3, 38].

Manbalarga ko‘ra, Chokardiza hududida X asr boshlarida Abu Is‘hoq ibn Ibrohim Samosiyning bog‘i joylashgan bo‘lib, alloma vafot etgach, o‘z vasiyatiga



binoan ushbu bog‘ning eng baland nuqtasiga dafn etilgan. Keyinchalik mazkur bog‘ mashhur fiqhshunos olim Imom Abu Lays Samarqandiyning (vafoti 985-yil) tasarrufiga o‘tgan. Tarixchilarning qayd etishicha, Abu Lays Samarqandiy Abu Is‘hoq Samosiyning qizi tomonidan nabirasi bo‘lgan.

Ilmi kalom asoschisi Abu Mansur al-Moturidiy hamda ilmi hikmat asoschisi Imom Abul Qosim Samarqandiy (vafoti 953-yil) o‘z vasiyatlariga muvofiq Samosiy bog‘iga dafn etilgan. Keyinchalik Imom Abul Qosim Samarqandiy ham vafot etib, ushbu bog‘ga dafn etilgach, mazkur maskanning shuhrati ortib, tarixiy manbalarda u “Chokardiza” qabristoni nomi bilan tilga olinadigan bo‘ldi.

X asr o‘rtalaridan XI asr boshlariga qadar mazkur qabristonda dafn etilganlar soni nisbatan kam bo‘lgan. XII asrda yashagan mashhur hadisshunos va tarixchi as-Sam‘oniy o‘zining “Kitob ul-ansob” asarida qayd etishicha, asosiy dafn etishlar V hijriy (XI milodiy) asrga to‘g‘ri keladi [4]. Chokardiza qabristonining markaziy qismida “Talli as‘hob ul-hadis” (“Hadisshunoslar tepaligi”) deb atalgan hudud bo‘lib, uning o‘rtasida Imom al-Moturidiy va Imom Abul Qosim Samarqandiyning daxma-maqbarasi joylashgan.

Mazkur maqbaraga yaqin hududlarda Imom al-Kindiy (vafoti 1049-yil), Idrisiy (vafoti 1015-yil), Imom Nasafiy (vafoti 1142-yil), shuningdek, alloma Taftazoniy (vafoti 1389-yil) kabi mashhur imom va olimlar dafn etilgan. Ushbu zotlar Chokardiza qabristonida dafn etilgan eng e‘tiborli diniy va ilmiy arboblari hisoblanadi.

Bundan tashqari, 1141-yil 9-sentabrda Saljuqiylar hukmdori Sulton Sanjar hamda Qoraxoniylar hukmdori Mahmudxon boshchiligidagi qo‘shma harbiy kuchlar bilan Qoraxitoylar o‘rtasida “Dashti Qatvon” mavzeida bo‘lib o‘tgan jangda yuz minglab musulmonlar shahid bo‘lgan. Ularning bir qismi Chokardiza qabristoniga dafn etilgani bois, ko‘plab tarixiy manbalarda “Chokardizada minglab g‘oziylar va e‘tiqod yo‘lida jon fido qilgan shahidlarning tuprog‘i mujassam” ekani ta‘kidlanadi.

XX asrning birinchi choragiga kelib, mustabid tuzum davrida Chokardiza hududida musulmonlarni dafn etish qat‘iyan man etildi. 1948-yilga kelib esa qabriston butunlay buzilib, uning o‘rnida hovli-joylar barpo etila boshlandi. Qabrlar ustidagi qabrtoshlar uy-joy qurilishida poydevor material sifatida foydalanilgan.

1999-yil dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinishi Chokardiza qabristonini ilmiy jihatdan o‘rganish va Imom al-Moturidiy qabri joylashuvini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlarning boshlanishiga turtki bo‘ldi. Olib borilgan izlanishlar natijasida Chokardiza qabristonining umumiy maydoni 4,5 gektarni tashkil etishi, ayrim hududlarda qabrlar



5-6 qatlamga yetgani aniqlandi.

Shuningdek, XIV-XV asrlarda Sohibqiron Amir Temur tomonidan sayyidlar uchun qurdirilgan maqbara qoldiqlari, Imom al-Moturidiy qabri yonida qad rostlagan masjid poydevori, Imom al-Moturidiy hamda uning nabirasi Mahmud ibn Umar Hasan al-Moturidiy al-Ansoriyning qabrlari aniqlanib, ilmiy jihatdan o'rganildi. Arxeologik qazishmalar davomida shaxsi hozircha noma'lum bo'lgan 30 dan ortiq allomalarning qabrlari ustiga qo'yilgan qabrtoshlar ham topildi [5].

Tadqiqotlar yakunlangach, Chokardiza qabristoni ustida qurilgan bir qator hovli-joylar ko'chirildi va Imom al-Moturidiy qabri ustiga hashamatli maqbara bunyod etildi. Imom al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligi munosabati bilan 2000-yil 17-noyabrda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ushbu majmua tantanali ravishda ochildi. Natijada, ming yillik tarixga ega bo'lgan muqaddas Chokardiza qabristoni yana ziyoratchilar uchun ochildi.

Samarqand shahrining janubi-g'arbiy qismida joylashgan muqaddas qadamjolar orasida Amir Temur maqbarasi alohida ajralib turadi. XV asr boshlarida bunyod etilgan ushbu me'moriy yodgorlikda nafaqat O'rta Osiyo, balki jahon tarixida muhim o'rin egallagan buyuk shaxslar dafn etilgan bo'lib, u umumjahon ahamiyatiga ega tarixiy-ma'naviy majmua hisoblanadi [6].

Amir Temur maqbarasi 1403-yilda Sohibqiron Amir Temurning sevimli nabirasi, Jahongir Mirzoning farzandi Muhammad Sulton sharafiga bunyod etilgan. Muhammad Sulton 1399-yilda Kichik Osiyoga uyushtirilgan harbiy yurish arafasida Samarqand hokimi etib tayinlangan bo'lsa-da, 1401-yilda Amir Temur tomonidan mazkur yurishga chaqiriladi. U Kichik Osiyoga yetib borgan, biroq qaytish chog'ida kasallanib, 1403-yil 12-martda Qoraxisor yaqinida vafot etadi. Ushbu bevaqt vafot Amir Temurni chuqur iztirobga solib, butun qo'shin orasida umumiy motam e'lon qilinishiga sabab bo'ladi. Shu munosabat bilan askarlar ko'k va qora liboslar kiygan, hatto oq ot minish ham taqiqlangan.

Amir Temur Muhammad Sultonning jasadini 200 nafar otliq hamrohligida Arzirum yaqinidagi Onik shahriga olib keladi. Jasadni kuzatib boruvchilar ikki guruhga bo'linib, bir qismi Sultoniyadagi Hazrati Haydar qabristoniga vaqtincha dafn etish uchun yo'l oladi, ikkinchi guruh esa bo'sh tobut bilan Onik shahrida qoladi. Shu yerda shahzodaning xotirasiga bag'ishlab xudoyi marosimi o'tkaziladi. Bir yil o'tib, shahzodaning jasadi Sultoniyadan Samarqandga olib kelinib, avval mavjud bo'lgan xonaqohga dafn etiladi. Kichik Osiyo yurishidan qaytgan Amir Temur esa nabirasi sharafiga ulug'vor maqbara bunyod etishga farmon berib, 1404-yil kuzida qurilish ishlarini boshlab yuboradi [7].

Maqbara qurilishi Amir Temur vafotidan keyin ham davom ettiriladi. Chunki u



1405-yil qishida Xitoy yurishiga o'tlangan chog'ida og'ir kasallanib, O'tror shahrida vafot etadi. Temuriylar o'rtasidagi taxt uchun kurashlar sharoitida maqbara dastlab Xalil Sulton, keyinchalik esa Shohrux Mirzo davrida yakuniy me'moriy qiyofasini oladi. Maqbara ikki qavatli bo'lib, pastki qavatda sag'ana, yuqori qavatda esa ziyoratxona joylashgan. Ziyoratxona sakkiz qirrali dumaloq shaklda qurilib, uning ikki tomonida ulug'vor minoralar qad rostlagan. Mirzo Ulug'bek davrida maqbaraning sharqiy tomonida yangi kirish eshigi ochilib, u nafis naqshinkor yozuvlar bilan bezatilgan.

Maqbaraning ichki bezaklari o'zining yuksak badiiy saviyasi bilan ajralib turadi. Xususan, pastki devorlar ko'kimtir oniks toshidan ishlangan bo'lib, gumbaz ichida bir necha qatlam ipak matolar va zarhal ranglar qo'llanilgan. Yorug'lik rangdor oynali va panjarali darchalar orqali ichkariga tushadi [7].

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, maqbara ichida dastlab Xalil Sulton va Amir Temur dafn etilgan bo'lib, devorlarga Sohibqironning jangovar aslahalari osib qo'yilgan. Keyinchalik Shohrux Mirzo davrida ushbu buyumlar olib tashlangan. Sag'anada joylashgan haqiqiy qabrlar sodda uslubda bunyod etilgan bo'lsa, ziyoratxona hashamatli bezaklari bilan ajralib turadi. Maqbarada Temuriylar sulolasi vakillari va ularning yaqin qarindoshlari, shuningdek, Amir Temurning piri Mir Sayyid Baraka ham dafn etilgan. Tarixiy manbalarda Mir Sayyid Barakaning Amir Temur bilan bo'lgan yaqin munosabatlari, uning maslahat va duolari Temuriylar davlati boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etgani alohida ta'kidlanadi. Shu tariqa, Amir Temur maqbarasi nafaqat me'moriy va tarixiy obida, balki diniy, ma'naviy hamda siyosiy ahamiyatga ega markaz sifatida e'tirof etiladi.

XVI asrda Temuriylar hokimiyatining Shayboniylar tomonidan egallanishi natijasida Samarqanddagi Temuriylar davriga oid ko'plab me'moriy yodgorliklar qarovsiz qolgan. Tarixchi Malixonning yozishicha, XVII asrga kelib Amir Temur maqbarasi yonidagi madrasa va xonaqohlar vayrona holga kelgan. Hindiston hukmdori Avrangzeb (1658-1707) tomonidan xilxonani ta'mirlash uchun mablag' yuborilgan bo'lsa-da, uning katta qismi talon-toroj qilinib, faqat oz qismi amalda sarflangan. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Amir Temur maqbarasi qayta ta'mirlanib, XV asrga xos tarixiy qiyofasi tiklandi.

Shu bilan birga, maqbaraning sharqiy qismida joylashgan Oqsaroy maqbarasi ham Samarqandning janubi-g'arbiy hududiga mansub bo'lib, XV asrda Abu Said (1451-1469) va Sulton Ahmad Mirzo (1469-1494) hukmronligi davrida bunyod etilgan. Tadqiqotchilar Oqsaroy maqbarasini Temuriylar sulolasiga mansub erkaklar dafn etilgan maqbara sifatida baholaydilar [8].

Arxeolog M.Ye. Massonning tadqiqotlariga ko'ra, Oqsaroy maqbarasi



sagʻanasidagi qabrlarni oʻrganish jarayonida Mirzo Ulugʻbekning oʻgʻli Abdulatifning boshsiz jasadi aniqlangan. Maʼlumki, 1449-yilda Abdulatif oʻz otasi Mirzo Ulugʻbekning roziligi bilan oʻldirilgan, keyinchalik esa 1450-yilda Bobo Husayn Turkistoniy tomonidan qatl etilib, uning jasadi Registon maydonidagi Ulugʻbek madrasasi peshtogʻiga osib qoʻyilgan. Shu bois arxeologlar Abdulatif Oqsaroy maqbarasida boshsiz holda dafn etilgan degan xulosaga kelganlar.

Maqbara nomining kelib chiqishi aniq emas. Biroq M.Ye. Massonning fikricha, mazkur maqbara bunyod etilishidan avval bu hududda “Oqsaroy” nomli saroy mavjud boʻlgan va u vayronaga aylangach, uning nomi keyinchalik maqbaraga koʻchgan boʻlishi mumkin. XIX asr oxirlariga kelib Oqsaroy atrofida bir necha hovli-joylar barpo etilib, ayrimlari otxona sifatida foydalanilgan. Mustaqillik yillarida esa mazkur yodgorlikda keng koʻlamli restavratsiya ishlari amalga oshirilgan [8].

Samarqandning janubi-gʻarbiy hududida joylashgan Ruhobod maqbarasi XIV asrning 80-yillariga oid boʻlib, Afrosiyob xarobalari yaqinida joylashgan. Toʻrtburchak asosda qurilgan maqbara ustiga sakkiz qirrali qavat va gumbaz barpo etilgan. U Amir Temur hukmronligining dastlabki yillarida bunyod etilib, sodda meʼmoriy yechim va kamtarona bezaklari bilan ajralib turadi. Rivoyatlarga koʻra, maqbara qurilishi chogʻida Paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning muborak sochlaridan bir necha tolasini mis idishga solinib qoʻyilgan. Shu sababli mazkur obida xalq orasida “Ruhobod” nomi bilan mashhur boʻlgan.

Maqbaraga olib boruvchi yoʻlak yodgorliklarni oʻzaro bogʻlab, uning ikki tomoniga daraxtlar ekilgan, gʻarbiy qismida esa hovuz barpo etilgan. Shu hududda joylashgan yogʻoch shiftli masjid “Muyi muborak” nomi bilan tanilgan [9]. Ruhobod maqbarasi yonida tasavvuf namoyandasi Shayx Burhoniddin Sogʻarjiy va uning avlodlari dafn etilgan. Shayx XIV asrda yashab, haj safaridan qaytgach Samarqandga kelgan va shu yerda vafot etib, mazkur maqbaraga dafn etilgan.

Shu tariqa, Samarqand shahridagi muqaddas qadamjolar – Amir Temur, Oqsaroy va Ruhobod maqbaralari – tarixiy shaxslar, diniy yetakchilar hamda Temuriylar sulolasi faoliyati bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, shahar madaniy merosining ajralmas qismi sifatida qadrlanadi.

Shahar shakllangan dastlabki davrlardan boshlab Hazrati Xizr masjidi Samarqanddagi muqaddas qadamjoldan biri hisoblangan. Mazkur obida shahar darvozasi oldida joylashgani bois, Baqtriya, Hindiston va Erondan kelgan savdo karvonlari aynan shu yoʻl orqali shaharga kirgan. Masjid yaqinidan oqib oʻtgan Joʻi Arziz suvi inshooti esa shahar hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Arablar Samarqandga kelgach, Hazrati Xizr masjidining nufuzidan oʻz manfaatlarini yoʻlida foydalanganlar. Rivoyatlarga koʻra, Hazrati Xizr barcha yoʻlovchilar va



musofirlarning piri sifatida e'tirof etilgan [9].

Masjid turli davrlarda bir necha bor qayta tiklangan. Amir Muzaffarxon (1860–1885) hukmronligi davrida vayronaga aylangan bino qayta qurilgan. Hozirgi masjid XIX asr o'rtalarida qadimgi masjid poydevori ustida bunyod etilib, keyinchalik bir necha bor ta'mirlangan. Masjid supasimon tabiiy asosda qad rostlagan bo'lib, xonaqoh kvadrat shaklda, gumbazining ichki bezaklari esa chala qolgan. Peshayvon va darvozaxona minora bilan uyg'unlashgan holda barpo etilib, ustunlar o'ymakor naqshlar va gumbazlar bilan bezatilgan. Inshoot tarkibida xonaqoh, shohni-shin xonasi, peshayvon va minora mavjud bo'lib, XIX asr oxirlarida bir necha bor qayta ta'mirlangan. Masjid davlat muhofazasiga olingan va 1967-yildan boshlab restavratsiya ishlari olib borilgan, 2005-yilda esa to'liq qayta ta'mirlangan.

Samarqandning shimoliy-sharqiy hududida joylashgan yana bir muqaddas qadamjo – Shayx Nuriddin Basir ziyoratgohidir. U XII asrda Toshkentda tavallud topib, Samarqandda murshidlik faoliyati bilan mashhur bo'lgan. 1242-yilda vafot etgan Shayx Nuriddin Basir Novadon bulog'i tepaligida dafn etilgan. Amir Temur mazkur qabrni ziyorat qilib, uning ustiga gumbazli bino qurdirgan. 1868-yilda rus istilosi davrida maqbara talon-toroj qilinib, Shayx Nuriddin Basirning jasadi boshqa joyga ko'chirilgan. 1997-yilda esa avlodlari mablag'i hisobiga maqbara qayta tiklangan [8].

Shimoliy-sharqiy hududdagi yana bir muqaddas qadamjo Xo'ja Doniyor mozori bo'lib, u Afrosiyob shaharchasining sharqiy qismida joylashgan. Doniyor payg'ambar (miloddan avvalgi 603-534-yillar) yahudiy xalqiga mansub bo'lib, uning qabri bilan bog'liq turli rivoyatlar mavjud. Ayrim manbalarga ko'ra, Amir Temur yetti yillik yurishi chog'ida Doniyor payg'ambarning qabridan nishona olib kelgan bo'lsa, boshqa qarashlarga ko'ra, mazkur mozor Hazrat Shoh Qusam ibn Abbas izdoshlariga tegishli. Qabrning oyoq tomoni qiblaga – janubi-g'arbga qaratilgani qadimgi yahudiy an'analari va turkiy hurmat tamoyillari uyg'unligini aks ettiradi. XX asr boshlarida mazkur maqbara usta Abdulqodir Choldivor tomonidan bunyod etilgan [9].

Shohizinda ansambli Samarqandning shimoliy-sharqiy hududidagi eng ko'rkam va mashhur muqaddas qadamjo hisoblanadi. U nafaqat O'zbekistonda, balki butun O'rta Osiyo miqyosida yirik ziyoratgoh sifatida tanilgan. Ansambl Afrosiyob xarobalarining janubiy qismida joylashgan bo'lib, XI-XIX asrlar davomida bosqichma-bosqich shakllangan. Mazkur majmuadagi eng qadimgi qabr Qusam ibn Abbasga tegishli bo'lib, uning maqbarasi XI asrda bunyod etilgan. XIV asrda mo'g'ullar istilosi oqibatida vayron bo'lgan maqbaralar Temuriylar davrida qayta tiklangan. "Shohizinda" atamasi "Barhayot shoh" ma'nosini anglatib, ushbu ansambl

qariyb ming yildan buyon musulmon tarixchilari va ziyoratchilari tomonidan yuksak ehtirom bilan ziyorat qilib kelinmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Samarqand shahridagi shimoliy-sharqiy muqaddas qadamjolar shahar tarixining qadimiy va diniy merosini aks ettiradi. Hazrati Xizr masjidi shahar darvozasi yaqinida joylashgan bo'lib, tarixan karvonlar va sayyohlar uchun muqaddas ziyoratgoh sifatida xizmat qilgan. Masjidning Jo'i Arziz suv quvuri bilan bog'liqligi va arxitektura xususiyatlari shahar hayoti va dini qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. XIX asrda va keyinchalik amalga oshirilgan ta'mirlash ishlari masjidning tarixiy qiyofasini saqlab qolishga xizmat qilgan.

Shayx Nuriddin Basir ziyoratgohi Samarqand shahrida islom ilmiy-merosi va murshidlik an'analarini namoyon qiladi. Shayxning maqbarasi Amir Temur davrida qayta tiklanib, gumbazli bino bilan mustahkamlangan. XIX asr oxirida rus istilosi va talon-taroj jarayonlarida maqbara zarar ko'rgan bo'lsa-da, mustaqillik davrida avlodlar mablag'i bilan qayta bunyod etilgan. Bu ansambl diniy obidalar bilan bir qatorda, shaharning arxitektura merosini saqlash va qadrlash nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Xo'ja Doniyor mozori va Doniyol payg'ambar qabriga oid rivoyatlar esa shaharning diniy-tarixiy qatlamlarini yanada boyitadi. Turli manbalar Doniyol payg'ambar qabrining kelib chiqishi va Amir Temur bilan bog'liqligi haqida farqli fikrlarni taqdim etsa-da, ushbu mozor qadimiy ziyoratgoh sifatida O'rta Osiyo xalqlari tomonidan qadrlangan. Qabrning qiblagaga mos joylashuvi va qadimiy yahudiy an'anasi, shuningdek turkiy hurmat qadriyatlari uning tarixiy va dini ahamiyatini kuchaytiradi.

Shohizinda ansambli esa Samarqanddagi shimoliy-sharqiy hududning eng mashhur ziyoratgohi sifatida ajralib turadi. XI-XIX asrlar davomida shakllangan ansambl temuriylar davrida rivojlanib, allomalar, avliyolar va malikalarning oromgohi bo'lgan. Ansamblning arxitektura va ziyorat xususiyatlari, jumladan Qusam ibn Abbos maqbarasi, Samarqand shahrining diniy va madaniy merosini yanada boyitadi va uni nafaqat mahalliy, balki mintaqaviy miqyosda qadrlashga imkon beradi.

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlash natijasida mavzu tadqiq qilinib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Samarqand shahridagi Hazrati Xizr masjidi, Shayx Nuriddin Basir ziyoratgohi, Doniyol payg'ambar qabr va Shohizinda ansambli kabi muqaddas



qadamjolar muntazam saqlanishi va restavratsiya qilinishi lozim. Bu yodgorliklar tarixiy meros sifatida nafaqat mahalliy, balki xalqaro ahamiyatga ega.

2. Maqbaralar va ziyoratgohlar tarixi bo'yicha yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish, arxiv hujjatlari, qadimiy qo'lyozmalar va arxeologik ma'lumotlarni tahlil qilish tavsiya etiladi. Bu orqali tarixiy aniq ma'lumotlar aniqlanib, qarama-qarshi rivoyatlar yechim topadi.

3. Muqaddas qadamjolar atrofida madaniy-tarixiy turizmni rivojlantirish, ziyoratgohlarni mahalliy va xalqaro turistlar uchun qulay qilish zarur. Shu bilan birga, tarixiy ahamiyat va dini qadriyatlarni tushuntiruvchi ekskursiyalar va ma'lumot markazlari tashkil etilishi foydali bo'ladi.

4. Tarixiy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya jarayonida mahalliy aholi, diniy yetakchilar va jamoatchilikni jalb etish muhimdir. Bu nafaqat saqlash ishlarini sifatli amalga oshirishga yordam beradi, balki merosga hurmat va e'tibor madaniyatini shakllantiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Юнусов М. А., Саидов М. М. Ўзбекистон меъморий ёдгорликлари : илмий-оммабоп нашр. – Тошкент, 2018. – Б. 46.
2. Абу Тоҳирхўжа Самарқандий. Самария. – Тошкент. 1991. – Б. 28.
3. Камалиддинов Ш. С. «Китаб ал-ансаб» Абу Саъда Абдал Карима ибн Мухаммада ас-Самъоний асари Ўрта Осиё тарихи ва маданияти манбаи сифатида. – Тошкент, 1993. – Б. 91.
4. Samarqand tarixi [1-tom] – Toshkent. :Fan, 1971. – В. 214.
5. Абу Тоҳирхўжа Самарқандий. Самария. – Тошкент, 1991. – Б. 37-40.
6. Жиянов Ў.П., Худойназаров Ю.Р. “Ўзбекистон-зиёрат туризм марказларидан бири”. Буюк ипак йўли чоррахасида зиёрат туризмнинг ренессанси (илмий мақолалар тўплами). С.: 2019 й. – Б. 192.
7. Давлетшина Л. Х. «Хызыр Ильяс» в традиционной культуре татар // Вестник Башкирск. ун-та : журнал. – Уфа, 2011. Т. 16, № 3. ISSN 1998-4812.
8. Юнусов М. А. Хо‘жа Дониёрми ёки Дониёл пайғамбар? – URL: https://uza.uz/uz/posts/hozha-doniyormi-yoki-doniyol-paygambar_306761

IJTIMOIY FANLAR

ЭВФЕМИЗАЦИЯ ТЕМ СМЕРТИ И БОЛЕЗНИ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

КИМ МАРИНА АЛЕКСЕЕВНА

Денауского института предпринимательства и педагогики

Преподаватель кафедры “Русского языка и литературы”

Email: marinakim2503@gmail.com

УДК: 811.161.1'37

<https://orcid.org/0000-0003-1594-6459>

ЗИЁЕВА МАХФУЗА ЭРГАШ КИЗИ

Денауского института предпринимательства и педагогики

Студентка 4 курса кафедры “Русского языка и литературы”

Email: ziyoyevamaxfuza00@gmail.com

Ключевые слова: эвфемизм, смерть, болезнь, табу, русский язык, лексика, коннотация, прагматика, семантика, речевой этикет.

Аннотация: В данной статье проводится комплексный анализ явления эвфемизации в рамках двух семантически значимых областей русского языка – темы смерти и болезни. В ходе исследования лексические и фразеологические единицы изучаются на основе семантико-прагматического подхода, и определяются стратегии замены прямых названий относительно мягкими, нейтральными или культурно приемлемыми выражениями. Также анализируется функция эвфемизмов как средства поддержания норм речевого этикета, снижения психологического напряжения в коммуникативном процессе и обеспечения деликатности в социальных отношениях. Результаты исследования показывают, что частота и характер эвфемистических замен определяются не только лингвистическими факторами, но и культурными ценностями и социальной динамикой общества.

EUPHEMIZATION OF THE THEMES OF DEATH AND DISEASE IN THE RUSSIAN LANGUAGE

Keywords: euphemism, death,

Abstract: In this article, the phenomenon of euphemization is comprehensively analyzed within the framework of two



disease, taboo, Russian language, lexis, connotation, pragmatics, semantics, speech etiquette.

semantically significant areas of the Russian language – the themes of death and disease. In the research process, lexical and phraseological units are studied based on a semantic-pragmatic approach, and strategies for replacing direct names with relatively soft, neutral, or culturally acceptable expressions are determined. Also, the function of euphemisms as a means of maintaining the norms of speech etiquette, reducing psychological tension in the communicative process, and ensuring politeness in social relations is analyzed. The research results show that the frequency and nature of euphemistic substitutions are determined not only by linguistic factors, but also by the cultural values and social dynamics of society.

RUS TILIDA O‘LIM VA KASALLIK MAVZULARINING EVFEMIZATSIYASI

Kalit so‘zlar:

evfemizm, o‘lim, kasallik, tabu, rus tili, leksika, konnotatsiya, pragmatika, semantika, nutq etiketi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada rus tilining semantik jihatdan muhim ahamiyatga ega ikki sohasi – o‘lim va kasallik mavzulari doirasida evfemizatsiya hodisasi kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida leksik hamda frazeologik birliklar semantik-pragmatik yondashuv asosida o‘rganilib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri nomlanishlarni nisbatan yumshoq, neytral yoki madaniy jihatdan maqbul ifodalar bilan almashtirish strategiyalari aniqlanadi. Shuningdek, evfemizmlarning nutq etiketi me‘yorlarini saqlash, kommunikativ jarayonda psixologik taranglikni kamaytirish hamda ijtimoiy munosabatlarda delikatlikni ta‘minlash vositasi sifatidagi funksiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari evfemistik almashtirishlarning qo‘llanish chastotasi va xarakteri nafaqat lingvistik omillar, balki jamiyatning madaniy qadriyatlari hamda ijtimoiy dinamikasi bilan ham belgilanishini ko‘rsatadi.



ВВЕДЕНИЕ

Язык обладает способностью не только отражать объективную действительность, но и моделировать её восприятие в сознании носителей. Одним из наиболее показательных проявлений данной функции является эвфемизация – процесс замены прямых, потенциально травмирующих, табуированных или социально нежелательных наименований более мягкими, нейтральными либо культурно приемлемыми выражениями. Особенно отчётливо эта тенденция проявляется в тематических зонах, традиционно относимых лингвокультурологами к числу первичных табуированных сфер, в сфере смерти и болезни.

В современном русском языке вокруг понятий смерти и болезни сформировался разветвлённый корпус эвфемистических средств, включающий лексические, фразеологические и перифрастические единицы, функционирующие в различных коммуникативных контекстах. Одни из них прочно укоренились в повседневной разговорной речи («ушёл из жизни», «преставился», «нехорошо себя чувствую»), другие закрепились в профессиональном медицинском, юридическом и административном дискурсе («летальный исход», «терминальная стадия», «выбыл»). Это свидетельствует о том, что обращение к эвфемизмам не носит случайного характера, а представляет собой системно организованный механизм речевого поведения, регулируемый нормами этикета и социальными установками.

Актуальность настоящего исследования обусловлена рядом взаимосвязанных факторов. Во-первых, несмотря на значительный интерес лингвистов к общей теории эвфемии, специфика её реализации в тематических сферах смерти и болезни в современном русском языке остаётся недостаточно систематизированной. Во-вторых, в условиях трансформации публичного дискурса, роста внимания к этике речевого взаимодействия и повышенных требований к корректности высказываний в медиaprостранстве проблема эвфемистической номинации приобретает не только теоретическое, но и прикладное значение. В-третьих, данная тематика представляет особый интерес в аспекте преподавания русского языка как иностранного, поскольку изучающие язык нередко испытывают затруднения при интерпретации и употреблении эвфемистических единиц вследствие их высокой культурной маркированности.

Объектом исследования является эвфемистическая лексика и фразеология современного русского языка, функционирующая в тематических сферах смерти и болезни. Предмет исследования составляют семантические,



прагматические и структурные характеристики данных единиц, а также закономерности их употребления в различных типах дискурса.

Цель исследования заключается в выявлении и системном описании основных стратегий эвфемизации в указанных тематических областях. Для достижения поставленной цели предполагается решение следующих задач: определить понятийные границы эвфемизма и разграничить его со смежными явлениями; классифицировать эвфемистические единицы, связанные с темами смерти и болезни; проанализировать прагматические условия их функционирования; выявить социокультурные и психологические факторы, обуславливающие выбор эвфемистических замен; обосновать значимость изучаемого явления для методики преподавания русского языка как иностранного.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Методологическую основу исследования составляет комплекс взаимодополняющих подходов и методов. В качестве теоретической базы используются положения лингвокультурологии, прагмалингвистики и когнитивной лингвистики, позволяющие рассматривать эвфемизм не только как лексическую единицу, но и как коммуникативную стратегию, обусловленную культурными установками и психологическими механизмами говорящего.

Эмпирическую основу исследования составляет корпус эвфемистических единиц, собранный методом сплошной выборки из толковых и фразеологических словарей русского языка, текстов медицинских консультаций, газетных и журнальных публикаций, а также материалов устной повседневной коммуникации.

В работе применялись следующие методы:

1. описательный метод – для систематизации и характеристики выявленных единиц;
2. контекстуальный анализ – для изучения условий функционирования единиц в речи;
3. компонентный анализ семантики – для выявления механизмов переосмысления прямых номинаций;
4. сопоставительный метод – при разграничении эвфемизмов, дисфемизмов и нейтральных номинаций.

Совокупность этих методов обеспечивает многоаспектное описание исследуемого явления и позволяет выйти за рамки простой инвентаризации



эвфемизмов, переходя к выявлению закономерностей их образования и употребления.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Эвфемизм как языковое явление изучался в рамках различных лингвистических традиций, однако единого определения до сих пор не выработано. В наиболее широком понимании эвфемизм трактуется как слово или выражение, которое заменяет прямое, нейтральное или грубое наименование нежелательного объекта, действия или явления с целью сокрытия или смягчения неприятного смысла. При этом, как отмечает Л.П. Крысин, «эвфемизм – это не просто приятное слово для неприятного понятия, а специфическое коммуникативное явление, функционирование которого определяется прагматическими установками говорящего и ожиданиями адресата» [4, 67].

Принципиально важно разграничивать эвфемизм и смежные явления: дисфемизм (намеренное огрубление), перифраз (описательная замена без обязательного смягчения) и мелиоратив (слово с улучшенной коннотацией). Эвфемизм отличается от них целевой установкой: его основная прагматическая функция – снижение коммуникативной «остроты» высказывания при сохранении его информативности. Данная функция особенно востребована именно в тех случаях, когда речь идёт о смерти или болезни – двух темах, которые в большинстве культур относятся к числу социально табуированных или, по меньшей мере, деликатных.

Тема смерти занимает особое место среди табуированных сфер языка. В русской лингвокультуре она окружена плотным слоем эвфемистических замен, восходящих к различным культурным пластам: религиозному, народному, книжному. Анализ фактического материала позволяет выделить несколько ключевых стратегий, реализующихся в данной тематической области.

Первая стратегия – нейтрализация через глаголы перемещения. В русском языке широко употребляются конструкции, в которых смерть представляется как движение или переход: «уйти», «уйти из жизни», «покинуть этот мир», «отправиться в мир иной», «перейти в лучший мир». Данный тип эвфемизации опирается на метафору пути и перемещения в пространстве, что позволяет избежать прямого именованя смерти и одновременно апеллировать к религиозным представлениям о посмертном существовании. Как отмечает В.П. Москвин, подобные единицы представляют смерть как «смену местопребывания», снижая тем самым её семантическую финальность [6, 93].

Вторая стратегия связана с использованием церковнославянизмов и религиозной лексики: «преставиться», «почить», «отойти ко Господу», «отдать душу Богу», «успокоиться», «испустить дух». Эти единицы несут в себе отчётливую коннотацию покоя и завершённости, что позволяет переосмыслить смерть не как трагический конец, а как переход к иному состоянию. Они широко используются в некрологах, поминальных текстах и официальных сообщениях об утрате, формируя особый регистр «торжественного прощания».

Третья стратегия – терминологизация и деиндивидуализация преобладает в официально-деловом и медицинском дискурсе: «летальный исход», «наступление смерти», «скончаться», «выбыть», «не стало» (в бюллетенях и документах), «смерть констатирована». Данные единицы снижают эмоциональную нагрузку высказывания за счёт перевода события в категорию статистического факта или медицинской констатации, что, однако, может восприниматься адресатом как холодность или дистанцированность. По наблюдению И.Р. Гальперина, подобная «технизация» языка смерти нередко выполняет защитную функцию для самого говорящего — например, для медицинского работника, вынужденного регулярно сообщать плохие новости [2, 144].

Четвёртая стратегия – литотная и апофатическая номинация строится на отрицании жизни или здоровья: «его больше нет», «не стало», «лишился жизни», «жизнь оборвалась». Данные конструкции косвенно указывают на факт смерти, избегая самого слова, и часто встречаются в публицистических некрологах и разговорной речи при сообщении тяжёлых новостей близким людям.

Тематическая область болезни не менее богата эвфемистическими ресурсами, хотя механизмы их формирования несколько отличаются от «смертных» эвфемизмов. Табуированность болезни обусловлена иначе: не столько финальностью события, сколько страхом заражения, ассоциациями с немощью и потерей социального статуса. Это определяет специфику эвфемистических замен в данной области.

В бытовой речи болезнь нередко обозначается через занижение её значимости: «немного прихворнуть», «быть не в форме», «неважно себя чувствовать», «что-то нездоровится», «сердечко пошаливает». Эти конструкции характерны для ситуаций, когда говорящий не желает вызывать тревогу или привлекать излишнее внимание к своему состоянию. Уменьшительные формы («сердечко», «головка болит») подчёркивают стремление снизить серьёзность симптома в глазах собеседника. По мнению Н.Д. Арутюновой, подобная



минимизация тяжести болезни представляет собой одну из форм «защитного эвфемизма», функционирующего в сфере самопрезентации [1, 55].

В медицинском дискурсе, напротив, эвфемизация нередко строится на латинизации или терминологизации: «новообразование» вместо «рак», «нарушение мозгового кровообращения» вместо «инсульт», «онкология», «диагноз» (без уточнения), «нехорошая болезнь», «специфическое заболевание» (о венерических болезнях). Терминологические эвфемизмы выполняют двойную функцию: с одной стороны, они снижают психологическую нагрузку на пациента, с другой – создают дистанцию между врачом и болезнью, что позволяет специалисту сохранять профессиональную объективность.

Отдельную группу составляют эвфемизмы для психических расстройств. Стигматизация психических заболеваний в культуре исторически приводила к формированию особенно богатого слоя косвенных номинаций: «не в себе», «со странностями», «нервный», «не совсем здоров», «лечится» (без уточнения), «с ним что-то не так». Примечательно, что по мере снижения социальной стигмы и распространения психологической грамотности часть этих эвфемизмов постепенно уступает место более прямым, но нейтральным наименованиям («депрессия», «тревожное расстройство»), что свидетельствует о динамическом характере эвфемистических систем.

Выбор между прямой номинацией и эвфемизмом не является произвольным: он определяется совокупностью прагматических факторов, среди которых ключевую роль играют характер отношений между участниками коммуникации, тип речевой ситуации, социальный статус говорящего и адресата, а также общий коммуникативный контекст. В ситуации сочувствия или утешения говорящий почти неизбежно прибегает к эвфемизмам: «вы потеряли близкого человека», «он ушёл», «ей сейчас очень тяжело» – даже если по существу речь идёт о смерти или тяжёлой болезни.

Важно учитывать, что эвфемизм функционирует не только как средство вежливости, но и как инструмент управления вниманием адресата. С.Г. Тер-Минасова, рассматривая взаимосвязь языка и культуры, подчёркивает, что «отношение к смерти и болезни в русской культуре несёт отпечаток не только православной традиции, но и советского наследия, при котором открытое обсуждение этих тем было социально нежелательным» [8, 211]. Это объясняет, почему в русском языке столь широко представлены именно «замалчивающие», а не «украшающие» эвфемизмы: говорящий стремится не столько облагородить смерть, сколько уйти от прямого упоминания.



Немаловажен и возрастной фактор: речь пожилых носителей языка, как правило, насыщена традиционными религиозными и народными эвфемизмами («Бог прибрал», «помер», «преставился»), тогда как молодёжная коммуникация тяготеет либо к нейтральным формулировкам, либо к разговорным сниженным выражениям, в которых эвфемистический потенциал ослаблен. Это свидетельствует о поколенческой дифференциации эвфемистических ресурсов и о том, что эвфемизм является не статичным, а исторически и социально изменчивым явлением.

Публицистический и медийный дискурс занимает особое место в системе эвфемизации данных тем. В некрологах, сообщениях о гибели публичных лиц и официальных медицинских сводках наблюдается устойчивое использование формул типа «скончался после продолжительной болезни», «ушёл из жизни», «не стало выдающегося учёного». Данные клише, с одной стороны, выполняют этикетную функцию, с другой – могут служить средством намеренного умолчания: так, формула «продолжительная болезнь» нередко выступает эвфемизмом для онкологического диагноза, не называя его прямо.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведённый анализ позволяет сформулировать ряд обобщающих выводов. Эвфемизация тем смерти и болезни в русском языке представляет собой системно организованный процесс, в котором задействованы разнообразные лингвистические механизмы: метафоризация, терминологизация, литотная номинация, апофатические конструкции, религиозная лексика. Каждая из стратегий ориентирована на определённый тип коммуникативной ситуации и социальный контекст, что подтверждает прагматическую природу эвфемизма.

Установлено, что в сфере смерти преобладают эвфемизмы перемещения и религиозного характера, тогда как в сфере болезни – стратегии минимизации и терминологической дистанцированности. При этом выбор конкретного эвфемизма определяется не только типом ситуации, но и возрастными, профессиональными и субкультурными характеристиками говорящего.

Исследование подтверждает, что эвфемизм является одновременно лингвистическим и социокультурным феноменом, отражающим ценностные установки общества и механизмы его психологической защиты. В условиях изменяющегося публичного дискурса и повышения коммуникативной осознанности часть традиционных эвфемизмов утрачивает свою функцию, уступая место новым формам непрямого номинации.



С методической точки зрения включение материала об эвфемизации в курс русского языка как иностранного представляется не только желательным, но и необходимым. Владение эвфемистическими ресурсами языка является неотъемлемым компонентом социокультурной и прагматической компетенции, без которой полноценная коммуникация на русском языке в ситуациях, связанных с темами смерти и болезни, оказывается существенно затруднённой. Обучающиеся должны не только знать конкретные единицы, но и понимать, в каких ситуациях их использование уместно, а прямая номинация – нет.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С. 895.
2. Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – С. 140.
3. Кацев А. М. Языковое табу и эвфемия. – Л.: ЛГПИ, 1988. – С. 80.
4. Крысин Л. П. Эвфемизмы в современной русской речи // Русское слово, своё и чужое. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – С. 62-86.
5. Ларин Б. А. Об эвфемизмах // История русского языка и общее языкознание. – М.: Просвещение, 1977. – С. 101-114.
6. Москвин В. П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка. – Волгоград: Перемена, 1999. – С. 59.
7. Сенчикова Е. П. Эвфемизмы русского языка: спецкурс. – М.: Флинта; Наука, 2012. – С. 120.
8. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2000. – С. 264.
9. Шейгал Е. И. Семиотика политического дискурса. – М.: Гнозис, 2004. – С. 324.
10. Holder R. W. A Dictionary of Euphemisms. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – P. 501.
11. Allan K., Burrige K. Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon. – New York: Oxford University Press, 1991. – P. 263.



IJTIMOIIY FANLAR

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH (O‘ZBEKISTON BANK TIZIMI MISOLIDA)

MELIKOV OTABEK MAXMADAMINOVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Moliya va bank ishi” kafedrasini mudiri

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Email: o.melikov@dtpi.uz

UDK: 336.71:336.77(575.1)

<https://orcid.org/0009-0006-1518-4107>

XURRAMOVA FOTIMA BAHODIR QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Moliya va bank ishi” kafedrasini 3-bosqich talabasi

Email: fotimakhon005@gmail.com

Kalit so‘zlar:

kredit riski,
tijorat banklari,
risk-menejment,
muammoli kreditlar,
bank barqarorligi,
Bazel standartlari.

Annotatsiya:

Mazkur ilmiy maqolada tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish mexanizmlarining nazariy asoslari va amaliy jihatlari keng qamrovda yoritilgan hamda ularni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari asoslab berilgan. Tadqiqot O‘zbekiston bank tizimi misolida olib borilib, kredit risklarining banklarning moliyaviy barqarorligi, likvidligi va kapitallashuv darajasiga ta’siri real ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakat bank amaliyotida kredit portfeli sifati, muammoli kreditlar dinamikasi va risklarni baholash jarayonidagi mavjud kamchiliklar ochib berilgan. Olib borilgan tahlillar natijasida kredit risklarini samarali boshqarish, bank aktivlari sifatini oshirish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan aniq ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМИ РИСКАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ (НА ПРИМЕРЕ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА)

Ключевые слова: **Аннотация:** В данной научной статье широко освещены

кредитный риск,
коммерческие
банки, риск-
менеджмент,
проблемные
кредиты,
устойчивость
банков,
стандарты Базель.

теоретические основы и практические аспекты механизмов управления кредитными рисками в коммерческих банках, а также обоснованы приоритетные направления их совершенствования. Исследование проводилось на примере банковской системы Узбекистана, влияние кредитных рисков на финансовую устойчивость, ликвидность и уровень капитализации банков анализировалось на основе реальных показателей. Также были выявлены существующие недостатки в банковской практике страны в отношении качества кредитного портфеля, динамики проблемных кредитов и процесса оценки рисков. В результате проведенного анализа разработаны конкретные научно-практические предложения и рекомендации, направленные на эффективное управление кредитными рисками, повышение качества банковских активов и укрепление финансовой устойчивости.

IMPROVEMENT OF CREDIT RISK MANAGEMENT MECHANISMS IN COMMERCIAL BANKS (ON THE EXAMPLE OF THE BANKING SYSTEM OF UZBEKISTAN)

Keywords: credit risk, commercial banks, risk management, non-performing loans, bank stability, Basel standards.

Abstract: This scientific article comprehensively covers the theoretical foundations and practical aspects of credit risk management mechanisms in commercial banks and substantiates priority areas for their improvement. The study was conducted using the example of the banking system of Uzbekistan, and the influence of credit risks on the financial stability, liquidity, and capitalization of banks was analyzed based on real indicators. Also, existing shortcomings in the country's banking practice in the quality of the loan portfolio, the dynamics of problem loans, and the risk assessment process are revealed. As a result of the analysis, specific scientific and practical proposals and recommendations aimed at effective management of credit risks, improving the quality of bank assets, and strengthening financial stability have been developed.



KIRISH

Bugungi globallashtirilgan iqtisodiy muhitda moliya tizimining barqarorligi tobora ko‘proq tijorat banklari faoliyatida yuzaga kelayotgan risklarning tabiati hamda ularni boshqarish samaradorligiga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, zamonaviy bank faoliyatida risklarning nafaqat hajmi, balki murakkabligi ham ortib borayotgani moliyaviy barqarorlikka tizimli tahdid sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayon O‘zbekiston bank tizimi uchun alohida dolzarblik kasb etadi, chunki tijorat banklari aktivlarining asosiy qismini kredit portfeli tashkil etadi va aynan shu yo‘nalish banklarning riskga eng yuqori darajada ta’sirchan segmenti hisoblanadi

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, har bir kredit operatsiyasi o‘z mohiyatiga ko‘ra ko‘p qirrali risklarni mujassam etadi. Xususan, kredit riski bilan bir qatorda likvidlik riski, foiz stavkasi riski hamda operatsion risklarning o‘zaro ta’siri bank faoliyatining umumiy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, kredit risklarini faqat an’anaviy nazorat qilish bilan cheklanib qolish yetarli emas; aksincha, ularni erta aniqlash, kompleks baholash va proaktiv boshqarish zamonaviy bank menejmentining ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda.

Mazkur masalaning strategik ahamiyati davlat darajasida ham e’tirof etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi”da kredit portfeli va risklarni boshqarish sifatini oshirish, shuningdek, kreditlash hajmlarini mo‘tadil o‘sish sur’atida saqlash respublika bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan [1].

Bu esa tijorat banklarida kredit riskini boshqarish masalasi oddiy operatsion vazifa emas, balki moliyaviy barqarorlikni ta’minlovchi strategik boshqaruv mexanizmi ekanligini anglatadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – O‘zbekiston bank tizimi misolida tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish mexanizmlarining amaldagi holatini tahlil qilish hamda ularni takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy yondashuv va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish masalasi bank nazariyasi va amaliyotida eng ko‘p o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar hamda yetakchi olimlar kredit riskini bank barqarorligiga bevosita ta’sir etuvchi asosiy omil sifatida baholab, uni samarali boshqarish mexanizmlarini shakllantirish zarurligini ta’kidlaydilar. Xususan, Bazil qo‘mitasi tomonidan ishlab

chiqilgan Bazel II va Bazel III standartlarida kredit riskini aniqlash, baholash va monitoring qilish bank risk-menejmentining markaziy elementi sifatida talqin etiladi. Ushbu standartlarga ko'ra, banklar kredit risklarini boshqarishda nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarga, balki qarz oluvchining xulq-atvori, bozor sharoitlari hamda makroiqtisodiy omillarga ham kompleks yondashuv asosida e'tibor qaratishlari lozim [3; 4].

J. Sinkeyning ta'kidlashicha, tijorat banklari faoliyatida kredit risk darajasini baholashda qarz oluvchi mijozning pul oqimini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Uning pul oqimi tahlili quyidagi asosiy savollarga javob berishi zarur:

- mijozning sof foydasi uzoq muddatli qarzlarning joriy qismini qoplash uchun yetarli;
- kompaniya aynan qancha miqdorda pul mablag'lari oladi?
- kompaniya o'z operatsiyalarini qanday moliyalashtiradi?
- kompaniyaning joriy holatini rahbariyatning qaysi xatti-harakatlari yoki qaysi tashqi ta'sirlar belgilaydi [4, 485-486].

F. Mishkin esa bank tizimidagi moliyaviy vositachilik mexanizmlarini o'rganar ekan, kredit portfelining sifati hamda bank nazorati samaradorligi muammoli kreditlar ulushiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslab beradi [5, 712].

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham kredit risklarini boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, F. Xolmamatov tijorat banklari kredit portfeli sifatini oshirish maqsadida kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun shakllantiriladigan zaxiralar metodikasini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. U kredit sifatini real baholash asosida quyidagi zaxira mezonlarini taklif etadi: substandart kreditlar bo'yicha – 1 foizdan 10 foizgacha; qoniqarsiz kreditlar bo'yicha – 11 foizdan 25 foizgacha; shubhali kreditlar bo'yicha – 26 foizdan 50 foizgacha; umidsiz kreditlar bo'yicha – 100 foizgacha [6, 25].

J. Rustamov 2017-2023 yillardagi muammoli kreditlar dinamikasini tahlil qilib, ayniqsa pandemiya davrida, xususan 2021-yilda NPL hajmi sezilarli darajada oshganini qayd etadi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, sanoat va qishloq xo'jaligi sektori muammoli kreditlar ulushi bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallagan [7, 38-51].

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil boshida O'zbekistondagi tijorat banklarida NPL darajasi o'rtacha 4,5 foizni tashkil etgan bo'lsa-da, ayrim banklarda bu ko'rsatkich 10 foizdan yuqori bo'lgan holatlar ham kuzatilgan. Muammoli kreditlarning asosiy qismi sanoat, qurilish va xizmat ko'rsatish sohalariga to'g'ri keladi. Bu holat banklarda sektorlararo risk diversifikatsiyasi yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganini ko'rsatadi [8].



Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida investitsiyalarni moliyalashtirish jarayonida muammoli kreditlarning oldini olish va ularni kamaytirish masalalari xorijiy hamda mahalliy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Biroq milliy bank amaliyotida xalqaro ilg'or tajribalarni tizimli joriy etish, shuningdek kredit risklarini boshqarishda raqamli texnologiyalar va zamonaviy risk-menejment instrumentlaridan samarali foydalanish masalalari hanuz yetarli darajada chuqur ishlab chiqilmagan. Mazkur holat tanlangan tadqiqot mavzusining ilmiy-amaliy ahamiyati va dolzarbligini yanada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish mexanizmlarini tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqot tizimli va kompleks yondashuv asosida olib borildi.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, statistik tahlil, taqqoslash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Statistik tahlil asosida O'zbekiston bank tizimida kredit portfeli hamda muammoli kreditlar dinamikasi baholandi. Taqqoslama tahlil orqali esa milliy amaliyot xalqaro standartlar bilan qiyosiy o'rganildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy ma'lumotlari, tijorat banklarining ochiq moliyaviy hisobotlari, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Qo'llanilgan metodlar kredit risklarini boshqarish jarayonini chuqur tahlil qilish hamda ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimi bank faoliyatining barqarorligi va samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kredit risklarining yetarli darajada baholanmasligi va samarali nazorat qilinmasligi bank aktivlari sifatining pasayishiga, muammoli kreditlar ulushining ortishiga hamda moliyaviy natijalarning yomonlashuviga olib kelishi mumkin.

Kredit risklarini samarali boshqarish, avvalo, bank kapitalining yetarliligini saqlab qolishga xizmat qiladi. Kreditlar bo'yicha yuzaga keladigan ehtimoliy yo'qotishlarni oldindan baholash va ular uchun zaxiralar shakllantirish bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, kredit risklarini boshqarish likvidlik riskining oldini olishga ham yordam beradi, chunki kredit portfelining sifati bankning naqd pul oqimlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kredit risklarini boshqarish mexanizmi banklarning kredit siyosatini shakllantirishda ham asosiy omillardan biridir. Risklarni hisobga olgan holda belgilanadigan kredit shartlari, foiz stavkalari va ta'minot talablari bank

daromadliligini oshirish bilan birga, uning raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, rivojlangan risk-menejment tizimi kredit portfelini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi va risklarni tarmoqlar, hududlar hamda mijozlar kesimida muvozanatli taqsimlashga xizmat qiladi.

Kredit risklarining samarali boshqarilishi muammoli kreditlar ulushining kamayishiga olib keladi. Muammoli kreditlar bank daromadlarini cheklaydi, operatsion xarajatlarni oshiradi hamda bankning moliyaviy obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois kredit risklarini erta aniqlash, monitoring qilish va profilaktik choralarni qo'llash tijorat banklari uchun ustuvor vazifa hisoblanadi.

Bundan tashqari, kredit risklarini boshqarish tizimining takomillashuvi butun bank tizimining moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklarida risklarni boshqarish mexanizmlarining takomillashuvi moliya bozorida ishonch muhitini mustahkamlashga, investitsion faollikni oshirishga hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Jumladan, 2021-yil 10-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish tartibiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 34/5-son qaroriga muvofiq, tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar belgilangan mezonlar asosida "standart", "substandart", "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" toifalarga ajratiladi.

Aktivlar sifati bo'yicha tasniflash jarayonida har bir hisobot davrida ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar shakllantiriladi. Tijorat banklari mazkur Nizomda belgilangan asoslar yuzaga kelgan sanadan boshlab maxsus zaxiralarni tashkil etadi hamda buxgalteriya o'tkazmalarini dasturlashgan holda amalga oshiradi. "Standart" sifatida tasniflangan aktivlar bo'yicha zaxiralar esa har oyning yakuniga qadar milliy valyutada shakllantirilishi lozim.

1-jadval

Kreditlarning sifati bo'yicha shakllantirilishi lozim bo'lgan zaxiralar me'yorlari

Aktivlar sifati bo'yicha	Maxsus zaxiralarni shakllantirish
standart	1%
substandart	10%
qoniqarsiz	25%
shubhali	50%
umidsiz	100%

Manba: Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 10.12.2021 yil № 2696-3 sonli “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” nizomi asosida tayyorlandi.


Jumladan, ilgari amalda bo‘lgan tartibga ko‘ra 30 kungacha to‘lov muddati o‘tgan kreditlar “standart”, 90 kungacha kechiktirilgan kreditlar “substandart”, 180 kundan ortiq muddatga to‘lovi kechiktirilgan kreditlar esa “umidsiz” sifatida tasniflangan. Yangi tartibga muvofiq esa shartnoma muddatida so‘ndirilmagan, shuningdek, to‘lov jadvaliga asosan asosiy qarz va foizlar bo‘yicha oraliq to‘lovlari 180 kundan ortiq muddatga kechiktirilgan barcha kreditlar “umidsiz” toifasiga kiritiladi.

Bundan tashqari, sud jarayonida bo‘lgan aktivlar, qarzdorning moliyaviy ahvoli yomonlashgani va to‘lovga qobiliyatsizligi sababli to‘lov muddati uzaytirilgan aktivlar, shuningdek, bank faoliyatida foydalanilmaydigan hamda muammoli kreditlarni qoplash evaziga olingan va bank balansiga qabul qilingan kundan boshlab uch oy davomida sotilmagan mulklar ham “umidsiz” sifatida tasniflanadi.

2024-yilda bank tizimida muammoli kreditlarning jami kredit portfelidagi ulushi 4 foiz darajasida saqlanib qoldi (2024-yilning I choragida ushbu ko‘rsatkich 4,5 foizni tashkil etgan).

1-rasm

Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi dinamikasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlar

2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, tijorat banklarining kredit portfeli tarkibida 79 foiz “standart”, 17 foiz “substandart” va 4 foiz muammoli kreditlar ulushi qayd etildi. Muammoli kreditlar tarkibida 1,9 foiz “qoniqarsiz”, 1,4 foiz “shubhali” hamda 0,7 foiz “umidsiz” toifaga mansub kreditlar sifatida tasniflangan.

Banklar tomonidan 2024-yilda aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi ajratilgan zaxiralar (standart aktivlar uchun ajratilgan zaxiralar bundan mustasno) 4,9 trln so‘mga yoki 36 foizga oshib, 18,4 trln so‘mga yetdi. Shu bilan birga, muammoli kreditlarning zaxiralar bilan qoplanish darajasi o‘tgan yilning mos davridagi 82 foizdan 2024-yil 1-yanvar holatiga 87 foizga ko‘tarildi. Muammoli kreditlarning 75 foizi (15,8 trln so‘m) tadbirkorlik subyektlariga, 15 foizi (5,4 trln so‘m) esa jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar tashkil etdi.

Banklarning muammoli kreditlarini aniqlash va nazorat qilish jarayoni kreditlarni tasniflash hamda ular bo‘yicha zarur zaxiralarni o‘z vaqtida shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Bu esa kredit portfeli sifatini saqlash va banklarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval

Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risidagi 2025-yil 1-yanvar holatiga ma‘lumot (mlrd.so‘m)

№	Bank nomi	Kreditlar	Muommoli kreditlar(NPL)	Muommoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
	Jami	533 121	21 185	4.0%
	Davlat ulushi mavjud banklar	366 731	14 344	3.9%
1	O‘zmilliybank	108 014	3 275	3.0%
2	O‘zsanoatqurilishbank	65 498	1 844	2.8%
3	Agrobank	59 436	2 903	4.9%
4	Asaka bank	38 717	1 752	4.5%
5	Xalq banki	29 620	1 253	4.2%
6	Biznesni rivojlantirish banki	22 527	1 915	8.5%
7	Mikrokreditbank	17 416	804	4.6%
8	Aloqa bank	12 944	242	1.9%
9	Turon bank	12 558	354	2.8%
	Boshqa banklar	166 391	6 841	4.1%

Manba: Markaziy bank Statistik ma‘lumoti 2025-yil <https://cbu.uz>

Bank tizimidagi jami muammoli kreditlar hajmi 2024-yil davomida 4 trln 564 mlrd so‘mga oshib, yil yakuniga kelib NPLning umumiy qoldig‘i 21 trln 185 mlrd so‘mga yetdi. Muammoli kreditlarning jami kredit portfelidagi ulushi yil boshida 3,53 foizni tashkil etgan bo‘lsa, yil yakunida ushbu ko‘rsatkich 3,97 foizga ko‘tarildi.

Davlat banklarida muammoli kreditlar hajmi yil boshiga nisbatan 1 trln 77 mlrd so‘mga oshgan. Mazkur banklar orasida faqat Xalq banki muammoli kreditlar hajmini sezilarli darajada – 601 mlrd so‘mga kamaytirishga, shuningdek, ularning kredit portfelidagi ulushini 7,6 foizdan 4,2 foizga tushirishga erishgan. Mikrocreditbank va Biznesni rivojlantirish bankida ham NPL ko‘rsatkichi biroz kamaygan.

Aksincha, Agrobank (+832 mlrd so‘m), O‘zsanoatqurilishbank (+561 mlrd so‘m) hamda O‘zmilliybank (+177 mlrd so‘m)da muammoli kreditlar hajmi boshqa davlat banklariga nisbatan tezroq sur‘atlarda oshgan. Boshqa banklarda esa muammoli kreditlar hajmi yil boshiga nisbatan 3 trln 487 mlrd so‘mga ko‘paygan. NPL ulushi ham yil boshidagi 2,43 foizdan 4,12 foizgacha oshgan. Yil davomida NPLning keskin o‘sishi asosan Ipoteka bank (+1 trln 844 mlrd so‘m) hamda Kapitalbank (+1 trln 61 mlrd so‘m)da kuzatilgan. Shuningdek, Hamkorbank (+219 mlrd so‘m), Anorbank (+104 mlrd so‘m), Davr bank (+102 mlrd so‘m), Trastbank (+95 mlrd so‘m) hamda TBC Bank (+87 mlrd so‘m)da ham muammoli kreditlar hajmi boshqa banklarga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

3-jadval

O‘zbekiston banklarida NPL ulushi (%) (2023-2025)

Bank nomi	2023 (%)	2024 (%)	2025 (%)
Hamkorbank	5.8	5.2	1.7
Ipoteka Bank	6.9	6.5	10.2
Asaka Bank	5.5	5.1	4.5
Agrobank	6.3	5.8	4.9

Manba: Markaziy bank ma’lumotlari. <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2124994/>

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-2025-yillar davomida deyarli barcha banklarda NPL ulushi pasayish tendensiyasini namoyon etgan. Bu holat kredit portfeli ustidan olib borilgan kuchaytirilgan monitoring, risklarni chuqur baholash hamda portfelni diversifikatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarning ijobiy samara berganini ko‘rsatadi. Eng past NPL ko‘rsatkichi 2025-yilda Hamkorbank va Asaka Bankda kuzatilgan bo‘lib, bu mazkur banklarda kredit siyosati, risk-menejment tizimi va ichki nazorat mexanizmlari samarali yo‘lga qo‘yilganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tijorat banklarining xalqaro kredit operatsiyalari bo‘yicha kredit

riskini baholashda xalqaro amaliyotga mos yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

4-jadval


Bazel qo‘mitasi tomonidan kredit riskini baholash bo‘yicha tavsiya etilgan standartlashgan yondashuv [2]

		Riskka tortish koeffitsiyentlari		
Reyting	Davlat va markaziy banklar	Kredit tashkilotlari (1-variant)	Kredit tashkilotlari (1-variant)(qisqa muddatli talablar)	Yuridik shaxs
AAA dan A gacha	0	20	20(20)	20
A+ dan A- gacha	20	50	50(20)	50
VVV+ dan VVV- gacha	50	100	50(20)	100
VV+ dan VV- gacha	100	100	100(50)	100
V+ dan V-gacha	100	100	100(50)	150
V-past	150	150	150(150)	150
Reytingsiz	100	100	50(20)	100

3-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, standartlashgan yondashuvda kredit oluvchining suveren kredit reytingi qanchalik yuqori bo‘lsa, unga berilgan kreditning risk darajasi shunchalik past bo‘ladi.

1-grafik

Nplarni kamaytirish jarayonlari



Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Ushbu jadval NPLlarni kamaytirish jarayonidagi asosiy chora-tadbirlar va mexanizmlarni aks ettiradi. Unda kredit portfelini monitoring qilish va



klassifikatsiyalashdan tortib, risklarni baholash, zaxiralar yaratish, qarzlarni restrukturizatsiya qilish, garov ta'minotini mustahkamlash, shuningdek raqamli texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish bosqichlari izchil tartibda keltirilgan. Mazkur chora-tadbirlar banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish hamda kredit portfeli sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Rivojlangan davlatlar bank amaliyotida kredit risklarini boshqarishning zamonaviy usullari keng qo'llaniladi. Masalan:

– AQSh va Yevropa banklarida “early warning system” (erta ogohlantirish tizimi) joriy etilgan bo'lib, ushbu tizim mijozning moliyaviy holati yomonlashuvi bilan bog'liq dastlabki signallarni aniqlash imkonini beradi;

– Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasida muammoli kreditlar bo'yicha sudgacha va suddan keyingi nizolarni hal etish uchun maxsus arbitraj institutlari tashkil etilgan;

– shuningdek, xalqaro amaliyotda risklarni “portfel darajasida” (portfolio-level risk management) boshqarish orqali tarmoqlar va mahsulotlar kesimidagi konsentratsiya darajasi kamaytiriladi.

O'zbekistonda mazkur yondashuvlar hali to'liq joriy etilmagan bo'lsa-da, 2022-2025-yillar davomida Markaziy bank tashabbusi bilan “kredit riskining integratsiyalashgan modeli”ni bosqichma-bosqich tatbiq etish rejalashtirilgan. Ushbu model bankning ichki nazorat tizimlari, kredit siyosati, skoring baholash mexanizmlari hamda qarzdorlar bilan muloqot jarayonini yagona raqamli platforma asosida integratsiyalashni nazarda tutadi.

Tadqiqotda kredit riskini kamaytirishda “muammoli aktivlarni boshqarish kompaniyalari” (Asset Management Companies – AMC)ni tashkil etish zarurati ham asoslab berilgan. Mazkur tajriba Xitoy, Malayziya va Tailandda muammoli kreditlar inqirozini bartaraf etishda muvaffaqiyatli qo'llanilgan [9].

XULOSA

Tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bank tizimining barqaror faoliyat yuritishi, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit operatsiyalarining tijorat banklari aktivlaridagi yuqori ulushi kredit risklarini bank boshqaruvi tizimining ustuvor yo'nalishiga aylantirmoqda. Kredit risklarini yetarli darajada aniqlamaslik va samarali boshqarmaslik muammoli kreditlar ulushining oshishiga, bank daromadliligining pasayishiga hamda kapital yetarliligi ko'rsatkichlarining yomonlashuviga olib keladi. Shu sababli kredit risklarini



baholash, monitoring qilish va nazorat qilish mexanizmlarini zamonaviy talablarga moslashtirish banklar uchun dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xalqaro bank amaliyoti, xususan, Bazel standartlari kredit risklarini boshqarishda riskka asoslangan yondashuv, kredit portfelini diversifikatsiya qilish hamda stress-testlash mexanizmlarining muhimligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuvlarni milliy bank tizimiga moslashtirish muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, kredit risklarini boshqarishda raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan skoring tizimlaridan foydalanish banklar tomonidan qaror qabul qilish sifatini oshiradi hamda kreditlash jarayonida subyektivlik darajasini kamaytiradi. Bu esa bank tizimida ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklari faoliyatida kredit riskini boshqarish amaliyotini takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Kredit risklarini baholash tizimini takomillashtirish, ya'ni kredit oluvchilarning moliyaviy holatini baholashda zamonaviy skoring modellarini va prognozlash usullarini joriy etish;

2. Muammoli kreditlarni erta aniqlash mexanizmlarini kuchaytirish, kredit portfelini doimiy monitoring qilish hamda ogohlantiruvchi indikatorlar tizimini shakllantirish;

3. Xalqaro standartlarni milliy sharoitga moslashtirish, xususan, Bazel talablarini bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etish;

4. Raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, kredit risklarini boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash;

5. Muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotini takomillashtirish, restrukturizatsiya va qayta moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish;

6. Bank xodimlarining risk-menejment bo'yicha malakasini oshirish, zamonaviy risklarni baholash va boshqarish usullari yuzasidan doimiy treninglar tashkil etish;

7. Tijorat banklari faoliyatida kredit riskining darajasi moliyaviy risklar bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli, inflyatsiya, deflyatsiya va devalvatsiya kabi omillarni tizimli ravishda baholash imkonini beradigan metodologiyani ishlab chiqish.

Inflyatsiya darajasining oshishi kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining ortishiga olib keladi, bu esa qarz oluvchilar uchun moliyaviy yukni oshirib, kredit riskining kuchayishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, milliy valyutaning devalvatsiya sur'atlarining ortishi banklar tomonidan xorijiy valyutada berilgan kreditlarning o'z vaqtida va to'liq qaytarilishini murakkablashtiradi. Natijada muammoli kreditlar ulushi oshib, kredit portfeli sifati pasayadi.



Deflyatsiya sharoitida esa iqtisodiy faollikning pasayishi banklar daromadlarining kamayishiga hamda qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu tarzda moliyaviy risklarni tizimli baholash ularning kredit portfeli va bank barqarorligiga ta'sirini aniqlash imkonini beradi hamda kredit riskini boshqarish mexanizmlarini yanada samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF–5992-sonli “2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. Basel Committee on Banking Supervision. International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards: A Revised Framework (Basel II). – Basel: Bank for International Settlements, 2006. <https://www.bis.org/publ/bcbs128.htm>
3. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A Global Regulatory Framework for More Resilient Banks and Banking Systems. – Basel: Bank for International Settlements, 2011. <https://www.bis.org/publ/bcbs189.htm>
4. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг / пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – С. 485-486.
5. Mishkin F. S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. – New York: Pearson, 2019. – P. 712.
6. Xolmamatov F. K. Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish: iqt. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2019. – B. 25.
7. Rustamov J. Trends and Patterns of Accumulation of Non-Performing Loans in the Banking Sector of Uzbekistan // Journal of Central Asian Economic Studies. 2025, 9(1). – B. 38-51
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Muammoli kreditlar bo'yicha statistik ma'lumotlar. 2025. <https://cbu.uz/uz/>
9. Elchiboyev S. M. O'zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyoti va ularning kredit riskini boshqarishdagi o'rni // Science and Education. 2025, № 7.

IJTIMOIIY FANLAR

O‘ZBEK VA INGLIZ BADIY MATNLARIDA STILISTIK TARJIMA MUAMMOLARI

AHATOVA DILSHODA BAHODIR QIZI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Xorijiy til va adabiyoti” kafedrası 2-kurs talabasi*

Email: ahatovadilshoda0@gmail.com

UDK: 81.25:81.42

<https://orcid.org/0009-0006-8083-8066>

Kalit so‘zlar:

stilistika, metafora, kinoya, ramziy obraz, milliy kolorit, stilistik ekvivalentlik, tarjima strategiyalari, badiiy matn.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida stilistik vositalarni qayta yaratish bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot Jorj Oruell hamda O‘tkir Hoshimov asarlari misolida olib borilib, unda metafora, kinoya, ramziy obrazlar va milliy koloritga ega iboralarning tarjimada ifodalanish xususiyatlari o‘rganiladi. Tahlil natijalari badiiy matn tarjimasida ma‘no yo‘qotilishi, emotsional-ohangiy tusning o‘zgarishi hamda estetik ta’sirning susayishi kabi holatlar tez-tez uchrashini ko‘rsatdi. Shuningdek, maqolada stilistik ekvivalentlikni saqlash, madaniy moslashuv va izohli tarjima strategiyalaridan foydalanish bunday muammolarni kamaytirishda samarali ekanligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari badiiy tarjima nazariyasi va amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

ПРОБЛЕМЫ СТИЛИСТИЧЕСКОГО ПЕРЕВОДА В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ

Ключевые слова: стилестика, метафора, ирония, символический образ, национальный колорит,

Аннотация: В данной статье анализируются проблемы, связанные с воссозданием стилистических средств в процессе перевода художественных произведений на узбекский и английский языки. Исследование проводится на примере произведений Джорджа Оруэлла и Уткира Хошимова, в котором изучаются особенности выражения метафоры, иронии, символических образов и выражений

стилистическая эквивалентность, стратегии перевода, художественный текст.

с национальным колоритом в переводе. Результаты анализа показали, что при переводе художественного текста часто встречаются такие случаи, как потеря смысла, изменение эмоционально-ритмического тона и ослабление эстетического воздействия. Также в статье обосновывается, что сохранение стилистической эквивалентности, культурная адаптация и использование стратегий аннотированного перевода эффективны в снижении таких проблем. Результаты исследования служат совершенствованию теории и практики художественного перевода.

THE PROBLEMS OF STYLISTIC TRANSLATION IN UZBEK AND ENGLISH LITERARY TEXTS

Keywords:

stylistics, metaphor, irony, symbolic image, national color, stylistic equivalence, translation strategies, literary text.

Abstract:

This article analyzes the problems associated with the reproduction of stylistic devices in the process of translating works of art into Uzbek and English. The study is conducted using the example of the works of George Orwell and Utkir Hoshimov, in which the features of the expression of metaphors, irony, symbolic images, and expressions with national color in translation are studied. The results of the analysis showed that in the translation of a literary text, such situations as loss of meaning, change of emotional and melodic tone, and weakening of aesthetic impact are often encountered. The article also substantiates the effectiveness of using stylistic equivalence, cultural adaptation, and annotated translation strategies in reducing such problems. The research results serve to improve the theory and practice of literary translation.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida dunyo adabiyoti vakillari o'rtasidagi madaniy aloqalar tobora mustahkamlanib bormoqda. Badiiy asarlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish nafaqat adabiy merosni keng kitobxonlar ommasiga yetkazish, balki xalqlarning tarixi, mentaliteti va ma'naviy qadriyatlarini o'zaro yaqinlashtirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, ingliz va o'zbek adabiyotlari o'rtasida amalga oshirilayotgan tarjimalar ikki xil madaniyatga xos badiiy tafakkur,



estetik qarashlar hamda stilistik an'analarni qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, badiiy tarjima jarayonida matnning mazmuniy aniqligi bilan bir qatorda uning stilistik xususiyatlarini to'liq saqlab qolish eng murakkab masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Zero, stilistika faqat so'z tanlash bilan cheklanmay, muallifning ruhiy holati, nutq ohangi, individual uslubi va asarning badiiy ta'sir kuchini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lib, grammatik tuzilishi hamda madaniy qatlamlari jihatidan sezilarli farqlarga ega. Bu holat badiiy tarjima jarayonida qator lingvistik va madaniy muammolarni keltirib chiqaradi. Xususan, metafora, ramziy obrazlar, kinoya, frazeologik birliklar, milliy koloritga ega leksik birliklar va xalqona nutq unsurlarini tarjima qilishda ularning semantik yukini, emotsional-ekspressiv ohangini hamda badiiy ta'sir kuchini saqlab qolish har doim ham oson kechmaydi. Shu bois, badiiy tarjimada stilistik ekvivalentlik masalasi tarjima nazariyasining eng dolzarb muammolaridan biri sifatida doimiy ilmiy tadqiqot obyektiga aylanib kelmoqda.

Mazkur tadqiqot ingliz adabiyotining mashhur namoyandasi George Orwell hamda o'zbek adabiyotining yirik vakili O'tkir Hoshimov asarlari misolida badiiy tarjimada stilistik muammolarni tahlil qilishga bag'ishlanadi. George Orwellning "Animal Farm" asari kuchli ramziy obrazlar, kinoya va satirik uslub bilan ajralib turadi. Asarda qo'llanilgan har bir badiiy vosita nafaqat voqea-hodisalar mazmunini ochib berishga, balki muayyan siyosiy va ijtimoiy g'oyalarni ifodalashga xizmat qiladi [1].

O'tkir Hoshimov ijodida esa xalqona nutq, samimiy tasvir, milliy ruh hamda qahramonlarning ruhiy holatini chuqur aks ettiruvchi ifodalar muhim o'rin egallaydi. Ushbu asarlardagi stilistik vositalarni tarjima jarayonida saqlab qolish, shuningdek, ularning o'rniga mazmunan va badiiy ta'sir jihatidan mos ekvivalent vositalarni topish masalasi tarjimon oldida dolzarb muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda ingliz va o'zbek adabiyotlari o'rtasida amalga oshirilayotgan tarjimalar soni ortib borayotgan bo'lsa-da, ularning ko'pchiligida stilistik moslik masalasiga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti. Natijada ayrim tarjimalarda so'zma-so'zlikka yo'l qo'yilishi, badiiy obrazlarning yo'qolishi, milliy ruhning susayishi, kinoya va istehzoning to'liq yoki to'g'ri aks ettirilmaslari kabi kamchiliklar kuzatiladi. Shu bois badiiy tarjima jarayonida dinamik ekvivalentlik, kommunikativ moslik, madaniy moslashtirish hamda izohli tarjima kabi yondashuvlarni ilmiy asoslangan holda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi [2, 116].



Ushbu maqolaning asosiy maqsadi George Orwell va O‘tkir Hoshimov asarlarida qo‘llanilgan stilistik vositalarning tarjima jarayonida qanday o‘zgarishini aniqlash, mavjud muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning samarali yechimlarini taklif etishdan iborat. Tadqiqot natijalari badiiy tarjima nazariyasini yanada boyitishga, tarjimonlarning amaliy faoliyatida stilistik sadoqatni ta‘minlashga hamda ingliz va o‘zbek adabiyotlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Badiiy tarjima nazariyasi masalalari jahon va o‘zbek tarjimashunosligida keng miqyosda o‘rganilgan bo‘lsa-da, stilistik uslublarning turli madaniy kontekstlarda ko‘chishi va qayta talqin qilinishi muammosi hanuzgacha dolzarb bo‘lib qolmoqda. Xususan, tarjima jarayonida muallifning individual uslubini saqlab qolish masalasi zamonaviy tarjima nazariyasining muhim metodologik yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi.

Mazkur muammo chet el tarjimashunosligida V. Nida [2], P. Nyumark [3], L. Venuti [4], E.A. Gutt [5] kabi yetakchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan. Ularning ilmiy qarashlarida tarjimada semantik ekvivalentlik, dinamik moslashuv, kommunikativ yondashuv, shuningdek, domestikatsiya va forenizatsiya (foreignization) kabi tushunchalarning nazariy va amaliy ahamiyati alohida ta‘kidlanadi. Ushbu yondashuvlar badiiy matnning mazmuniy aniqligi bilan bir qatorda uning stilistik va pragmatik ta‘sirini saqlashga xizmat qiladi.

O‘zbek tarjimashunosligida badiiy tarjima muammolari A. Qayumov [6], G‘. Salomov [7], Sh. Yusupov [8], N. Mahmudov [9] kabi olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda tarjima jarayonida milliy ruhni saqlash, ifoda uslubining tabiiyligi, til me‘yorlariga moslik hamda badiiylik mezonlari muhim omillar sifatida baholanadi. Biroq ingliz tilidagi siyosiy-ramziy mazmunga ega badiiy asarlarni o‘zbek tiliga, shuningdek, milliy ruh va xalqona lirika asosidagi o‘zbek asarlarini ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida stilistik qatlamlarning barqarorligini kompleks tarzda o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar yetarli emas.

Jorj Oruell asarlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda uning satira, kinoya, alegoriya va siyosiy metaforalarga boy uslubi asosiy tahlil markaziga qo‘yiladi [4, 67]. O‘tkir Hoshimov ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda esa milliy mentalitet, xalqona so‘zlashuv, ruhiy drammatizm va lirizm yetakchi stilistik xususiyatlar sifatida talqin etiladi. Shunga qaramay, mazkur ikki muallifga xos bo‘lgan turli stilistik tizimlarning tarjima jarayonida qanday o‘zgarishi, qaysi stilistik qatlamlarning yo‘qolishi yoki qayta talqin qilinishi masalasi hanuzgacha yetarli

darajada o'rganilmagan.

Shu sababli ushbu tadqiqot avvalgi ilmiy ishlanmalarni umumlashtirish, ularni qiyosiy jihatdan tahlil qilish hamda badiiy tarjimada stilistik ekvivalentlikni ta'minlashga doir yangi ilmiy-amaliy xulosalarni shakllantirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tahliliy yondashuv asosiy metod sifatida tanlandi. Dastlab Jorj Oruellning ingliz tilidagi asarlari (xususan, "Animal Farm", "1984") hamda O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari", "Bahor qaytmaydi" kabi asarlarining o'zbekcha va inglizcha tarjima variantlari tanlab olindi. Ushbu matnlar asosida quyidagi ilmiy-metodologik bosqichlar amalga oshirildi:

– Stilistik birliklarni aniqlash metodi – metafora, epitet, kinoya, ramziy obrazlar, xalqona iboralar, dialekt birliklari hamda emotsional-ekspressiv vositalar aniqlanib, tizimlashtirildi.

– Semantik-pragmatik tahlil usuli – ajratib olingan stilistik birliklarning mazmuniy yuklamasi, funksional vazifasi hamda ularning tarjima jarayonida qanday talqin qilingani baholandi.

– Qiyosiy tarjima tahlili – asl matn va tarjima matn o'rtasidagi stilistik moslik darajasi, uslubiy muvozanat, muallif ohangining saqlanishi hamda milliy koloritning aks etish darajasi tahlil qilindi.

– Korpus asosidagi kuzatuv – tanlangan matnlardan olingan konkret misollar asosida stilistik o'zgarishlarning turlari va ko'lami aniqlashga qaratilgan kuzatuv ishlari olib borildi.

– Tarjimashunoslik nazariyasi asosida baholash – olingan natijalar mavjud ilmiy-nazariy konsepsiyalar bilan qiyoslanib, umumiy ilmiy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda ingliz va o'zbek badiiy asarlaridagi stilistik uslubning tarjima jarayonida yo'qolishi, moslashuvi yoki yangi ma'no kasb etish holatlari ikki yo'nalishda – ingliz tilidan o'zbek tiliga hamda o'zbek tilidan ingliz tiliga – qiyosiy tahlil qilindi. Natijada badiiy tarjimada uslubiy yaxlitlikni ta'minlash, milliy ruhni saqlash va badiiylikni yo'qotmagan holda matnни ko'chirishga doir amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratildi.

NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida Jorj Oruell hamda O'tkir Hoshimov asarlari misolida badiiy matndagi stilistik uslublarning tarjima jarayonida qanday o'zgarishga uchrashi tizimli va qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida siyosiy ramziylik, kinoya va satiraning semantik hamda pragmatik yukini to'liq saqlab qolish ko'plab hollarda murakkablik tug'diradi. Xususan, Oruell



asarlari xos bo'lgan yashirin siyosiy metaforalar ayrim tarjima variantlarida qisqartirilishi, umumlashtirilishi yoki mazmunan soddalashtirilishi natijasida muallif uslubining muhim qatlamlari qisman yo'qolganligi aniqlandi.

O'zbek tilidan ingliz tiliga amalga oshirilgan tarjimalar tahlili esa boshqa turdagi muammolarni yuzaga chiqardi. Jumladan, O'tkir Hoshimov asarlarida keng qo'llaniladigan xalqona ohang, milliy mentalitetni ifodalovchi iboralar, maqol va matallar, hissiy drammatizm hamda samimiy lirikaning ingliz tilida to'liq va tabiiy ekvivalentini topish tarjimon uchun jiddiy qiyinchilik tug'dirgani kuzatildi. Ayrim holatlarda iboralar so'zma-so'z tarjima qilingani sababli badiiy ta'sir kuchi susaygan, matn esa ingliz tilidagi o'quvchi uchun oddiy informativ bayon darajasida qabul qilingan [6, 41].

Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, badiiy tarjima jarayonida eng ko'p uchraydigan muammolar quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi:

- stilistik ekvivalentning yetarli darajada topilmasligi;
- milliy-madaniy realiyalarning izoh talab qilishi;
- metafora va ramziy obrazlarning qisqarishi yoki soddalashtirilishi;
- ironik va satirik ohangning susayib qolishi;
- o'quvchi uchun pragmatik-badiiy ta'sirning kamayishi.

Shu bilan birga, ayrim tarjima namunalarida uslubiy yo'qotishlar o'rnini yangi badiiy ifodaning yuzaga kelishi, ya'ni tarjimaning ijodiy rekonstruksiya sifatida namoyon bo'lishi holatlari ham qayd etildi. Bu holat tarjimani faqatgina til birliklarini almashtirish jarayoni sifatida emas, balki madaniyatlararo badiiy dialogning muhim shakli sifatida baholash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

MUHOKAMALAR

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, badiiy tarjimada asosiy muammo so'zning tashqi shaklida emas, balki uning ortidagi madaniy, emotsional va ideologik mazmunda namoyon bo'ladi. Jorj Oruell asarlarida siyosiy allegoriya va kinoya muayyan tarixiy davr realiyalari bilan uzviy bog'liq bo'lgani sababli, ularni tarjima jarayonida yangi auditoriya tafakkuriga moslashtirish zarurati yuzaga keladi [7, 12]. Agar tarjima faqat so'z darajasida amalga oshirilsa, matnning mafkuraviy, falsafiy va pragmatik yuklamasi sezilarli darajada kamayadi.

O'tkir Hoshimov asarlarida esa "milliy ruh" asosiy estetik mezon sifatida namoyon bo'ladi. Xalqona ifodalar, ona tiliga xos emotsional ohang hamda ruhiy samimiyat ingliz tiliga tarjima qilinganda ko'pincha neytrallashtirib, badiiy ta'sir kuchining pasayishiga olib kelishi kuzatildi. Natijada asarning o'quvchi qalbiga ta'sir etish darajasi qisqaradi. Shu bois bunday hollarda so'zma-so'z tarjimadan ko'ra

mazmuniy-ekspressiv ekvivalentlikni ta'minlash ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlandi: tarjimon faqat lingvistik bilim bilan cheklanib qolmasdan, adabiy tafakkur, tarixiy-madaniy savodxonlik va yuksak badiiy didga ham ega bo'lishi lozim. Aks holda tarjima texnik jarayon darajasida qolib ketadi va asarning estetik qiymati sezilarli darajada pasayadi. Shu bois badiiy tarjimada stilistik uslubni saqlash uchun quyidagi yondashuvlar dolzarb hisoblanadi [8, 39]:

- dinamik ekvivalentlikka tayanish;
- muallifning individual uslubini ustuvor qo'yish;
- madaniy kontekstni chuqur hisobga olish;
- zarur hollarda izohli tarjima elementlaridan foydalanish;
- ijodiy moslashtirish imkoniyatlaridan oqilona foydalanish.

Demak, mazkur tadqiqot natijalari badiiy tarjimada stilistik yaxlitlikni ta'minlash uchun faqatgina grammatik bilimlar yetarli emasligini, balki tarjima jarayonini keng madaniy va nazariy asosda tashkil etish zarurligini ko'rsatadi [9, 72].

Tadqiqot davomida o'zbek va ingliz tillaridagi badiiy matnlarni tarjima qilish jarayonida stilistik uslubni saqlab qolish eng dolzarb muammolardan biri ekani aniqlandi. Jumladan, Jorj Oruell asarlarida siyosiy allegoriya, kinoya va satira yetakchi stilistik vositalar sifatida namoyon bo'lsa, O'tkir Hoshimov ijodida milliy ruh, xalqona ohang hamda lirizm muhim o'rin egallaydi. Tarjima jarayonida ushbu uslubiy qatlamlar ko'pincha qisqarishi, o'zgarishi yoki yangi badiiy ifoda shakllari orqali qayta talqin etilishi kuzatiladi.

Olib borilgan tadqiqot quyidagi muhim natijalarni ko'rsatdi:

- stilistik ekvivalentlikni saqlash tarjima sifatini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi;
- milliy-madaniy kontekstni hisobga olgan holda amalga oshirilgan tarjima badiiy ta'sir kuchini oshiradi;
- tarjimon nafaqat til bilimiga, balki adabiy tafakkur, madaniy bilim va yuksak badiiy didga ega bo'lishi zarur;
- dinamik ekvivalentlik, madaniy moslashuv hamda izohli tarjima kabi strategiyalarni kompleks qo'llash samarali natija beradi.

Shu bilan birga, badiiy tarjima jarayonida stilistik yo'qotishlarni imkon qadar minimallashtirish orqali tarjima matnining estetik va semantik yaxlitligini ta'minlash mumkin. Mazkur tadqiqot natijalari tarjima nazariyasi bilan bir qatorda, badiiy tarjima amaliyotida ham muhim metodik qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

Mazkur tadqiqot o‘zbek va ingliz badiiy matnlarida stilistik vositalarning tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarini aniqlash va tahlil qilishga qaratildi. Jorj Oruell hamda O‘tkir Hoshimov asarlari misolida olib borilgan qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, badiiy tarjimada asosiy qiyinchiliklar til tizimidagi farqlardan ko‘ra, madaniy, emotsional va stilistik qatlamlarni to‘liq saqlab qolish bilan bog‘liqdir. Metafora, kinoya, ramziy obrazlar, xalqona iboralar va milliy koloritga ega birliklar tarjimada ko‘pincha qisqaradi yoki o‘z badiiy ta‘sirini yo‘qotadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, so‘zma-so‘z tarjima badiiy asarlarning estetik qiymatini to‘liq yetkazib bera olmaydi. Ayniqsa, Oruell asarlaridagi siyosiy allegoriya va satira hamda O‘tkir Hoshimov ijodiga xos milliy ruh va lirizm tarjimada alohida yondashuvni talab etadi. Shu bois tarjimon nafaqat lingvistik bilimga, balki madaniyatlararo tafakkurga, adabiy didga va ijodiy yondashuvga ega bo‘lishi muhim hisoblanadi.

Tadqiqot davomida dinamik ekvivalentlik, madaniy moslashuv va izohli tarjima strategiyalarining samaradorligi aniqlandi. Ushbu yondashuvlar stilistik yo‘qotishlarni kamaytirish, muallif ohangini saqlash va o‘quvchiga badiiy ta‘sirni yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tarjimani ijodiy rekonstruksiya sifatida baholash zarurligi asoslab berildi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy tarjimada stilistikani ta‘minlash tarjima sifatining asosiy mezonlaridan biri bo‘lib, u tarjimonning til bilimidan tashqari madaniy savodxonligi va badiiy tafakkuriga bevosita bog‘liqdir. Ushbu tadqiqot natijalari tarjima nazariyasini boyitish bilan birga, amaliy tarjima jarayonida stilistik yaxlitlikni saqlashga doir muhim ilmiy tavsiyalarni taqdim etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Orwell G. *Animal Farm*. – London: Secker & Warburg, 1945.
2. Nida E. A. *Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating*. – Leiden: E. J. Brill, 1964. – P. 116.
3. Newmark P. *A Textbook of Translation*. – London: Prentice Hall, 1988. – P. 292.
4. Venuti L. *The Translator’s Invisibility: A History of Translation*. – London: Routledge, 1995. – P. 353.
5. Vinay J. P., Darbelnet J. *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. – Amsterdam: John Benjamins, 1995. – P. 358.



6. Qayumov A. O‘zbek tilida badiiy tarjima nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2001. – B. 156.
7. Salomov G‘. Tarjima va stilistika. – Toshkent: Akademiya, 2008. – B. 144.
8. Yusupov Sh. Badiiy tarjimada stilistik ekvivalentlik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B. 168.
9. Mahmudov N. O‘zbek adabiy matnlarini tarjima qilish metodlari. – Toshkent: Ilm, 2015. – B. 180.



IJTIMOIIY FANLAR

O‘ZBEK VA INGLIZ XALQ ERTAKLARINING TIPOLOGIK VA QIYOSIY TAHLILI

AMANOVA ONARXOL CHARIYEVNA

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Xorijiy til va adabiyoti ” yuqori kurslar kafedrasi o‘qituvchisi

Email: o.amanova@dtpi.uz

UDK: 398.21(575.1+410)

<https://orcid.org/0009-0006-1496-0135>

Kalit so‘zlar:

xalq ertaklari,
tipologiya,
folklor, obrazlar
tizimi, syujet,
qiyosiy tahlil,
madaniyat, ta’lim
texnologiyalari,
madaniyatlararo
kompetensiya.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz xalq ertaklarining tipologik hamda mazmuniy xususiyatlari zamonaviy ta’lim texnologiyalari kontekstida qiyosiy tahlil etiladi. Tadqiqot davomida ertaklarning syujet-kompozitsion qurilishi, obrazlar tizimi, g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishi va tarbiyaviy imkoniyatlari aniqlashtiriladi. Sehrli, maishiy hamda hayvonlar haqidagi ertaklar yetakchi tiplar sifatida tasniflanib, ular orqali har ikki xalqning milliy mentaliteti, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy-madaniy qarashlari namoyon bo‘lishi yoritib beriladi. Qiyosiy yondashuv asosida folklor matnlarida aks etgan umumiy va farqli jihatlar ochib berilib, ertaklarning ta’lim jarayonidagi lingvokulturologik hamda didaktik salohiyati asoslanadi. Shuningdek, ushbu namunalarni dars jarayoniga integratsiya qilish talabalarda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish, tanqidiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish hamda tilni chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan izohlanadi.

ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ И СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК

Ключевые слова:

народные сказки,
типология,
фольклор, система
образов, сюжет,

Аннотация:

В данной статье проводится сравнительный анализ типологических и содержательных особенностей узбекских и английских народных сказок в контексте современных образовательных технологий. В ходе исследования уточняются сюжетно-композиционное

сравнительный анализ, культура, образовательные технологии, межкультурная компетенция.

строение, система образов, идейно-художественная направленность и воспитательные возможности сказок. Волшебные, бытовые и сказки о животных классифицируются как ведущие типы, через которые раскрывается национальный менталитет, система ценностей и социокультурные взгляды обоих народов. На основе сравнительного подхода раскрываются общие и отличительные черты, отраженные в фольклорных текстах, обосновывается лингвокультурологический и дидактический потенциал сказок в образовательном процессе. Также научно объясняется, что интеграция этих образцов в учебный процесс служит формированию у студентов межкультурной компетенции, развитию критического и самостоятельного мышления, а также более глубокому усвоению языка.

TYOLOGICAL AND COMPARATIVE ANALYSIS OF UZBEK AND ENGLISH FOLK TALES

Keywords:

folk tales, typology, folklore, system of images, plot, comparative analysis, culture, educational technologies, intercultural competence.

Abstract:

This article provides a comparative analysis of the typological and semantic features of Uzbek and English folk tales in the context of modern educational technologies. In the course of the research, the plot-compositional structure, system of images, ideological and artistic direction, and educational possibilities of fairy tales are clarified. Magical, everyday, and animal tales are classified as leading types, through which the national mentality, value system, and socio-cultural views of both peoples are revealed. Based on a comparative approach, the commonalities and differences reflected in folklore texts are revealed, and the linguocultural and didactic potential of fairy tales in the educational process is substantiated. It is also scientifically explained that the integration of these examples into the lesson process serves to form intercultural competence in students, develop critical and independent thinking, and deepen language acquisition.

KIRISH

Xalq ertaklari har bir millatning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari hamda dunyoqarashini o'zida mujassam etgan noyob badiiy meros hisoblanadi. Ertaklar orqali xalqning ezgulik va yovuzlik haqidagi tasavvurlari, ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan qarashlari, mehnat, halollik, jasorat kabi tushunchalari ifodalanadi. O'zbek va ingliz xalq ertaklari turli tarixiy, geografik hamda madaniy muhitda shakllangan bo'lsa-da, ularni umumiy insoniy g'oyalar birlashtirib turadi. Shu bois ular asrlar davomida avlodlardan avlodga o'tib, yoshlar tarbiyasida, axloqiy fazilatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynab kelmoqda.

Mazkur ertaklar uzoq asrlar mobaynida og'zaki an'ana orqali saqlanib, xalqning hayotiy tajribasi va ijtimoiy qadriyatlarini bugungi kungacha yetkazib kelgan. Ayniqsa, bolalar va o'smirlar tarbiyasida ertaklar muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qilib, ularda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik hamda mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, turli xalqlarning madaniy-ma'naviy merosini qiyosiy o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda xalq ertaklari nafaqat folklorshunoslik, balki tilshunoslik, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik va pedagogika fanlari doirasida ham keng tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, chet tillarni o'qitishda hamda yosh avlod tarbiyasida ertaklardan foydalanish samarali metodlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro ilmiy aloqalar kengayib, madaniyatlararo muloqot kuchayib borayotgan bir sharoitda turli xalqlarga xos ertaklarni umumiy va xususiy belgilar asosida tadqiq qilish folklor namunalarining ham universal, ham milliy jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa milliy madaniyatni targ'ib qilish va uni jahon madaniy makonida munosib namoyon etishga xizmat qiladi. Shu jihatdan mazkur mavzu bugungi kunda nihoyatda dolzarbdir.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi o'zbek va ingliz xalq ertaklarini tipologik jihatdan qiyosiy tahlil qilish, ularning syujet-kompozitsion tuzilishi, obrazlar tizimi, mavzu hamda g'oyaviy yo'nalishlarini aniqlash, shuningdek, umumiy va milliy xususiyatlarini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalq ertaklarini ilmiy o'rganish folklorshunoslikning eng muhim va sarmahsul yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu borada jahon hamda milliy ilm-fanda ko'plab fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ertaklarni tipologik va qiyosiy asosda tahlil qilish ularning genezisi, tarixiy taraqqiyoti, syujet qurilishi, obrazlar tizimi hamda badiiy tafakkur mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi. Shu sababli mazkur



yoʻnalish nafaqat nazariy, balki metodologik jihatdan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahon folklorshunosligida ertaklarni ilmiy tasniflash va tipologik jihatdan oʻrganish borasidagi dastlabki fundamental izlanishlar A.Aarne va S.Thompson nomlari bilan bogʻliqdir. Ular tomonidan ishlab chiqilgan Aarne-Thompson (AT) tasnif tizimi [1], keyinchalik H.Uther tomonidan takomillashtirilib, Aarne-Thompson-Uther (ATU) indeksi shakliga keltirilgan [2]. Mazkur indeks xalq ertaklarini syujet va motivlar asosida xalqaro miqyosda tizimlashtirish imkonini berib, turli xalqlarga mansub ertaklarning tipologik oʻxshash va farqli jihatlarini aniqlashda universal metod sifatida qoʻllanilmoqda. Ingliz xalq ertaklarini tadqiq etishda ham ushbu tasnif tizimi muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Ertaklarning struktur-semantik tahliliga oid tadqiqotlar orasida V.Proppning “Sehrli ertaklar morfologiyasi” asari alohida oʻrin egallaydi. Olim sehrli ertaklar syujetini tashkil etuvchi barqaror funksiyalarni aniqlab, ertak tuzilishining universal modelini yaratgan. Propp nazariyasi ertaklarning ichki kompozitsion qonuniyatlarini ochib berishi bilan ahamiyatlidir hamda ingliz va oʻzbek xalq ertaklarini qiyosiy oʻrganishda samarali metodologik asos boʻlib xizmat qiladi [3].

Ingliz folklorshunosligida xalq ertaklari va afsonalarini toʻplash, nashr etish hamda ilmiy sharhlash borasida J.Jacobs [4], K.Briggs [5], A.Lang [6] kabi tadqiqotchilarning xizmatlari katta. Ular tomonidan jamlangan ertak namunalari ingliz xalq ogʻzaki ijodining milliy xususiyatlarini, mifologik qarashlarini va axloqiy qadriyatlarini oʻzida aks ettiradi. Mazkur tadqiqotlar ingliz ertaklarining janr xususiyatlari va obrazlar tizimini aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

Oʻzbek folklorshunosligida esa xalq ertaklarini ilmiy asosda oʻrganish XX asr boshlaridan boshlab tizimli ravishda rivojlandi. H.Zarifov [7], T.Mirzayev [8], B.Sarimsoqov [9], M.Joʻrayev [10], Sh.Turdimov [11] kabi olimlar oʻzbek xalq ertaklarining janr tasnifi, syujet turlari, obrazlar tizimi va badiiy xususiyatlarini chuqur tadqiq etganlar. Ularning ilmiy ishlanmalarida ertaklarning milliy oʻziga xosligi, tarbiyaviy ahamiyati hamda xalqning tarixiy-madaniy tafakkurini aks ettirishdagi oʻrni keng yoritilgan.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, oʻzbek va ingliz xalq ertaklarini alohida tadqiq etishga bagʻishlangan ishlar yetarli darajada mavjud. Biroq ularni tipologik va qiyosiy jihatdan kompleks tahlil qilishga qaratilgan izlanishlar nisbatan kam uchraydi. Ayniqsa, syujet-motiv tizimi, obrazlar semantikasi va madaniy kontekst asosida ikki xalq ertaklarini oʻzaro qiyoslash masalasi yetarli darajada yoritilmagan.



Shu bois mazkur tadqiqot mavjud ilmiy merosni umumlashtirish, ilgari surilgan nazariy yondashuvlarni tizimlashtirish hamda o‘zbek va ingliz xalq ertaklarining umumiy va milliy o‘ziga xos jihatlarini aniqlashga qaratilganligi bilan ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot o‘zbek va ingliz xalq ertaklarining tipologik hamda mazmuniy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda bir qator zamonaviy ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik negizini qiyosiy-tipologik yondashuv tashkil etadi. Ushbu metod orqali ikki xalq ertaklarining syujet-kompozitsion tuzilishi, obrazlar tizimi, motiv va mavzulari o‘zaro solishtirilib, ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlarini aniqlashtirildi. Mazkur yondashuv ertaklarning milliy va umuminsoniy xususiyatlarini ilmiy asosda yoritish imkonini beradi.

Ertaklarning ichki tuzilishi va kompozitsion qonuniyatlarini chuqurroq tahlil qilish maqsadida strukturaviy-semiotik metoddan foydalanildi. Bu metod Vladimir Propp tomonidan ilgari surilgan ertak morfologiyasi nazariyasiga asoslanib, syujet tarkibidagi funksiyalar va ularning ketma-ketligini aniqlashga xizmat qiladi. Natijada, o‘zbek va ingliz ertaklarining strukturaviy modeli o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar ochib berildi.

Shuningdek, ertaklarda aks etgan milliy qadriyatlar, madaniy belgilar va ramzlarni aniqlashda lingvokulturologik tahlil metodi qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida ertak matnlaridagi til birliklari, obrazli ifodalar hamda madaniy kodlar tahlil qilinib, har ikki xalqning dunyoqarashi va mentalitetiga xos jihatlar aniqlashtirildi.

Bundan tashqari, tadqiqotda tarixiy-genetik metoddan ham foydalanildi. Mazkur metod ertaklarning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti va madaniyatlararo aloqalar jarayonida yuzaga kelgan o‘xshashliklarni aniqlashga xizmat qildi. Shu asosda ayrim syujet va motivlarning umumiy ildizlari hamda mustaqil shakllanish jarayonlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbek va ingliz xalq ertaklarini qiyosiy-tipologik asosda o‘rganish natijasida ularning strukturaviy qurilishi, mazmuniy yo‘nalishi hamda obrazlar tizimida muhim umumiyliklar bilan bir qatorda, har bir xalqning tarixiy-madaniy taraqqiyoti bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlar mavjudligi aniqlandi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, har ikkala xalq ertaklari ham insoniyat uchun umumiy bo‘lgan ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi abadiy kurashni aks ettiradi. Biroq ushbu g‘oyaning ifodalanish shakli,

qahramonlarning xarakteri va syujet rivoji milliy mentalitet bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Qiyosiy tahlil natijalari asosida o‘zbek va ingliz xalq ertaklarining asosiy tipologik belgilarini quyidagi jadval orqali umumlashtirish mumkin:

1-jadval

O‘zbek va ingliz xalq ertaklarining qiyosiy tahlili

Qiyosiy mezonlar	O‘zbek xalq ertaklari	Ingliz xalq ertaklari
Kelib chiqishi va tarqalishi	Asosan og‘zaki an‘ana asosida shakllangan, ertakchilar orqali saqlangan	Og‘zaki an‘ana bilan birga erta yozma shaklda rivojlangan
Asosiy mavzular	Adolat, halollik, mehnatsevarlik, ijtimoiy tenglik	Jasorat, sarguzasht, shaxsiy erkinlik
Qahramonlar tipi	Oddiy xalq vakillari, mehnatkash obrazlar	Qirol, ritsar, sarguzashtchi qahramonlar
Ijtimoiy holat	Past tabaqadan chiqib, halollik orqali yuksalish	Quyi tabaqadan chiqib, jasorat va zukkolik orqali muvaffaqiyat
Sehrli elementlar	Dev, pari, ajdaho, sehrli buyumlar	Sehrgar, gigant, peri, sehrli vositalar
Syujet tuzilishi	An‘anaviy, ketma-ket sinovlar va yakunda g‘alaba	Dinamik, sarguzashtlarga boy rivoj
Axloqiy g‘oya	Jamoaviylik, sabr, hurmat, adolat	Individualizm, tashabbus, mustaqillik
Ayol obrazlari	Sabrli, dono, oilaparvar	Faol, mustaqil, harakatdagi obraz
Yovuz kuchlar	Dev, zolim podshoh, hasadgo‘y inson	Gigant, sehrgar, yovuz kuchlar
Mentalitet	Jamoaviy qadriyatlar ustuvor	Individual qadriyatlar ustuvor
Tarbiya	Ochiq didaktik yo‘nalish	Bilvosita, syujet orqali beriladi
Namunalar	“Zumrad va Qimmat” va boshqalar	“Jack and the Beanstalk” va boshqalar

Mazkur jadval asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalq ertaklarida ijtimoiy adolat, jamoaviylik va axloqiy poklik g‘oyalari markaziy o‘rinni egallaydi. Qahramon odatda oddiy xalq vakili bo‘lib, u o‘zining halolligi, sabr-toqati



va aql-zakovati orqali murakkab sinovlarni yengib o‘tadi. Bu jihat o‘zbek xalqining tarixan jamoaviylikka asoslangan turmush tarzi va ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiradi.

Ingliz xalq ertaklarida esa qahramon ko‘pincha faol, tashabbuskor va mustaqil shaxs sifatida gavdalanadi. U o‘z maqsadiga erishishda jasorat, zukkolik va ba‘zan ayyorlikdan foydalanadi. Bu esa ingliz jamiyatida shakllangan individualizm, shaxsiy erkinlik va tashabbuskorlik kabi qadriyatlarning folklorda aks etganini ko‘rsatadi.

Tipologik jihatdan har ikkala xalq ertaklarida Vladimir Propp tomonidan asoslab berilgan strukturaviy model elementlari – qahramonning safarga chiqishi, sinovlardan o‘tishi, yordamchi kuchlar bilan uchrashuvi va yakunda g‘alabaga erishishi – aniq kuzatiladi. Bu esa ertaklarning universal strukturaga ega ekanligini, ya‘ni ular insoniyat tafakkurining umumiy badiiy modeli asosida shakllanganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, ertaklarda qo‘llanilgan ramziy obrazlar ham muhim semantik yuklama kasb etadi. Masalan, o‘zbek ertaklarida dev va ajdaho ko‘pincha zulm va yovuzlik timsoli sifatida talqin etilsa, ingliz ertaklarida gigant va sehrgarlar shunga o‘xshash funksiyani bajaradi. Bu obrazlar orqali xalqning qo‘rquvlari, orzu-intilishlari va ijtimoiy tajribasi badiiy shaklda ifodalanadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar esa har ikki madaniyatda didaktik vazifani bajaruvchi muhim janr sifatida namoyon bo‘ladi. Ularda hayvonlar insoniy fazilatlarning ramziy ifodasi sifatida tasvirlanadi: tulki – ayyorlik, bo‘ri – yovuzlik, quyon – qo‘rqoqlik kabi. Bunday ertaklar orqali jamiyatda mavjud axloqiy me‘yorlar va ijtimoiy xulq-atvor modellari yosh avlod ongiga singdiriladi.

Masalan, “Sichqonning saboqlari” ertagida befarqlik va ijtimoiy mas‘uliyatsizlikning salbiy oqibatlari chuqur badiiy ifoda etilgan. Syujet davomida qahramonlar bir-birining muammosiga befarq qarashi natijasida oxir-oqibat barchaga zarar yetishi ko‘rsatiladi. Bu esa ertaklarning nafaqat tarbiyaviy, balki ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Umuman olganda, olib borilgan qiyosiy-tipologik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz xalq ertaklari umumiy strukturaviy asosga ega bo‘lsa-da, ularning mazmun-mohiyati va g‘oyaviy yo‘nalishi milliy mentalitet bilan belgilanadi. Mazkur ertaklar nafaqat folklor namunasi sifatida, balki zamonaviy ta‘lim jarayonida lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish hamda talabalarning tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim didaktik vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va ingliz xalq ertaklarini tipologik jihatdan qiyosiy tahlil qilish ularning bir tomondan umuminsoniy g‘oyalar – ezgulik va



yovuzlik kurashi, adolat, mehnatsevarlik hamda jasorat kabi universal qadriyatlarga asoslanganligini, ikkinchi tomondan esa har bir xalqning o'ziga xos milliy mentaliteti, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy qarashlarini o'zida aks ettirishini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, sehri, maishiy va hayvonlar haqidagi ertaklar har ikki xalq folklorida yetakchi tiplar sifatida namoyon bo'lib, ularning syujet-kompozitsion tuzilishi va obrazlar tizimida muayyan o'xshashliklar mavjud. Shu bilan birga, ertaklarning mazmuni, qahramonlar xarakteri hamda tarbiyaviy yo'nalishi milliy madaniyat ta'sirida shakllanganligi sababli ular o'ziga xos farqli jihatlarga ham ega.

Shuningdek, xalq ertaklari nafaqat adabiy va tarixiy meros sifatida, balki muhim pedagogik vosita sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ular yosh avlodda axloqiy fazilatlarni shakllantirish, estetik didni rivojlantirish, ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini singdirish hamda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishda samarali didaktik manba bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, o'zbek va ingliz xalq ertaklarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish til o'rganish samaradorligini oshirish, talabalarning tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ularni turli madaniy muhitlarga moslashuvchan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aarne A., Thompson S. The Types of the Folktale: A Classification and Bibliography. – Helsinki: Suomalainen Tiedeakatemia, 1961.
2. Uther H.-J. The Types of International Folktales: A Classification and Bibliography: In 3 vols. – Helsinki: Suomalainen Tiedeakatemia, 2004.
3. Propp V. Morphology of the Folktale. – Austin: University of Texas Press, 1968.
4. Jacobs J. English Fairy Tales. – London: David Nutt, 1890.
5. Briggs K. M. A Dictionary of British Folk-Tales in the English Language. – London: Routledge & Kegan Paul, 1970.
6. Lang A. The Blue Fairy Book. – London: Longmans, Green and Co., 1889.
7. Зарифов Х. Ўзбек халқ эртаклари. – Тошкент: Фан, 1967.
8. Мирзаев Т. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
9. Саримсоқов Б. Ўзбек фольклорининг жанр хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980.
10. Жўраев М. Ўзбек халқ эртакларининг поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2004.
11. Турдимов Ш. Фольклор ва адабиёт алоқалари. – Тошкент: Akademnashr.

TABIY FANLAR

FUNKSIYALAR SINFI HAQIDA TUSHUNCHA

ABIRAYEV IMOMALI MELIBOYEVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Oliy matematika” kafedrasi dotsenti

Fizika-matematika fanlari nomzodi

Email: ustozmat616@mail.ru

Tel.: +998 97 552-22-47

UDK: 519.64

SOATOVA MUAZZAM HAMID QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Oliy matematika” kafedrasi 2-kurs talabasi

Email: muazzamsatoava7@gmail.com

Kalit soʻzlar:

$E_s^\alpha(C)$ sinf,

$H_s^\alpha(C)$ sinf,

$D_s^\alpha(C)$ sinf,

birlik s oʻlchovli

G_s kub, Furye

koeffitsiyent.

Annotatsiya: Bu ishda $E_s^\alpha(C)$, $H_s^\alpha(C)$, $D_s^\alpha(C)$ sinflarga taʼrif berilib, quyidagilarni isbotlab berilgan: $H_s^\alpha(C)$ sinfiga tegishli istalgan davriy funksiya $E_s^\alpha(C)$ sinfiga ham tegishli boʻladi. Agar $f(x_1, \dots, x_s)$ funksiyalar E_s^α sinfiga tegishli boʻlsa, u holda ularning ixtiyoriy s' ($1 \leq s' < s$) oʻzgaruvchilari boʻyicha qaralishi natijasida ular $E_{s'}^\alpha$ sinfiga tegishli boʻladi. Faraz qilaylik, $f_1(x_1, \dots, x_s)$ va $f_2(x_1, \dots, x_s)$ funksiyalar mos ravishda $E_s^\alpha(C_1)$ va $E_s^\alpha(C_2)$ sinflariga tegishli boʻlsin. U holda, istalgan B_1 va B_2 uchun $B_1 f_1 + B_2 f_2 \in E_s^\alpha(|B_1|C_1 + |B_2|C_2)$ va $f_1 f_2 \in E_s^\alpha(AC_1 C_2)$, bu yerda $A \leq \left[2^{\alpha+1} \left(3 + \frac{2}{\alpha-1}\right)\right]^s$.

КОНЦЕПЦИЯ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО КЛАССА

Ключевые слова: **Аннотация:** В данной работе дано определение классы класс $E_s^\alpha(C)$, класс $E_s^\alpha(C)$, $H_s^\alpha(C)$, $D_s^\alpha(C)$ и доказано следующее: любая периодическая функция, принадлежащая классу $H_s^\alpha(C)$, также принадлежит классу $E_s^\alpha(C)$. Если функции $f(x_1, \dots, x_s)$ принадлежат классу E_s^α , то если

мерний куб,
коэффициент
Фурье.

рассматривать их через произвольные переменные s' ($1 \leq s' < s$) они принадлежат классу $E_{s'}^\alpha$. Предположим, что функции $f_1(x_1, \dots, x_s)$ и $f_2(x_1, \dots, x_s)$ принадлежат классам $E_s^\alpha(C_1)$ и $E_s^\alpha(C_2)$ соответственно. Затем, для любых B_1 и B_2 $B_1 f_1 + B_2 f_2 \in E_s^\alpha(|B_1|C_1 + |B_2|C_2)$ и $f_1 f_2 \in E_s^\alpha(AC_1 C_2)$, где $A \leq \left[2^{\alpha+1} \left(3 + \frac{2}{\alpha-1}\right)\right]^s$.

CONCEPT OF FUNCTION CLASS

Keywords:

$E_s^\alpha(C)$ class,
 $H_s^\alpha(C)$ class,
 $D_s^\alpha(C)$ class,
 G_s cube of unit
dimension s ,
Fourier coefficient.

Abstract: In this work, the classes $E_s^\alpha(C)$, $H_s^\alpha(C)$, $D_s^\alpha(C)$, are defined and the following is proved: Any periodic function belonging to the class $H_s^\alpha(C)$ also belongs to the class $E_s^\alpha(C)$. If the functions $f(x_1, \dots, x_s)$ belong to the class E_s^α , then, when considered in terms of arbitrary variables s' ($1 \leq s' < s$), they belong to the class $E_{s'}^\alpha$. Suppose that the functions $f_1(x_1, \dots, x_s)$ and $f_2(x_1, \dots, x_s)$ belong to the classes $E_s^\alpha(C_1)$ and $E_s^\alpha(C_2)$, respectively. Then, for any B_1 and B_2 $B_1 f_1 + B_2 f_2 \in E_s^\alpha(|B_1|C_1 + |B_2|C_2)$ and $f_1 f_2 \in E_s^\alpha(AC_1 C_2)$, here $A \leq \left[2^{\alpha+1} \left(3 + \frac{2}{\alpha-1}\right)\right]^s$.

KIRISH

Fizika, biologiya, mexanika, iqtisodiyot, sotsiologiya kabi turli fan sohalarida uchraydigan murakkab jarayon va hodisalarni o'rganishda matematik modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshqaruv nazariyasida signallarni qayta tiklash, mikroobyektlarni kuzatish masalalarini optimallashtirish, spektroskopiya muammolari, uch yulduzli tizimlarning haqiqiy konfiguratsiyalarini aniqlash, tutilish tizimlarining yorug'lik egri chiziqlarini talqin qilish kabi ko'plab amaliy vazifalar tabiiy ravishda Fredholm yoki Volterra tipidagi integral tenglamalar tizimlariga keltiriladi. Shuningdek, turli chegaraviy masalalarni yechishda ham integral tenglamalar muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Fredholm tipidagi integral tenglamalar va ularning tizimlarini analitik hamda taqribiy yechish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Analitik usullar – xususan, Laplas, Furiye, Mellin kabi integral o'zgartirishlarga asoslangan

yondashuvlar – nazariy jihatdan muhim bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish sohasi ma’lum turdagi masalalar bilan cheklanadi hamda amaliy jihatdan, ayniqsa kompyuterda hisoblashda, murakkabliklar keltirib chiqaradi.

Shu sababli integral tenglamalarni yechishda sonli usullar alohida ahamiyatga ega. Jumladan, kvadratura va kubatura formulalari, iteratsion yondashuvlar, proyeksiya usullari (momentlar usuli, Galerkin-Petrov usuli, kollokatsiya usuli va boshqalar) samarali va keng qo‘llaniladigan metodlar hisoblanadi. Ushbu usullar murakkab integral tenglamalarni amaliy jihatdan yechish, ularning yaqinlashuvchi yechimlarini topish imkonini beradi.

Demak, Fredholm va Volterra tipidagi yadrolarga ega bo‘lgan bir o‘lchovli hamda ko‘p o‘lchovli integral tenglamalar tizimlarini sonli yechish uchun samarali algoritmlar ishlab chiqish hisoblash matematikasining dolzarb va muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Funksiya $f(x_1, \dots, x_s)$ birlik s o‘lchovli G_s kubda, ya’ni $0 \leq x_v \leq 1$ ($v = 1, 2, \dots, s$) oraliqda uzluksiz bo‘lsin va har bir o‘zgaruvchi x_1, \dots, x_s bo‘yicha davriy (bir davrli) bo‘lsin. Ushbu funksiyaning Fur’ye koeffitsiyentlarini $C(m_1, \dots, m_s)$ orqali belgilaymiz:

Iqtisodiy-ma'rifiy mexanizm asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning iqtisodiy tushunchalarni anglash darajasi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Xususan, o'quvchilar oilaviy daromad va xarajatlarni rejalashtirish, resurslardan oqilona foydalanish, foyda va zarar tushunchalarini kundalik hayotiy vaziyatlar bilan bog'lab tahlil qila olish qobiliyatiga ega bo'ldilar. Bu holat ularning iqtisodiy jarayonlarga nisbatan ongli va tanqidiy munosabatini shakllantirishga xizmat qildi.

Amaliy-faoliyat mexanizmi doirasida o'quvchilarning oilaviy tadbirkorlik faoliyatidagi ishtiroki sezilarli darajada faollashdi. O'quvchilar mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, savdo jarayonlarini tashkil etish hamda daromad va xarajatlarni hisoblashda bevosita qatnashdilar. Natijada ularda mustaqil qaror qabul qilish, tashabbuskorlik va iqtisodiy mas'uliyatni his etish ko'nikmalari barqaror rivojlandi. Iqtisodiy bilimlarning amaliy faoliyat bilan uyg'unlashuvi iqtisodiy tarbiyaning nazariy darajada qolib ketishining oldini oldi.

Motivatsion-qadriyatli mexanizm ta'sirida o'quvchilarda mehnatsevarlik, halollik, tejamkorlik hamda iqtisodiy mustaqillikka intilish kabi shaxsiy sifatning rivojlanishi kuzatildi. Oilaviy tadbirkorlik faoliyati jarayonida erishilgan ijobiy natijalar o'quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytirib, ularning tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan qiziqishini barqaror holatga keltirdi. Bu holat iqtisodiy tarbiya jarayonining uzoq muddatli samaradorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.

Ijtimoiy-hamkorlik mexanizmi asosida oila, maktab va mahalla o'rtasidagi pedagogik hamkorlikning kuchaygani aniqlandi. Ota-onalar, pedagoglar hamda mahalliy tadbirkorlar ishtirokida tashkil etilgan tadbirlar o'quvchilarda real iqtisodiy muhit to'g'risida kengroq tasavvur hosil bo'lishiga xizmat qildi. Ushbu hamkorlik o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirib, ularni jamiyatda mas'uliyatli iqtisodiy subyekt sifatida shakllantirishga zamin yaratdi [4, 48].

Monitoring va refleksiya mexanizmi orqali o'quvchilarning iqtisodiy bilimlari, amaliy ko'nikmalari hamda motivatsion holati muntazam baholab borildi. O'z-o'zini baholash va tahlil qilish jarayonlari o'quvchilarda iqtisodiy faoliyatga nisbatan

tanqidiy yondashuvni rivojlantirib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish imkonini berdi. Natijada iqtisodiy tarbiya jarayonining umumiy samaradorligi oshib, uning barqaror rivojlanishi ta'minlandi.

1-jadval

O'quvchilarda iqtisodiy tarbiya barqarorligini ta'minlovchi mexanizmlar va ularning natijalari

№	Pedagogik mexanizmlar	Mazmuni	O'quvchilarda shakllangan natijalar
1	Iqtisodiy-ma'rifiy mexanizm	Iqtisodiy bilimlar, tushunchalar va iqtisodiy tafakkurni shakllantirish	Iqtisodiy ongning oshishi, daromad-xarajatlarni tushunish, resurslardan oqilona foydalanish ko'nikmalarining rivojlanishi
2	Amaliy-faoliyat mexanizmi	Bilimlarni oilaviy tadbirkorlik faoliyati orqali amaliyotga tatbiq etish	Mustaqil qaror qabul qilish, tashabbuskorlik, mas'uliyat va amaliy tadbirkorlik ko'nikmalarining shakllanishi
3	Motivatsion-qadriyatli mexanizm	Iqtisodiy faoliyatga nisbatan ijobiy munosabat va ichki rag'batni kuchaytirish	Mehnatsevarlik, tejamkorlik, halollik va iqtisodiy mustaqillikka intilish sifatlarining barqaror rivoji
4	Ijtimoiy-hamkorlik mexanizmi	Oila, maktab va mahalla hamkorligini yo'lga qo'yish	Ijtimoiy faollikning oshishi, real iqtisodiy muhitni anglash, jamoada ishlash ko'nikmalarining rivojlanishi
5	Monitoring va refleksiya mexanizmi	Iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni baholash va tahlil qilish	O'z-o'zini baholash, tanqidiy fikrlash, iqtisodiy faoliyatni takomillashtirishga intilish

Umuman olganda, tadqiqot natijalari oilaviy tadbirkorlik mexanizmlarini ta'lim jarayoniga tizimli integratsiyalash o'quvchilarda iqtisodiy tarbiya barqarorligini ta'minlashda yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Ushbu yondashuv o'quvchilarda iqtisodiy ong va tadbirkorlik kompetensiyalarining izchil rivojlanishini ta'minlab, ularni kelajakdagi mustaqil iqtisodiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi.



MUHOKAMALAR

Mazkur tadqiqot natijalari umumta'lim maktablari o'quvchilarida tadbirkorlik va iqtisodiy tarbiya barqarorligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlik mexanizmlarini ta'lim jarayoniga tizimli integratsiyalash muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Olingan natijalar milliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar bilan uyg'unlikda bo'lib, iqtisodiy tarbiya jarayonining faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasdan, amaliy faoliyat asosida tashkil etilishi zarurligini yana bir bor ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida aniqlangan iqtisodiy-ma'rifiy mexanizmning samaradorligi xorijiy ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan iqtisodiy ongni shakllantirish konsepsiyalari bilan mos keladi. Jumladan, "Junior Achievement" dasturlari doirasida olib borilgan tadqiqotlarda iqtisodiy tushunchalarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lab o'qitish o'quvchilarning iqtisodiy savodxonligini oshirishga xizmat qilishi isbotlangan. Mazkur tadqiqot natijalari ham ushbu yondashuvning umumta'lim maktablari sharoitida yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi.

Amaliy-faoliyat mexanizmi bo'yicha olingan natijalar iqtisodiy bilimlarni bevosita amaliyotga tatbiq etish orqali o'quvchilarda barqaror iqtisodiy xulq-atvor shakllanishini ko'rsatdi. Bu holat Rossiya va Yevropa olimlarining tadbirkorlik ta'limida tajribaga asoslangan yondashuvning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlovchi ilmiy xulosalari bilan uyg'unlashadi. O'quvchilarning oilaviy tadbirkorlik faoliyatida faol ishtirok etishi ularning mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari va iqtisodiy mas'uliyat hissini sezilarli darajada kuchaytirgani aniqlangan.

Ijtimoiy-hamkorlik mexanizmi bo'yicha olingan natijalar maktab-oila-mahalla-jamiyat hamkorligi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining yuqori pedagogik samaradorligini namoyon etdi. Mahalla va mahalliy tadbirkorlar bilan hamkorlik o'quvchilarda real iqtisodiy muhitni chuqurroq anglashga xizmat qilib, ularning ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas'uliyatini oshirdi. Ushbu holat milliy pedagogik tadqiqotlarda ilgari surilgan hamkorlik pedagogikasi konsepsiyasining amaliy tasdig'i sifatida baholanishi mumkin.

Monitoring va refleksiya mexanizmi natijalari iqtisodiy tarbiya jarayonining barqarorligi muntazam tahlil va baholash orqali ta'minlanishini ko'rsatdi. O'quvchilarda o'z-o'zini baholash, tahlil qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishi ularning iqtisodiy faoliyatga nisbatan ongli yondashuvini kuchaytirdi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligi, obyektivligi va takrorlanuvchanligini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.



Umuman olganda, tadqiqot natijalari mavjud ilmiy yondashuvlarni yanada boyitib, umumta'lim maktablari sharoitida oilaviy tadbirkorlik mexanizmlariga asoslangan iqtisodiy tarbiya modeli yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Mazkur model o'quvchilarda iqtisodiy ong, tadbirkorlik kompetensiyalari hamda ijtimoiy mas'uliyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi va kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy-amaliy tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari umumta'lim maktablari o'quvchilarida iqtisodiy tarbiya barqarorligini ta'minlash va takomillashtirish jarayonida pedagogik hamda tadbirkorlik yondashuvlarini uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Iqtisodiy tarbiyani shakllantirishga doir iqtisodchilar, pedagoglar, faylasuflar va texnologlar tomonidan ilgari surilgan turli yondashuvlar ushbu jarayonning murakkab va ko'p qirrali ekanligini, uning sabab va oqibatlarini tizimli tahlil qilish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, oilaviy tadbirkorlik mexanizmlarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash o'quvchilarda iqtisodiy ong, iqtisodiy tafakkur va tadbirkorlik kompetensiyalarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Iqtisodiy bilimlarning amaliy faoliyat bilan uyg'unlashuvi o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, mas'uliyatli qaror qabul qilishi hamda iqtisodiy jarayonlarga ongli munosabatini shakllantirishga zamin yaratadi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari umumta'lim maktablari sharoitida oilaviy tadbirkorlikka asoslangan iqtisodiy tarbiya modelini amaliyotga joriy etishning ilmiy-pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqligini asoslab beradi hamda kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar va pedagogik tajribalar uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish – eng muhim vazifamizdir: mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlangan nutq. – Toshkent, 2021 yil 20-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida": PF-60-son Farmon, 2022-yil 28-yanvar. – Toshkent, 2022.



3. Boboqulov S. B. Tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish sohasidagi islohotlar. – Toshkent: TDYUI, 2012. – B. 52.
4. Boboqulova D. M. O‘quvchilarda dastlabki tadbirkorlik, tejamkorlik va iqtisodiy tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirish: uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Ta‘lim, 2022.
5. Kuvandikov Sh. O. Xizmat ko‘rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlik: monografiya. – Samarqand, 2023

PEDAGOGIKA

ИННОВАЦИОННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ И СПОРТУ

АЗИЗОВА РУШЕН ИСМАИЛОВНА

Наманганский государственный педагогический институт

Доцент кафедры физической культуры и спорта

Email: rushenazizova59@gmail.com

УДК: 37.013.75:796:378.147

<https://orcid.org/0009-0004-5016-1707>

Ключевые слова: профессиональные компетенции, инновационные педагогические технологии, физическая культура и спорт, высшее образование, компетентностный подход, профессиональная подготовка.

Аннотация: В данной статье освещена проблема формирования профессиональных компетенций будущих специалистов, работающих в сфере физической культуры и спорта в условиях модернизации высшего образования. Научно и теоретически обоснована актуальность внедрения инновационных педагогических технологий в образовательный процесс в высших учебных заведениях по направлению физического воспитания. Раскрыты сущность и классификация инновационных педагогических технологий, проанализировано их влияние на развитие профессионально-педагогических, наставнических и коммуникативных компетенций студентов. Также определены педагогические условия эффективного использования инновационных технологий в процессе профессиональной подготовки будущих специалистов по физической культуре и спорту.

INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF SPECIALISTS IN PHYSICAL CULTURE AND SPORT

Keywords: professional competencies, innovative

Abstract: This article highlights the problem of forming the professional competencies of future specialists working in the field of physical culture and sports in the context of the modernization of higher education. The relevance of



pedagogical technologies, physical culture and sport, higher education, competency-based approach, professional training.

introducing innovative pedagogical technologies into the educational process in higher educational institutions in the field of physical education is scientifically and theoretically substantiated. The essence and classification of innovative pedagogical technologies are revealed, and their influence on the development of students' professional-pedagogical, coaching, and communicative competencies is analyzed. Also, the pedagogical conditions for the effective use of innovative technologies in the process of professional training of future specialists in physical culture and sports have been determined.

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDAGI MUTAXASSISLARNING PROFESSIONAL KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Kalit soʻzlar:

professional kompetensiyalar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, jismoniy tarbiya va sport, oliy taʼlim, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy tayyorgarlik.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada oliy taʼlimni modernizatsiya qilish sharoitida jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat yurituvchi boʻlajak mutaxassislarning professional kompetensiyalarini shakllantirish muammosi yoritilgan. Jismoniy tarbiya yoʻnalishidagi oliy taʼlim muassasalarida taʼlim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishning dolzarbligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning mohiyati va tasnifi ochib berilib, ularning talabalar professional-pedagogik, murabbiylik hamda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga koʻrsatadigan taʼsiri tahlil qilingan. Shuningdek, boʻlajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarni kasbiy tayyorlash jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlab berilgan.

ВВЕДЕНИЕ

Современный этап развития высшего образования характеризуется переходом от преимущественно теоретической модели обучения к компетентностно-ориентированной парадигме, что особенно актуально для системы подготовки специалистов в области физической культуры и спорта. Профессиональная деятельность будущих тренеров, преподавателей и

инструкторов требует не только высокого уровня теоретической и практической подготовленности, но и сформированных педагогических, коммуникативных, аналитических и цифровых компетенций.

В данных условиях существенно возрастает роль инновационных педагогических технологий, направленных на активизацию познавательной деятельности студентов, формирование профессионального мышления и развитие готовности к практической деятельности. Вместе с тем анализ педагогической практики показывает, что в ряде физкультурных высших учебных заведений инновационные технологии применяются фрагментарно и без должного системного педагогического обоснования, что в значительной степени снижает эффективность процесса формирования профессиональных компетенций обучающихся.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью научного осмысления и теоретического анализа возможностей использования инновационных педагогических технологий в системе профессиональной подготовки специалистов по физической культуре и спорту.

Цель исследования заключается в теоретическом обосновании и анализе роли инновационных педагогических технологий в формировании профессиональных компетенций специалистов по физической культуре и спорту.

В соответствии с поставленной целью в исследовании определены следующие задачи:

- раскрыть сущность профессиональных компетенций специалистов по физической культуре и спорту;
- охарактеризовать основные виды инновационных педагогических технологий;
- определить педагогические условия их эффективного применения в образовательном процессе физкультурных вузов;
- выявить влияние инновационных педагогических технологий на формирование профессиональных компетенций студентов.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ

Современный специалист в области физической культуры и спорта должен обладать высоким уровнем профессиональной мобильности, педагогической культуры и готовности к инновационной деятельности [8, 256]. В условиях модернизации высшего образования данные качества рассматриваются как ключевые факторы профессиональной успешности выпускников.



Педагогическая технология определяется как системный, целенаправленный и воспроизводимый процесс обучения, ориентированный на гарантированное достижение запланированных образовательных результатов [9, 192]. В этой связи инновационные образовательные технологии обеспечивают переход от традиционного академического обучения к контекстному обучению, моделирующему реальные условия будущей профессиональной деятельности специалиста.

Ряд исследований подтверждает, что использование инновационных образовательных технологий в профессиональной подготовке способствует формированию устойчивой готовности выпускников к самостоятельной и ответственной профессиональной деятельности [10, 347]. Профессиональная компетентность при этом рассматривается как интегративная характеристика личности специалиста, отражающая его готовность и способность эффективно осуществлять профессиональную деятельность на основе совокупности знаний, умений, практического опыта и личностных качеств [11, 176].

Существенный вклад в развитие компетентностного подхода в образовании вносит теория опытного обучения, подчёркивающая ключевую роль практического опыта в процессе обучения и профессионального развития личности [12, 416]. В контексте подготовки специалистов по физической культуре и спорту формирование профессиональных компетенций возможно лишь при системной организации образовательного процесса и целенаправленном использовании инновационных педагогических технологий [14, 304].

Многие авторы приходят к мнению о том, что подготовка специалистов в сфере физической культуры и спорта должна носить комплексный характер, обеспечивая единство физической, методической и педагогической составляющих профессиональной деятельности.

Инновационные педагогические технологии позволяют реализовать личностно-ориентированную модель профессионального образования, направленную на развитие субъекта профессиональной деятельности.

Эффективность профессиональной подготовки существенно возрастает при условии активного включения обучающихся в деятельность, максимально приближённую к реальной профессиональной практике.

Компетентностный подход ориентирует образовательный процесс на формирование у обучающихся способности самостоятельно решать профессиональные и жизненные задачи в условиях динамично изменяющейся профессиональной среды.



Особый интерес представляет концепция «Visible Learning», ключевая идея которой заключается в осознании преподавателем влияния собственной педагогической деятельности на результаты обучения студентов. Видимое обучение и преподавание реализуется тогда, когда преподаватель рассматривает образовательный процесс глазами обучающихся, что способствует повышению его эффективности. В целом современные системы образования должны быть ориентированы на формирование компетенций, обеспечивающих способность обучающихся адаптироваться к изменяющимся профессиональным условиям.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Методологическую основу исследования составили положения компетентностного, деятельностного и личностно-ориентированного подходов, реализуемых в системе профессионального образования.

В процессе исследования использовались следующие методы:

- теоретический анализ и обобщение научно-педагогической литературы;
- анализ нормативно-правовых документов в сфере высшего образования;
- педагогическое моделирование;
- методы систематизации и классификации.

Педагогический эксперимент включал три этапа:

1. Констатирующий этап – диагностика исходного уровня сформированности профессиональных компетенций студентов.
2. Формирующий этап – внедрение комплекса инновационных педагогических технологий в образовательный процесс экспериментальной группы.
3. Контрольный этап – повторная диагностика и анализ динамики показателей.

В контрольной группе образовательный процесс осуществлялся на основе традиционной методики обучения.

В экспериментальной группе применялся комплекс инновационных педагогических технологий, включающий:

- проектное обучение (разработка учебно-тренировочных проектов);
- проблемно-ситуационные задания;
- интерактивные и игровые методы обучения;
- цифровые образовательные технологии (видеоанализ, электронные портфолио, онлайн-платформы);
- рефлексивные методы самооценки профессиональной деятельности.

Для оценки уровня сформированности профессиональных компетенций использовались следующие методы:

- экспертная оценка преподавателей;
- самооценка студентов;
- анализ учебно-тренировочных проектов.

Оценивание проводилось по четырём компонентам профессиональной компетентности:

1. профессионально-педагогическая;
2. тренерско-методическая;
3. коммуникативная;
4. цифровая.

Прирост суммарного показателя уровня профессиональных компетенций (по 100-балльной системе) составил:

- в экспериментальной группе – +22,3 балла;
- в контрольной группе – +8,4 балла.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Профессиональные компетенции специалистов по физической культуре и спорту представляют собой интегративное образование, включающее совокупность знаний, умений, навыков, профессионально значимых личностных качеств и опыта деятельности, обеспечивающих успешное выполнение профессиональных функций.

В структуре профессиональных компетенций целесообразно выделить следующие компоненты:

- профессионально-педагогические компетенции (планирование, организация и анализ учебно-тренировочного процесса);
- тренерско-методические компетенции (подбор средств и методов тренировки, контроль и коррекция уровня физической подготовленности);
- коммуникативные компетенции (эффективное взаимодействие со спортсменами, обучающимися и коллегами);
- аналитико-рефлексивные компетенции (оценка эффективности профессиональной деятельности и готовность к саморазвитию).

К инновационным педагогическим технологиям, применяемым в системе подготовки специалистов по физической культуре и спорту, относятся:

- проектное обучение;
- проблемное обучение;

- модульно-компетентностная технология;
- интерактивные и игровые методы обучения;
- цифровые и дистанционные образовательные технологии.

Особое место среди инновационных педагогических технологий занимает проектное обучение, широко применяемое в системе профессиональной подготовки специалистов по физической культуре и спорту. Его значимость обусловлена ориентацией на практическую деятельность, развитие самостоятельности обучающихся, а также интеграцию теоретических знаний с решением реальных профессиональных задач.

В контексте компетентностного подхода проектное обучение рассматривается как целенаправленный педагогический процесс, в ходе которого студенты осваивают профессиональные компетенции посредством разработки и реализации учебно-практических проектов, моделирующих условия будущей профессиональной деятельности.

Проектное обучение в педагогических вузах представляет собой форму организации учебного процесса, при которой студенты самостоятельно или в малых группах планируют, реализуют и презентуют проекты, связанные с:

- организацией учебно-тренировочного процесса;
- разработкой программ физического воспитания;
- планированием тренировочных занятий;
- проведением спортивно-массовых мероприятий;
- анализом физической подготовленности и функционального состояния занимающихся.

Проект при этом выступает как целостный продукт профессиональной деятельности, включающий постановку цели, выбор адекватных средств и методов, практическую реализацию и рефлексию полученных результатов.

Использование данных педагогических технологий способствует переходу от репродуктивных форм обучения к активным и практико-ориентированным, что позволяет в образовательном процессе моделировать реальные условия будущей профессиональной деятельности.

Эффективность формирования профессиональных компетенций с применением инновационных педагогических технологий обеспечивается при соблюдении следующих педагогических условий:

- ориентация содержания обучения на решение реальных профессиональных задач;
- интеграция теоретической и практической подготовки;
- активное включение студентов в учебно-тренировочную и проектную



деятельность;

- систематическая рефлексия и самооценка профессионального развития.

Внедрение инновационных педагогических технологий способствует повышению мотивации студентов к обучению, формированию устойчивого интереса к будущей профессиональной деятельности, а также развитию способности к самостоятельному принятию профессионально значимых решений.

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Таким образом, инновационные педагогические технологии являются эффективным средством формирования профессиональных компетенций специалистов по физической культуре и спорту. Их использование в образовательном процессе физкультурных вузов обеспечивает практико-ориентированную направленность обучения, развитие профессионального мышления и готовность выпускников к успешной профессиональной деятельности.

Проектное обучение оказывает комплексное влияние на формирование профессиональных компетенций студентов:

- профессионально-педагогические компетенции формируются через планирование и проведение учебно-тренировочных занятий;
- тренерско-методические компетенции – через подбор средств, методов и контроль эффективности тренировочного процесса;
- коммуникативные компетенции – в процессе групповой работы, презентации и защиты проектов;
- аналитико-рефлексивные компетенции – через анализ результатов и самооценку деятельности;
- цифровые компетенции – при использовании электронных платформ, видеоанализа и цифровых средств мониторинга.

Перспективы дальнейших исследований связаны с экспериментальной проверкой эффективности конкретных инновационных технологий и разработкой методических рекомендаций по их внедрению в образовательный процесс.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Закон Республики Узбекистан «О физической культуре и спорте»: принят Законодательной палатой 24 июля 2015 г., одобрен Сенатом 6 августа 2015 г. – Ташкент, 2015. – С. 12-15. <https://lex.uz>



2. World Health Organization. Physical activity: Uzbekistan – 2022 Country Profile. – Geneva: WHO, 2022. – С. 3-4. <https://www.who.int/publications/m/item/physical-activity-uzb-2022-country-profile>
3. Azizov S. V., Azizova R. I., Mahmudjonov A., Tuxtaboyeva N. Sportchilarda o‘yin jarayonini yuqori darajada idrok qilish qobiliyatini shakllantirish – intellektual tayyorgarlikning asosiy vazifasi // Экономика и социум. 2024, № 9(124). – С. 117-123. <https://cyberleninka.ru/article/n/sportchilarda-o-yin-jarayonini-yuqori-darajada-idrok-qilish-qobiliyatini-shakllantirish-intellektual-tayyorgarlikning-asosiy/pdf>
4. Azizov S. V., Azizova R. I. Yoshlar tarbiyasida sport musobaqalarining o‘rni // Экономика и социум. 2024, № 9(124). – С. 57-65.
5. Азизова Р. И. Туризм как средство укрепления внутрисемейных отношений // Научный форум: педагогика и психология. 2022, № 1(57). – С. 20-23. [https://nauchforum.ru/files/2022_01_10_ped/1\(57\).pdf](https://nauchforum.ru/files/2022_01_10_ped/1(57).pdf)
6. Азизова Р. И. Трансформация междисциплинарных подходов в преподавании физической культуры // Евразийский журнал академических исследований. 2025, Т. 5, № 9 (Special Issue). – С. 453-457. <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/61189>
7. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. 4th ed. – Maidenhead: Open University Press, 2011. – P. 389.
8. Бальсевич В. К. Физическая культура: молодежь и современность. – М.: Наука, 2020. – С. 256.
9. Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 2018. – С. 192.
10. Вербицкий А. А. Контекстное обучение в высшей школе. – М.: Юрайт, 2021. – С. 347.
11. Зеер Э. Ф. Компетентностный подход в профессиональном образовании. – М.: Академия, 2019. – С. 176.
12. Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. 2nd ed. – New Jersey: Pearson Education, 2015. – P. 416.
13. Костикова О. В., Азизов С. В., Болтобаев С. А., Азизова Р. И., Махмуджонов А. А. Развитие у юных баскетболистов скорости и точности броска // Физическая культура, спорт – наука и практика. 2025. . – С.109-113.
14. Кузьмина Н. В. Профессионализм деятельности преподавателя. – СПб. : Питер, 2020. – С. 304.

PEDAGOGIKA

PEDAGOGIK MUHITDA SPORT O‘YINLARINING TA‘LIMIIY AHAMIYATI

SHOKIROV PULAT KARIMOVICH

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

“Jismoniy tarbiya” kafedrasi mudiri, dotsent

Email: PulatK@mail.ru

UDK: 37.013:796.01

<https://orcid.org/0009-0001-0329-7757>

Kalit so‘zlar:

pedagogik muhit,
pedagogik
texnologiyalar,
innovatsion
yondashuv,
o‘quvchi
kompetensiyasi,
sog‘lom turmush
tarzi.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada pedagogik muhit sharoitida sport o‘yinlarining ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil etilgan. Sport o‘yinlarining ta‘lim jarayonidagi o‘rni, ularning o‘quvchilarda jismoniy sifatlar bilan bir qatorda ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Xususan, sport o‘yinlari orqali o‘quvchilarda jamoada ishlash, muloqot madaniyati, raqobatbardoshlik, irodaviy sifatlar, mustaqil fikrlash hamda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, sport o‘yinlarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, ularni ta‘lim mazmuni bilan integratsiyalash va mashg‘ulotlar jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan. Sport o‘yinlarining o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ta‘lim samaradorligini kuchaytirish hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi o‘rni ilmiy dalillar asosida bayon etilgan.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ СПОРТИВНЫХ ИГР В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ СРЕДЕ

Ключевые слова:

педагогическая
среда,
педагогические

Аннотация: В данной статье научно-теоретически и практически проанализированы образовательные, воспитательные и развивающие возможности спортивных игр в условиях педагогической среды. Обоснована роль

технологии,
инновационный
подход,
компетенция
учащегося,
здоровый образ
жизни.

спортивных игр в образовательном процессе, их значение в формировании у учащихся наряду с физическими качествами социально-психологических компетенций. В частности, освещены возможности развития у учащихся навыков работы в команде, культуры общения, конкурентоспособности, волевых качеств, самостоятельного мышления и принятия решений посредством спортивных игр. Также рассмотрены вопросы организации спортивных игр на основе педагогических технологий, их интеграции с содержанием образования и использования инновационных методов в процессе тренировок. На основе научных данных изложена роль спортивных игр в повышении интереса учащихся к урокам, усилении эффективности образования и формировании здорового образа жизни.

EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF SPORTS GAMES IN THE PEDAGOGICAL ENVIRONMENT

Keywords:

pedagogical environment, pedagogical technologies, innovative approach, student competence, healthy lifestyle.

Abstract:

In this article, the educational, upbringing, and developmental possibilities of sports games in the pedagogical environment are analyzed from a scientific-theoretical and practical point of view. The role of sports games in the educational process, their significance in the formation of socio-psychological competencies in students, along with physical qualities, is substantiated. In particular, the possibilities of developing students' skills in teamwork, communication culture, competitiveness, volitional qualities, independent thinking, and decision-making through sports games are highlighted. Also considered are the issues of organizing sports games based on pedagogical technologies, integrating them with the content of education, and using innovative methods in the training process. The role of sports games in increasing students' interest in lessons, increasing the effectiveness of education, and forming a healthy lifestyle is explained on the basis of scientific evidence.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quv jarayonining samaradorligini oshirish hamda barkamol shaxsni tarbiyalash masalalari pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda o'quvchilarning nafaqat aqliy, balki jismoniy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik muhitda sport o'yinlaridan foydalanish ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Sport o'yinlari o'zining mazmuni va metodik xususiyatlariga ko'ra o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularda jamoaviylik, intizom, mas'uliyat, tashabbuskorlik hamda muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sport o'yinlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning dars jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning faol ishtirokini ta'minlaydi hamda o'zlashtirish darajasini yaxshilaydi.

Sport o'yinlarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ta'lim sifati ko'rsatkichlarini oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuv asosida sport o'yinlaridan foydalanish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tezkor qaror qabul qilish hamda hayotiy vaziyatlarga moslashish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi [2, 47].

Pedagogik muhitda sport o'yinlarining ta'limiy ahamiyatini ilmiy asosda o'rganish, ularning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur maqola aynan ushbu masalalarni yoritishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqot pedagogika va jismoniy tarbiya sohasida tan olingan yetakchi olimlarning fundamental ilmiy qarashlariga tayangan holda olib borildi. Adabiyotlar tahlili jarayonida ta'lim va tarbiya masalalarining nazariy-metodologik asoslari, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport faoliyatining pedagogik mohiyati tizimli ravishda o'rganildi.

Xususan, ta'lim jarayonining didaktik asoslarini yoritishda Ya.A. Komenskiyning ta'limda tabiiylik, izchillik va tizimlilik tamoyillariga oid g'oyalari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qildi [3, 416]. Ushbu qarashlar o'quv jarayonini yosh va individual xususiyatlarga mos holda tashkil etish, bilimlarni bosqichma-bosqich egallash hamda ta'lim samaradorligini oshirish masalalarini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Jismoniy tarbiya va sport faoliyatining nazariy hamda metodik jihatlarini tahlil qilishda L.P. Matveyev tomonidan ishlab chiqilgan jismoniy tarbiya nazariyasiga tayanildi. Uning konsepsiyasida jismoniy mashqlarni rejalashtirish, yuklamalarni ilmiy asosda boshqarish hamda jismoniy sifatlarni rivojlantirish masalalari yetakchi o‘rin egallaydi [4, 543]. Bu yondashuv tadqiqotda mashg‘ulot jarayonining ilmiy-metodik asoslarini aniqlashga imkon berdi.

Sport o‘yinlarini o‘qitish metodikasini asoslashda V.I. Lyaxning harakat ko‘nikmalarini shakllantirish, texnik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirishga oid ilmiy yondashuvlari muhim metodologik manba sifatida tahlil qilindi [5, 256]. Ushbu yondashuvlar sport o‘yinlarida o‘quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiyaning pedagogik mohiyatini ochib berishda P.F. Lesgaftning shaxsni har tomonlama va uyg‘un rivojlantirishga qaratilgan g‘oyalari alohida ahamiyat kasb etdi. Olim jismoniy tarbiyani faqat jismoniy rivojlanish vositasi sifatida emas, balki shaxsning aqliy, axloqiy va irodaviy sifatlarini shakllantirish omili sifatida talqin etadi [6, 400].

Milliy ilmiy manbalar doirasida A. Salomov hamda Sh.X. Xankeldiyevlarning jismoniy tarbiya va sport o‘yinlarining ta‘limiy-tarbiyaviy ahamiyatiga bag‘ishlangan ilmiy ishlari chuqur tahlil qilindi. Ularning tadqiqotlarida milliy ta‘lim tizimi sharoitida jismoniy tarbiyani tashkil etish, sport o‘yinlaridan pedagogik vosita sifatida samarali foydalanish masalalari yoritilgan bo‘lib, mazkur qarashlar tadqiqotning nazariy va metodologik poydevorini mustahkamlashga xizmat qildi [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot pedagogik muhitda sport o‘yinlaridan foydalanishning ta‘limiy samaradorligini aniqlash maqsadida olib borildi. Tadqiqot umumta‘lim muassasasi sharoitida tashkil etilib, unda jami 40 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Ishtirokchilar teng miqdorda ikki guruhga ajratildi: tajriba guruhi (20 nafar) va nazorat guruhi (20 nafar).

Nazorat guruhida mashg‘ulotlar an‘anaviy jismoniy tarbiya usullari asosida olib borildi. Tajriba guruhida esa ta‘lim jarayoniga sport o‘yinlari (harakatli va jamoaviy o‘yinlar) tizimli va maqsadli ravishda tatbiq etildi. Mashg‘ulotlar pedagogik maqsadlarga muvofiq holda rejalashtirilib, o‘yinlarning murakkablik darajasi bosqichma-bosqich oshirib borildi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, test sinovlari, suhbat hamda tahlil metodlaridan foydalanildi. Baholash mezonlari sifatida o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi va faolligi, jamoada ishlash ko‘nikmalari, intizom darajasi hamda o‘quv materiallarini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari belgilandi. Tadqiqot davomida

olingan ma'lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi.

Mashg'ulotlar jarayonida sport o'yinlari o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, ijobiy psixologik muhitni shakllantirish hamda jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirildi. Pedagogik kuzatuvlar asosida tajriba guruhi o'quvchilarining mashg'ulotlardagi tashabbuskorligi, muloqot faolligi va ijtimoiy moslashuv darajasi muntazam qayd etib borildi.

NATIJALAR

Tadqiqot yakunida o'tkazilgan nazorat sinovlari natijalari pedagogik muhitda sport o'yinlaridan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini yaqqol namoyon etdi. Tajriba va nazorat guruhlarida o'rtasida o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabati, faolligi hamda o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha muhim farqlar aniqlanib, tajriba guruhi foydasiga ijobiy natijalar qayd etildi.

Xususan, sport o'yinlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda qatnashgan tajriba guruhi o'quvchilarining dars jarayoniga bo'lgan qiziqishi va faol ishtiroki sezilarli darajada oshdi. O'yin elementlari darsning emotsional fonini yaxshilab, o'quvchilarning mashg'ulotlarga ixtiyoriy va faol jalb etilishiga zamin yaratdi. Natijada ularning dars jarayonidagi tashabbuskorligi va mustaqil faoliyati kuchaydi.

Tajriba guruhi o'quvchilarida jamoada ishlash, o'zaro muloqot qilish va hamkorlikda qaror qabul qilish ko'nikmalarining rivojlanishi kuzatildi. O'yin jarayonida yuzaga keladigan jamoaviy vazifalar o'quvchilarda mas'uliyat, intizom va o'zaro yordamga tayyorlik sifatlarining shakllanishiga xizmat qildi. Nazorat guruhi bilan solishtirilganda, tajriba guruhi o'quvchilarida ushbu ko'rsatkichlar barqaror va yuqori darajada namoyon bo'ldi.

Shuningdek, sport o'yinlari bilan boyitilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning bilish faolligini oshirib, ularning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'yin jarayonida o'quvchilar tezkor fikrlash, vaziyatni tahlil qilish hamda optimal qaror qabul qilish ko'nikmalarini egalladilar. Tajriba guruhi o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi nazorat guruhi bilan taqqoslanganda yuqoriroq va barqarorroq bo'lgani aniqlandi [8, 204].

Tahlillar sport o'yinlaridan foydalanish pedagogik muhitda ijobiy psixologik holatni shakllantirib, o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirganini ko'rsatdi. Dars jarayonida stress darajasi kamayib, sog'lom raqobat va samarali hamkorlik muhiti vujudga keldi. Bu esa o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligi va barqaror ishtirokini ta'minladi.

Umuman olganda, olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari sport o'yinlarini pedagogik jarayonga tizimli va maqsadli tatbiq etish ta'lim natijalarini sezilarli darajada yaxshilashini tasdiqlaydi. Sport o'yinlari o'quvchilarning nafaqat jismoniy, balki shaxsiy, ijtimoiy va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanligi ilmiy asosda isbotlandi. Olingan natijalar sport o'yinlaridan ta'lim tizimida keng foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

MUHOKAMALAR

Mazkur tadqiqot natijalari pedagogik muhitda sport o'yinlaridan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Olingan empirik ma'lumotlar sport o'yinlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning nafaqat jismoniy rivojlanishiga, balki ularning bilish faolligi, ijtimoiy moslashuvi hamda shaxsiy kompetensiyalarining shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Tajriba guruhi natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, sport o'yinlari bilan boyitilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning dars jarayoniga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirgan. Ushbu holat sport o'yinlarining emotsional-psixologik ta'siri bilan izohlanadi. O'yin jarayonida yuzaga keladigan raqobat, harakat faolligi va jamoaviy hamkorlik o'quvchilarni faol ishtirokka undab, ularning ta'lim jarayonida passiv emas, balki faol subyekt sifatida namoyon bo'lishiga zamin yaratdi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muhim jihatlardan yana biri sport o'yinlarining o'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli hisoblanadi. Xususan, jamoaviy o'yinlar orqali o'quvchilarda o'zaro muloqot qilish, hamkorlikda qaror qabul qilish, mas'uliyatni bo'lishish hamda jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish kabi sifatlar rivojlandi. Ushbu natijalar pedagogik kuzatuvlar va o'tkazilgan suhbatlar jarayonida ham yaqqol tasdiqlandi.

Nazorat guruhi bilan taqqoslaganda, tajriba guruhi o'quvchilarida intizom va tashabbuskorlik ko'rsatkichlarining yuqoriroq bo'lishi sport o'yinlarining tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatadi. O'yin jarayonida belgilangan qoidalarga qat'iy rioya etish zarurati o'quvchilarda o'zini boshqarish, intizom va iroda sifatlarining shakllanishiga xizmat qildi. Bu esa ta'lim jarayonida ijobiy psixologik muhitni ta'minlashga yordam berdi.

Olingan natijalar avvalgi pedagogik va jismoniy tarbiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar bilan hamohang bo'lib, sport o'yinlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida qo'llash ta'lim samaradorligini oshirish imkonini berishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mazkur tadqiqot natijalari sport o'yinlaridan tizimli va maqsadli foydalanish pedagogik jarayonni innovatsion jihatdan boyitishini tasdiqlaydi.



Umuman olganda, muhokama natijalari sport o'yinlarining pedagogik muhitda ko'p funksiyali ta'limiy vosita sifatida xizmat qilishini ko'rsatadi. Ular orqali o'quvchilarning jismoniy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi uyg'unlashib, ta'lim jarayonining umumiy sifati va samaradorligi oshadi. Mazkur holat sport o'yinlarini zamonaviy ta'lim tizimida keng joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

XULOSA

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va tajriba-sinov natijalari pedagogik muhitda sport o'yinlaridan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Sport o'yinlari o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini ta'minlash bilan bir qatorda, ularning bilish faolligi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ldi.

Tadqiqot natijalari sport o'yinlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarda jamoaviylik, intizom, mas'uliyat va tashabbuskorlik kabi muhim sifatlarni shakllantirishga xizmat qilishini tasdiqladi. Shuningdek, sport o'yinlari ta'lim jarayonida ijobiy psixologik muhitni yaratib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda o'zlashtirish darajasini yaxshilashga yordam berdi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, sport o'yinlarini pedagogik jarayonga tizimli va maqsadli tatbiq etish ta'lim sifatini oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, sport o'yinlaridan pedagogik vosita sifatida keng foydalanish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish hamda o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish zarur hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдуллаев Р. Основы педагогики. – Ташкент: Шарқ, 2016. – С. 352.
2. Karimovich Sh. P. Features of the organization of the educational process with students of special medical groups during the pandemic Covid-19 // JournalNX. 2021. – P. 231-236.
3. Коменский Я. А. Великая дидактика. – М.: Педагогика, 1989. – С. 416.
4. Матвеев Л. П. Теория и методика физической культуры. – М.: Физкультура и спорт, 2008. – С. 543.
5. Лях В. И. Физическая культура. Методика обучения. – М.: Просвещение, 2010. – С. 256.
6. Лесгафт П. Ф. Избранные педагогические сочинения. – М.: Педагогика,



1988. – С. 400.
7. Narziev S., Shokirov P., Rakhmonov N., Valieva Z., Saidova S. Theoretical analysis of the causes of injury in sports activities and their reduction measures // *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*. 2020, Vol. 12, Special Issue 2. – P. 166-170.
 8. Саломов А. Теория и методика физического воспитания. – Ташкент : Фан ва технология, 2015. – С. 280.
 9. Ханкельдиев Ш. Х. Методика обучения спортивным играм. – Ташкент : Ўқитувчи, 2018. – С. 210.
 10. Shokirov P. TDTU talabalari orasida sog‘lom turmush tarzi shakllanganligini o‘rganish // *ACTA NUUZ*. 2024, T. 1, № 1.2. – P. 242-246.
 11. Shovkiddin N., Elleonora Y., Nargiza X., Surayyo A., Pulat S. Provision of labor protection and analysis of injuries of active participants // *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*. 2021.
 12. Закон Республики Узбекистан «О физической культуре и спорте». – Ташкент, 2015.



PEDAGOGIKA

RAQAMLI MUHIT SHAROITIDA TALABALARNI MA'NAVYIY-AXLOQIY TARBIYALASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYALARI

DONAYEVA NOZIMAXON NORBO'TAYEVNA

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

"Pedagogika va psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi

Email: ndonayeva@dtpi.uz

UDK: 37.013.46

<https://orcid.org/0009-0004-5206-4644>

Kalit so'zlar:

raqamli muhit,
ma'naviy-axloqiy
tarbiya,
talaba-yoshlar,
qadriyatlar,
pedagogik
mexanizm,
raqamli etika
(netiket),
tajriba-sinov,
oila, tyutorlik
instituti, media-
immunitet,
akademik halollik.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada globallashtirish va jadal kechayotgan raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlarining ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish hamda ularda yuksak qadriyatlar tizimini qaror toptirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida 2022-2025-yillar mobaynida Guliston, Nukus va Denov pedagogika institutlari bazasida o'tkazilgan uch bosqichli pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijalari bayon etilgan. Sotsiologik so'rovnoma asosida talabalarining raqamli muhitdagi xulq-atvori, qadriyatlar iyerarxiyasi hamda raqamli etika darajasi aniqlangan. Tadqiqot natijalari talaba ma'naviyatini shakllantirishda oila omilining yuqori ta'sirga ega ekanini (79%), biroq raqamli makonda tyutorlik instituti va akademik muhit ta'sirining yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatdi. Maqolada tarbiya tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan interaktiv model va tamoyillar asoslab berilgan bo'lib, ishlab chiqilgan metodika asosida tajriba guruhida ma'naviy yetuklik koeffitsiyentining 14,2 foizga oshishiga erishilgan.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ

Ключевые слова: **Аннотация:** В данной статье с научной точки зрения

цифровая среда, духовно-нравственное воспитание, студенческая молодежь, ценности, педагогический механизм, цифровая этика (нетикет), эксперимент, семья, институт тьюторства, медиа-иммунитет, академическая честность.

проанализированы вопросы формирования духовно-нравственного облика студенческой молодежи высших учебных заведений в условиях глобализации и ускоряющейся цифровой трансформации, а также формирования у них системы высоких ценностей. В рамках исследования изложены результаты трехэтапных педагогических экспериментов, проведенных в 2022-2025 годах на базе Гулистанского, Нукусского и Денауского педагогических институтов. На основе социологических опросов определено поведение студентов в цифровой среде, иерархия ценностей и уровень цифровой этики. Результаты исследования показали, что фактор семьи оказывает высокое влияние на формирование духовности студента (79%), но влияние института тьюторства и академической среды в цифровом пространстве недостаточно сформировано. В статье обоснованы интерактивные модели и принципы, направленные на совершенствование системы воспитания, на основе разработанной методики достигнуто повышение коэффициента духовной зрелости в экспериментальной группе на 14,2 процента.

PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS IN THE DIGITAL ENVIRONMENT

Keywords:

digital environment, spiritual and moral education, student youth, values, pedagogical mechanism, digital ethics (neticet), experiment, family, tutoring institute, media immunity,

Abstract:

In this article, the issues of forming the spiritual and moral image of students of higher educational institutions and establishing a system of high values in them in the context of globalization and rapid digital transformation are scientifically analyzed. Within the framework of the study, the results of three-stage pedagogical experimental work, conducted in 2022-2025 on the basis of the Gulistan, Nukus, and Denau Pedagogical Institutes, are presented. Based on sociological surveys, the behavior of students in the digital environment, the hierarchy of values, and the level of digital ethics were determined. The research results showed that the



academic integrity. family factor has a high influence on the formation of student spirituality (79%), but the influence of the tutoring institute and the academic environment in the digital space is not sufficiently formed. The article substantiates an interactive model and principles aimed at improving the educational system, and based on the developed methodology, an increase in the coefficient of spiritual maturity by 14.2% was achieved in the experimental group.

KIRISH

XXI asrning birinchi choragi insoniyat sivilizatsiyasi tarixida “raqamli transformatsiya” davri sifatida muhrlanmoqda. Bugungi kunda raqamli muhit nafaqat texnologik qulayliklar majmui, balki yosh avlodning, xususan, talaba-yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi hamda ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi global ijtimoiy-pedagogik makonga aylandi. Zamonaviy ta’lim tizimi shiddatli axborotlashuv jarayonini boshidan kechirar ekan, talaba shaxsini tarbiyalashda an’anaviy metodlar bilan raqamli imkoniyatlar o‘rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish masalasi pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Raqamli muhit o‘zining interaktivligi, axborotning cheksizligi va muloqotning transchegaraviyligi bilan talabalarga ulkan intellektual imkoniyatlar eshigini ochdi. Biroq, ushbu muhitning “egasi yo‘qligi” va nazoratning qiyinligi natijasida u nafaqat ijobiy bilimlar manbai, balki “axborot xurujlari”, destruktiv g‘oyalar, milliy mentalitetga yot bo‘lgan “ommaviy madaniyat” namunalarini targ‘ib qiluvchi xavfli maydonga ham aylandi.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida [1], shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da [2] yoshlarni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan. Ayniqsa, oliy ta’lim bosqichida talaba-yoshlarning “ma’naviy immuniteti”ni mustahkamlash, ularni yot g‘oyalardan himoya qilish hamda raqamli madaniyatini yuksaltirish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas vazifalaridan biridir.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari uzoq yillar davomida pedagogik tadqiqotlarning markazida bo‘lib kelgan. Ammo raqamli muhitning o‘ziga xos xususiyatlari (anonimlik, tezkorlik va vizuallashuv) tarbiya jarayoniga yangi



parametrlarni olib kirdi. Hozirgi kunda talabalarning axloqiy tarbiyasida tyutorlar, pedagoglar va ota-onalarning roli raqamli texnologiyalar tomonidan siqib chiqarilayotganligi kuzatilmoqda. Bu esa tarbiya tizimini takomillashtirishda nafaqat an'anaviy pedagogik usullardan, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'zidan samarali tarbiya vositasi sifatida foydalanishni taqozo etadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli makon sharoitida talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimini takomillashtirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etishdan iborat. Ushbu maqsadga muvofiq ravishda quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Raqamli muhitning talabalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ko'rsatadigan transformatsion ta'sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish;
2. Talabalarning qadriyatlar iyerarxiyasini raqamli davr kontekstida empirik tadqiq etish;
3. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy faoliyat bilan raqamli platformalar integratsiyasini ta'minlovchi pedagogik modelni asoslash;
4. Talabalarda raqamli etika (netiket) va akademik halollik madaniyatini shakllantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot gipotezasi shundan iboratki, agar oliy ta'lim tizimida tarbiya jarayoni raqamli muhitning interaktiv imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirilsa hamda talabalarda mustaqil axborotni tanlash va tahlil qilish ko'nikmalari (media-immunitet) shakllantirilsa, ularning ma'naviy-axloqiy yetuklik darajasi sezilarli darajada oshadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli muhit sharoitida talabalarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogikada multidisiplinar yondashuvni talab etuvchi murakkab fenomen hisoblanadi. Mazkur muammoning nazariy-uslubiy asoslarini tahlil qilish jarayonida bir-birini to'ldiruvchi, ayrim hollarda esa o'zaro ziddiyatli bo'lgan bir qator fundamental ilmiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

O'zbek pedagog olimlari, jumladan, M. Quronov va U. Mahkamovlarning ilmiy tadqiqotlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari milliy o'zlikni anglash, "komil inson" g'oyasi hamda ajdodlar ma'naviy merosiga sodiqlik kontekstida yoritilgan [3]. Ularning konseptual yondashuviga ko'ra, tarbiya shaxs ongida tashqi mafkuraviy xurujlarga qarshi barqaror "ma'naviy immunitet"ni shakllantirish jarayonidir. Biroq, raqamli transformatsiya sharoitida mazkur tushuncha yangi mazmun kasb etmoqda. Endilikda talaba nafaqat real hayotda, balki cheksiz virtual makonda ham axloqiy saralash va tanlov qilish qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi. Tadqiqotimiz natijalari



shuni ko'rsatadiki, an'anaviy tarbiya metodlari raqamli muhitning texnologik va psixologik xususiyatlari (anonimlik, virtual reallik, tezkorlik) bilan to'qnash kelganda, ma'lum darajada samaradorligini yo'qotmoqda. Bu holat tarbiya tizimini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xorijiy pedagogik tadqiqotlarda shaxsning axloqiy rivojlanishi nazariy jihatdan chuqur o'rganilgan. Jumladan, amerikalik olim Albert Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, shaxsning xulqi va axloqiy qarashlari ijtimoiy muhit, kuzatish va tajriba asosida shakllanadi [4]. Bandura shaxs rivojlanishida ijtimoiy omillar, pedagogik ta'sir va muhitning hal qiluvchi rol o'ynashini ilmiy asoslab bergan. Shuningdek, Lawrence Kohlberg tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy rivojlanish nazariyasida shaxsning axloqiy qaror qabul qilish jarayoni bosqichma-bosqich shakllanishi asoslab berilgan [7]. Unga ko'ra, ta'lim jarayoni shaxsning axloqiy rivojlanishida muhim vosita hisoblanadi.

Zamonaviy ta'limning raqamli transformatsiyasi sharoitida bilim olish jarayoni yangi pedagogik yondashuvlar asosida rivojlanmoqda. Bu borada George Siemens tomonidan ishlab chiqilgan konnektivizm nazariyasi alohida ahamiyatga ega [13]. Ushbu nazariyaga ko'ra, raqamli muhitda bilim olish tarmoq asosida amalga oshiriladi va shaxsning rivojlanishida axborot texnologiyalari muhim rol o'ynaydi.

Jean Lave va Etienne Wenger tomonidan ishlab chiqilgan situativ o'rganish nazariyasida shaxs rivojlanishi ijtimoiy hamkorlik va pedagogik qo'llab-quvvatlash asosida amalga oshishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [9].

Axborot jamiyatining pedagogik paradigmalari tadqiq etgan Manuel Kastels o'zining tarmoqlashgan jamiyat nazariyasida raqamli makon shaxsiyatning fundamental transformatsiyasiga olib kelishini asoslab bergan [6]. Uning qarashlariga ko'ra, virtual reallik insonning axloqiy tanlov mezonlarini real hayotning qat'iy normalaridan uzib qo'yishi mumkin. Amerikalik olim Mark Prenski "raqamli tubjoy aholi" (digital natives) tushunchasi orqali zamonaviy talabalar axloqiy qadriyatlarni an'anaviy vertikal usulda emas, balki gorizontol – tarmoqli muloqot orqali qabul qilishini isbotlagan [10]. Bu holat pedagogik jarayonda an'anaviy metodlar samaradorligining pasayishiga sabab bo'lmoqda.

Rossiyalik tadqiqotchi L.N. Rulienening oliy ta'lim tizimining axborotlashuvini shunchaki texnik vositalar bilan ta'minlanish emas, balki chuqur ijtimoiy-madaniy evrilish deb baholaydi [12]. Rulienening qarashlariga ko'ra, raqamli muhitda talabaning sotsializatsiyasi "virtual subyektivlik" xarakteriga ega bo'ladi, ya'ni talaba raqamli makonda o'zining yangi axloqiy obrazini yaratadi. Bu yerda asosiy ontologik ziddiyat yuzaga keladi: bir tomondan real hayotning qat'iy axloqiy me'yorlari, ikkinchi tomondan virtual dunyoning mutlaq erkinligi va mas'uliyatsizligi.

Global miqyosda media-savodxonlik va raqamli etika masalalari UNESCOning strategik hujjatlarida hamda Ye.A. Bondarenko kabi ekspertlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan [5]. Ularning yondashuvida “axloqiy tanlov” (moral choice) tushunchasi markaziy o‘rinni egallaydi. Mayk Ribble tomonidan ilgari surilgan “Raqamli fuqarolik” konsepsiyasi talabalarda raqamli muhitda mas’uliyatli xulq-atvor, kiber-etika va akademik halollikni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asosi bo‘lib xizmat qiladi [11].

Adabiyotlar tahlili va mavjud pedagogik amaliyot sintezi natijasida raqamli muhitda tarbiya tizimini takomillashtirish quyidagi asosiy tamoyillarga tayanishi lozimligi aniqlanadi:

1. Tizimlilik – tarbiyaning barcha subyektlari (oilalar, oliy ta’lim muassasasi, ijtimoiy muhit)ning yagona raqamli tarbiya maqsadi atrofida uyg‘un faoliyat olib borishi;
2. Refleksivlik – talabaning raqamli makondagi har bir faoliyati (post joylashtirish, izoh qoldirish, axborot tarqatish) ortida axloqiy mas’uliyat mavjudligini anglatish;
3. Interaktivlik – tarbiyaviy muloqotni talaba uchun tanish bo‘lgan raqamli shakllar (media-loyihalar, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar) orqali tashkil etish.

Umumiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kungacha raqamli muhitning asosan texnik va axborot imkoniyatlari yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning ma’naviy-axloqiy tarbiyadagi instrumental va transformatsion salohiyati tizimli ravishda tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida ko‘p qirrali pedagogik yondashuvlar majmuasi tanlab olindi. Ushbu tizim raqamli muhitning dinamik tabiati bilan talaba shaxsining murakkab ma’naviy-axloqiy tuzilmasi o‘rtasidagi dialektik aloqani o‘rganishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning fundamental yondashuvlari quyidagilardan iborat:

1. Tizimli yondashuv – raqamli muhitda tarbiya jarayonini o‘zaro bog‘liq elementlar (pedagog, talaba, texnologik platforma va ma’naviy kontent) majmuasi sifatida tahlil qilish imkonini berdi.
2. Aksiologik (qadriyatli) yondashuv – talabalarning raqamli makondagi xatti-harakatlarini tahlil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asosiy mezon (indikator) sifatida belgilashga xizmat qildi.



3. Faoliyatli yondashuv – talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki virtual muloqot va ijtimoiy tarmoqlardagi amaliy faoliyati jarayonida namoyon bo‘ladigan axloqiy pozitsiyasini tadqiq etishga yo‘naltirildi.

Pedagogik eksperimentning ishonchliligini ta‘minlash maqsadida tadqiqot bazasi geografik va demografik jihatdan diversifikatsiya qilindi. Tajriba-sinov ishlari 2022-2025-yillar davomida Guliston davlat pedagogika instituti, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari ishtirokida bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Tadqiqotda jami 475 nafar talaba qatnashdi. Ulardan 241 nafari tajriba guruhi, 234 nafari nazorat guruhi sifatida tanlab olindi. Tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirishda talabalarning ta‘lim yo‘nalishi, o‘quv kursi, akademik faolligi, ma‘naviy-axloqiy rivojlanish darajasi hamda raqamli muhitdan foydalanish ko‘nikmalari inobatga olindi.

Tajriba va nazorat guruhlarini tarkibi o‘zaro muvozanatli shakllantirildi, bu esa tajriba natijalarining ob‘ektivligi va ishonchliligini ta‘minlash imkonini berdi. Guruhlarda turli kurs talabalari ishtirok etdi va bu tadqiqot natijalarini umumlashtirish imkoniyatini kengaytirdi.

Tadqiqot jarayoni mantiqiy ketma-ketlikda, bir-birini to‘ldiruvchi uch bosqichda olib borildi:

I. Diagnostik-tahliliy bosqich (2022-2023) – ushbu bosqichda falsafiy, psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlil qilinib, muammoning nazariy asosi shakllantirildi. L.Ya. Kozlova metodikasi asosida moslashtirilgan so‘rovnomalar hamda mualliflikka mansub “Raqamli muhitda axloqiy barqarorlik” savolnomasi yordamida dastlabki (bazaviy) ko‘rsatkichlar aniqlandi [8]. Bunda talabalarning “vijdon”, “nomus”, “adolat” va “milliy g‘urur” kabi tushunchalarni anglash chuqurligi (kognitiv darajasi) o‘lchandi.

II. Shakllantiruvchi-innovatsion bosqich (2023-2024) – eksperimentning asosiy bosqichi bo‘lib, unda raqamli muhitda tarbiyalashning takomillashtirilgan modeli amaliyotga joriy etildi. Modelning innovatsion komponenti sifatida tarbiyaviy ishlarning LMS (Canvas, Moodle) tizimlariga integratsiyasi hamda ijtimoiy media platformalarida “Raqamli etika”ga oid interaktiv keyslarni qo‘llash belgilandi. Shuningdek, talabalarda kiberbullingga qarshi immunitet va raqamli muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan treninglar tashkil etildi.

III. Nazorat-umumlashtiruvchi bosqich (2024-2025) – tajriba va nazorat guruhlaridan olingan yakuniy ma‘lumotlar qiyosiy tahlil qilindi. O‘zgarishlarning tasodifiy emasligini aniqlash maqsadida matematik-statistik tahlil usullari, xususan, Student t-testi qo‘llanildi. Tadqiqot natijalari umumlashtirilib, dissertatsiya va ilmiy



maqolalar shaklida rasmiylashtirildi.

Talabalarining ma'naviy-axloqiy takomillashuv darajasi quyidagi uchta integrallashgan indikator asosida baholandi:

1. Kognitiv-axloqiy indikator – ma'naviy kategoriyalar mohiyatini nazariy jihatdan bilish hamda raqamli muhitdagi axloqiy normalar to'g'risida tasavvurga egalik darajasi.

2. Aksiologik-motivatsion indikator – talabaning shaxsiy qadriyatlar tizimida adolat, halollik va milliy manfaatlarining ustuvorligi hamda virtual makonda axloqiy tanlov qilishga tayyorligi.

3. Konativ (amaliy-xulqiy) indikator – ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot odobi (netiket), axborotni tarqatishda mas'uliyatlilik, akademik halollik (plagiatga qarshi munosabat) va tyutorlar bilan raqamli muloqot samaradorligi.

Mazkur metodologik konstruktsiya tadqiqotning ilmiy ob'ektivligini ta'minlash bilan birga, oliy ta'lim tizimida raqamli muhitni samarali tarbiya vositasiga aylantirishning mustahkam nazariy-amaliy asosini yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning eksperimental bosqichida olingan empirik ma'lumotlar raqamli muhitning talabalarining ma'naviy-axloqiy shakllanishiga transformatsion ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqladi. Aniqlovchi bosqich natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarining 67 foizi "ma'naviyat" va 64,8 foizi "axloq" tushunchalari haqida muayyan nazariy tasavvurga ega bo'lsa-da, ushbu bilimlarning raqamli makonda amaliy qo'llanish darajasi yetarli emas.

Xususan, talabalarining 73,6 foizining o'quv jarayonida darsga daxldor bo'lmagan raqamli resurslarga chalg'ishi, shuningdek, 47,3 foizining akademik ko'chirmachilik (plagiat) holatlariga nisbatan betaraf munosabati mavjudligi "axloqiy relativizm" muammosi saqlanib qolayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot davomida aniqlangan eng muhim jihatlardan biri shundaki, talaba ma'naviyatini shakllantirishda oila ta'siri yuqori (79%) bo'lgani holda, oliy ta'lim muassasasining tarbiyaviy ta'siri atigi 3,3 foizni tashkil etgan. Ushbu nomutanosiblikning asosiy sababi sifatida tyutorlik institutining raqamli muhitdagi passivligi qayd etildi. Jumladan, talabalarining 51,6 foizi o'z tyutorini tanimasligini bildirgan.

Shakllantiruvchi bosqichda joriy etilgan interaktiv tarbiya modeli tajriba guruhida (TG) quyidagi ijobiy dinamikani namoyon etdi.

*1-jadval**Raqamli muhitda talabalarning ma'naviy-axloqiy takomillashuv darajasi ko'rsatkichlari (tajriba va yakuniy bosqichlar qiyosida)*

Baholash indikatorlari	TG (eksperimentgacha)	TG (eksperimentdan so'ng)	O'sish koeffitsiyenti
Kognitiv-ma'naviy bilimlar	64,8%	83,2%	+18,4%
Raqamli etika (Netiket)	38,5%	61,0%	+22,5%
Media-immunitet	42,1%	57,8%	+15,7%
Akademik halollik (Antiplagiat)	31,4%	59,9%	+28,5%

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, eng yuqori o'sish akademik halollik (+28,5%) va raqamli etika (+22,5%) indikatorlarida kuzatildi. Bu natijalar ishlab chiqilgan metodika talabalarda virtual mas'uliyat hissini uyg'otishda samarali ekanligidan dalolat beradi. Olingan natijalarning ishonchligi Student t-kriteriyasi yordamida tekshirilganda, tajriba va nazorat guruhlarida o'rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli ($p < 0.01$) ekanligi tasdiqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli muhit sharoitida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishga doir olib borilgan tadqiqotlar hamda 2022–2025-yillarda amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijalari quyidagi fundamental ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, raqamli transformatsiya sharoitida talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi an'anaviy pedagogik ta'sirlar va virtual muloqot madaniyati o'rtasidagi ziddiyatli muhitda shakllanmoqda. Tadqiqot jarayonida aniqlangan 79 foizlik oila ta'siri shuni ko'rsatadiki, ma'naviy poydevor asosan oilada qo'yiladi. Biroq raqamli makonda ushbu poydevorni akademik etikaga tizimli integratsiya qilish mexanizmi yetarli darajada shakllanmagan bo'lib, oliy ta'lim muassasalarining tarbiyaviy ta'siri atigi 3,3 foizni tashkil etmoqda. Mazkur holat mazkur sohada tizimli inqiroz mavjudligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, talabalarning qadriyatlar tizimida Adolat (57,4%) va Vijdon

(38,2%) kabi axloqiy kategoriyalar nisbatan yuqori o‘rinda tursa-da, raqamli muhitda ushbu qadriyatlar amaliy xulq-atvor va ko‘nikma (konativ komponent) sifatida yetarlicha namoyon bo‘lmayapti. Xususan, respondentlarning 47,3 foizida akademik insofsizlik (plagiat) holatlariga moyillik, 73,6 foizida esa dars jarayonida raqamli chalg‘ishlar kuzatilgani oliy ta‘lim tizimida “Raqamli etika” (Netiket) madaniyatini shakllantirish zaruratining kechiktirib bo‘lmasligini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, tajriba guruhlarida joriy etilgan takomillashtirilgan tarbiyaviy metodika (interaktiv raqamli kontent, virtual tyutorlik hamda media-immunitetni rivojlantirishga yo‘naltirilgan treninglar)ning samaradorligi statistik jihatdan isbotlandi. Eksperiment yakunlariga ko‘ra, tajriba guruhida ma‘naviy-axloqiy yetuklik koeffitsiyenti nazorat guruhiga nisbatan 14,2 foizga oshdi. Bu esa tarbiya jarayonini raqamli platformalar bilan integratsiyalash orqali talabalarda tashqi nazoratdan ichki, refleksiv nazoratga o‘tish mexanizmi shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda, raqamli muhitda talabalar tarbiyasi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1) O‘quv dasturlariga integratsiya qilish: barcha ta‘lim yo‘nalishlarida “Raqamli etika va akademik halollik” nomli maxsus o‘quv modulini joriy etish. Mazkur modul talabalarda nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki axborotni axloqiy baholash va saralash (media-immunitet) kompetensiyalarini shakllantirishi lozim.

2) Tyutorlik institutini raqamlashtirish: talabalarning 51,6 foizi tyutorini tanimasligi bilan bog‘liq muammoni bartaraf etish maqsadida oliy ta‘lim muassasalarida “Smart-Tyutor” mobil platformalarini joriy etish. Tarbiyaviy muloqotni talabalar faol bo‘lgan messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy keyslar shaklida tashkil etish.

3) Akademik muhitning jozibadorligini oshirish: talabalarning ma‘naviy ideallari shakllanishida oliy ta‘lim muassasasining rolini kuchaytirish maqsadida professor-o‘qituvchilarning shaxsiy “raqamli brendi”ni rivojlantirish, ularning ijtimoiy tarmoqlardagi ilmiy-ma‘rifiy faolligini rag‘batlantirish.

4) Monitoring tizimini joriy etish: talabalarning ma‘naviy-axloqiy holatini muntazam baholab borish uchun raqamli diagnostik so‘rovnomalar tizimini doimiy monitoring vositasi sifatida joriy etish (jumladan, mazkur tadqiqotda qo‘llanilgan L.Ya. Kozlova metodikasi asosida).

Xulosa qilib aytganda, raqamli muhit faqat texnologik makon emas, balki talabaning yangi axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi muhim pedagogik reallik hisoblanadi. Ushbu tizimni izchil takomillashtirish oliy ta‘limning raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, milliy ma‘naviyatimizning barqarorligini



ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, 2022 yil 28 yanvar. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni, 2019 yil 8 oktyabr. <https://lex.uz/docs/4545884>
3. Quronov M. Ma'naviyat va tarbiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent : Ma'naviyat, 2018. – B. 230.
4. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977.
5. Бондаренко Е. А. Технологии медиаобразования в процессе формирования информационной культуры личности. – М: АНО «Информация для всех», 2007. – С. 30.
6. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishing, 2010. – P. 597.
7. Kohlberg L. The Psychology of Moral Development. – San Francisco: Harper & Row, 1984.
8. Козлова Л. Я. Методика диагностики ценностных ориентаций и нравственного развития личности. – М: Психология и жизнь, 2012. – С. 45.
9. Lave J., Wenger E. Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation. – Cambridge University Press, 1991.
10. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants. – MCB University Press, 2001.
11. Ribble M. Digital Citizenship in Schools. – ISTE, 2015.
12. Рулиене Л. Н. Образовательный процесс современного университета: монография. – Улан-Удэ: Изд-во Бурятского государственного университета, 2013. – С. 149.
13. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. – eLearning-Science, 2005.



PEDAGOGIKA

TALABALARDA DEONTOLOGIK MADANIYATNI TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI

PARDAYEVA RA'NO ESHBOYEVNA

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası 2-kurs tayanch doktoranti

Email: pardaevarano1242@gmail.com

Tel: +998 99 711-12-42

UDK: 378.147:174

<https://orcid.org/0009-0004-1838-998X>

Kalit soʻzlar:

deontologik madaniyat, kasbiy etika, pedagogik tamoyillar, axloqiy yetuklik, refleksiya, integrativlik, uzluksizlik, shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim.

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda deontologik madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari hamda uni takomillashtirishga xizmat qiluvchi tamoyillar tizimi izchil tahlil etilgan. Deontologik madaniyat tashqaridan yuklatiladigan qoidalar majmui sifatida emas, balki talabaning ichki axloqiy yetukligi va kasbiy masʼuliyatini shakllantiruvchi uzluksiz jarayon sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuv asosida deontologik madaniyatni rivojlantirishning uch bosqichli modeli – bilimdan koʻnikmaga, koʻnikmadan esa qadriyatga oʻtish zanjiri taklif etilgan. Ushbu model talabaning nazariy bilimlarni egallashi, ularni amaliy faoliyatda qoʻllay olishi hamda natijada ichki eʼtiqod va barqaror kasbiy qadriyatlarga aylantirish jarayonini ifodalaydi. Shuningdek, deontologik madaniyatni rivojlantirishning besh muhim tamoyili – integrativlik, uzluksizlik, shaxsga yoʻnaltirilganlik, refleksivlik hamda ijobiy namuna nazariy jihatdan asoslab berilgan. Tamoyillarni amaliyotga tatbiq etish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar, metodik vositalar hamda kutilayotgan natijalar tizimli ravishda bayon qilingan. Tadqiqot natijalari oliy pedagogik taʼlim muassasalarida deontologik madaniyatni shakllantirish jarayonini takomillashtirishda, shuningdek, oʻqituvchilar va tarbiyaviy ishlar boʻyicha metodistlar faoliyatini samarali tashkil etishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ДЕОНТОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ

Ключевые слова: деонтологическая культура, профессиональная этика, педагогические принципы, нравственная зрелость, рефлексия, интегративность, непрерывность, личностно-ориентированное образование.

Аннотация: В данной статье последовательно проанализированы теоретические основы формирования деонтологической культуры у студентов, а также система принципов, способствующих её совершенствованию. Деонтологическая культура рассматривается не как совокупность внешне навязанных правил, а как непрерывный процесс формирования внутренней нравственной зрелости и профессиональной ответственности студента. На основе данного подхода предложена трёхэтапная модель развития деонтологической культуры – переход от знания к навыку и от навыка к ценности. Данная модель отражает процесс овладения студентом теоретическими знаниями, их применения в практической деятельности и последующей трансформации в устойчивые внутренние убеждения и профессиональные ценности. Кроме того, теоретически обоснованы пять ключевых принципов развития деонтологической культуры: интегративность, непрерывность, личностная ориентированность, рефлексивность и принцип положительного примера. Для внедрения данных принципов в практику системно изложены необходимые педагогические условия, методические средства и ожидаемые результаты. Результаты исследования имеют важное практическое значение для совершенствования процесса формирования деонтологической культуры в высших педагогических образовательных учреждениях, а также для эффективной организации деятельности преподавателей и методистов по воспитательной работе.

PRINCIPLES OF IMPROVING DEONTOLOGICAL CULTURE IN STUDENTS

Keywords:

Abstract: This article provides a systematic analysis of the



deontological culture, professional ethics, pedagogical principles, moral maturity, reflection, integrativity, continuity, personality-oriented education.

theoretical foundations for developing deontological culture among students, as well as a system of principles aimed at its improvement. Deontological culture is interpreted not as a set of externally imposed rules, but as a continuous process that shapes students' internal moral maturity and professional responsibility. Based on this approach, a three-stage model for developing deontological culture is proposed – a transition from knowledge to skills, and from skills to values. This model reflects the process through which students acquire theoretical knowledge, apply it in practical activities, and ultimately transform it into stable internal beliefs and professional values. Furthermore, five key principles for the development of deontological culture are theoretically substantiated: integrativity, continuity, learner-centeredness, reflexivity, and positive example. The necessary pedagogical conditions, methodological tools, and expected outcomes for implementing these principles in practice are systematically described. The research findings have significant practical importance for improving the process of developing deontological culture in higher pedagogical education institutions, as well as for organizing the effective work of teachers and educational methodologists.

KIRISH

Talabalarda deontologik madaniyatni shakllantirish masalasi oliy ta'lim pedagogikasida ko'p yillardan buyon muhokama etib kelinmoqda. Biroq "shakllantirish" va "takomillashtirish" tushunchalari mazmunan bir xil emas. Shakllantirish – bu muayyan sifat va qadriyatlarning boshlang'ich asoslarini vujudga keltirish jarayoni bo'lsa, takomillashtirish – mavjud holatni sifat jihatidan yangi, yuqori bosqichga olib chiqish demakdir. Mazkur maqolaning markaziy g'oyasi aynan shu farqni ilmiy jihatdan asoslash va talabalarda mavjud deontologik madaniyatni yanada mukammallashtirish yo'llarini belgilashdan iborat.

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, talabalarda deontologik madaniyatning muayyan elementlari mavjud bo'lsa-da, ammo u ko'pincha yuzaki xarakterga ega bo'lib, nazariy bilimlar doirasida qolib ketadi hamda kasbiy xulq-atvor va shaxsiy e'tiqod darajasiga to'liq singib bormaydi. Holbuki, deontologik madaniyat – bu nafaqat axloqiy me'yorlarni bilish, balki ularni kasbiy faoliyatda ongli ravishda qo'llay olish, mas'uliyatni his etish va ijtimoiy burchni anglashni ham nazarda tutadi.

Demak, uni takomillashtirish uchun tasodifiy yoki fragmentar yondashuv emas, balki aniq va ilmiy asoslangan tamoyillar tizimi zarur.

Deontologik madaniyat o‘z-o‘zidan shakllanmaydi; aksincha, u maqsadli, tizimli va ilmiy asoslangan pedagogik jarayon natijasida rivojlanadi. Afsuski, amaliyotda ushbu jarayonning metodologik asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ko‘p hollarda deontologik tarbiya bir yoki ikki fan zimmasiga yuklatilib, uning tamoyillari tizimli ravishda emas, balki tarqoq va epizodik tarzda qo‘llaniladi. Bu esa talabalarda deontologik madaniyatning barqaror ichki e‘tiqod va kasbiy pozitsiya sifatida shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.

Mazkur masalaning dolzarbligi davlat siyosati darajasida ham e‘tirof etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda “Ta’lim sohasidagi islohotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli Farmonida oliy ta’lim muassasalarida talabalarning nafaqat kasbiy tayyorgarligi, balki ularning axloqiy va ma’naviy kamolotini ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Shuningdek, 2022-yilda qabul qilingan “Yangi O‘zbekiston – 2026” taraqqiyot strategiyasida yoshlarda kasbiy mas’uliyat, ijtimoiy faollik va burch hissini shakllantirish alohida strategik yo‘nalish sifatida ko‘rsatib o‘tilgan [2]. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar deontologik tarbiyani ilmiy asoslangan, tizimli tamoyillar asosida tashkil etish zarurligini davlat miqyosida mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarda deontologik madaniyatni takomillashtirish tamoyillari hali yaxlit konseptual tizim sifatida ishlab chiqilmagan. R. Mavlonova, B. To‘rayeva [3] va L.M. Mitina [4] kabi olimlar mazkur masalaning ayrim jihatlarini o‘rgangan bo‘lsalar-da, deontologik madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tamoyillar majmuini tizimli va izchil model sifatida taqdim etmaganlar.

Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, unda talabalarda deontologik madaniyatni takomillashtirishning nazariy asoslari hamda uni samarali amalga oshirishga xizmat qiluvchi tamoyillar tizimi konseptual jihatdan asoslab beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Deontologik madaniyat va kasbiy etika masalalarini o‘rganish turli nazariy maktab va ilmiy an‘analar kesishmasida shakllangan murakkab ilmiy yo‘nalishdir. Mazkur tadqiqot doirasida mavjud qarashlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: g‘arb axloq falsafasi va psixologiyasi, rus pedagogika-psixologiya maktabi hamda o‘zbek milliy pedagogikasi.



G'arb ilmiy an'anasida J.R. Rest tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy rivojlanish modeli alohida ahamiyat kasb etadi. J. Rest axloqiy xulq-atvorni to'rtta o'zaro bog'liq jarayon (axloqiy sezgi, axloqiy mulohaza, axloqiy motivatsiya va axloqiy amalga oshirish) birligi sifatida talqin etadi. Mazkur modelning ilmiy qiymati shundaki, unda axloqiy bilim va real xulq-atvor o'rtasida avtomatik bog'liqlik mavjud emasligi asoslab beriladi. Ya'ni shaxs axloqiy me'yorlarni bilishi mumkin, biroq turli sabablar tufayli ularga amal qilmasligi ham mumkin. Demak, deontologik madaniyatni shakllantirish jarayoni aynan ushbu to'rt komponentning uyg'un va muvozanatli rivojlanishini ta'minlashni talab etadi [5, 283].

Axloqiy rivojlanish bosqichlari nazariyasi esa Lawrence Kohlberg nomi bilan bog'liq. U axloqiy kamolotning olti bosqichini ajratib ko'rsatadi: eng quyi bosqichlarda xulq jazodan qochish yoki mukofot olish motiviga asoslanadi, eng yuqori bosqichlarda esa shaxs universal etik tamoyillarga sodiqlikni namoyon etadi. Talabalarning deontologik yetukligini baholashda mazkur bosqichlar muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. Asosiy savol shundan iborat: talaba qoidaga tashqi nazorat yoki jazodan qo'rqqani uchun amal qilayaptimi yoki ichki e'tiqod va qadriyatlariga tayangan holdami? Aynan shu omil deontologik tarbiya sifatini belgilaydi [6, 441].

Ta'lim jarayonini axloqiy munosabatlar tizimi sifatida talqin qilgan olimlardan biri – N. Noddingsdir. Uning “g'amxo'rlik etikasi” konsepsiyasida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabat faqat bilim uzatish jarayoni emas, balki axloqiy tajribani birgalikda yashash va his etish jarayoni sifatida qaraladi. Bu yondashuv deontologik madaniyatni shakllantirishda “ijobiy namuna” tamoyilining nazariy asosini mustahkamlaydi [7, 216].

Rus pedagogika maktabi vakillaridan V.A. Slastenin pedagog shaxsining axloqiy madaniyatini kasbiy kompetentligining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi. U bilim, hissiyot va xulq-atvor birligini pedagog shaxsining yetuklik mezonini sifatida ko'rsatadi [8, 576]. L.M. Mitina esa pedagogning kasbiy rivojlanish jarayonida axloqiy yetuklik bosqichma-bosqich shakllanishini empirik tadqiqotlar asosida asoslab bergan [4, 320].

O'zbek pedagogika fanida R. Mavlonova va B. To'rayeva zamonaviy oliy ta'lim sharoitida kasbiy etika hamda deontologik madaniyatni shakllantirish muammolarini chuqur tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlari O'zbekiston ta'lim tizimining milliy-madaniy xususiyatlari, an'analari va ijtimoiy kutishlarini hisobga olgan holda amalga oshirilgani bilan ahamiyatlidir [3, 186]. Mazkur ilmiy ishlanmalar tadqiqotning milliy metodologik asosini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot kompleks yondashuv asosida olib borildi va bir-birini to'ldiruvchi metodlar tizimiga tayandi.

Birinchidan, ilmiy-nazariy adabiyotlarni tahliliy o'rganish va qiyosiy tahlil metodi qo'llanildi. Bu usul orqali g'arb, rus va milliy pedagogik maktablarida deontologik madaniyat masalasining yoritilishi o'zaro solishtirildi, umumiy va farqli jihatlar aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, milliy ta'lim qonunchiligi va normativ-huquqiy hujjatlar metodologik manba sifatida o'rganildi. Bu jarayon deontologik madaniyatni shakllantirishning huquqiy va institutsional asoslarini aniqlash imkonini berdi.

Uchinchidan, pedagogik kuzatuv metodi orqali talabalarning kasbiy-axloqiy xatti-harakatlari, ta'lim jarayonidagi munosabatlar madaniyati hamda deontologik me'yorlarga amal qilish darajasi tahlil qilindi.

To'rtinchidan, tizimli-struktur tahlil asosida deontologik madaniyatning tarkibiy komponentlari (kognitiv, aksiologik va xulqiy jihatlar) o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish va deontologik madaniyatni takomillashtirishga xizmat qiluvchi tamoyillar tizimini ishlab chiqishda induksiya va deduksiya metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Shu tariqa, tanlangan metodologiya deontologik madaniyatni nazariy va amaliy jihatdan yaxlit tizim sifatida tadqiq etish imkonini berdi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

O'tkazilgan kompleks ilmiy-tahliliy izlanishlar natijasida talabalarda deontologik madaniyatni shakllantirish va uni takomillashtirish jarayoni tizimli pedagogik hodisa sifatida qayta ko'rib chiqildi. Tadqiqot davomida ushbu jarayonning nazariy-metodologik asoslari chuqur tahlil qilinib, mavjud yondashuvlarning chegaralangan jihatlari aniqlashtirildi hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan konseptual yechimlar ishlab chiqildi.

Xususan, deontologik madaniyatni faqat tashqi xulq-atvor me'yorlari doirasida talqin etuvchi an'anaviy yondashuvlar yetarli emasligi ilmiy asoslandi. Shu bois, tadqiqotda deontologik madaniyat shaxsning ichki axloqiy pozitsiyasi, kasbiy mas'uliyati va qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lgan integrativ sifat sifatida talqin qilindi.

Natijada, tadqiqot doirasida deontologik madaniyatni rivojlantirishga oid yaxlit konseptual model ishlab chiqildi, uning bosqichma-bosqich shakllanish mexanizmi asoslab berildi hamda mazkur jarayonni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi pedagogik tamoyillar tizimi aniqlandi. Shuningdek, ushbu tamoyillarni amaliyotga

joriy etish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar belgilandi va kutilayotgan natijalarni baholash mezonlari ishlab chiqildi.

1. «Deontologik madaniyat» tushunchasiga yangi talqin.

Ilmiy adabiyotlarda deontologik madaniyat ko‘pincha “kasbiy etika me‘yorlarini bilish va ularga rioya qilish” tarzida ta‘riflanadi. Bu ta‘rif amaliy jihatdan qulay, ammo nazariy jihatdan to‘liq emas. Asosiy kamchiligi shundaki, unda deontologik madaniyat xulq-atvorning tashqi ko‘rinishi sifatida talqin qilinadi va uning ichki – motivatsion hamda qadriyatli – jihatlari e‘tibordan chetda qoladi.

Shu munosabat bilan tadqiqot doirasida quyidagi mualliflik ta‘rifi ishlab chiqildi: deontologik madaniyat – bu shaxsning kasbiy burch va mas‘uliyatni anglash bilan cheklanmay, ularni ichki qadriyatga aylantirishi hamda shu asosda mustaqil axloqiy qarorlar qabul qila olish qobiliyatidir.

Ushbu ta‘rifda uchta muhim tarkibiy qism ajratiladi: birinchisi – tushunish (kognitiv qism); ikkinchisi – ichkilashtirish, ya‘ni qadriyatga aylantirish (motivatsion-qiymatli qism); uchinchisi – mustaqil qaror qabul qilish (xulq-atvoriy qism). Bu uchala qism mavjud bo‘lmasa, deontologik madaniyat to‘liq shakllangan deb hisoblanmaydi.

Yangi ta‘rifning amaliy ahamiyati shundaki, u o‘qituvchiga maqsadni aniq belgilab beradi. Agar maqsad faqat “etika me‘yorlarini bilish” bilan cheklansa, bunga bir semestr yetarli bo‘lishi mumkin. Ammo maqsad “ularni ichki qadriyatga aylantirish” bo‘lsa, bu butun ta‘lim jarayoni davomida tizimli ish olib borishni talab qiladi. Demak, ta‘rifning to‘g‘riligi bevosita pedagogik strategiyani belgilaydi.


2. Uch bosqichli shakllanish modeli.

Deontologik madaniyatni shakllantirish jarayonini nazariy jihatdan asoslash maqsadida J. Rest [5] hamda L. Kohlberg [6]ning axloqiy rivojlanish konsepsiyalariga tayanib, uch bosqichli shakllanish modeli taklif etiladi (1-sxema). Ushbu model “bilim → ko‘nikma → qadriyat” zanjirini aks ettiradi.

Taklif etilayotgan modelga ko‘ra, deontologik madaniyat dastlab nazariy bilimlarni egallashdan boshlanib, keyinchalik amaliy faoliyat jarayonida mustahkamlanadi hamda yakunda shaxsning ichki qadriyat tizimiga singib ketadi. Shu jihatdan model nafaqat o‘quv jarayonining mazmunini, balki uning metodik tashkil etilishini ham belgilab beradi.

1-sxema

Deontologik madaniyatning uch bosqichli shakllanish modeli



Birinchi bosqich – bilim bosqichi. Bu bosqichda talaba kasbiy etikaning asosiy tushuncha va me'yorlarini o'rganadi: burch nima, mas'uliyat nima, axloqiy ziddiyat qanday yuzaga keladi va qanday hal qilinadi. Bilim bosqichi zarur, lekin yetarli emas. Ko'plab talabalar aynan shu bosqichda qolib ketadi: ular etika qoidalarini biladi, biroq ularni qachon va qanday qo'llashni bilmaydi. V.A. Slastenin bu holatni «axloqiy yuzaki savodxonlik» deb ataydi va uni haqiqiy madaniyatdan keskin farqlaydi [8, 576].

Ikkinchi bosqich – ko'nikma bosqichi. Bu bosqichda talaba bilimlarni real yoki simulyatsiya qilingan vaziyatlarda qo'llashni mashq qiladi. Axloqiy kazuslarni tahlil qilish, rolli o'yinlar, amaliyot jarayonida yuzaga keladigan real muammolarni hal etish – bularning barchasi talabaga “axloqiy mushaklarini” rivojlantirish imkonini beradi. Ko'nikma bosqichi ayniqsa muhim, chunki aynan shu yerda bilim “jonlanadi” va amaliy harakatga aylanadi. N. Noddings [7, 216]ning “g'amxo'rlik etikasi” ga ko'ra, axloqiy ko'nikma faqat amaliyotda – boshqa insonga e'tibor va javobgarlik bilan qaraladigan muhitda shakllanadi.

Uchinchi bosqich – qadriyat bosqichi. Bu eng yuqori va eng chuqur bosqichdir.

Bu bosqichda deontologik me'yorlar talabani shaxsiy qadriyat tizimiga singib ketadi. Talaba endi qoidalarga amal qilish sababini "jarimadan qo'rqish" yoki "baho olish" bilan emas, balki "men shunday bo'lishni xohlayman" degan ichki motivatsiya bilan izohlay boshlaydi. Maqolada taklif etilayotgan besh tamoyil aynan talabani ushbu uchinchi bosqichga olib chiqishga qaratilgan.

3. Besh tamoyil: nazariy asoslanish va amaliy talqin.

Talabalarda deontologik madaniyatni takomillashtirish maqsadida o'zaro bog'liq besh asosiy tamoyil ajratib ko'rsatiladi. Ushbu tamoyillar bir-birini to'ldiruvchi va yagona tizim sifatida ishlaydi: ulardan birortasi e'tibordan chetda qolsa, umumiy samaradorlik sezilarli darajada kamayadi (2-sxema).

2-sxema

Deontologik madaniyatni takomillashtirish tamoyillari tizimi

№	TAMOYIL NOMI	MOHIYATI VA PEDAGOGIK AHAMIYATI
1	Integrativlik tamoyili	Deontologik tarbiya alohida fan emas – u barcha kasbiy fanlar, amaliyot va muloqot muhitida yaxlit singib borishi lozim. Axloqiy normalar haqida bilish yetarli emas, ularni real vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish zarur.
2	Uzluksizlik tamoyili	Deontologik madaniyat bir semestrda emas, to'rt-besh yil davomida, izchil va rejali tarbiyaviy ta'sir natijasida shakllanadi. Kurslar oralig'idagi "axloqiy bo'shliq" talabalardagi rivojlanishni to'xtatib qo'yadi.
3	Shaxsga yo'naltirilganlik tamoyili	Har bir talabani axloqiy shakllanish yo'li o'ziga xos. O'qituvchi yagona "qolip" bilan emas, har bir talabani hozirgi axloqiy yetuklik darajasini hisobga olib ish yuritishi kerak.
4	Refleksivlik tamoyili	Talabani o'z xulq-atvori va qarorlarini axloqiy jihatdan baholash qobiliyati deontologik o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Refleksiyasiz bilim "o'lib qoladi" va xulq-atvorga ta'sir qilmaydi.
5	Ijobiy nusxa tamoyili	Ustoz o'zi deontologik xulq-atvorning tirik namunasi bo'lishi lozim. Talaba etika bo'yicha ma'ruza



eshitmagan bo'lsa ham, ustozini kuzatib, uning axloqiy madaniyatini ongsiz ravishda o'zlashtirib boradi.

Integrativlik tamoyili eng asosiy tamoyil hisoblanadi, chunki u qolgan to'rtta tamoyilning qurilish maydonini belgilaydi. Ushbu tamoyilning mohiyati shundan iboratki, deontologik tarbiya bitta fan yoki alohida tadbir bilan cheklanib qolmasligi, balki butun ta'lim jarayoniga – barcha kasbiy fanlar, amaliyot, madaniy-ma'rifiy ishlar hamda kundalik muloqotga chuqur singib ketishi lozim. Agar talaba texnologik ta'lim metodikasi darsida ham, pedagogika mashg'ulotlarida ham, amaliyot jarayonida ham axloqiy masalalar bilan to'qnashsa va ularni tahlil qilsa, deontologik tarbiya haqiqiy ma'noda integrativ xarakter kasb etadi. Aks holda, etika faqat “etika” fani doirasida qolib, boshqa faoliyat turlarida namoyon bo'lmaydi.

Uzluksizlik tamoyili biologik g'oyaga asoslanadi: har qanday sifat, xuddi mushak kabi, faqat muntazam mashq orqali rivojlanadi va mashqsizlik natijasida susayadi. Deontologik madaniyat ham bundan mustasno emas. Birinchi kursdan boshlab magistratura bosqichining oxirigacha bo'lgan davrda, har bir o'quv yili va har bir semestr davomida talabalarni axloqiy savollar, ziddiyatli vaziyatlar hamda muhokamalar bilan muntazam ravishda yuzlashtirish zarur. L.M. Mitina o'z tadqiqotlarida kasbiy axloqiy yetuklikni shakllantirish uchun kamida uch-to'rt yillik tizimli ta'sir zarurligini asoslab bergan [4]. Bir semestrlik kurs ushbu jarayonni boshlashi mumkin, biroq uni to'liq yakunlay olmaydi.

Shaxsga yo'naltirilganlik tamoyili deontologik tarbiyaning ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan, ammo nihoyatda muhim jihatini ifodalaydi. Guruhda o'ttiz nafar talaba bo'lsa, ularning har biri axloqiy rivojlanishning turli bosqichida bo'ladi: biri allaqachon uchinchi bosqichda – qadriyat darajasida bo'lishi mumkin, boshqasi esa hali birinchi bosqichda – bilim to'plash jarayonida. Yagona “qolip” asosidagi yondashuv har ikkala holatda ham samarasiz: biriga haddan tashqari sodda, boshqasiga esa ortiqcha murakkab bo'ladi. Shu sababli o'qituvchi har bir talabaning “axloqiy xaritasi”ni aniqlab, unga mos individual yondashuvni ishlab chiqishi lozim. Bu jarayon ko'p mehnat talab etsa-da, samarali natijaga erishishning yagona yo'lidir.

Refleksivlik tamoyili N. Noddings tomonidan ilgari surilgan “g'amxo'rlik etikasi” konsepsiyasining markaziy g'oyasiga asoslanadi [7]. Refleksiya – bu shaxsning o'z harakatlari, qarorlari va munosabatlarini axloqiy jihatdan tahlil qilish qobiliyatidir. Refleksiyasiz bilim “o'lik bilim”ga aylanadi: inson qoidalarni yod oladi, biroq real vaziyatda ularni qo'llay olmaydi, chunki u hech qachon “men bu vaziyatda qanday yo'l tutgan bo'lardim?” degan savol ustida chuqur o'ylamagan bo'ladi. Refleksiyani rivojlantirish vositalari sifatida amaliyot kundaligi yuritish, guruhiy

muhokamalar, o‘zaro baholash va portfolio ishlari samarali hisoblanadi. Eng muhimi, bu faoliyat tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Ijobyi namuna (nusxa) tamoyili so‘zga emas, amaliy harakatga asoslanadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson axloqiy xulq-atvorning katta qismini ong osti darajasida, kuzatish orqali o‘zlashtiradi. O‘zbek pedagogik an‘analaridagi ustoz-shogird munosabatlari aynan shu tamoyilga asoslangan: shogird ustozining muammolarni qanday hal etishini, qanday muloqot qilishini va xatolar uchun qanday javobgarlikni zimmasiga olishini kuzatib, ushbu xulq-atvorni o‘z shaxsida shakllantiradi. Bugungi kunda ushbu an‘ana ko‘pincha formal tus olib qolgan. Uni qayta jonlantirish, ya‘ni o‘qituvchining o‘zi yuksak deontologik xulq-atvor namunasi bo‘lishi, deontologik tarbiyaning eng samarali vositalaridan biridir.

4. Pedagogik sharoitlar va ularni tashkil etish.

Tamoyillar abstrakt qolmasligi uchun ularni real pedagogik sharoitlarda amalga oshirish zarur. Integrativlik, uzluksizlik va refleksivlik tamoyillariga tayangan holda olti asosiy pedagogik sharoit taklif etiladi (3-sxema).

3-sxema

Deontologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik sharoitlari va natijalari

PEDAGOGIK SHAROITLAR		KUTILAYOTGAN NATIJALAR
Kasbiy etika fanini real amaliy vaziyatlar bilan bog‘lash	→	Bilimlar hayotiy tajribaga aylanadi, abstrakt qolmaydi
Axloqiy kazu (case-study) va rolli o‘yinlar metodidan foydalanish	→	Tanqidiy axloqiy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmasi rivojlanadi
Mentorlik va ustoz-shogird tizimini joriy etish	→	Jonli namuna orqali me‘yorlar ongsiz ravishda o‘zlashtiriladi
Amaliyot davomida refleksiya kundaligi yuritish	→	Talabada o‘z-o‘zini anglash va axloqiy baholash odati shakllanadi
Guruh axloqiy muhokamalarini tizimli o‘tkazish	→	Kollektiv axloqiy ong va kasbiy hamjihatlik tarbiyalanadi
Fanlararo deontologik integratsiyani ta‘minlash	→	Deontologik madaniyat yaxlit va uzluksiz rivojlanadi

Kasbiy etika fanini real amaliy vaziyatlar bilan bog‘lash – eng qulay va samarali sharoitlardan biridir. Buning uchun katta resurslar talab etilmaydi: mavjud dars

soatlarini qayta loyihalashning o‘zi kifoya. Masalan, “Ta’lim texnologiyalari” fanida o‘qituvchi talabaga nafaqat metodlarni o‘rgatishi, balki “ushbu metodni qo‘llash jarayonida qanday axloqiy mas’uliyat yuzaga keladi?” degan savolni ham kun tartibiga qo‘yishi lozim. Bu savol talabani oddiy bilim darajasidan ko‘nikmaga, keyinchalik esa qadriyat darajasiga o‘tishga undaydi.

Axloqiy kazuслar (case-study) va rolli o‘yinlar metodidan foydalanish talabaga xavfsiz muhitda axloqiy qarorlar qabul qilish tajribasini beradi. Bu yerda “xavfsiz” tushunchasi alohida ahamiyatga ega: talaba real amaliyotda xato qilsa, uning oqibatlari jiddiy bo‘lishi mumkin. Kazuslarda esa xato qilish, undan saboq olish va qaror qabul qilish jarayonini chuqur tahlil etish imkoniyati mavjud. V.A. Slastenin kasbiy ta’limda kazuслar metodini professional axloqiy fikrlashni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida baholaydi [8].

Mentorlik va ustoz-shogird tizimini joriy etish ijobiy namuna tamoyilini tashkiliy jihatdan ta’minlaydigan muhim omildir. Ushbu tizimda tajribali o‘qituvchi yoki amaliyotchi mutaxassis bilan talaba juftlik asosida ishlaydi, muntazam uchrashuvlar va o‘zaro muhokamalar tashkil etiladi. Mentorlik tizimining asosiy afzalligi shundaki, u bir tomonlama ta’sir (ustoz gapiradi, talaba eshitadi) emas, balki dialogik jarayondir. Talaba savollar beradi, kuzatadi va o‘z xulq-atvori yuzasidan fikr-mulohaza oladi.

Amaliyot davomida refleksiya kundaligini yuritish dastlab majburiydek tuyulishi mumkin, biroq uning ahamiyati beqiyosdir. Talaba har hafta yoki har ikki haftada qisqa yozuv o‘tgan davrdagi eng murakkab vaziyat, qabul qilingan qaror va undan chiqarilgan xulosani qayd etadi. Vaqt o‘tishi bilan ushbu yozuvlar talabaning o‘z axloqiy rivojlanish dinamikasini anglashiga xizmat qiladi. R. Mavlonova va B. To‘rayeva mazkur usulni O‘zbekiston pedagogik amaliyotida qo‘llash tajribasini tahlil qilib, uning ijobiy natijalarini asoslab bergan.

Guruhda axloqiy muhokamalarni tizimli ravishda tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega. Bunday muhokamalar jarayonida talabalar bir-birining nuqtai nazarini eshitadi, o‘z fikrlarini himoya qiladi yoki yangi qarashlarni kashf etadi. J.R. Rest modeliga ko‘ra, aynan shu jarayon – axloqiy mulohazalarning o‘zaro “sinovdan o‘tishi” axloqiy fikrlashni yuqori bosqichga ko‘taradi [5].

Nihoyat, fanlararo deontologik integratsiyani ta’minlash integrativlik tamoyilining tashkiliy ifodasidir. Buning uchun o‘quv rejasida barcha kasbiy fanlar bo‘yicha o‘qituvchilar deontologik komponentlarni o‘z fanlariga singdirishni oldindan rejalashtirishlari va o‘zaro muvofiqlashtirishlari zarur. Bu ta’lim muassasasi darajasidagi tashkiliy qaror bo‘lsa-da, uni amalga oshirish ko‘pincha alohida o‘qituvchilarning tashabbusidan boshlanadi: biri yo‘l ochadi, boshqalari esa unga

ergashadi.

5. Deontologik tarbiyaning kutilayotgan natijalari va samaradorlikni baholash.

Taklif etilayotgan tamoyillar va sharoitlar qanchalik samarali ekanligini qanday baholash mumkin? Bu savol har qanday pedagogik tadqiqotda muhim, ammo deontologik sohada alohida murakkab chunki axloqiy o'zgarishlar sifatli, ko'pincha bevosita o'lchab bo'lmaydigan jarayonlardir.

Samaradorlikni baholash uchun uchta darajani taklif etildi.

Birinchi daraja – bilim darajasi: talaba deontologik me'yorlarni biladi, ularni tushuntira oladi. Bu daraja an'anaviy imtihon yo test orqali o'lchanadi.

Ikkinchi daraja – ko'nikma darajasi: talaba axloqiy ziddiyatli vaziyatni tahlil qila oladi, turli xulq-atvor variantlarini solishtira oladi va o'z qarorini asoslab bera oladi. Bu daraja kazuslarni yechish va amaliy topshiriqlar orqali baholanadi.

Uchinchi daraja – qadriyat darajasi: talabaning amaliyot davomida real xulq-atvori deontologik me'yorlarga mos keladi va bu xulq-atvorning sababi "bahodan qo'rqish" emas, balki ichki motivatsiya ekanligi kuzatuvda namoyon bo'ladi. Bu uchinchi darajani o'lchash eng murakkab, lekin u haqiqiy maqsad ekanligi ham shubhasiz.

L.M. Mitina kasbiy axloqiy etuklikning to'rtta indikatorini ajratib ko'rsatadi: axloqiy mustaqillik (boshqalarga bog'liq bo'lmasdan, o'z qadriyatlariga tayangan holda harakat qilish), axloqiy barqarorlik (qiyin sharoitlarda ham me'yordan chekinmaslik), axloqiy refleksivlik (o'z harakatlarini doimiy ravishda tahlil qilish) va axloqiy empatiya (boshqa insonning holat va ehtiyojlarini his eta olish) [4]. Ushbu to'rtta indikatorni pedagogik kuzatuv mezoni sifatida qabul qilishni tavsiya qilinadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, deontologik tarbiyaning samarasini bir yildan keyin emas, balki uzoqroq muddatda – bitiruv amaliyoti jarayonida yoki hatto bitirgandan keyingi ishlab chiqarish faoliyatida ko'rish mumkin. Shu bois, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari bilan aloqani uzmaslik va ularning kasbiy axloqiy rivojlanishini muntazam kuzatib borish muhim metodologik vazifa hisoblanadi.

XULOSA

Talabalarda deontologik madaniyatni takomillashtirish – bu yangi qonunlar chiqarish yoki yangi fanlar kiritish masalasi emas. Bu, birinchi navbatda, mavjud ta'lim jarayonini axloqiy jihatdan chuqurlashtirish – bilimga ma'no, amaliyotga mas'uliyat, muloqotga o'zaro hurmat va vijdon qo'shish masalasidir.

Taklif etilgan uch bosqichli shakllanish modeli (bilim → ko'nikma → qadriyat) deontologik tarbiyaning maqsadini aniqlashtiradi: talabaga nafaqat etika qoidalari

o'rgatiladi, balki ularni ichki ehtiyojga aylantirishga yordam beriladi. Bu farq kichikdek tuyulishi mumkin, ammo amaliyotda u pedagogik strategiyani butunlay belgilab beradi.

Beshta tamoyil – integrativlik, uzluksizlik, shaxsga yo'naltirilganlik, refleksivlik va ijobiy nusxa birgalikda tizim hosil qiladi. Ulardan biri bo'lmasa, butun tizim zaiflashadi. Masalan, integrativlik bo'lmasa, deontologik bilim alohida "qutichada" qoladi va boshqa fanlar bilan bog'lanmaydi. Refleksivlik bo'lmasa, talaba bilimni o'zlashtiradi-yu, ammo uni o'z hayotiga tatbiq etmaydi.

Taklif etilayotgan pedagogik sharoitlar (kazuslar, mentorlik, refleksiya kundaligi, guruh muhokamasi) har biri alohida natija beradi, lekin birgalikda sinergiya hosil qilganda ta'sir kuchi sezilarli darajada oshadi. Shuni ta'kidlash lozimki, bu sharoitlarni yaratish uchun katta moliyaviy resurs yoki murakkab tashkiliy o'zgarishlar talab etilmaydi; birinchi qadam sifatida bitta o'qituvchining ongli va izchil harakati yetarli.

Maqola doirasida qo'yilmagan, lekin kelgusidagi tadqiqotlar uchun muhim bo'lgan savollar ham mavjud: bu tamoyillar turli ixtisosliklar (masalan, texnik va gumanitar yo'nalishlar) uchun qanday farqli tatbiq etiladi? Deontologik etuklikni baholashning standartlashtirilgan diagnostik instrumentini yaratish mumkinmi? Ushbu savollar keyingi tadqiqotlar uchun ochiq qoladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Ta'lim sohasidagi islohotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6108-sonli Farmoni. 2020-yil 6-noyabr. <https://lex.uz/docs/5094180>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Yangi O'zbekiston – 2026" taraqqiyot strategiyasi. 2022-yil. <https://lex.uz/docs/5809203>
3. Mavlonova R., To'rayeva B. Pedagogik etika asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. – B. 186.
4. Митина Л.М. Психология труда и профессионального развития учителя. – М: Академия, 2019. – С. 320.
5. Rest J.R. Moral development: Advances in research and theory. – New York: Praeger, 2015. – P. 283.
6. Kohlberg L. The Philosophy of Moral Development. – San Francisco: Harper & Row, 2016. – P. 441.
7. Noddings N. Caring: A Feminine Approach to Ethics and Moral Education. – Berkeley: University of California Press, 2013. – P. 216.
8. Сластенин В.А. Педагогика: учебное пособие. – М: Академия, 2017.

PEDAGOGIKA

TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLIISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA TOP-10 UNIVERSITETLAR TAJRIBASI VA STRATEGIYALARI

DUSYOROVA LAYLO SHONIYOZ QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası 2-bosqich tayanch doktoranti

Email: laylodosyorova@gmail.com

Tel.: +998 94 468-00-93

UDK: 378.147

<https://orcid.org/0009-0003-2902-433X>

Kalit so'zlar:

mustaqil ta'lim,
Top-10 universitetlar,
metakognitiv
ko'nikmalar,
self-regulated
learning, flipped
classroom, tyutorlik
tizimi, akademik
mustaqillik, raqamli
ta'lim platformalari,
MIT, Harvard,
Oxford, case study,
PBL (Problem-Based
Learning),
kompetensiya,
kognitiv rivojlanish.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada jahonning Top-10 reytingiga kiruvchi universitetlar (Massachusetts Institute of Technology (MIT), Harvard University, University of Oxford va Stanford University) misolida talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishning institutsional mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda “Flipped Classroom”, “Problem-Based Learning” hamda raqamli o'z-o'zini tartibga solish modellarining samaradorligi qiyosiy jihatdan o'rganiladi. Xususan, ta'lim jarayonini raqamli monitoring qilish (Learning Analytics) va tyutorlik tizimi orqali talabalarda akademik mas'uliyatni shakllantirish masalalari tadqiq etilgan. Olingan natijalar mustaqil ta'limning akademik o'zlashtirish darajasi hamda professional kompetensiyalarni rivojlantirishdagi strategik ahamiyatini ko'rsatib beradi. Maqola yakunida xalqaro standartlarga asoslangan ilg'or tajribalarni milliy oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

ОПЫТ И СТРАТЕГИИ ТОП-10 УНИВЕРСИТЕТОВ В ФОРМИРОВАНИИ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ

Ключевые слова:

самостоятельное
обучение, Топ-10

Аннотация:

В статье проанализированы институциональные механизмы формирования навыков самостоятельного обучения студентов на примере

университетов, метакогнитивные навыки, саморегулируемое обучение, Flipped classroom, тьюторская система, академическая независимость, цифровые образовательные платформы, MIT, Harvard, Oxford, Case-study, PBL, компетенция, когнитивное развитие.

университетов, входящих в мировой рейтинг Top-10 (Massachusetts Institute of Technology (MIT), Harvard University, University of Oxford и Stanford University). В исследовании проводится сравнительный анализ эффективности моделей «Flipped Classroom», «Problem-Based Learning» и цифровых моделей саморегулируемого обучения. Особое внимание уделено вопросам формирования академической ответственности студентов посредством цифрового мониторинга образовательного процесса (Learning Analytics) и системы тьюторства. Полученные результаты демонстрируют стратегическое значение самостоятельного обучения в повышении академической успеваемости и развитии профессиональных компетенций. В заключении статьи предложены практические рекомендации по внедрению передового международного опыта в национальную систему высшего образования.

TOP-10 UNIVERSITIES' EXPERIENCE AND STRATEGIES IN THE FORMATION OF STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING SKILLS

Keywords:

independent learning, Top-10 universities, metacognitive skills, self-regulated learning, Flipped classroom, tutorial system, academic independence, digital learning platforms, MIT, Harvard, Oxford, case-study, PBL, competence, cognitive development.

Abstract:

This article analyzes the institutional mechanisms for developing students' independent learning skills based on the experience of the world's Top-10 ranked universities (Massachusetts Institute of Technology (MIT), Harvard University, University of Oxford, and Stanford University). The study comparatively examines the effectiveness of the "Flipped Classroom," "Problem-Based Learning," and digital self-regulated learning models. In particular, the issues of fostering academic responsibility among students through digital monitoring of the educational process (Learning Analytics) and tutoring systems are explored. The findings demonstrate the strategic importance of independent learning in improving academic performance and developing professional competencies. The article concludes with practical recommendations for implementing advanced international practices into the national higher education



system.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim transformatsiyasi sharoitida talaba shaxsini "passiv tinglovchi"dan "faol tadqiqotchi"ga aylantirish global ta'limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda axborot oqimining tezkor yangilanishi hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi an'anaviy ma'ruza formatiga asoslangan o'qitish metodikasining samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Dunyoning eng nufuzli universitetlari (Harvard University, Massachusetts Institute of Technology (MIT), University of Oxford, Stanford University va boshqalar) o'quv jarayonining qariyb 70 foizini mustaqil ta'limga yo'naltirib, auditoriya mashg'ulotlarini asosan murakkab tahliliy muhokamalar va amaliy integratsiya uchun ajratmoqda. B.Zimmerman ta'kidlashicha, o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'lim (Self-Regulated Learning) nafaqat bilimni o'zlashtirish jarayonini, balki motivatsiya va metakognitiv nazorat ham qamrab oladi [1].

UNESCOning 2021-yildagi "Reimagining Our Futures Together" ma'ruzasida ta'kidlanishicha, oliy ta'lim muassasalari shunchaki ma'lumot uzatuvchi maskan bo'lishdan to'xtab, talabalarni umrbod ta'lim olishga (Lifelong Learning) tayyorlovchi yaxlit ekotizimga aylanishi zarur [2]. Bu esa o'quv jarayonida o'qituvchi rolini "ma'ruzachi"dan "mentor-fasilitator"ga transformatsiya qilishni hamda talabaning mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tizimli ravishda rag'batlantirishni talab etadi.

Mustaqil ta'lim bugungi kunda nafaqat pedagogik, balki iqtisodiy zaruriyat sifatida ham e'tirof etilmoqda. ahon iqtisodiy forumining (World Economic Forum) 2023-yildagi "Future of Jobs" hisobotiga ko'ra, 2027-yilga borib mehnat bozorida eng talabgir bo'ladigan Top-10 ko'nikmaning ikkinchisi – "Analitik fikrlash" bo'lsa, to'rtinchisi aynan "Qiziquvchanlik va hayot davomida ta'lim olish" (Curiosity and lifelong learning) qobiliyatidir [3]. Mazkur ko'rsatkichlar global mehnat bozoridagi transformatsiyalar sharoitida talabalarning akademik bilimlardan ko'ra, yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish qobiliyati yuqoriroq baholanishini anglatadi.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, O'zbekistonda "mustaqil ish" tushunchasi ko'pincha tor ma'noda, ya'ni vazifa bajarish jarayoni sifatida talqin etilmoqda. Vaholanki, Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD)ning 2023-yilgi hisobotlariga ko'ra, mustaqil ta'lim ko'nikmasi bitiruvchining mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini 40 foizga oshiruvchi asosiy "soft skills"dan biri hisoblanadi [4]. XXI asr iqtisodiyoti sharoitida "o'rganishni o'rganish" (learning how to learn) kompetensiyasi har qanday sohada muvaffaqiyat

garoviga aylanmoqda. Shu sababli, jahonning nufuzli universitetlari tomonidan qo'llaniladigan institutsional mexanizmlarni o'rganish va ularni mahalliy sharoitga adaptatsiya qilish pedagogik tadqiqotlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mustaqil ta'lim va o'z-o'zini tartibga solish (Self-Regulated Learning – SRL) tushunchalari pedagogika fanida bir necha o'n yilliklardan buyon tadqiq etib kelinmoqda. Ushbu yo'nalishdagi xalqaro tadqiqotlarni uchta asosiy yondashuvga ajratish mumkin:

Mustaqil ta'lim nazariyasining yetakchi asoschilaridan biri B.J. Zimmerman hisoblanadi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, mustaqil ta'lim – bu shunchaki yolg'iz dars qilish emas, balki talabanning o'z o'quv jarayonini rejalashtirishi va natijalarni nazorat qilishidir [1]. Uning ta'kidlashicha, bu jarayonda talabanning o'z kuchli va zaif tomonlarini tahlil qila olishi, ya'ni metakognitiv xabardorlikka ega bo'lishi uning nafaqat akademik o'zlashtirish darajasini, balki kognitiv moslashuvchanlikni ham ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

B. Zimmerman o'zining “Social Cognitive Model of Self-Regulation” asarida ta'kidlashicha, talabanning muvaffaqiyati uning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari va o'z-o'zini monitoring qilish qobiliyatiga bog'liq [5, 329]. Shu sababli ham, jahonning yetakchi universitetlari ta'lim jarayonida asosiy e'tiborni talabaga tayyor bilim berishga emas, balki ularda o'z shaxsiy ta'lim trayektoriyasini mustaqil loyihalash ko'nikmasini rivojlantirishga qaratmoqda.

Shuningdek, P. Pintrich o'z ishlarida talabalarning motivatsiyasi va kognitiv strategiyalari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan. Uning xulosasiga ko'ra, mustaqil ta'lim ko'nikmalari talabada avtomatik shakllanmaydi, balki o'quv muhiti tomonidan rag'batlantirilishi lozim [6, 451]. Ya'ni, intellektual rivojlanish uchun qulay ijtimoiy-akademik muhit yaratilmas ekan, talabanning kognitiv strategiyalari passiv holatda qolib, uning mustaqil bilim olishga bo'lgan ichki motivatsiyasi so'nib boradi.

Top-10 reytingdagi universitetlar amaliyotida keng qo'llanilayotgan “Flipped Classroom” (to'ntarilgan sinf) modeli bo'yicha J. Bergmann va A. Sams tomonidan fundamental tadqiqotlar olib borilgan [7, 13-24]. Ularning ilmiy xulosalariga ko'ra, mazkur modelning asosiy mohiyati – nazariyani mustaqil o'rganish va auditoriyada amaliy tahlilga e'tibor qaratish ekanligini isbotlagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tizimli-tahlil hamda qiyosiy-pedagogik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida QS World University Rankings 2024-2025 ro'yxatidagi [8] Top-10 universitetlarning o'quv metodikalari tanlab olindi.

Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish jarayonida quyidagi manbalar o'rganildi:

1) Harvard University (Derek Bok Center) [9] – Active Learning (aktiv ta'lim) va “Case Study Method” metodik qo'llanmalari asosida talabanning darsga tayyorgarlik ko'rish strategiyalari hamda mustaqil ishning auditoriyadagi muhokama samaradorligiga ta'siri o'rganildi;

2) Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT TLL) [10] – talabalar mustaqil loyihalari reglamenti (UROP) o'rganilib, “Concretization” (bilimlarni moddiylashtirish) tamoyillari tahlil qilindi hamda muhandislik yo'nalishlarida mustaqil tadqiqotning o'quv rejasidagi o'rni ko'rib chiqildi;

3) Oxford universiteti [11] – tyutorlik (tutorial) tizimi reglamentlari va “The Oxford Tutorial” metodikasi asosida talabanning haftalik o'rtacha 40 soatlik mutolaa yuklamasi hamda “Deep Learning” mexanizmlarining mazmuni ochib berildi;

4) Stanford universiteti [19], [20] – Canvas LMS platformasidagi “Learning Analytics” (ta'lim tahlili) vositalari hamda ularning talabalarning akademik mas'uliyatini oshirishdagi statistik ko'rsatkichlari o'rganildi.

To'plangan ma'lumotlar solishtirma tahlil (Oxfordning individual tyutorlik tizimi va MITning jamoaviy loyihalash usullari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar, ularning mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishdagi samaradorligi qiyoslandi) hamda kontent-tahlil (universitetlarning o'quv dasturlaridagi “mustaqil ish soatlari” va “auditoriya soatlari” nisbati tahlil qilinib, ECTS (European Credit Transfer System) standartlariga muvofiqligi tekshirildi) usullar yordamida qayta ishlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlillar natijasida yetakchi universitetlarda mustaqil ta'limning quyidagi 3 ta asosiy ustuni aniqlandi: (1-jadval)

1-jadval

Top-10 universitetlarda mustaqil ta'limni tashkil etishning qiyosiy tahlili

Universitet	Asosiy metod	Amaliy mohiyati
MIT & Stanford	PBL (Problem-Based Learning)	Talaba mustaqil ravishda real loyiha ustida ishlaydi, professor esa faqat yo'naltiradi.
Oxford & Cambridge	Tutorial System	Haftada bir marta professor bilan yuzma-yuz muloqotda talabanning mustaqil tayyorgarligi tanqidiy tahlil qilinadi.
Harvard &	Analitik va raqamli	80% vaqt real muammoni

Stanford	tahlil (Case Study & Analytics)	mustaqil tahlil qilishga ajratiladi; Canvas LMS orqali mas'uliyat 22% ga oshadi.
-----------------	---------------------------------	--

Xalqaro tajribada “mustaqil ish” va “auditoriya soati” nisbati odatda 3:1 ko‘rinishida belgilanadi. Ya’ni, 1 soatlik auditoriya mashg‘uloti uchun talaba kamida 3 soat mustaqil izlanish olib borishi talab etiladi.

MIT va Stanford – muammoli ta’lim modeli (PBL)

Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT) tajribasida mustaqil ta’lim “Concretization” (konkretlashtirish) tamoyiliga asoslanadi. MIT Teaching + Learning Lab ma’lumotlariga ko‘ra, talabalar darsdan tashqari vaqtda “MakerLounge” laboratoriyalarida mustaqil tadqiqot olib boradilar [12]. Bu jarayonda professor asosan “facilitator” (yo‘naltiruvchi) vazifasini bajaradi. MIT tajribasidagi “MakerLounge” laboratoriyalari talabaga nazariy bilimlarni “konkret” mahsulotga aylantirish imkonini beradi, bu esa mustaqil ta’limni “o‘rganish uchun o‘rganish” emas, balki “yaratish uchun o‘rganish” darajasiga ko‘taradi.

Stanford universiteti esa PBL modelini o‘zining mashhur “d.school” (Hasso Plattner Institute of Design) [13] markazi orqali yanada rivojlantiradi. Stanford tajribasida mustaqil ta’lim “Dizayn-fikrlash” (Design Thinking) metodologiyasiga tayanadi. Ushbu yondashuvda talabalarga real ijtimoiy yoki texnik muammo taqdim etiladi va ular o‘quv semestri davomida mustaqil ravishda:

- 1) Empathy (Empatiya): Muammo egalari bilan mustaqil muloqot qilish;
- 2) Ideation (G‘oya o‘ylab topish): Yuzlab yechimlar orasidan eng optimalini tanlash;
- 3) Prototyping (Prototiplash): G‘oyani modellashtirish jarayonlarini amalga oshiradilar.

Stanford modeli shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ta’lim faqat kutubxonada kitob o‘qish bilan cheklanmaydi, balki real hayot muammolariga yechim izlash jarayonida talabaning loyiha boshqaruvchisi (project manager) sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Oxford va Cambridge – tyutorlik tizimining samaradorligi.

Britaniya klassik ta’lim tizimida mustaqil ta’limning eng oliy shakli – Tutorial System (Oxfordda) [14] va Supervisions (Cambridgeda) [15] qo‘llaniladi. “The Oxford Tutorial System: Teaching and Learning at Oxford” [16] rasmiy metodik yo‘riqnomasiga ko‘ra, talaba haftasiga kamida 40 soat o‘quv faoliyatiga (shundan asosiy qismi kutubxonadagi mustaqil izlanishga) vaqt ajratishi hamda haftada bir marta o‘z tadqiqoti natijasini tyutor oldida og‘zaki himoya qilishi belgilangan.

Ushbu tizimning asosi – “Deep Learning” (chuqur o‘rganish) bo‘lib, u quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

1. mustaqil insho yozish (talaba har hafta berilgan mavzu bo‘yicha 2000-3000 so‘zdan iborat ilmiy inshoni mustaqil tayyorlaydi);
2. Sokratik muloqot (tyutorlik darsida o‘qituvchi ma’ruza qilmaydi, balki savollar berish orqali talabani mustaqil o‘qigan manbalarini tanqidiy tahlil qilishga majbur qiladi);
3. akademik mas’uliyat (talaba auditoriyada passiv tinglovchi emas, balki o‘z g‘oyalari uchun javob beruvchi asosiy tadqiqotchi subyektga aylanadi). Bu jarayon talabada nafaqat tanqidiy fikrlashni (Critical thinking), balki murakkab muammolarni argumentlar orqali hal qilish (Argumentation skills) va intellektual mustaqillikni shakllantiradi [17].

Harvard va Stanford – vaziyatli tahlil va raqamli monitoring integratsiyasi.

Jahonning yetakchi universitetlarida mustaqil ta’lim jarayoni faqatgina adabiyotlar mutolaasi bilan cheklanib qolmay, talabadan yuqori darajadagi analitik ko‘nikmalarni talab etadi. Harvard universiteti tajribasida qo‘llaniladigan “Case Study Method” (vaziyatli tahlil usuli) talabani mustaqil ish hajmining qariyb 80 foizini egallaydi. Harvard Business School metodikasiga ko‘ra [18], talaba auditoriyaga kelishidan oldin real biznes yoki ijtimoiy muammoni individual tarzda tahlil qilishi, hisob-kitoblarni amalga oshirishi hamda o‘z yechim modelini tayyorlashi shart. Bu jarayon talabani passiv tinglovchidan faol qaror qabul qiluvchi subyektga aylantiradi.

Stanford universiteti esa ushbu mustaqil tahlil jarayonini raqamli texnologiyalar orqali optimallashtiradi. Talabalar Canvas LMS [19] platformasidagi “Learning Analytics” [20] paneli orqali o‘zlarining o‘zlashtirish va faollik ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatib boradilar. Lodge [21] tadqiqotlariga ko‘ra, talaba o‘zining akademik o‘shish grafigini raqamli ko‘rinishda kuzatib borganda, uning metakognitiv monitoringi (o‘z-o‘zini nazorat qilish) faollashadi va mustaqil ishlashga bo‘lgan mas’uliyati 22 foizga ortadi.

Shunday qilib, Harvard modeli talabani mazmuniy (kontent) jihatdan mustaqillikka o‘rgatsa, Stanford modeli raqamli vositalar yordamida ushbu jarayonni nazorat qilish va rag‘batlantirish mexanizmini ta’minlaydi.

MUHOKAMALAR

Xalqaro tajribani tahlil qilar ekanmiz, mustaqil ta’limni samarali tashkil etishda uchta asosiy komponentni ko‘rish mumkin:

Vaqt menejmenti va akademik yuklama balansi. Top-10 universitetlar o‘quv



rejalarida 1 kredit soati uchun 2-3 soat mustaqil ish vaqti ajratiladi. Bu European Credit Transfer System (ECTS) [22] standartlariga to'liq mos keladi.

Resurslar ochiqligi. Flipped Classroom modeli, MIT OpenCourseWare va Harvard tajribasi shuni ko'rsatadiki, talaba asosiy nazariy ma'ruzani darsdan oldin raqamli platformalar orqali mustaqil o'rganib kelishi lozim. Bu dars soatlarini passiv tinglashdan faol muhokama va amaliy muammolarni yechishga (Problem-Based Learning) yo'naltirish imkonini beradi. Stanfordini Canvas LMS kabi tizimlar esa ushbu resurslar bilan ishlash jarayonini nazorat qilib, talabani faolligini raqamli monitoring orqali kuzatadi.

Baholash tizimi va motivatsiya mexanizmi. Mustaqil ta'limning samaradorligi uning umumiy baholashdagi ulushi bilan bevosita bog'liq. QS reytingidagi Top-10 universitetlarda mustaqil ishlar, loyihalar va keys-stadi tahlillari uchun beriladigan ballar yakuniy bahoning kamida 50-60 % ini tashkil etadi. Bu talabani darsga shunchaki kelib ketishga emas, balki tayyorlanib kelishga hamda o'z yechimlarini himoya qilishga undaydi. Bizning sharoitimizda mustaqil ish bahosini oshirish talabani o'quv jarayonidagi "agency" (subyektiv faolligi) va akademik mas'uliyatini shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalaridan xulosa qilib aytish mumkinki:

1. Mustaqil ta'lim – bu nazoratsiz, o'z holiga tashlab qo'yilgan jarayon emas, balki o'qituvchi-professor (facilitator) tomonidan tizimli loyihalashtirilgan va metodik jihatdan ta'minlangan faoliyatdir.
2. "Flipped Classroom" va "Tutorial" metodlarini mahalliy ta'lim tizimiga muvaffaqiyatli joriy etish uchun faqat texnik bazani yangilash yetarli emas, balki kutubxona resurslarini 100 % raqamlashtirish hamda ularga masofaviy kirish imkoniyatini yaratish zarur.
3. Stanford tajribasiga tayanib aytish mumkinki, Learning Analytics (ta'lim tahlili) vositalarini joriy etish talabani o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini va mustaqil ishlash mas'uliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Takliflar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Oliy ta'lim o'quv rejaları qayta ko'rib chiqilib, auditoriya soatlarini (ma'ruzalarni) qisqartirish hamda ularning o'rniga loyihaga asoslangan (PBL) va amaliy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan mustaqil ishlar ulushini ko'paytirish.
2. Talabalarda metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus seminarlar tashkil etish.
3. Talabani mustaqil ishi natijalarini (insho, loyiha, tadqiqot) baholashning

4. yakuniy nazoratdagi ulushini kamida 50 % ga oshirish (bu talabani auditoriyada passiv tinglovchidan faol tadqiqotchi darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi).

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Zimmerman B. J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview // Theory Into Practice. 2002. Vol. 41, № 2. – P. 64-70.
2. UNESCO. Reimagining our futures together: A new social contract for education. – Paris: UNESCO, 2021. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000379707>
3. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2023. – Geneva: WEF, 2023. <https://www.weforum.org/publications/the-future-of-jobs-report-2023/digest/>
4. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2023. <https://www.oecd-ilibrary.org>
5. Zimmerman B. J. A Social Cognitive View of Self-Regulated Academic Learning // Journal of Educational Psychology. 1989, Vol. 81, № 3. – P. 329-339.
6. Pintrich P. R. The role of goal orientation in self-regulated learning // Handbook of Self-Regulation. — San Diego: Academic Press, 2000. — P. 451–502. — DOI: <https://doi.org/10.1016/B978-012109890-2/50043-3>
7. Bergmann J., Sams A. Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day. – Washington, DC: ISTE, 2023.
8. QS Top Universities. World University Rankings. <https://www.topuniversities.com/world-university-rankings>
9. Harvard University. Active Learning Strategies // The Derek Bok Center for Teaching and Learning. 2024. <https://bokcenter.harvard.edu/active-learning>
10. Massachusetts Institute of Technology. Undergraduate Research Opportunities Program (UROP). <https://urop.mit.edu/>
11. University of Oxford. Exceptional Education: Student Life. <https://www.ox.ac.uk/admissions/undergraduate/student-life/exceptional-education>
12. MIT Teaching + Learning Lab. Active Learning and Student Engagement in Makerspaces. – Cambridge: MIT, 2022. <https://tll.mit.edu/teaching-resources/active-learning/>
13. Stanford d.school. Design Thinking Bootleg. – Stanford University, 2021. <https://dschool.stanford.edu/resources/design-thinking-bootleg>



14. University of Oxford. The Tutorial System: Teaching and Learning at Oxford. – Oxford: Oxford University Press, 2023. <https://www.ox.ac.uk/admissions/undergraduate/student-life/exceptional-education>
15. University of Cambridge. Supervisions at Cambridge. <https://www.undergraduate.study.cam.ac.uk/courses/how-will-i-be-taught/supervisions>
16. University of Oxford. The Oxford Tutorial System: Official Teaching Framework. – Oxford, 2023. <https://www.ox.ac.uk/admissions/undergraduate/student-life/exceptional-education>
17. Palfreyman D. (ed.). The Oxford Tutorial: “Thanks, you taught me how to think”. – Oxford: Oxford Centre for Higher Education Policy Studies, 2008. <https://oxcheps.new.ox.ac.uk/the-oxford-tutorial/>
18. Harvard Business School. The Case Method: How it Works. 2022. <https://www.hbs.edu/mba/academic-experience/Pages/the-case-method.aspx>
19. Stanford University. Canvas LMS Platform. <https://canvas.stanford.edu>
20. Stanford University. Learning Analytics. <https://lytics.stanford.edu/>
21. Lodge J. M., Panadero E., Broadbent J., de Barba P. G. Learning Analytics: Predicting Outcomes or Promoting Self-Regulated Learning? // Learning Analytics in Higher Education / ed. by J. M. Lodge, J. C. C. Horvath, L. Corrin. – London: Routledge, 2018. – P. 19-33. DOI: <https://doi.org/10.4324/9781315166933-2>
22. European Commission. European Credit Transfer and Accumulation System (ECTS). 2023. <https://education.ec.europa.eu/education-levels/higher-education/inclusive-and-connected-higher-education/european-credit-transfer-and-accumulation-system>



PEDAGOGIKA

GLOBALLASHUV SHAROITIDA TALABA-YOSHLARNING TAYANCH MA'NAVIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

NORBOYEVA SARVINOZ MENGALIYEVNA

Termiz davlat universiteti

“Pedagogika va ijtimoiy ish” kafedrasida dotsenti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Email: norboyevas67@gmail.com

UDK: 378.013.42

<https://orcid.org/0000-0002-1580-8569>

Kalit so'zlar:

globallashuv,
talaba-yoshlar,
ma'naviy
kompetensiya,
milliy qadriyatlar,
ta'lim jarayoni,
milliy o'zlik,
ijtimoiylashuv,
vatanparvarlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv jarayonlari tobora jadallashib borayotgan zamonaviy sharoitda talaba-yoshlarning tayanch ma'naviy kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy qadriyatlardan samarali foydalanish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Milliy qadriyatlarning yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni, ularning shaxs kamoloti, axloqiy qarashlari hamda ijtimoiy faolligiga ko'rsatadigan ta'siri asoslab beriladi. Shuningdek, ta'lim jarayoniga milliy qadriyatlarni integratsiya qilishning pedagogik mexanizmlari, samarali usul va vositalari yoritiladi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligining tarbiyaviy ahamiyati ochib berilib, ularning yoshlar ongida sog'lom dunyoqarashni shakllantirishdagi muhim roli ko'rsatib o'tiladi. Bundan tashqari, talaba-yoshlarni ma'naviy yetuk, vatanparvar va mustaqil fikrlaydigan shaxs etib tarbiyalashda milliy an'ana va urf-odatlar, milliy bayramlar, xalq og'zaki ijodi namunalari hamda boy madaniy merosning keng tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi.

ПУТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В РАЗВИТИИ БАЗОВЫХ ДУХОВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Ключевые слова: глобализация, студенческая молодёжь, духовно-нравственная компетенция, национальные ценности, образовательный процесс, национальная идентичность, социализация, патриотизм

Аннотация: В данной статье научно-теоретически и практически анализируются вопросы эффективного использования национальных ценностей в развитии базовых духовных компетенций студенческой молодежи в современных условиях ускоряющихся процессов глобализации. Обосновывается роль национальных ценностей в формировании духовности молодежи, их влияние на личностное развитие, нравственные взгляды и социальную активность. Также освещаются педагогические механизмы, эффективные методы и средства интеграции национальных ценностей в образовательный процесс. Раскрывается воспитательное значение гармонии национальных и общечеловеческих ценностей, указывается их важная роль в формировании здорового мировоззрения в сознании молодежи. Кроме того, анализируются широкие воспитательные возможности национальных традиций и обычаев, национальных праздников, образцов устного народного творчества и богатого культурного наследия в воспитании студенческой молодежи духовно зрелыми, патриотичными и самостоятельно мыслящими личностями.

WAYS OF USING NATIONAL VALUES IN DEVELOPING CORE SPIRITUAL AND MORAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Keywords: globalization, student youth, spiritual and moral competence, national values,

Abstract: This article analyzes from a scientific-theoretical and practical point of view the issues of the effective use of national values in the development of basic spiritual competencies of student youth in modern conditions of increasingly accelerated globalization processes. The role of national values in the formation of the spirituality of youth,

educational process, national identity, socialization, patriotism, their influence on the development of personality, moral views, and social activity are substantiated. Pedagogical mechanisms, effective methods, and means of integrating national values into the educational process are also highlighted. The educational significance of the harmony of national and universal values is revealed, and their important role in the formation of a healthy worldview in the minds of young people is shown. In addition, the wide educational potential of national traditions and customs, national holidays, examples of oral folk art, and rich cultural heritage in the upbringing of students as spiritually mature, patriotic, and independently thinking individuals is analyzed.

KIRISH

Zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyoti globallashuv fenomenining jamiyat hayotining barcha ijtimoiy-madaniy qatlamlariga chuqur va ko'p qirrali ta'siri bilan tavsiflanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va kognitiv makonning kengayishi natijasida "ommaviy madaniyat"ning faol translyatsiyasi kuchaymoqda. Bunday sharoitda yosh avlod, xususan, talaba-yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi hamda milliy o'zligini asrab qolish masalasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va strategik ahamiyat kasb etuvchi dolzarb muammoga aylanmoqda. Shu bilan birga, shaxs ongiga tashqi madaniy ta'sirlarning ortib borishi ma'naviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni yuzaga keltirmoqda.

Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarning nisbatan zaiflashuvi, ommaviy madaniyatning ustuvorlik kasb etishi hamda axborot makonida axloqiy me'yorlarning nisbiylashuvi yoshlar ongida ma'naviy bo'shliq va qadriyatlar inqirozini keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, talaba-yoshlarda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy barqarorlikni shakllantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari doirasida yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash va ularni "axloqiy eroziya" xavfidan himoya qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan [1].

Ayniqsa, globallashuv sharoitida talaba-yoshlarning tayanch ma'naviy kompetensiyalarini rivojlantirish ularning o'zgaruvchan sotsiomadaniy muhitga moslashuvi, mustaqil fikrlashi va barqaror shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Tayanch ma'naviy kompetensiyalar faqat axloqiy bilimlar majmui emas, balki shaxsning milliy qadriyatlarga tayangan holda ongli qaror qabul

qilishi (aksiologik tanlov), ijtimoiy mas'uliyatni anglash hamda destruktiv ma'naviy tahdidlarga qarshi tura olish qobiliyatini ifodalovchi murakkab integrativ tizimdir [2]. Ushbu kompetensiyalar talaba-yoshlarda subyektlik pozitsiyasini mustahkamlab, ularni milliy-madaniy qadriyatlarni anglaydigan, saqlaydigan va rivojlantiradigan yetuk mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida milliy qadriyatlardan foydalanishning samarali yo'llarini aniqlash, ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan integratsiya qilish hamda talaba-yoshlarning tayanch ma'naviy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy asoslash ushbu tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi. Mazkur tadqiqotda aynan milliy qadriyatlar asosida tayanch ma'naviy kompetensiyalarni shakllantirishning tizimli va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'naviy tarbiya, milliy qadriyatlar hamda shaxs ma'naviy kamoloti masalalari pedagogika fanida muhim va doimiy tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Xususan, globallashuv sharoitida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muammosi davlat siyosati va ilmiy izlanishlarda ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston strategiyasi"da yoshlar tarbiyasida milliy o'zlikni anglash, ma'naviy immunitetni kuchaytirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan [1].

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qator tadqiqotchilar ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasini turli yondashuvlar asosida o'rganib kelmoqda. Jumladan, X. Sirojiddinovning ilmiy ishlari raqamli muhit sharoitida yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish hamda milliy qadriyatlarning virtual makondagi aks etish mexanizmlarini ochib berishga qaratilgan [3]. Biroq mazkur tadqiqotlarda tayanch ma'naviy kompetensiyalarni yaxlit tizim sifatida shakllantirish masalasi yetarli darajada yoritilmagan.

O. G'aybullayev tadqiqotlarida yoshlarning qadriyat yo'nalishlari, ichki ma'naviy ideallari hamda ijtimoiy faolligi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan [4]. Ushbu yondashuv yoshlar ma'naviyatining ijtimoiy jihatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, unda ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar asosida ma'naviy kompetensiyalarni rivojlantirishning aniq pedagogik mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

N. Mirzaahmedovanning ilmiy izlanishlari oila va ta'lim muassasasi



hamkorligining yoshlar tarbiyasidagi rolini asoslashga qaratilgan bo‘lib, unda axloqiy sifatlarning shakllanishida ijtimoiy muhitning ta‘siri chuqur yoritilgan [5]. Biroq mazkur yondashuvlar asosan ijtimoiy-pedagogik aspektda tahlil qilinib, globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar asosida tayanch ma‘naviy kompetensiyalarni rivojlantirishning innovatsion usullari yetarlicha ochib berilmagan.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ma‘naviy tarbiya va milliy qadriyatlar masalasi keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, globallashuv sharoitida talaba-yoshlarning tayanch ma‘naviy kompetensiyalarini aynan milliy qadriyatlar asosida, loyihaviy yondashuv (Project-Based Learning) va zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali rivojlantirishning tizimli modeli hamda amaliy mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, ushbu jarayonni empirik ma‘lumotlar asosida baholash va uning samaradorligini statistik jihatdan asoslash masalalari ochiq qolmoqda. Mazkur holat ushbu yo‘nalishda kompleks va tizimli ilmiy tadqiqot olib borish zaruratini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy-mantiqiy tahlil, pedagogik kuzatuv hamda modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar muammoni har tomonlama o‘rganish, pedagogik jarayonning ichki qonuniyatlarini aniqlash va nazariy xulosalarni amaliy ma‘lumotlar bilan asoslash imkonini berdi.

Tadqiqotning empirik qismi uchun Termiz davlat universiteti Pedagogika yo‘nalishi 1-3 kurs talabalari orasida 120 nafar respondent maqsadli tanlov asosida jalb qilindi. Tanlov yoshlar ma‘naviy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi pedagogik amaliyotga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan talabalar qatlamini qamrab oldi.

Talaba-yoshlarning ma‘naviy kompetensiyalari darajasini aniqlashda kognitiv, affektiv va xulq-atvor komponentlari asosiy mezon sifatida belgilandi.

- Kognitiv komponent – ma‘naviy bilim va tushunchalarni bilish.
- Affektiv komponent – qadriyatlarni his etish, ularni qabul qilish va qadrlash.
- Xulq-atvor komponenti – kundalik hayotda axloqiy qaror qabul qilish va ijtimoiy mas‘uliyatni amalga oshirish.

Har bir komponent Likert shkalasi (1-5 ball) asosida baholandi. So‘rovnoma 25 savoldan iborat bo‘lib, ularni ekspertlar va pedagogik amaliyot doirasida pilot-test orqali tekshirish natijasida ishonchlik darajasi (Cronbach $\alpha = 0,87$) aniqlangan.

Olingan ma‘lumotlarni tahlil qilishda SPSS dasturi yordamida Pirson korrelyatsiya koeffitsienti ishlatildi. Bu metod pedagogik jarayonda milliy qadriyatlardan foydalanish chastotasi bilan talabalarning ma‘naviy kompetensiyalari darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkonini berdi. Natijalar $p < 0,05$

darajada statistik ahamiyatlilikka ega deb hisoblandi.

Tadqiqot deskriptiv va korrelyatsion dizaynda olib borildi. Shu orqali talaba-yoshlarning tayanch ma'naviy kompetensiyalarini shakllantirishdagi milliy qadriyatlardan foydalanish amaliyotining samaradorligi aniqlandi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

O'tkazilgan nazariy va empirik tadqiqotlar natijasida globallasuv sharoitida talaba-yoshlarning tayanch ma'naviy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik modeli ishlab chiqildi. Mazkur model talaba shaxsining ma'naviy rivojlanish jarayonini tizimli yondashuv asosida tashkil etish imkonini berib, milliy qadriyatlarning tarbiyaviy salohiyatini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilishni nazarda tutadi. Ushbu modelda milliy qadriyatlar sotsiomadaniy "filtr" vazifasini bajarib, tashqi madaniy ta'sirlarni saralash, ularni milliy qadriyatlar mezonlari asosida tanlab qabul qilish hamda yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Ishlab chiqilgan model milliy qadriyatlar va ma'naviy kompetensiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tizimli ravishda aks ettirib, pedagogik jarayonni maqsadli tashkil etish, uning samaradorligini oshirish hamda talaba-yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Mazkur modelning asosiy komponentlari va ularning rivojlantiruvchi pedagogik vositalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Milliy qadriyatlar va ma'naviy kompetensiyalar uyg'unligi modeli

Milliy qadriyat komponenti	Rivojlanadigan kompetensiya turi	Pedagogik vosita
Tarixiy xotira va ajdodlar merosi	Milliy o'zlikni anglash	"Ajdodlar yodi" interaktiv loyihalari
Oila va mahalla an'analari	Ijtimoiy mas'uliyat va odob-axloq	Case-study (hayotiy vaziyatlar tahlili)
Milliy san'at va adabiyot	Estetik va ma'naviy did	Art-pedagogika, badiiy tahlil
Bag'rikenglik va mehmondo'stlik	Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi	Debat va xalqaro muloqot treninglari

Mazkur model asosida talaba-yoshlarda tayanch ma'naviy kompetensiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari tizimli ravishda vizuallashtirildi hamda ularning pedagogik samaradorligi amaliy tajriba asosida asoslab berildi. Tadqiqot

natijalari shuni ko'rsatdiki, talaba-yoshlar jamiyatning eng faol va dinamik ijtimoiy qatlami sifatida nafaqat bilim egallovchi, balki ma'naviy qadriyatlarni shakllantiruvchi va jamiyat taraqqiyotiga faol ta'sir ko'rsatuvchi subyekt hisoblanadi. Shu bois, ularning ma'naviy kompetensiyalarini rivojlantirish jamiyatning barqaror rivojlanishi va ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlashning muhim sharti sifatida e'tirof etiladi.

Globalashuvning murakkab va ziddiyatli sharoitlarida talaba-yoshlarda ma'naviy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish, yoshlarning ma'naviy immunitetini tizimli ravishda mustahkamlash maqsadida quyidagi ustuvor strategik yo'nalishlar va ularni amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqildi.

O'tkazilgan korrelyatsion tahlil ($n=124$) milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim omillari bilan talabalarning ma'naviy kompetensiya komponentlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli va ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Olingan natijalar milliy qadriyatlarning ta'lim jarayonidagi funksional ahamiyatini empirik jihatdan tasdiqlaydi.

1-jadval

Milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim va ma'naviy kompetensiya komponentlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik ($n=124$)

O'zgaruvchilar (Korrelyatsiya faktorlari)	Milliy an'analar va meros	Axloqiy-etik tahlil (Keyslar)	Jamoaviy ma'naviy faoliyat
Kognitiv komponent (Bilim va tushuncha)	$r=0,72$	$r=0,65$	$r=0,48$
Affektiv komponent (E'tiqod va hissiyot)	$r=0,68$	$r=0,79$	$r=0,74$

Izoh: Korrelyatsiya darajasi darajasida statistik jihatdan ahamiyatli.

Birinchidan, milliy an'analar va merosni o'rganish bilan kognitiv komponent (bilim va tushuncha) o'rtasida yuqori darajadagi korrelyatsiya ($r=0,72$) aniqlangan. Bu ko'rsatkich talabalarning tarixiy-madaniy merosga oid bilimlari kengaygani sari ularning ma'naviy tushunchalari tizimli va ongli ravishda shakllanishini anglatadi. Shuningdek, ushbu omil affektiv komponent bilan ham sezilarli bog'liqlikka ega ($r=0,68$), bu esa milliy qadriyatlarni o'zlashtirish nafaqat bilim, balki shaxsiy e'tiqod va hissiy munosabat darajasida ham mustahkamlanishini ko'rsatadi.



Ikkinchidan, axloqiy-etik keyslar (situatsion muammolar) bilan ishlash affektiv komponent bilan eng yuqori korrelyatsiyani ($r=0,79$) namoyon etdi. Mazkur natija talabalarda qadriyatlarga nisbatan ichki pozitsiya, axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati va shaxsiy mas'uliyat hissi aynan muammoli vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida faol shakllanishini ko'rsatadi. Bu metod o'quvchilarning reflektiv fikrlashini kuchaytirib, ma'naviy qadriyatlarni ichki ehtiyoj darajasiga olib chiqadi.

Uchinchidan, jamoaviy ma'naviy faoliyat (hashar, bayramlar, ijtimoiy loyihalar) affektiv komponent bilan kuchli ($r=0,74$) va kognitiv komponent bilan o'rtacha ($r=0,48$) bog'liqlikni namoyon etdi. Bu esa jamoaviy faoliyat jarayonida qadriyatlar amaliy tajriba orqali mustahkamlanishini, ya'ni bilimdan ko'ra ko'proq hissiy va xulqiy darajada namoyon bo'lishini anglatadi. Aynan shu omil talabalarining ijtimoiy mas'uliyat, hamjihatlik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu statistik model milliy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga shunchaki "qo'shimcha ma'lumot" sifatida emas, balki kompetensiyalarni maqsadli rivojlantiruvchi "pedagogik drayver" sifatida kiritish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar va ilmiy tahlillar natijasida globallashuv sharoitida talaba-yoshlarning tayanch ma'naviy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasiga doir quyidagi fundamental xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, kompleks yondashuvning zarurligi aniqlandi. Ma'naviy kompetensiyalarni shakllantirish faqat auditoriya mashg'ulotlari doirasida emas, balki darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyat, oilaviy muhit hamda raqamli axborot makoni bilan uzviy integratsiyada amalga oshirilgandagina samarali natija beradi. Mazkur integrativ tizim yoshlarning intellektual salohiyati bilan bir qatorda ularning hissiy-irodaviy barqarorligi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy mas'uliyatini ham izchil rivojlantiradi.

Ikkinchidan, milliy qadriyatlarning barqarorlik omili ekani empirik jihatdan tasdiqlandi. Tarixiy xotira, urf-odat va an'analar, ona tiliga hurmat hamda madaniy merosni o'zlashtirish globallashuv jarayonidagi turli destruktiv g'oyalarga nisbatan o'ziga xos ma'naviy "filtr" va "immunitet" vazifasini bajaradi. Statistik va korrelyatsion tahlillar milliy merosni chuqur o'rganish bilan talabalarining kognitiv va aksiologik rivojlanishi o'rtasida mustahkam bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi.

Uchinchidan, pedagogik jarayonning boshlang'ich bosqichlari hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani kuzatildi. Tadqiqotda qatnashgan o'qituvchilar tajribasi shuni



ko'rsatadiki, ma'naviy kompetensiyalarning poydevori aynan ilk ta'lim davridayoq xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odatlar va tarbiyaviy qadriyatlar asosida qo'yilishi zarur. Bu jarayon keyinchalik talaba-yoshlarning kasbiy shakllanishida, ayniqsa pedagogik faoliyatida mustahkam metodologik tayanch bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchidan, raqamli makon imkoniyatlaridan oqilona foydalanish bugungi kunning eng dolzarb talabi sifatida namoyon bo'ldi. Axborot texnologiyalari vositasida ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi sifatli kontent yaratish yoshlarning dunyoqarashi, media madaniyati va ma'naviy ongini boyitishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Amaliy tavsiyalar:

– Oliy ta'lim muassasalarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan "ma'naviy-axloqiy keyslar" bankini yaratish hamda ularni o'quv jarayoniga tizimli ravishda tatbiq etish;

– talaba-yoshlarning volontyorlik, xayriya va ijtimoiy tashabbuslarda faol ishtirokini rag'batlantirish orqali ma'naviy kompetensiyaning faoliyatli komponentini kuchaytirish;

– oila, mahalla va ta'lim muassasasi o'rtasidagi ma'naviy hamkorlikni raqamli platformalar asosida monitoring qilish, natijadorlik mezonlarini ishlab chiqish va muntazam tahlil qilib borish.

Xulosa qilib aytganda, mazkur metodologik tamoyillarga izchil amal qilish talaba-yoshlarda milliy g'urur, vatanparvarlik, fuqarolik pozitsiyasi hamda ijtimoiy mas'uliyat hissini mustahkamlaydi. Natijada ular globallashuv sharoitida mustaqil fikrlaydigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega, raqobatbardosh va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga erishiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 464 b.
2. Hasanboyev J., Ochilov M. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
3. Sirojiddinov X. Raqamli ta'lim muhitida yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish masalalari // Pedagogik ta'lim. – Toshkent, 2021, №3. – B. 45-52.
4. G'aybullayev O. Yoshlar ma'naviyati va ijtimoiy faollik: pedagogik yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 188.
5. Mirzaahmedova N. Oila va ta'lim muassasasi hamkorligida shaxs axloqiy sifatlarini shakllantirish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – B. 156.



PEDAGOGIKA

JISMONIY TARBIYA DARSLARI ORQALI AXLOQIY FAZILATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI

HUKIMAYEV KAMOLIDDIN XUSNIDDINOVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Jismoniy tarbiya va sport” kafedrasi o‘qituvchisi

Email: kamoliddin.hukmayev@mail.ru

Tel: +998 94 461-82-10

UDK: 37.01:373.5:613

<https://orcid.org/0009-0005-1355-6766>

Kalit so‘zlar:

jismoniy tarbiya, axloqiy fazilatlar, o‘quvchilar tarbiyasi, jamoaviylik, intizom, sport o‘yinlari, ma’naviy-axloqiy tarbiya, ta’lim jarayoni, pedagogik metodlar.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada jismoniy tarbiya darslari orqali o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishning bugungi kundagi holati tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining o‘quvchilarda jamoaviylik, intizom, mas’uliyat, o‘zaro hurmat va do‘stlik kabi muhim axloqiy sifatlarni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati chuqur o‘rganildi. Tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili, kuzatish, so‘rovnoma hamda pedagogik tajriba metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, jismoniy tarbiya darslarini maqsadga muvofiq va samarali tashkil etish orqali o‘quvchilarning nafaqat jismoniy rivojlanishini, balki ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini ham yuqori darajada shakllantirish mumkin. Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko‘ra, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida tarbiyaviy yo‘nalishga ega sport o‘yinlari hamda jamoaviy mashqlardan keng va tizimli foydalanish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ ЧЕРЕЗ УРОКИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Ключевые слова: физическое состояние формирования и развития нравственных

Аннотация: В данной статье анализируется современное состояние формирования и развития нравственных



воспитание,
нравственные
качества,
воспитание
учащихся,
коллективизм,
дисциплина,
спортивные игры,
духовно-
нравственное
воспитание,
образовательный
процесс,
педагогические
методы.

качеств у учащихся посредством уроков физической культуры. В процессе исследования глубоко изучены роль и значение занятий по физическому воспитанию в формировании у учащихся таких важных нравственных качеств, как коллективизм, дисциплинированность, ответственность, взаимное уважение и дружба. В исследовании комплексно использовались методы анализа научно-педагогической литературы, наблюдения, анкетирования и педагогического эксперимента. Полученные результаты показали, что посредством целенаправленной и эффективной организации уроков физического воспитания можно формировать не только физическое развитие учащихся, но и их духовно-нравственное воспитание на высоком уровне. Также по результатам исследования научно обоснована необходимость широкого и системного использования спортивных игр и командных упражнений воспитательного характера на занятиях по физическому воспитанию.

CURRENT STATE OF IMPROVING MORAL QUALITIES THROUGH PHYSICAL EDUCATION LESSONS

Keywords:

physical education,
moral qualities,
student upbringing,
teamwork,
discipline, sports
games, moral and
ethical education,
educational process,
pedagogical methods.

Abstract:

This article analyzes the current state of formation and development of moral qualities in students through physical education lessons. In the research process, the role and significance of physical education classes in the formation of such important moral qualities of students as collectivism, discipline, responsibility, mutual respect, and friendship were deeply studied. The study comprehensively used methods of analysis of scientific and pedagogical literature, observation, questionnaires, and pedagogical experiment. The obtained results showed that through the purposeful and effective organization of physical education lessons, it is possible to form not only the physical development of students, but also their spiritual and moral education at a high level. Also, according to the research



results, the need for a wide and systematic use of sports games and team exercises with an educational orientation in physical education classes has been scientifically substantiated.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – yosh avlodni har tomonlama barkamol, jismonan sog'lom va ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk etib tarbiyalashdan iborat. Bu jarayonda jismoniy tarbiya darslari alohida o'rin egallab, nafaqat o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi, balki ularning shaxs sifatida shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari davomida o'quvchilar turli harakatli o'yinlar, sport mashqlari va jamoaviy faoliyat orqali ijtimoiy muhitga moslashadi. Aynan shu jarayonda ularda jamoaviylik, intizom, mas'uliyat, halollik, sabr-toqat, o'zaro hurmat va do'stlik kabi muhim axloqiy fazilatlar shakllanadi va rivojlanadi. Shu bois jismoniy tarbiya darslari nafaqat sog'lom turmush tarzini shakllantirish vositasi, balki kuchli tarbiyaviy ahamiyatga ega pedagogik jarayon sifatida ham qaraladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya darslarini ilmiy asosda, maqsadga muvofiq va samarali tashkil etish orqali o'quvchilarning nafaqat jismoniy salomatligini mustahkamlash, balki ularning ma'naviy-axloqiy kamolotini ham ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [1, 62]. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlar madaniyatini shakllantirish, sog'lom raqobat va hamkorlik muhitini yaratishda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'rni beqiyosdir.

Shu nuqtai nazardan, jismoniy tarbiya darslari orqali o'quvchilarda axloqiy fazilatlarini shakllantirishning mavjud holatini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – jismoniy tarbiya darslari orqali o'quvchilarda axloqiy fazilatlarini shakllantirishning hozirgi holatini chuqur tahlil qilish hamda ushbu jarayon samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida bir qator zamonaviy ilmiy va pedagogik metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Avvalo, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish metodi asosida mavzuga oid nazariy yondashuvlar o'rganilib, ularning ilmiy xulosalari tizimlashtirildi va umumlashtirildi. Bu esa tadqiqotning nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi.



Shuningdek, kuzatish metodi orqali jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'quvchilarning xatti-harakatlari, o'zaro munosabatlari, jamoada ishlash ko'nikmalari hamda sport faoliyatidagi axloqiy xulq-atvori muntazam ravishda tahlil qilindi. Mazkur metod real ta'lim jarayonidagi holatni bevosita o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida so'rovnoma metodi ham qo'llanilib, o'quvchilar va jismoniy tarbiya o'qituvchilarining fikr-mulohazalari, munosabatlari hamda tajribalari o'rganildi. Ushbu usul orqali jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri subyektiv baholash nuqtai nazaridan ham tahlil qilindi.

Bundan tashqari, pedagogik tajriba metodi asosida jismoniy tarbiya darslarini maqsadli tashkil etishning o'quvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishga ta'siri amaliy jihatdan sinovdan o'tkazildi. Olingan natijalar statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, ular asosida ilmiy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9-sinf o'quvchilari o'rtasida olib borildi. Tadqiqot jarayonida jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarning o'zaro munosabatlari, jamoaviy faoliyatdagi ishtiroki, hamkorlik ko'nikmalari hamda sport faoliyatidagi axloqiy xulq-atvori tizimli ravishda kuzatildi.

Shu bilan birga, o'quvchilar va jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar orqali jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ko'rsatadigan ta'siri har tomonlama o'rganilib, mavjud holat chuqur tahlil qilindi.

NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanligini yaqqol ko'rsatdi. Kuzatish, so'rovnoma va pedagogik tajriba metodlari asosida o'quvchilarda jamoaviylik, intizom, mas'uliyat, o'zaro hurmat va do'stlik kabi sifatlarda ijobiy o'zgarishlar qayd etildi.

Tadqiqot Denov tumanidagi 80- va 36-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9-sinf o'quvchilari (jami 116 nafar) o'rtasida olib borilib, jismoniy tarbiya darslarining tarbiyaviy imkoniyatlari amaliy jihatdan tahlil qilindi. Olingan natijalar ushbu mashg'ulotlarning o'quvchilarning nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

Kuzatish natijalariga ko'ra, jismoniy tarbiya darslarida jamoaviy sport o'yinlari va guruhli mashqlarni tizimli qo'llash o'quvchilarning hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Xususan, futbol, voleybol va estafeta kabi o'yinlar jarayonida o'quvchilar bir-birini qo'llab-quvvatlash, jamoa manfaatini

shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish, o'zaro yordam ko'rsatish kabi muhim ijtimoiy va axloqiy fazilatlarni namoyon etdilar. Bu esa jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining kompleks tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [9, 212].

So'rovnoma natijalari ham mazkur xulosalarni tasdiqladi. Unda ishtirok etgan o'quvchilarning katta qismi jismoniy tarbiya darslari ularda jamoaviylik, o'zaro hurmat va do'stlik kabi fazilatlarni rivojlantirishda muhim o'rin tutishini ta'kidladi. Shuningdek, o'quvchilar sport o'yinlari jarayonida sinfdoshlari bilan yanada yaqinroq munosabatlar o'rnatganini, o'zaro tushunish va qo'llab-quvvatlash ko'nikmalari shakllanganini qayd etdilar. Bu holat jismoniy tarbiya darslarining o'quvchilar o'rtasida ijobiy psixologik muhitni shakllantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

1-jadval

*Jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarning axloqiy fazilatlari rivojlanishi
(Denov tumani, 5–9-sinf, 116 nafar o'quvchi)*

Axloqiy fazilatlar	Kuzatish natijalari (%)	So'rovnoma natijalari (%)	Pedagogik tajriba natijalari (%)
Jamoaviylik	70	68	72
Intizom	60	63	65
Mas'uliyat	58	61	64
O'zaro hurmat	65	67	70
Do'stlik	62	66	68

Mazkur jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik tajriba asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar barcha ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori samaradorlikni ta'minlagan. Bu esa jismoniy tarbiya darslarini maqsadli va tarbiyaviy yo'naltirilgan holda tashkil etish muhimligini tasdiqlaydi.

Pedagogik tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, jismoniy tarbiya darslarini maxsus tarbiyaviy yo'nalish asosida tashkil etish o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Tajriba jarayonida jamoaviy sport o'yinlari, hamkorlikka asoslangan mashqlar hamda turli musobaqa elementlari tizimli ravishda qo'llanildi. Natijada o'quvchilarda intizom, mas'uliyat va o'zaro hurmat kabi muhim sifatlarning sezilarli darajada mustahkamlangani kuzatildi. Xususan, o'yin jarayonida belgilangan qoidalarga rioya qilish, hakam qarorlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, jamoa a'zolarini qo'llab-quvvatlash kabi ijobiy xulq-atvor elementlari bosqichma-bosqich shakllanib bordi.

Tadqiqot davomida jismoniy tarbiya darslarida o'qituvchining pedagogik yondashuvi hal qiluvchi omillardan biri ekani ham aniqlandi. O'qituvchining o'quvchilarga nisbatan adolatli va xolis munosabati, ularni rag'batlantirish hamda



doimiy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan usullari o‘quvchilarning ijobiy xulq-atvorini mustahkamlashga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Shuningdek, o‘qituvchi tomonidan tashkil etilgan tarbiyaviy suhbatlar, o‘yin jarayonida axloqiy me‘yorlarga alohida e‘tibor qaratish va o‘quvchilarni jamoaviy ruhda faoliyat yuritishga undash ularning ma‘naviy-axloqiy kamolotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari sport musobaqalarining ham o‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda muhim vosita ekanligini ko‘rsatdi. Musobaqalar jarayonida o‘quvchilarda g‘alabaga intilish bilan bir qatorda halollik, adolat, raqibga hurmat bilan munosabatda bo‘lish kabi sifatlar shakllandi. Ayniqsa, o‘quvchilarning jamoa oldidagi mas‘uliyatni his qilishi, umumiy natijaga o‘z hissasini qo‘shishga intilishi ularning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini oshirishga xizmat qildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya darslari o‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Mazmunan boyitilgan va tarbiyaviy yo‘naltirilgan holda tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarda jamoaviylik, intizom, mas‘uliyat, o‘zaro hurmat va do‘stlik kabi muhim ijtimoiy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi [2, 36]. Shu bilan birga, ushbu jarayon samaradorligini yanada oshirish uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida jamoaviy o‘yinlar, tarbiyaviy mashqlar va interaktiv metodlardan keng foydalanish zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi.

MUHOKAMALAR

Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tarbiya darslari o‘quvchilarning nafaqat jismoniy rivojlanishini ta‘minlaydi, balki ularning axloqiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishda ham muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy ta‘lim tizimida yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi [3, 93]. Shu nuqtai nazardan, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘quvchilarda jamoaviylik, intizom, mas‘uliyat, o‘zaro hurmat va do‘stlik kabi muhim axloqiy sifatlarni rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, jismoniy tarbiya darslarida jamoaviy sport o‘yinlari va hamkorlikka asoslangan mashg‘ulotlardan tizimli foydalanish o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini sezilarli darajada oshiradi. Bunday mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilar o‘zaro muloqot qilish, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, umumiy maqsad sari hamkorlikda harakat qilish kabi muhim ko‘nikmalarni egallaydi [4, 44]. Natijada ularning ijtimoiy moslashuvi va axloqiy kamoloti yanada mustahkamlanadi. Shu bilan birga, sport o‘yinlari o‘quvchilarda halollik, adolat va sport madaniyati kabi fazilatlarining shakllanishiga ham xizmat qiladi.



Tahlillar shuni ham ko'rsatdiki, jismoniy tarbiya darslarida o'qituvchining pedagogik yondashuvi hal qiluvchi omillardan biridir. O'qituvchining o'quvchilarga nisbatan adolatli va xolis munosabati, ularni rag'batlantirish hamda qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan usullari o'quvchilarning ijobiy xulq-atvorini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [5, 163]. Aks holda, agar mashg'ulotlar faqat jismoniy mashqlarni bajarishga qaratilsa, darslarning tarbiyaviy salohiyati to'liq namoyon bo'lmaydi. Shu sababli jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishda tarbiyaviy maqsadlarni aniq belgilash va ularni izchil amalga oshirish zarur.

Shuningdek, tadqiqot natijalari sport musobaqalarining ham muhim tarbiyaviy vosita ekanligini tasdiqladi. Musobaqalar o'quvchilarda g'alabaga intilish, qat'iyatlilik va sabr-toqatni rivojlantirish bilan birga, raqibga hurmat bilan munosabatda bo'lish, qoidalarga rioya qilish va adolat tamoyillariga amal qilish kabi axloqiy fazilatlarni shakllantiradi. Ayniqsa, o'quvchilarning jamoa oldidagi mas'uliyatni his qilishi va umumiy natijaga erishish yo'lida harakat qilishi ularning jamoaviylik ruhini mustahkamlaydi [6, 71].

Biroq tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlandi. Xususan, ayrim maktablarda jismoniy tarbiya darslarining tarbiyaviy yo'nalishi yetarli darajada tashkil etilmayotgani kuzatildi. Ba'zi hollarda mashg'ulotlar faqat jismoniy mashqlarni bajarish bilan cheklanib qolmoqda [7, 28]. Bu esa darslarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun jismoniy tarbiya o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini oshirish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar bilan tanishtirish muhimdir.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlandi: o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda jismoniy tarbiya darslari bilan bir qatorda maktabdagi umumiy tarbiyaviy muhit ham muhim rol o'ynaydi [8, 61]. Agar ta'lim muassasasida sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit yaratilgan bo'lsa, o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat va hamkorlik munosabatlari qaror topgan bo'lsa, jismoniy tarbiya darslarining tarbiyaviy samaradorligi yanada ortadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirishda katta pedagogik salohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bois, mashg'ulotlarni tashkil etishda jamoaviy sport o'yinlari, musobaqalar va tarbiyaviy yo'naltirilgan mashqlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv o'quvchilarda jamoaviylik, intizom, mas'uliyat, o'zaro hurmat va do'stlik kabi muhim axloqiy fazilatlarni samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning nafaqat jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi, balki ularning axloqiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishda ham muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, jamoaviy sport o'yinlari, musobaqalar va guruhli mashg'ulotlar o'quvchilarda hamkorlik, intizom, mas'uliyat, o'zaro hurmat va do'stlik kabi muhim sifatlarning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'qituvchining pedagogik yondashuvi, darslarni tarbiyaviy maqsad asosida tashkil etishi, o'quvchilarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyati axloqiy fazilatlarining shakllanishida hal qiluvchi omillardan biri ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish darajasi ko'p jihatdan maktabdagi ijtimoiy muhit va o'qituvchilarning metodik tayyorgarligiga bog'liq ekani ham aniqlandi. Shu bois jismoniy tarbiya darslarida tarbiyaviy yo'nalishga ega sport o'yinlari, jamoaviy mashqlar hamda musobaqalarni tizimli va maqsadli ravishda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning nafaqat jismoniy salomatligini mustahkamlaydi, balki ularning ma'naviy-axloqiy kamolotini ham ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya darslari zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning axloqiy tarbiyasi va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishda samarali va kompleks pedagogik vosita sifatida e'tirof etilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmonov S. Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya va axloqiy tarbiya muvofiqligi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2018.
2. Xolmirzaev R. Jismoniy tarbiya darslarida tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent, 2020.
3. Normurodov B. O'quvchilarda jamoaviylik va intizomni shakllantirish yo'llari. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2017.
4. Rahmatova M. Maktabda axloqiy tarbiya va jismoniy madaniyat. – Toshkent: Pedagogika nashriyoti, 2019.
5. Usmonov A. Jismoniy tarbiya darslarida axloqiy fazilatlarini rivojlantirish. – Toshkent: O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti nashriyoti, 2021.
6. Karimov D. Bolalarda sport va tarbiya jarayoni. – Nukus: Qoraqalpog'iston davlat universiteti nashriyoti, 2016.



7. Toshpo‘latov S. O‘quvchilarda mas‘uliyat va hurmatni shakllantirish usullari. – Buxoro: Buxoro davlat pedagogika instituti nashriyoti, 2018.
8. Qodirov N. Jismoniy tarbiya va ma‘naviy-axloqiy tarbiya integratsiyasi. – Toshkent, 2021.
9. Hukmaev K. H. O‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy va pedagogik asoslari // Tadbirkorlik va pedagogika. 2025. № 6. – B. 211-218.



PEDAGOGIKA

INGLIZ TILI MATERIALLARI ASOSIDA TALABALARIDA UMUMMADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIAGNOSTIK VOSITALARI

BAYDJANOVA DINORA KARIMOVNA

Fargʻona davlat universiteti

“Pedagogika” kafedrasi tayanch doktoranti

Email: dinarabayjanova1992@gmail.com

UDK: 378.147:811.111

<https://orcid.org/0009-0004-9384-2166>

Kalit soʻzlar:

umummadaniy kompetentlik, ingliz tili materiallari, diagnostik vositalar, madaniy kompetentlik, rubrikalar, reflektiv topshiriqlar, pedagogik baholash.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada ingliz tili materiallari asosida talabalarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning diagnostik vositalari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinib, umummadaniy kompetentlik tushunchasi, uning tarkibiy komponentlari va taʼlim jarayonida shakllantirish mexanizmlari oʻrganilgan. Ingliz tili oʻquv materiallari nafaqat til koʻnikmalarini rivojlantirish, balki talabalarning madaniy, ijtimoiy va intellektual salohiyatini oshirish vositasi sifatida tahlil qilingan. Maqolada diagnostik vositalarning roli alohida taʼkidlangan boʻlib, ular talabalarning madaniy kompetentligini baholash, individual rivojlanish darajasini aniqlash va pedagogik strategiyalarni optimallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga testlar, kuzatuvlar, rubrikalar va reflektiv topshiriqlar kabi turli diagnostik instrumentlarning samaradorligi va ularni amaliyotga joriy etish usullari yoritilgan.

ДИАГНОСТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ ОБЩЕКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ МАТЕРИАЛОВ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Ключевые слова:

общекультурная компетентность, материалы по

Аннотация: В данной статье на основе материалов по английскому языку теоретически и практически анализируются диагностические инструменты развития общекультурной компетентности у студентов.

английскому языку, диагностические инструменты, культурная компетентность, рубрики, рефлексивные задания, педагогическая оценка.

Рассматривается понятие общекультурной компетентности, ее структурные компоненты и механизмы формирования в образовательном процессе. Учебные материалы по английскому языку анализируются не только как средство развития языковых навыков, но и как инструмент повышения культурного, социального и интеллектуального потенциала обучающихся. В статье особое внимание уделяется роли диагностических инструментов, которые позволяют оценить уровень культурной компетентности студентов, определить индивидуальные траектории развития и оптимизировать педагогические стратегии. Также освещается эффективность различных диагностических средств, таких как тесты, наблюдения, рубрики и рефлексивные задания, а также способы их внедрения в образовательную практику.

DIAGNOSTIC TOOLS FOR DEVELOPING STUDENTS' GENERAL CULTURAL COMPETENCE BASED ON ENGLISH LANGUAGE MATERIALS

Keywords: general cultural competence, English language materials, diagnostic tools, cultural competence, rubrics, reflective tasks, pedagogical assessment.

Abstract: This article provides a theoretical and practical analysis of diagnostic tools for developing students' general cultural competence based on English language materials. The concept of general cultural competence, its structural components, and the mechanisms of its formation in the educational process are examined. English language instructional materials are analyzed not only as a means of developing language skills, but also as a tool for enhancing students' cultural, social, and intellectual potential. Particular attention is paid to the role of diagnostic tools, which make it possible to assess students' level of cultural competence, identify individual development trajectories, and optimize pedagogical strategies. In addition, the effectiveness of various diagnostic instruments such as tests, observations, rubrics, and reflective tasks-as well as methods for their implementation in educational practice, is discussed.



KIRISH

So‘nggi yillarda oliy ta‘lim tizimida talabalarni nafaqat til ko‘nikmalariga, balki umummadaniy kompetentlikka ham tayyorlash masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Umummadaniy kompetentlik – shaxsning ijtimoiy, madaniy, intellektual va axloqiy salohiyatini o‘zida mujassam etgan kompleks tushuncha bo‘lib, u xalqaro miqyosda samarali muloqot qilish, madaniy farqlarni anglash, tanqidiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ingliz tili o‘quv materiallari talabalarda umummadaniy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida qaraladi. Zero, ingliz tilini o‘rganish jarayoni nafaqat lingvistik kompetensiyalarni rivojlantiradi, balki talabalarni xalqaro madaniy muhitga moslashishga, global va milliy kontekstda o‘zini anglashga hamda ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ingliz tilining madaniy jihatlarini o‘rgatish orqali talabalarda boshqa madaniyatlarga nisbatan hurmat, bag‘rikenglik, ochiq fikrlilik va tolerantlik kabi muhim shaxsiy sifatlar shakllanadi.

Bugungi kunda ingliz tili o‘quv materiallari asosida umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ushbu jarayonning samaradorligini ta‘minlashda diagnostik vositalar muhim o‘rin tutadi. Diagnostik vositalar – testlar, baholash mezonlari (rubrikalar), kuzatuv varaqalari, refleksiv topshiriqlar va portfoliolar orqali talabalarning rivojlanish darajasini aniqlash, ularning shaxsiy hamda kasbiy kompetensiyalarini baholash va pedagogik strategiyalarni takomillashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, diagnostik vositalar talabalarning o‘quv faoliyatini tizimli monitoring qilish, rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda ta‘lim jarayoniga zarur tuzatishlar kiritish imkonini yaratadi. Ingliz tili o‘quv materiallari asosida umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida diagnostik vositalardan samarali foydalanish ta‘lim sifatini oshirish, natijadorlikni kuchaytirish va o‘quv jarayonining amaliy ahamiyatini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi ingliz tili o‘quv materiallari asosida talabalarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi diagnostik vositalarni aniqlash, ularning samaradorligini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida diagnostik vositalarning mazmuni, ularni ta‘lim jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlari hamda talabalarda umummadaniy kompetentlikni shakllantirishdagi o‘rni kompleks tarzda o‘rganiladi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, olingan natijalar oliy ta‘lim muassasalarida ingliz tili ta‘limi sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik

yondashuvlarni takomillashtirish hamda talabalarning umummadaniy kompetentligini tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Umummadaniy kompetentlik pedagogik tadqiqotlarda keng o'rganilayotgan dolzarb tushunchalardan biri bo'lib, uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Qator ilmiy manbalarda umummadaniy kompetentlik nafaqat madaniy bilim va ko'nikmalar, balki ijtimoiy, kommunikativ hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o'z ichiga olgan kompleks, integrativ kompetentlik sifatida talqin etiladi [1, 256]. Shuningdek, mazkur kompetentlik talabalarning global miqyosda samarali va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarur bo'lgan muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

Umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida diagnostik vositalarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, S.M. Spivakova o'z tadqiqotlarida diagnostik vositalarni faqat talabalarning til ko'nikmalarini baholash vositasi sifatida emas, balki ularning madaniy ongini, kommunikativ va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik mexanizm sifatida ko'rib chiqadi. Uning fikriga ko'ra, testlar, kuzatuvlar va baholash rubrikalari ta'lim jarayonida talabalarning individual rivojlanish darajasini aniqlash hamda ularga mos pedagogik yondashuvlarni belgilash imkonini beradi [2, 45-51].

Bundan tashqari, N.A. Kovaleva ingliz tili o'quv materiallari orqali talabalarda umummadaniy kompetentlikni shakllantirishda metodik yondashuvlarning samaradorligini asoslab beradi. Uning ta'kidlashicha, ingliz tilini o'rganish jarayoni faqat til ko'nikmalarini rivojlantirish bilan cheklanmay, balki talabalarning boshqa madaniyatlarni anglash, jahonqarashini kengaytirish va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ingliz tili o'quv materiallarida aks etgan madaniy komponentlar talabalarga turli xalqlarning urf-odatlarini, qadriyatlarini va turmush tarzini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu materiallarni diagnostik vositalar bilan uyg'unlashtirish umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning samarali metodik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [3, 33-39].

P. Perrenoud o'zining "Des compétences pour enseigner" asarida diagnostik vositalar, xususan, reflektiv faoliyat va baholash rubrikalarini pedagogik jarayonga joriy etishning ahamiyatini yoritib beradi. U mazkur vositalar orqali talabalarning faoliyatini baholash, ularning kognitiv rivojlanish darajasini aniqlash hamda madaniy va kommunikativ ko'nikmalarini samarali baholash mumkinligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, bunday yondashuvlar talabalarda o'z-o'zini baholash va shaxsiy rivojlanish jarayonini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi [4,



240].

R.E. Boyatzis va L.M. Spencerlarning tadqiqotlarida ham kompetentliklarni baholashda diagnostik vositalarning muhim o'rnini qayd etiladi. Ularning ilmiy ishlarida diagnostik vositalar orqali talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, shuningdek, madaniy, axloqiy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Ushbu metodik yondashuvlar pedagogik amaliyotda keng qo'llanilib, talabalarning umumiy kompetentlik darajasini aniqlashda samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda [5, 384].

Ingliz tili o'quv materiallari asosida diagnostik vositalardan foydalanish talabalarning madaniy va ijtimoiy faolligini baholash, o'quv jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Testlar, kuzatuvlar va refleksiv topshiriqlar yordamida talabalarning o'quv faoliyatini tizimli monitoring qilish, pedagogik yondashuvlarni moslashtirish hamda ta'lim sifatini yuksaltirish mumkin bo'ladi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz tili materiallari asosida diagnostik vositalarni qo'llash talabalarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon ta'lim sifatini oshirish, shuningdek, talabalarning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ingliz tili o'quv materiallari asosida talabalarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonini aniq diagnostik vositalar yordamida baholash va tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, unda kompetensiyaviy, tizimli hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Tadqiqot metodologiyasi umummadaniy kompetentlikning tarkibiy komponentlarini aniqlash, ularni baholash mezon va indikatorlarini ishlab chiqish hamda diagnostik vositalarning pedagogik samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali ilmiy asoslashga qaratildi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: nazariy-analitik, tajriba-sinov va tahliliy-umumlashtiruvchi bosqichlar.

Nazariy-analitik bosqich: Ushbu bosqichda pedagogika, chet tillarni o'qitish metodikasi, madaniyatshunoslik hamda kompetensiyaviy ta'limga oid ilmiy manbalar tahlil qilinib, "umummadaniy kompetentlik" tushunchasining mazmun-mohiyati va tuzilmasi aniqlashtirildi. Tahlil natijasida umummadaniy kompetentlik quyidagi tarkibiy komponentlardan iborat ekani belgilandi:

– Bilimiy komponent – madaniy bilimlar, tushunchalar va madaniyatlararo muloqotga oid nazariy tasavvurlar;

- Qadriyatli-motivatsion komponent – bag‘rikenglik, madaniyatlararo hurmat, ochiq fikrlilik va ijobiy munosabat;
- Faoliyatga yo‘naltirilgan komponent – madaniyatlararo vaziyatlarda mos xulq-atvor va kommunikativ ko‘nikmalar;
- Refleksiv komponent – o‘z faoliyatini tahlil qilish, baholash va shaxsiy madaniy tajribani anglash qobiliyati.

Shuningdek, mazkur komponentlarni baholash imkonini beruvchi diagnostik yondashuvlar tizimlashtirildi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi asoslab berildi.

Tajriba-sinov bosqichi: Mazkur bosqichda ingliz tili o‘quv materiallari (madaniy mazmunga ega matnlar, dialoglar, autentik materiallar hamda madaniyatlararo vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar) negizida aniq diagnostik vositalar ishlab chiqildi va amaliyotda sinovdan o‘tkazildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi diagnostik metod va vositalardan foydalanildi:

- Test topshiriqlari – talabalar madaniy bilimlari va madaniyatlararo anglash darajasini aniqlash maqsadida qo‘llanildi. Test savollari madaniy vaziyatlarni tahlil qilish, tolerantlik va madaniyatlararo muloqotga oid bilimlarni baholashga yo‘naltirildi.
- Baholash rubrikalari – talabalar faoliyatini bilimiy, qadriyatli va xulq-atvoriy jihatdan baholash uchun ishlab chiqildi. Rubrikalarda past, o‘rta va yuqori darajalarni aks ettiruvchi aniq mezonlar va indikatorlar belgilandi.
- Kuzatuv metodi – talabalarning madaniyatlararo vaziyatlarda o‘zini tutishi, jamoaviy muhokamalardagi faolligi hamda kommunikativ xulq-atvori tizimli ravishda qayd etildi.
- Refleksiv yozma topshiriqlar – talabalarning shaxsiy munosabati, madaniy tajribani anglash darajasi va o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmalarini aniqlashga xizmat qildi.

Diagnostik vositalar yordamida talabalarning umummadaniy kompetentligining boshlang‘ich, oraliq va yakuniy darajalari aniqlanib, rivojlanish dinamikasi izchil kuzatildi.

Tahliliy-umumlashtiruvchi bosqich: Mazkur bosqichda tajriba-sinov jarayonida olingan natijalar taqqoslash, guruhlash va statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanib, umumlashtirildi. Diagnostik vositalarning ishonchliligi test natijalari, kuzatuv ma‘lumotlari hamda refleksiv yozma ishlar o‘rtasidagi muvofiqlik asosida tekshirildi.

Olingan natijalar asosida ingliz tili o‘quv materiallari orqali umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishda diagnostik vositalardan foydalanishning pedagogik samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Shu tariqa, tadqiqot metodologiyasi ingliz tili materiallari asosida talabalarda umummadaniy kompetentlikni aniq mezonlar, indikatorlar va diagnostik vositalar orqali baholash imkonini beruvchi tizimli yondashuvga tayangan holda ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish, muntazam monitoring qilish va izchil takomillashtirishga xizmat qiladi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tili o'quv materiallari asosida talabalarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida maxsus ishlab chiqilgan, ilmiy asoslangan diagnostik vositalar tizimi yuqori pedagogik samaradorlikka ega. Tadqiqot doirasida test topshiriqlari, baholash rubrikalari hamda refleksiv yozma topshiriqlardan iborat integratsiyalashgan diagnostik model ishlab chiqildi va uning amaliy samaradorligi pedagogik tajriba-sinov jarayonida olingan empirik ma'lumotlar asosida tasdiqlandi.

Mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy yangiligi umummadaniy kompetentlikni baholashda kompleks, ko'p komponentli diagnostik yondashuv taklif etilganligi bilan belgilanadi. Avvalgi tadqiqotlarda ushbu kompetentlik, asosan, umumiy tavsifiy yoki faqat testga yo'naltirilgan baholash orqali aniqlangan bo'lsa, mazkur tadqiqotda uning bilimiy, qadriyatli-motivatsion, faoliyatga yo'naltirilgan va refleksiv komponentlari aniq mezon hamda indikatorlar asosida alohida baholandi. Bu yondashuv umummadaniy kompetentlikni nafaqat natijaviy, balki jarayonli jihatdan ham chuqur tadqiq etish imkonini berdi.

Ilmiy yangilik, shuningdek, ingliz tili materiallari orqali shakllanadigan umummadaniy kompetentlikni baholashda diagnostika va rivojlantirish funksiyalarining uzviy bog'liq holda qo'llanilishi bilan ham ifodalanadi. Ya'ni, diagnostik vositalar nafaqat talabalarning mavjud darajasini aniqlash, balki ularning madaniy ongi, bag'rikenglik munosabati hamda refleksiv tafakkurini faollashtirishga xizmat qildi.

Tajriba-sinov ishlari davomida talabalarning umummadaniy kompetentlik darajasi boshlang'ich, oraliq va yakuniy bosqichlarda aniqlanib, o'zaro taqqoslandi. Olingan natijalar barcha komponentlar bo'yicha ijobiy o'sish dinamikasini ko'rsatdi.

Bilimiy komponent bo'yicha talabalarning madaniyatga oid bilimlari, madaniyatlararo muloqot qoidalari hamda madaniy kontekstni anglash darajasi sezilarli darajada oshdi.

Qadriyatli-motivatsion komponent doirasida boshqa madaniyat vakillariga nisbatan hurmat, bag'rikenglik va ochiq fikrli munosabatning shakllangani kuzatildi.

Faoliyatga yo'naltirilgan komponent bo'yicha talabalar madaniyatlararo



vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, kommunikativ moslashuvchanlik va ijtimoiy faollikni namoyon etish ko‘nikmalarini rivojlantirdilar.

Refleksiv komponent rivoji talabalarning o‘z o‘quv faoliyatiga tanqidiy yondashish, shaxsiy tajribasini tahlil qilish hamda o‘z-o‘zini rivojlantirishga ongli munosabatini shakllantirdi.

Umummadaniy kompetentlikni baholashda faqat bitta turdagi diagnostik vosita bilan cheklanish ilmiy jihatdan yetarli emasligi aniqlandi. Mazkur tadqiqotda taklif etilgan integratsiyalashgan diagnostik yondashuv testlar orqali bilimiy komponentni, rubrikalar yordamida xulq-atvor va munosabatlarni, refleksiv topshiriqlar orqali esa shaxsiy rivojlanish dinamikasini baholash imkonini berdi. Bu yondashuv kompetensiyalarning integrativ tabiati haqidagi zamonaviy ilmiy qarashlar bilan uyg‘unlashadi.

Shuningdek, madaniy mazmunga ega ingliz tili materiallari diagnostik vositalar bilan uyg‘un holda qo‘llanilganda, talabalarning madaniyatlararo muloqotga bo‘lgan munosabati faollashdi, ijtimoiy-madaniy vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyati mustahkamlandi. Bu holat ingliz tilini o‘qitish jarayonini faqat lingvistik maqsadlar bilan cheklab qo‘ymasdan, uni shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu tariqa, tadqiqot natijalari ingliz tili o‘quv materiallari asosida talabalarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishda aniq mezonlar, indikatorlar va kompleks diagnostik vositalarga tayangan yangi baholash modeli samarali ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Mazkur model oliy ta‘lim muassasalarida chet tillarini o‘qitish amaliyotida umummadaniy kompetentlikni shakllantirish, baholash va tizimli monitoring qilish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarda umummadaniy kompetentlikni shakllantirish jarayoni nafaqat ta‘lim mazmunining sifatiga, balki ushbu jarayonni aniq mezonlar asosida baholash va tahlil qilish imkonini beruvchi maqsadga yo‘naltirilgan diagnostik vositalarga ham bevosita bog‘liqdir. Ingliz tili o‘quv materiallarini madaniy kontekst asosida tanlash va ularni tizimli ravishda qo‘llash talabalarning madaniy bilimlarini boyitish, madaniyatlararo muloqotga nisbatan ijobiy va bag‘rikeng munosabatni shakllantirish hamda ijtimoiy-madaniy vaziyatlarda moslashuvchan xulq-atvor ko‘nikmalarini rivojlantirishga samarali ta‘sir ko‘rsatdi.

Tadqiqot jarayonida test topshiriqlari, kuzatuv metodi, baholash rubrikalari va refleksiv yozma topshiriqlardan iborat kompleks diagnostik yondashuv ishlab chiqildi



va amaliyotda sinovdan o'tkazildi. Mazkur yondashuv umummadaniy kompetentlikning bilimiy, qadriyatli-motivatsion, faoliyatga yo'naltirilgan hamda refleksiv komponentlarini obyektiv va tizimli ravishda baholash imkonini berdi. Tajriba-sinov natijalari barcha komponentlar bo'yicha ijobiy o'sish dinamikasini tasdiqladi.

Shunday qilib, ingliz tili o'quv materiallari asosida ishlab chiqilgan diagnostik vositalar oliy ta'lim tizimida umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish va baholashning samarali pedagogik mexanizmi ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Olingan natijalar chet tillarni o'qitish amaliyotini takomillashtirish, ta'lim jarayonining sifat va natijadorligini oshirish hamda talabalarning madaniy va ijtimoiy salohiyatini har tomonlama rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Зеер Э. Ф. Компетентностный подход к образованию: методология, теория, практика. – М.: Академия, 2005. – С. 256.
2. Спивакова С. М. Диагностические средства в формировании общекультурной компетентности студентов // Педагогическое образование в России. 2018, № 4. – С. 45-51.
3. Ковалева Н. А. Формирование общекультурной компетентности студентов средствами иностранного языка // Иностранные языки в высшей школе. 2019, № 2. – С. 33-39.
4. Perrenoud P. Des compétences pour enseigner. – Paris: ESF Éditeur, 1997. – P. 240.
5. Boyatzis R. E., Spencer L. M. Competence at Work: Models for Superior Performance. – New York: John Wiley & Sons, 1993. – P. 384.



PEDAGOGIKA

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA HUQUQIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

XOLMATOV OYBEK ORIFOVICH

Farg‘ona davlat universiteti

“Pedagogika” kafedrasida tadqiqotchisi

Email: o_o_xolmatov@gmail.com

UDK: 378.147:34

<https://orcid.org/0000-0003-0414-3733>

Kalit so‘zlar:

huquqiy kompetentlik, huquqiy bilim, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, kasbiy kompetensiya, ta’lim mazmuni, pedagogik tayyorgarlik.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Unda huquqiy kompetentlik tushunchasining mohiyati ochib berilib, uning kasbiy kompetensiyalar tizimidagi o‘rni hamda ta’lim jarayonida shakllantirishning asosiy omillari yoritiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning huquqiy bilimlari, huquqiy ong va huquqiy madaniyatini rivojlantirish orqali ularning ta’lim jarayonida huquqiy me‘yorlarga rioya etish, shuningdek, o‘quvchilarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga tayyorgarligini shakllantirishning pedagogik ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, huquqiy kompetentlikni rivojlantirishda ta’lim mazmunini takomillashtirish, interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish, amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish hamda normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati ochib beriladi. Mazkur yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida huquqiy savodxonlik va huquqiy mas’uliyatni oshirishga xizmat qiladi.

СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ПРАВОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Ключевые слова:

правовая компетентность,

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы развития правовой компетентности у будущих учителей. В нем раскрывается сущность понятия правовой



правовые знания,
правовое сознание,
правовая культура,
профессиональная
компетенция,
содержание
образования,
педагогическая
подготовка.

компетентности, освещается ее место в системе профессиональных компетенций и основные факторы формирования в образовательном процессе. Обосновано педагогическое значение формирования готовности будущих учителей к соблюдению правовых норм в образовательном процессе, а также к защите прав и свобод учащихся путем развития их правовых знаний, правового сознания и правовой культуры. Также раскрывается важность совершенствования содержания образования в развитии правовой компетентности, использования интерактивных методов обучения, эффективной организации практических занятий и формирования навыков работы с нормативно-правовыми актами. Эти подходы служат повышению правовой грамотности и правовой ответственности в профессиональной деятельности будущих учителей.

THE CONTENT OF DEVELOPING LEGAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

Keywords:

legal competence,
legal knowledge,
legal awareness,
legal culture,
professional
competence,
educational
content,
pedagogical
training.

Abstract:

This article analyzes the issues of developing legal competence in future teachers. It reveals the essence of the concept of legal competence, its place in the system of professional competencies, and the main factors of its formation in the educational process. The pedagogical significance of forming the readiness of future teachers to comply with legal norms in the educational process, as well as to protect the rights and freedoms of students, through the development of legal knowledge, legal awareness, and legal culture is substantiated. The importance of improving the content of education, using interactive teaching methods, effectively organizing practical classes, and forming skills in working with regulatory legal documents in the development of legal competence is also revealed. These approaches serve to increase legal literacy and legal responsibility in the professional activities of future teachers.



KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bugungi kunda pedagogning kasbiy tayyorgarligi nafaqat o'z fanini chuqur bilish va metodik mahoratga ega bo'lish bilan, balki pedagogik faoliyatni amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil eta olish, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni to'g'ri boshqarish hamda o'quvchilarning huquq va erkinliklarini kafolatlashga tayyorlik darajasi bilan ham belgilanadi. Shu jihatdan, huquqiy kompetentlik o'qituvchining kasbiy faoliyatini qonuniylik, adolat va mas'uliyat tamoyillari asosida amalga oshirishini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasini modernizatsiya qilish jarayonlari, xususan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan ta'limga oid normalar pedagog kadrlar zimmasiga yuksak huquqiy mas'uliyat yuklaydi. Ta'lim muassasalarida huquqiy munosabatlar doirasining kengayishi, o'quvchilar va ota-onalar bilan hamkorlikning huquqiy asosda olib borilishi, pedagogik nizolarni qonuniy hal etish zarurati bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy tayyorgarligini tizimli ravishda rivojlantirishni talab etadi.

Pedagogning huquqiy savodxonligi va huquqiy ong darajasi uning kasbiy qarorlar qabul qilish jarayonida, o'quvchi shaxsiga nisbatan munosabatida, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish uslubi hamda kasbiy mas'uliyatni anglashida yaqqol namoyon bo'ladi. Ayniqsa, maktab muhitida o'quvchi huquqlarini himoya qilish, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik, pedagogik etika va kasbiy odob-axloq me'yorlariga rioya etish o'qituvchidan puxta shakllangan huquqiy kompetentlikni talab etadi. Shu ma'noda, huquqiy kompetentlik bo'lajak o'qituvchining umumkasbiy kompetensiyalari tizimida integrativ xususiyatga ega bo'lib, ta'lim sifatini ta'minlashda muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Globalashuv sharoitida inson huquqlari va erkinliklariga oid xalqaro hujjatlarning ta'lim amaliyotiga faol joriy etilishi pedagog kadrlarni tayyorlash mazmunini yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu jarayonda bo'lajak o'qituvchilarda nafaqat huquqiy bilimlar majmuini shakllantirish, balki ularni kasbiy faoliyat jarayonida huquqiy me'yorlarga ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'lishga, murakkab pedagogik vaziyatlarda huquqiy jihatdan asoslangan qarorlar qabul qilishga tayyorlash dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Amaldagi pedagogik tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab hollarda bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy tayyorgarligi nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmoqda, ularni real pedagogik vaziyatlarda qo'llash ko'nikma va malakalari esa yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa huquqiy kompetentlikni rivojlantirish mazmuni,

mexanizmlari va pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy asosda qayta ko'rib chiqishni, amaliy yo'naltirilgan yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shu asosda mazkur tadqiqotning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, uning tarkibiy komponentlari va mazmunini belgilash hamda pedagogik ta'lim jarayonida samarali amalga oshirish yo'llarini ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqot natijalari pedagog kadrlarni kasbiy tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning huquqiy ongi, kasbiy mas'uliyati va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilishi bilan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda pedagog kadrlarni tayyorlash tizimida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvor yo'nalish sifatida qaror topishi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini, jumladan, ularning huquqiy tayyorgarligini ilmiy jihatdan qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Mazkur yondashuv doirasida pedagog shaxsining kasbiy faoliyati nafaqat bilim va ko'nikmalar majmui, balki ijtimoiy-huquqiy mas'uliyat, ongli qaror qabul qilish va normativ-huquqiy me'yorlarga rioya etish qobiliyati bilan ham baholanmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari I.A. Zimnyaya tadqiqotlarida keng yoritilgan bo'lib, muallif kompetentlikni shaxsning bilim, tajriba, qadriyat va faoliyatga tayyorlikning integrativ birligi sifatida talqin etadi [1]. Tadqiqotchining qarashlarida pedagogning kasbiy tayyorgarligi amaliy faoliyat jarayonida ijtimoiy va huquqiy mas'uliyatni ongli ravishda amalga oshirish bilan uzviy bog'liq holda izohlanadi. Ushbu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy tayyorgarligini faqat bilim darajasida emas, balki kasbiy faoliyatdagi real xatti-harakatlar orqali baholash zarurligini ko'rsatadi.

A.V. Xutorskoy pedagogik kompetensiyalar tizimini tahlil qilib, pedagog faoliyatida huquqiy jihatdan asoslangan qarorlar qabul qilish muhimligini alohida ta'kidlaydi. Uning ilmiy ishlarida huquqiy tayyorgarlik pedagogning kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni hal etish, o'quvchi shaxsining qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ta'lim jarayonini normativ-huquqiy talablar asosida tashkil etish bilan bog'liq jarayon sifatida talqin etiladi [2]. Bu yondashuv huquqiy tayyorgarlikni pedagogik amaliyot bilan bevosita bog'lash zarurligini asoslaydi.

Pedagogika va yuridik-pedagogik tadqiqotlarda, jumladan, V.I. Baydenko ishlarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida huquqiy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan uyg'unlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Muallifning



fikricha, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish hamda muammoli o'qitish texnologiyalaridan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi [3]. Ushbu tadqiqotlar huquqiy tayyorgarlikni faqat axborot berishga asoslangan jarayon sifatida emas, balki faol va refleksiv ta'lim jarayoni sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Xorijiy ilmiy manbalarda ham pedagog kadrlarning huquqiy tayyorgarligi masalasi ta'lim sifati va fuqarolik mas'uliyati bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi. Xususan, J. Delors rahbarligida tayyorlangan UNESCO hisobotida ta'lim jarayonida huquqiy ong va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish shaxsning kasbiy yetukligining muhim sharti sifatida baholanadi [4]. Hisobotda huquqiy tayyorgarlik uzluksiz va tizimli tashkil etilmaguncha, pedagogik faoliyatda barqaror ijobiy natijalarga erishish mushkul ekani ta'kidlanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy tayyorgarligi masalasi keng yoritilgan bo'lsa-da, aksariyat tadqiqotlarda ushbu jarayonning amaliy jihatdan qanday tashkil etilishi, huquqiy tayyorgarlik darajasini aniqlash va rivojlanishini monitoring qilish mexanizmlari yetarli darajada aniqlashtirilmagan. Ayniqsa, huquqiy tayyorgarlikni pedagogik ta'lim jarayonida tizimli ravishda shakllantirish va baholash masalalari qo'shimcha ilmiy izlanishlarni talab etadi.

Shu bois, mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirgan holda, bo'lajak o'qituvchilarda huquqiy tayyorgarlikni rivojlantirish jarayonini pedagogik nuqtayi nazardan chuqurroq tahlil qilish, uni amaliy ta'lim jarayoniga yo'naltirilgan mexanizmlar asosida asoslash dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bo'lajak o'qituvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonini nazariy asoslash, uning amaliy holatini aniqlash hamda pedagogik samaradorligini baholashga qaratilgan bo'lib, kompleks metodologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Metodologiya tadqiqot muammosining nazariy va amaliy jihatlarini o'zaro uyg'un holda o'rganish, mavjud holatni tashxislash hamda uni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqishga xizmat qildi.

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, tizimli hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar tashkil etdi.

Kompetensiyaviy yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning huquqiy tayyorgarligini faqat nazariy bilimlar majmui sifatida emas, balki real pedagogik vaziyatlarda huquqiy jihatdan asoslangan, mas'uliyatli va adolatli qaror qabul qilish qobiliyati



sifatida talqin etishga imkon berdi. Ushbu yondashuv huquqiy kompetentlikning kognitiv, motivatsion-axloqiy va amaliy-kommunikativ komponentlarini aniqlash va baholashga metodik asos bo‘lib xizmat qildi.

Tizimli yondashuv huquqiy tayyorgarlikni pedagogik ta‘lim jarayonining uzviy tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqish, uning maqsad, mazmun, metod va natijalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligini aniqlash imkonini berdi. Mazkur yondashuv asosida huquqiy kompetentlikni shakllantirish jarayoni yaxlit pedagogik tizim sifatida tahlil qilindi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv esa bo‘lajak o‘qituvchilarning individual xususiyatlari, kasbiy motivatsiyasi, huquqiy ong va mas‘uliyat darajasini hisobga olgan holda ularning huquqiy kompetentligini rivojlantirish zaruratini asoslashga xizmat qildi.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, nazariy va empirik metodlar majmuasi qo‘llanildi.

1. Nazariy metodlar: Ilmiy adabiyotlar, pedagogik va normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning huquqiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar aniqlashtirildi. Huquqiy kompetentlikka oid mavjud ilmiy qarashlar tizimlashtirilib, tadqiqotning nazariy konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Tahlil va sintez, taqqoslash hamda umumlashtirish metodlari yordamida huquqiy tayyorgarlikning pedagogik ta‘lim tizimidagi o‘rni, uning tarkibiy komponentlari va rivojlanish mexanizmlari aniqlashtirildi.

2. Empirik metodlar

Pedagogik kuzatuv metodi bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy mashg‘ulotlar, pedagogik amaliyot jarayonlarida huquqiy vaziyatlarga munosabati va xatti-harakatlarini aniqlash maqsadida qo‘llanildi. Kuzatuv davomida quyidagi mezonlar asos qilib olindi:

- pedagogik vaziyatlarda huquqiy me‘yorlarga tayanish darajasi;
- nizoli holatlarda huquqiy asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati;
- o‘quvchi huquqlariga hurmat bilan munosabat;
- normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish faolligi.

Mazkur metod talabalarning huquqiy tayyorgarligi amaliy faoliyatda qay darajada namoyon bo‘layotganini aniqlash imkonini berdi.

So‘rovnoma metodi bo‘lajak o‘qituvchilarning huquqiy kompetentligiga doir subyektiv qarashlarini aniqlashga qaratildi. So‘rovnoma savollari quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oldi:

- pedagogik faoliyatda huquqiy bilimlarning ahamiyatini anglash darajasi;
- kasbiy huquqiy mas‘uliyatga bo‘lgan munosabat;



- huquqiy vaziyatlarda o‘ziga ishonch darajasi;
- normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlashga tayyorlik.

Olingan natijalar orqali talabalarning nazariy bilimlari va amaliy tayyorgarligi o‘rtasidagi tafovutlar aniqlashtirildi.

Suhbat metodi yordamida talabalar va professor-o‘qituvchilarning huquqiy tayyorgarlik jarayoniga munosabati, mavjud muammolar va ehtiyojlar chuqur tahlil qilindi. Ushbu metod so‘rovnoma va kuzatuv natijalarini izohlash hamda ularni mazmunan boyitishga xizmat qildi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetentlikni faqat nazariy bilimlar majmui sifatida emas, balki real pedagogik faoliyatga tayyorlik ko‘rsatkichi sifatida aniqlash va tahlil qilishga imkon beruvchi ilmiy asoslangan metodlar tizimiga tayandi. Tanlangan metodlar o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilib, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ob‘ektivligi va ilmiy asoslanganligini ta‘minladi hamda xulosalar uchun mustahkam metodik poydevor yaratdi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Bo‘lajak o‘qituvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirish holati pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma va suhbat metodlari asosida kompleks tarzda o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida olingan empirik ma‘lumotlar pedagogik ta‘lim tizimida talabalar huquqiy tayyorgarligining real darajasi, mavjud muammolar hamda mazkur jarayon samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan omillarni aniqlash imkonini berdi.

Pedagogik kuzatuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, amaliy mashg‘ulotlar jarayonida huquqiy mazmunga ega pedagogik vaziyatlar yuzaga kelganda talabalar ko‘pincha normativ-huquqiy hujjatlarga emas, balki umumiy pedagogik tajriba va shaxsiy tasavvurlariga tayangan holda qaror qabul qiladilar. Kuzatuv davomida talabalar tomonidan qonunchilik hujjatlariga bevosita murojaat qilish holatlari kam uchragani, qarorlarni huquqiy jihatdan asoslashda aniq dalillar yetarli darajada keltirilmagani qayd etildi. Bu esa nazariy bilimlar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularni real pedagogik faoliyatda qo‘llash ko‘nikmasi yetarli darajada shakllanmaganini ko‘rsatadi. Demak, huquqiy bilim va huquqiy amaliyot o‘rtasida muayyan tafovut mavjud.

So‘rovnoma metodi orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning huquqiy tayyorgarlikka bo‘lgan munosabati hamda o‘z-o‘zini baholash darajasi aniqlashtirildi. Tadqiqotda 132 nafar pedagogika yo‘nalishi talabalari ishtirok etdi. So‘rovnoma savollari pedagogik faoliyatda normativ-huquqiy me‘yorlardan foydalanishga tayyorlik darajasini aniqlashga yo‘naltirildi. “Tayyorlik” tushunchasi real pedagogik vaziyatlarda normativ-huquqiy hujjatlarga tayangan holda mustaqil va asoslangan



qaror qabul qilish qobiliyati sifatida operatsion talqin qilindi. Baholash 5 balli Likert shkalasi asosida amalga oshirildi (1 – mutlaqo tayyor emasman, 5 – to‘liq tayyorman).

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning atigi 22-27 foizi o‘zini real pedagogik vaziyatlarda huquqiy jihatdan mustaqil qaror qabul qilishga tayyor deb baholagan. Aksariyat talabalar o‘z tayyorgarligini o‘rtacha yoki past darajada deb ko‘rsatgan. Bu ko‘rsatkichlar huquqiy bilimlarning asosan nazariy darajada o‘zlashtirilayotganini, amaliy faoliyatga integratsiyalash jarayoni esa yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganini anglatadi. Shuningdek, talabalarda huquqiy qaror qabul qilishda ishonch va tajriba yetishmasligi kuzatiladi.

Suhbat metodi orqali olingan ma‘lumotlar mazkur holatning sabablarini chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi. Talabalar huquqiy fanlar ko‘proq axborot berishga yo‘naltirilganini, normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustaqil ishlash, real pedagogik vaziyatlarni huquqiy tahlil qilish, muammoli holatlar yuzasidan huquqiy asoslangan yechimlar ishlab chiqish kabi faoliyat turlariga yetarli e‘tibor qaratilmayotganini ta’kidladilar. Bu esa huquqiy tayyorgarlik jarayonida amaliy komponentning yetarli darajada shakllanmaganini ko‘rsatadi.

Empirik natijalar huquqiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmasligi zarurligini tasdiqlaydi. Huquqiy bilimlar interfaol metodlar asosida – muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, keys-stadi, rolli o‘yinlar, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash mashg‘ulotlari orqali mustahkamlangandagina real pedagogik faoliyatda samarali qo‘llanilishi mumkin. Kuzatuv va suhbat natijalari interfaol mashg‘ulotlarda faol ishtirok etgan talabalar huquqiy vaziyatlarga nisbatan ongliroq, tahliliy va asoslangan munosabat bildirganini ko‘rsatdi.

Shuningdek, tadqiqot huquqiy kompetentlikni rivojlantirishda differensial yondashuv zarurligini ham asoslab berdi. So‘rovnoma natijalari ayrim talabalar huquqiy masalalarga yuqori qiziqish va mas‘uliyat bilan yondashayotganini, boshqalari esa o‘zini ishonchsiz his qilayotganini ko‘rsatdi. Bu esa ta‘lim jarayonida talabalar individual xususiyatlari va tayyorgarlik darajasini inobatga olgan holda maxsus metodik strategiyalarni qo‘llash lozimligini anglatadi.

Huquqiy kompetentlikni rivojlantirishda normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Amaliy mashg‘ulotlarda huquqiy hujjatlarga bevosita murojaat qilish, ularni tahlil qilish, pedagogik vaziyatlarni aynan hujjatlar asosida hal etish talabalarda huquqiy tafakkur, huquqiy mas‘uliyat va kasbiy qarorlar qabul qilish madaniyatini rivojlantiradi.



Umuman olganda, tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni tizimli, amaliy yo‘naltirilgan va differensial yondashuv asosida tashkil etilgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini ko‘rsatdi. Shuningdek, huquqiy tayyorgarlik darajasini baholashda pedagogik kuzatuv, so‘rovnomalar va suhbat metodlarining o‘zaro uyg‘un qo‘llanilishi huquqiy kompetentlikning real holatini aniqlashda ishonchli ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi empirik jihatdan tasdiqlandi. Mazkur natijalar tadqiqotning umumlashtiruvchi xulosalarini ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta‘lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u pedagogning kasbiy faoliyatida huquqiy jihatdan asoslangan, mas‘uliyatli va ongli qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, amaldagi ta‘lim jarayonida huquqiy tayyorgarlik ko‘proq nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanib qolmoqda, real pedagogik vaziyatlarda normativ-huquqiy hujjatlarga tayangan holda qaror qabul qilish ko‘nikmalari esa yetarli darajada shakllanmagan.

Empirik ma‘lumotlar talabalar huquqiy bilimlarning zarurligini anglashlariga qaramay, ularning faqat kamchiligi amaliy vaziyatlarda mustaqil va huquqiy asoslangan qaror qabul qilishga tayyor ekanini ko‘rsatdi. Bu holat huquqiy bilimlar bilan ularni kasbiy faoliyatda qo‘llash o‘rtasida muayyan uzilish mavjudligini tasdiqlaydi va huquqiy kompetentlikni shakllantirish jarayonini qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot natijalari huquqiy kompetentlikni rivojlantirishda amaliy yo‘naltirilgan va interfaol metodlarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslab berdi. Keystadi, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda normativ-huquqiy hujjatlar bilan bevosita ishlashga asoslangan mashg‘ulotlar talabalar huquqiy tafakkurini rivojlantiradi, kasbiy mas‘uliyatini mustahkamlaydi va huquqiy qaror qabul qilish madaniyatini shakllantiradi. Aynan shu yondashuv orqali huquqiy bilimlar real pedagogik faoliyat bilan integratsiyalashadi.

Shu bilan birga, talabalar huquqiy tayyorgarlik darajasi va amaliy ishonchida mavjud tafovutlar huquqiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida individual va differensial yondashuvni qo‘llash zarurligini ko‘rsatdi. Ta‘lim jarayonini talabalar huquqiy tayyorgarlik darajasi, qiziqishi va ehtiyojlariga moslashtirish huquqiy tayyorgarlik samaradorligini oshiradi hamda barqaror natijalarni ta‘minlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarda huquqiy



kompetentlikni rivojlantirish tizimli, amaliy yo‘naltirilgan va muntazam monitoringga asoslangan yondashuv orqali amalga oshirilgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini ko‘rsatdi. Bunday yondashuv pedagogning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi, pedagogik faoliyatda huquqiy me‘yorlarga ongli rioya etish madaniyatini shakllantiradi hamda o‘quvchilarning huquq va erkinliklarini himoya qila oladigan, huquqiy jihatdan mas‘uliyatli mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Зимняя И. А. Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентного подхода в образовании // Педагогика. 2004, № 4. – С. 3-14.
2. Хуторской А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003, № 2. – С. 58-64.
3. Байденко В. И. Компетентностный подход к проектированию государственных образовательных стандартов высшего профессионального образования. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – С. 114.
4. Delors J. Learning: The Treasure Within : Report to UNESCO of the International Commission on Education for the Twenty-first Century. – Paris: UNESCO Publishing, 1996. – P. 266.
5. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va pedagogik konsepsiyalar to‘plami. Oliy ta‘lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishga doir me‘yoriy-huquqiy hujjatlar. – Toshkent, 2020.



PEDAGOGIKA

FIZIKA O'QITISHDA MAKTAB VA REPETITORLIK MASHG'ULOTLARI MAZMUNINI INTEGRATSIYALASHNING DIDAKTIK ASOSLARI

NARZULLOYEV ANVAR SOBIRJONOVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Email: narzulloeyevanvar9899@gmail.com

Tel: +998 95 520-09-98

UDK: 53/374.7

<https://orcid.org/0009-0005-5745-6599>

Kalit so'zlar:

fizika ta'limi,
didaktik integratsiya,
repetitorlik
mashg'ulotlari,
mazmun uyg'unligi,
ta'lim samaradorligi,
kompetensiyaviy
yondashuv.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada fizika fanini o'qitish jarayonida umumta'lim maktablari hamda qo'shimcha (repetitorlik) mashg'ulotlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashning didaktik asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida rasmiy va norasmiy ta'lim shakllari o'rtasida yuzaga kelayotgan tafovutlarning o'quvchilarning bilimlar tizimligi, mustaqil fikrlashi hamda kompetensiyalarining shakllanishiga ta'siri ochib beriladi. Tadqiqotda mazkur ta'lim yo'nalishlari mazmunini integratsiyalashning nazariy-metodologik asoslari umumlashtirilib, ularni samarali uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi didaktik yondashuv ishlab chiqiladi. Shuningdek, integratsiyalashgan o'quv jarayonining afzalliklari asoslab berilib, uning o'quvchilarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritiladi.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕГРАЦИИ СОДЕРЖАНИЯ ШКОЛЬНЫХ И РЕПЕТИТОРСКИХ ЗАНЯТИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ

Ключевые слова:

обучение физике,
дидактическая
интеграция,

Аннотация:

В данной статье анализируются дидактические основы обеспечения преемственности между процессом преподавания физики в общеобразовательных школах и дополнительными



репетиторские занятия, согласование содержания, эффективность обучения, компетентностный подход.

(репетиторскими) занятиями. Раскрывается влияние различий между формальными и неформальными формами образования в современной системе обучения на системность знаний учащихся, их самостоятельное мышление и формирование компетенций. В исследовании обобщаются теоретико-методологические основы интеграции содержания данных образовательных направлений и разрабатывается дидактический подход, направленный на их эффективное сочетание. Также обосновываются преимущества интегрированного учебного процесса и раскрывается его значение в углублении теоретических знаний учащихся, развитии практических навыков и повышении эффективности обучения.

DIDACTIC FOUNDATIONS OF INTEGRATING THE CONTENT OF SCHOOL AND PRIVATE TUTORING INSTRUCTION IN PHYSICS

Keywords:

physics education, didactic integration, supplementary tutoring, content alignment, learning effectiveness, competency-based approach.

Abstract:

This article analyzes the didactic foundations for ensuring continuity between physics teaching in general secondary schools and supplementary (private tutoring) sessions. It reveals the impact of the differences between formal and non-formal education in the modern education system on the systematic nature of students' knowledge, their independent thinking, and the development of competencies. The study generalizes the theoretical and methodological foundations for integrating the content of these educational directions and develops a didactic approach aimed at their effective combination. Furthermore, the advantages of an integrated learning process are substantiated, highlighting its importance in deepening students' theoretical knowledge, developing practical skills, and improving the overall effectiveness of education.

KIRISH

Globalashuv jarayoni va ta'lim tizimining modernizatsiyasi sharoitida fizika fanini o'qitish samaradorligini oshirish dolzarb pedagogik muammolardan biriga aylanmoqda. Zamonaviy umumta'lim maktablarida fizika o'qitish davlat ta'lim standartlari asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, amaliyotda o'quvchilarning nazariy bilim darajasi, masala yechish ko'nikmalari hamda test natijalari o'rtasida muayyan nomutanosibliklar kuzatilmoqda. Shu sababli ko'plab o'quvchilar qo'shimcha repetitorlik mashg'ulotlariga murojaat qilmoqda. Natijada fizika ta'limida maktab va qo'shimcha ta'lim shakllari parallel ravishda faoliyat yuritayotgan tizim vujudga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida ta'limning uzluksizligi va izchilligi asosiy prinsip sifatida belgilangan bo'lib, mazkur talab maktab va qo'shimcha ta'lim shakllari o'rtasida mazmuniy uyg'unlikni ta'minlash zaruratini yuzaga keltiradi [1]. Ushbu normativ talab fizika ta'limida ham tizimlilik, uzviylik va o'zaro to'ldiruvchanlikni ta'minlashni taqozo etadi.

Biroq amaliyotda maktab darslari ko'proq nazariy tayyorgarlikka yo'naltirilgan bo'lsa, repetitorlik mashg'ulotlarida test texnologiyalari va masala yechish algoritmlariga ustuvorlik berilishi kuzatiladi. Mazkur tafovut o'quvchilarda bilimlarning fragmentarlashuviga, ya'ni tizimsiz va uzviy bog'lanmagan holda shakllanishiga, shuningdek, ilmiy dunyoqarashning yetarli darajada rivojlanmasligiga olib kelishi mumkin. Shu bois fizika o'qitishda mazmuniy va metodik integratsiyani ta'minlash masalasi ilmiy-pedagogik jihatdan asoslashni talab etadi.

Didaktika nuqtayi nazaridan ta'lim mazmunini integratsiyalash tizimlilik, izchillik hamda kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga asoslanishi lozim. Fizika fanining nazariy va eksperimental xususiyati esa maktab hamda repetitorlik mashg'ulotlari o'rtasida o'zaro uyg'un mexanizm ishlab chiqishni zarur etadi. Shu bois mazkur tadqiqotning maqsadi – fizika o'qitishda maktab va repetitorlik mashg'ulotlari mazmunini integratsiyalashning didaktik asoslarini aniqlash hamda samarali integrativ modelni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalari fizika ta'limida tizimli yondashuvni kuchaytirishga, o'quvchilarning nazariy bilimlari va amaliy kompetensiyalarini uyg'un ravishda rivojlantirishga hamda ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Fizika ta'limini takomillashtirish va uning mazmunini tizimlashtirish masalalari didaktika hamda xususiy metodika doirasida keng qamrovda tadqiq etilgan. Umumiy didaktika nazariyasida ta'lim mazmunining ilmiylik, tizimlilik va izchillik tamoyillari

asoslab berilgan. Jumladan, V.V. Kraevskiy ta'lim mazmunini ijtimoiy tajribaning pedagogik jihatdan qayta ishlangan modeli sifatida talqin qilib, uni o'quv jarayonining tizimli komponenti sifatida izohlaydi [2]. I.Ya. Lerner esa bilimlarni egallash jarayonida reproduktiv va ijodiy faoliyat birligining zarurligini ta'kidlab, ta'lim mazmunini faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv asosida qurish lozimligini asoslaydi [3].

Fizika o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlarda maktab kursining ilmiyligi va mantiqiy izchilligi muhim metodik tamoyil sifatida e'tirof etiladi. Xususan, A.V. Peryshkin umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika kursini o'qitish metodikasini ishlab chiqib, nazariy bilimlar va amaliy masalalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi [4]. Yu.I. Dik fizika ta'limining didaktik asoslarini tahlil qilib, o'quvchilarda ilmiy tafakkurni shakllantirish mexanizmlarini ilmiy asoslab bergan [5]. Biroq mazkur tadqiqotlarda maktab va qo'shimcha ta'lim shakllari o'rtasidagi integratsiya masalasi alohida ilmiy muammo sifatida yetarli darajada yoritilmagan.

So'nggi yillarda xalqaro ilmiy adabiyotlarda repetitorlik tizimi "shadow education" fenomeni sifatida keng o'rganilmoqda. Mark Bray repetitorlikni rasmiy ta'lim tizimining "soyasi" sifatida tavsiflab, uning o'quvchilarning akademik natijalariga ta'sirini tahlil qilgan [6]. Tadqiqot natijalari qo'shimcha mashg'ulotlar test natijalarini yaxshilashi mumkinligini ko'rsatsa-da, mazmuniy muvofiqlashtirish yetarli darajada ta'minlanmaganda bilimlarning fragmentarlashuvi kuzatilishini ta'kidlaydi. Ta'lim samaradorligi omillari bo'yicha o'tkazilgan meta-tahlillarda esa o'qitish strategiyalarining izchilligi hamda baholash tizimining aniqligi muhim omil sifatida qayd etilgan [7].

O'zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham fizika ta'limini modernizatsiyalash, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish va ta'lim samaradorligini oshirish masalalari keng yoritilgan. Jumladan, N.Sayidahmedov ta'lim texnologiyalarini tizimli qo'llash orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshirish zarurligini asoslab bergan [8], R. Ishmuhamedov esa interfaol metodlar asosida o'quvchilarning bilish faolligini rivojlantirish mexanizmlarini ko'rsatib bergan [9]. Shuningdek, fizika ta'limi metodikasi bo'yicha mahalliy tadqiqotlarda fan mazmunini kompetensiyaviy asosda qayta qurish va amaliy yo'naltirilgan o'qitishni kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi [10]. Biroq maktab va repetitorlik mashg'ulotlari mazmunini yagona didaktik tizim sifatida integratsiyalash masalasi yetarli darajada kompleks o'rganilmagan.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili fizika ta'limining nazariy-metodik asoslari puxta ishlab chiqilganini ko'rsatsa-da, umumta'lim maktabi va qo'shimcha ta'lim

shakllarini didaktik jihatdan uyg'unlashtirishning yaxlit modeli hali ishlab chiqilmaganini ko'rsatadi. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot fizika o'qitishda maktab va repititorlik mashg'ulotlari mazmunini integratsiyalash samaradorligini aniqlashga qaratilgan aralash (miqdoriy va sifat) metodologiya asosida tashkil etildi. So'nggi yillarda Scopus bazasiga kiritilgan jurnallarda e'lon qilingan tadqiqotlar formal va informal ta'lim shakllarini muvofiqlashtirish o'quv natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlamoqda [11; 12]. Shuningdek, fizika ta'limida integrativ va kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash o'quvchilarning konseptual tushunchalari hamda masala yechish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishi aniqlangan [13]. Mazkur ilmiy xulosalar tadqiqotning metodologik asosini tashkil etdi.

Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida kirish (diagnostik) va yakuniy testlar, so'rovnoma hamda pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. O'quv natijalari o'rtacha ball, foiz ko'rsatkichlari va dispersiya asosida statistik jihatdan tahlil qilindi. Fizika ta'limida aralash o'qitish va mazmuniy integratsiya yondashuvlarining samaradorligini o'rganishga qaratilgan zamonaviy tadqiqotlarda ham aynan shu turdagi metodik apparatdan foydalanilganligi qayd etiladi [13].

Tadqiqot kvazi-eksperimental dizayn asosida amalga oshirildi. Tajriba Denov tumanidagi 12 ta umumta'lim maktabining 9-10-sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazildi. Tanlanma sifatida 27 nafar o'quvchi jalb qilindi. Mazkur o'quvchilar 6 oy davomida "Perfekso" o'quv markazida fizika fanidan qo'shimcha ta'lim oldilar.

Tadqiqotning maqsadi maktab ta'limi va qo'shimcha repititorlik mashg'ulotlari mazmunini integratsiyalashning o'quvchilarning akademik natijalariga ta'sirini aniqlashdan iborat bo'ldi. Mustaqil o'zgaruvchi sifatida integratsiyalashgan o'qitish modeli (maktab dasturi va repititorlik mashg'ulotlari mazmunining o'zaro muvofiqlashtirilishi) qo'llanildi. Bog'liq o'zgaruvchi sifatida esa o'quvchilarning fizika fanidan test natijalari hamda masala yechish ko'nikmalari ko'rsatkichlari olindi.

Ma'lumotlar tadqiqot boshida va 6 oy yakunida o'tkazilgan diagnostik testlar orqali yig'ildi. Test topshiriqlari 30 ta yopiq turdagi savol va 5 ta hisoblash masalasidan iborat bo'ldi. Natijalar foiz ko'rsatkichlari hamda o'rtacha ball asosida tahlil qilindi. O'zgarish dinamikasini aniqlash maqsadida dastlabki va yakuniy natijalar qiyosiy-statistik usulda solishtirildi.

Tajriba jarayonida maktabda o‘tilgan mavzular repetitorlik mashg‘ulotlarida chuqurlashtirildi, masala yechish algoritmlari tizimlashtirildi hamda test texnologiyalari asosida mustahkamlandi. Olti oylik kuzatuv natijalari integratsiyalashgan yondashuv o‘quvchilarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarining sezilarli darajada oshishiga xizmat qilganini ko‘rsatdi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Tadqiqot davomida 27 nafar o‘quvchining fizika fanidan o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tajriba boshida (pre-test) va 6 oylik integratsiyalashgan ta‘lim jarayonidan so‘ng (post-test) diagnostik testlar orqali baholandi. Olingan natijalar o‘rtacha ball va foiz ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilindi.

Pre-test natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning o‘rtacha ko‘rsatkichi 58.4% ni tashkil etdi. 6 oylik integratsiyalashgan o‘qitish modeli qo‘llanilgandan so‘ng post-test natijalari o‘rtacha 74.6% ga yetdi. Umumiy o‘sish 16.2% ni tashkil qildi. Bu ko‘rsatkich integratsiyalashgan yondashuvning ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, pre-test va post-test ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farq sezilarli darajada ekanligi aniqlandi ($p < 0.05$). Bu esa o‘zgarish tasodifiy emasligini, balki qo‘llanilgan didaktik model ta‘sirida yuzaga kelganini ko‘rsatadi. Effekt o‘lchami o‘rtacha-yuqori darajada bo‘lib, bu ta‘lim samaradorligining sezilarli oshganini tasdiqlaydi.


1-rasm

Statistik tahlil natijalari



2-rasm

Bilim darajasining o'sish dinamikasi



Grafik tahlil natijalari ham o'quvchilarning bilim darajasi va masala yechish ko'nikmalarida ijobiy dinamikani namoyon etdi. Ayniqsa, murakkab hisoblash masalalarida to'g'ri javoblar ulushi sezilarli darajada oshdi. Bu maktab darslarida olingan nazariy bilimlarning repetitorlik mashg'ulotlarida algoritmik va amaliy jihatdan mustahkamlanganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, maktab va qo'shimcha ta'lim mazmunini didaktik integratsiyalash modeli o'quvchilarning akademik natijalarini oshirishda samarali vosita ekanligi tajriba natijalari bilan tasdiqlandi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari maktab va repetitorlik mashg'ulotlari mazmunini didaktik integratsiyalash fizika fanini o'zlashtirish samaradorligini oshirishda muhim omil ekanini ko'rsatdi. 6 oylik tajriba natijasida o'quvchilarning o'rtacha ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgani, nazariy bilimlar va masala yechish ko'nikmalarining mustahkamlangani aniqlandi. Integratsiyalashgan yondashuv maktabda olingan nazariy bilimlarni repetitorlik mashg'ulotlarida tizimli va algoritmik tarzda mustahkamlash orqali o'quv jarayonida uzviylik va izchillikni ta'minladi. Bu esa formal va qo'shimcha ta'lim o'rtasidagi samarali hamkorlik modeli ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, maktab va repetitorlik markazlari o'rtasida mazmuniy muvofiqlikni ta'minlash, yagona metodik yondashuvni joriy etish hamda muntazam diagnostik monitoring tizimini yo'lga qo'yish zarur. Shuningdek,



o'qituvchilar va repitorlar o'rtasida metodik hamkorlikni kuchaytirish va integratsiyalashgan modelni boshqa fanlar kesimida ham sinovdan o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv ta'lim samaradorligini barqaror oshirish hamda o'quvchilarning kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni: 2020 yil 23 sentyabr, O'RQ-637-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 24.09.2020. 03/20/637/1313.
2. Краевский В. В. Содержание образования: вперед к прошлому. – М: Педагогика, 2001. – С. 256.
3. Лернер И. Я. Дидактические основы методов обучения. – М: Педагогика, 1981. – С. 186.
4. Перышкин А. В. Методика преподавания физики в средней школе. – Москва: Просвещение, 1988. – С. 256.
5. Дик Ю. И. Дидактические основы обучения физике. – М: Педагогика, 1981. – С. 240.
6. Bray M. Shadow Education System: Private Tutoring and Its Implications for Planners. – Paris: UNESCO IIEP, 1999. – P. 130.
7. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009. – P. 378.
8. Sayidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2003. – B. 192.
9. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2008. – B. 160.
10. Abdullayeva Q. Fizika o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2015. – B. 220.
11. Bray M. Shadow education in comparative perspective: Patterns and implications // Comparative Education. 2021. Vol. 57, No. 3. – P. 331-346. <https://doi.org/10.1080/03050068.2021.1891393>
12. Entrich S. R. Worldwide shadow education and social inequality: Explaining differences in the socioeconomic gap in access to private tutoring // International Journal of Educational Development. 2022. Vol. 92. 102620. <https://doi.org/10.1016/j.ijedudev.2022.102620>
13. Docktor J. L., Mestre J. P. Synthesis of discipline-based education research in physics // Physical Review Physics Education Research. 2020. Vol. 16, No. 2.



PEDAGOGIKA

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INKLYUZIV TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

ISMOILOVA YULDUZXON TURAYEVNA

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

“Pedagogika” kafedrasi dotsenti

Email: yulduzismoilova12345@gmail.com

UDK: 376:004

<https://orcid.org/0009-0001-4191-6117>

Kalit soʻzlar:

inklyuziv taʼlim,
raqamli
texnologiyalar,
alohida taʼlim
ehtiyoblari,
individual taʼlim,
pedagogik
samaradorlik,
masofaviy taʼlim,
innovatsion
yondashuv.

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar asosida inklyuziv taʼlim samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Inklyuziv taʼlim sharoitida alohida taʼlim ehtiyojlariga ega boʻlgan oʻquvchilar bilan ishlash jarayonida zamonaviy raqamli vositalar va platformalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari keng yoritilgan. Tadqiqot davomida interaktiv dasturlar, masofaviy taʼlim texnologiyalari, multimediya vositalari hamda individual taʼlim yoʻnalishlarini qoʻllash orqali oʻquvchilarning bilish faolligi, oʻquv motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuv darajasini oshirish mumkinligi ilmiy asoslab berilgan. Maqolada elektron taʼlim platformalari, adaptiv oʻquv dasturlari, multimediya resurslari hamda sunʼiy intellekt elementlaridan foydalanish orqali taʼlim jarayonini individuallashtirish imkoniyatlari koʻrib chiqiladi. Shuningdek, masofaviy taʼlim shakllari, interaktiv metodlar va differensial yondashuv asosida taʼlim sifatini oshirish mexanizmlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar inklyuziv taʼlim muhitini shakllantirish, oʻquvchilar faolligini oshirish hamda pedagogik samaradorlikni taʼminlashda muhim omil ekanini koʻrsatadi. Bundan tashqari, pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirish inklyuziv taʼlimni samarali tashkil etishning ustuvor sharti sifatida asoslanadi.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Ключевые слова: инклюзивное образование, цифровые технологии, особые образовательные потребности, ассистивные технологии, индивидуализация обучения, эффективность образования, цифровая образовательная среда.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы повышения эффективности инклюзивного образования на основе цифровых технологий. Широко освещены педагогические возможности использования современных цифровых средств и платформ в процессе работы с учащимися с особыми образовательными потребностями в условиях инклюзивного образования. В ходе исследования научно обоснована возможность повышения уровня познавательной активности, учебной мотивации и социальной адаптации учащихся за счет использования интерактивных программ, технологий дистанционного обучения, мультимедийных средств и индивидуальных образовательных направлений. В статье рассматриваются возможности индивидуализации образовательного процесса посредством использования электронных образовательных платформ, адаптивных учебных программ, мультимедийных ресурсов и элементов искусственного интеллекта. Также раскрываются механизмы повышения качества образования на основе дистанционных форм обучения, интерактивных методов и дифференцированного подхода. Результаты исследования показывают, что цифровые технологии являются важным фактором формирования инклюзивной образовательной среды, повышения активности учащихся и обеспечения педагогической эффективности. Кроме того, развитие цифровой компетентности педагогов обосновывается как приоритетное условие эффективной организации инклюзивного образования.

IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF INCLUSIVE EDUCATION BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

Keywords:

Abstract: This article analyzes the issues of increasing the

inclusive education, digital technologies, special educational needs, assistive technology, individualized instruction, educational effectiveness, digital learning environment.

effectiveness of inclusive education based on digital technologies. In the context of inclusive education, the pedagogical possibilities of using modern digital tools and platforms in the process of working with students with special educational needs are widely covered. During the study, the possibility of increasing the level of cognitive activity, learning motivation, and social adaptation of students through the use of interactive programs, distance learning technologies, multimedia tools, and individual educational directions was scientifically substantiated. The article examines the possibilities of individualizing the educational process through the use of e-learning platforms, adaptive educational programs, multimedia resources, and elements of artificial intelligence. In addition, the mechanisms for improving the quality of education based on distance learning forms, interactive methods, and a differentiated approach are revealed. The research results show that digital technologies are an important factor in the formation of an inclusive educational environment, increasing student activity, and ensuring pedagogical effectiveness. In addition, the development of digital competence of teachers is substantiated as a priority condition for the effective organization of inclusive education.

KIRISH

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari ta'lim tizimini tubdan yangilashni, uni zamonaviy pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishni talab etmoqda. Ayniqsa, inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalasi xalqaro miqyosda ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, UNESCO tomonidan ilgari surilgan "Ta'lim hamma uchun" tamoyili har bir bolaning, jumladan alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarning ham sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashni nazarda tutadi. Shuningdek, UNICEF tomonidan amalga oshirilayotgan tashabbuslar inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash, teng imkoniyatlar yaratish hamda ta'lim jarayonida diskriminatsiyaning oldini olishga qaratilgan.

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi inklyuziv ta'limni yangi bosqichga olib chiqish imkonini bermiqda. Interaktiv platformalar, multimediyaviy vositalari, assistiv texnologiyalar, sun'iy intellekt asosidagi

dasturlar va masofaviy ta'lim tizimlari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun ta'lim mazmunini moslashtirish, individuallashtirish hamda differensiallashtirish imkonini yaratadi. Raqamli vositalar nafaqat bilim olish jarayonini yengillashtiradi, balki o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ kompetensiyasi hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim muhitida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish pedagogdan yuqori darajadagi raqamli kompetensiya, metodik tayyorgarlik va innovatsion yondashuvni talab etadi. Amaliyotda esa raqamli vositalarni maqsadga muvofiq tanlash, ularni o'quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirish hamda pedagogik samaradorlikni baholash mexanizmlarining yetarli darajada ishlab chiqilmagani mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Shu bois, raqamli texnologiyalar asosida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish masalasini ilmiy-nazariy hamda metodik jihatdan tadqiq etish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish bugungi kunda dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Mazkur maqola aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, inklyuziv ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning imkoniyatlarini tahlil qilish hamda ularning pedagogik samaradorligini ilmiy asoslashga qaratilgan.

Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Biz keyingi yillarda Yangi O'zbekistonda 'Inson qadri uchun' degan tamoyil ustuvor bo'lgan, ijtimoiy adolat ta'minlangan, ehtiyojmand aholi samarali himoya qilingan jamiyat barpo etmoqdamiz. Bu yo'ldagi qat'iy pozitsiyamiz yangi Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yildi hamda mamlakatimizning ijtimoiy davlat sifatidagi maqomi e'lon qilindi" [1].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi inklyuziv ta'lim mazmunini yangilash, uni individual va differensial yondashuv asosida tashkil etish imkonini bermoqda. Raqamli platformalar, assistiv texnologiyalar, multimediya vositalari hamda masofaviy o'qitish tizimlari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun ta'lim materiallarini moslashtirish, o'quv jarayonini vizuallashtirish hamda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, amaliyotda inklyuziv ta'lim jarayonida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi turli darajada ekanligi hamda samaradorlikni baholash mezonlarining aniq belgilanmaganligi muammoning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Raqamli texnologiyalar asosida inklyuziv ta'lim samaradorligini



oshirishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish, metodik mexanizmlarini takomillashtirish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biridir. Mazkur tadqiqot inklyuziv ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ularning samaradorligini ilmiy asoslashga qaratilgan.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlarida mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida har bir shaxsning sifatli ta'lim olish huquqi kafolatlanishi hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun mos shart-sharoitlar yaratish zarurligi belgilangan [2]. Shuningdek, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Davlat dasturlari doirasida maxsus sinflar tashkil etish, pedagoglarni qayta tayyorlash va moddiy-texnik bazani mustahkamlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Davlat siyosatining izchil davom etishi, ilg'or xalqaro tajribani o'rganish hamda raqamli ta'lim muhitining kengayishi inklyuziv ta'limni yanada takomillashtirish uchun mustahkam asos yaratmoqda. Kelgusida pedagoglarni maxsus tayyorlash, raqamli resurslar bazasini boyitish hamda samaradorlik mezonlarini aniq belgilash orqali inklyuziv ta'lim tizimini barqaror rivojlantirish mumkin.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni joriy etish jarayoni huquqiy, tashkiliy va metodik jihatdan izchil yo'lga qo'yilmoqda. Raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan inklyuziv ta'lim modeli esa har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy va istiqbolli yo'nalish sifatida shakllanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Inklyuziv ta'lim va raqamli texnologiyalar integratsiyasi masalasi so'nggi yillarda pedagogika fanida faol tadqiq etilayotgan yo'nalishlardan biridir. Xalqaro miqyosda inklyuziv ta'limning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari UNESCO hamda UNICEF tomonidan ishlab chiqilgan konseptual hujjatlarda keng yoritilgan.

Raqamli texnologiya va vositalardan o'z faoliyatida samarali foydalanadigan shaxsning intellektual samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Xorijiy tadqiqotlarda inklyuziv pedagogika nazariyasi chuqur ishlab chiqilgan. N.Sh.Kozlovaning fikriga ko'ra, bugungi kunda kompyuter barcha turdagi ma'lumotlar bilan ishlash imkonini beruvchi universal ommaviy vositaga aylanmoqda [3]. Zamonaviy kompyuter dasturlari tasvir, tovush, videomateriallar va matnlar,



hisob-kitoblar, turli obyektlarning axborot modellari hamda boshqa turdagi ma'lumotlar bilan yangi usulda ishlash imkonini yaratadi.

Jimi Togni raqamli platformalar, mashina o'rganish (machine learning) va ochiq texnologiyalar asosida inklyuziv ta'lim platformasini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy mahsulot yaratgan [4]. L. Florian inklyuziv pedagogikani ta'limdagi individual farqlarni e'tirof etgan holda umumiy ta'lim jarayonini qayta tashkil etish modeli sifatida talqin qiladi. Uning ilmiy ishlari inklyuziv ta'limni "maxsus yondashuv" emas, balki barcha o'quvchilar uchun samarali ta'lim modeli sifatida asoslab beradi [5].

Mahalliy olimlar tomonidan ham inklyuziv ta'limni rivojlantirish, uni milliy ta'lim tizimiga integratsiyalash hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalari keng o'rganilgan. M. Abdullayev va N. Maxmudovalar inklyuziv ta'limda innovatsion texnologiyalar, jumladan raqamli vositalar va sun'iy intellekt elementlari orqali ta'lim samaradorligini oshirish masalalarini tadqiq etganlar [6]. N.N. Atabayeva raqamli texnologiyalarning inklyuziv ta'limdagi didaktik imkoniyatlariga bag'ishlangan ilmiy izlanish olib borgan [7].

Tadqiqotlarda raqamli vositalar yordamida o'quv materiallarini moslashtirish, interaktiv metodlardan foydalanish hamda masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning o'quv faolligini oshirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash masalasi ko'proq umumiy tavsif darajasida yoritilgan bo'lib, ularning pedagogik samaradorligini baholash mezonlari hamda metodik modeli yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, raqamli vositalarni inklyuziv muhitda kompleks qo'llash orqali ta'lim natijalarini oshirishning amaliy mexanizmlari bo'yicha ilmiy izlanishlar cheklangan. Mazkur tadqiqot ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha mavjud ilmiy ishlarda nazariy asoslar yetarli darajada yoritilgan bo'lsa-da, ularni amaliyotga kompleks va tizimli joriy etish mexanizmlari to'liq ishlab chiqilmagan. Mavjud tadqiqotlarda pedagoglarning raqamli kompetensiyasi hamda inklyuziv muhitda ishlashga tayyorgarligi muhim omil sifatida e'tirof etilgan, biroq bu ikki kompetensiyaning integratsiyalashgan modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Raqamli vositalarni qo'llash jarayonida individual yondashuvni ta'minlash, o'quv materiallarini adaptatsiya qilish hamda natijalarni monitoring qilish mexanizmlariga doir ilmiy tavsiyalar ham fragmentar xarakterga ega. Inklyuziv ta'lim



samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning metodik tizimini ishlab chiqish, uning tarkibiy komponentlarini (maqsad, mazmun, vosita, metod va natija) aniqlash hamda samaradorlik mezonlarini belgilash ilmiy jihatdan dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqot aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, inklyuziv ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlarini tizimli asosda tahlil qilish hamda ularning ta'lim natijalariga ta'sirini ilmiy asoslashni maqsad qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot inklyuziv ta'lim muhitida raqamli texnologiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, kompleks yondashuv asosida tashkil etildi. Tadqiqot metodologik jihatdan kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va tizimli yondashuvlarga tayanadi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish hamda ularning bilish faolligi va ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Tadqiqot dizayni kvazi-eksperimental model asosida ishlab chiqildi. Unda tajriba va nazorat guruhleri ishtirok etdi. Tajriba guruhida ta'lim jarayoni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etildi, ya'ni interaktiv platformalar, multimediya vositalari, adaptiv o'quv dasturlari hamda assistiv texnologiyalar tizimli ravishda qo'llanildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish metodlari asosida darslar olib borildi.

Tadqiqot jarayoni uch bosqichda amalga oshirildi: aniqlovchi (diagnostik), shakllantiruvchi (intervensiya) va yakuniy (nazorat-tahlil) bosqichlar. Aniqlovchi bosqichda o'quvchilarning dastlabki bilim darajasi, bilish faolligi, mustaqil ishlash ko'nikmalari hamda ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari aniqlab olindi. Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhida raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan pedagogik model amaliyotga joriy etildi. Yakuniy bosqichda esa olingan natijalar qayta o'lchanib, tajriba va nazorat guruhleri kesimida qiyosiy tahlil qilindi.

Ma'lumotlarni yig'ish uchun kompleks diagnostik metodlar qo'llanildi. Xususan, o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash uchun test topshiriqlari, bilish faolligini baholash uchun so'rovnomalar, mustaqil ishlash ko'nikmalarini aniqlash uchun amaliy topshiriqlar, ijtimoiy moslashuv darajasini baholash uchun pedagogik kuzatuv va yarim tuzilgan suhbatlar tashkil etildi. Ushbu metodlar tadqiqotning ishonchliligi va obyektivligini ta'minlashga xizmat qildi.

NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida inklyuziv sinflarda raqamli texnologiyalarni qo'llash

samaradorligi tajriba-sinov ishlari asosida qiyosiy tahlil qilindi. Tajriba guruhida ta'lim jarayoni interaktiv platformalar, multimediya vositalari, adaptiv o'quv dasturlari hamda assistiv texnologiyalar asosida tashkil etildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish metodlari qo'llanildi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, bilish faolligi, mustaqil ishlash ko'nikmasi va ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari tizimli monitoring asosida o'lchandi.

Aniqlovchi bosqichda test, so'rovnoma, pedagogik kuzatuv va suhbat metodlari yordamida dastlabki ko'rsatkichlar belgilab olindi. Yakuniy bosqich natijalari tajriba va nazorat guruhlarida kesimida qiyosiy-statistik tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

Tajriba va nazorat guruhlarida ko'rsatkichlarning foizli o'zgarishi (%)

№	Ko'rsatkichlar	Boshlan g'ich (Tajriba)	Yakuniy (Tajriba)	O'sish %	Boshlan g'ich (Nazorat)	Yakuniy (Nazorat)	O'sish %
1	O'zlashtirish darajasi	46 %	78 %	+32 %	48 %	60 %	+12 %
2	Bilish faolligi	52 %	83 %	+31 %	50 %	63 %	+13 %
3	Mustaqil ishlash ko'nikmasi	40 %	74 %	+34 %	42 %	55 %	+13 %
4	Ijtimoiy moslashuv darajasi	58 %	85 %	+27 %	60 %	68 %	+8 %

Jadval ma'lumotlari tajriba guruhida barcha mezonlar bo'yicha yuqori ijobiy dinamika kuzatilganini ko'rsatadi. Xususan, o'zlashtirish darajasi 46 foizdan 78 foizga oshib, 32 foizlik o'sish qayd etildi. Bu natija raqamli va adaptiv o'quv vositalari o'quv materialini individuallashtirilgan tarzda yetkazish imkonini bergani bilan izohlanadi. Nazorat guruhida esa mazkur ko'rsatkich atigi 12 foizga oshgan.

Bilish faolligi tajriba guruhida 31 foizga o'sdi (52 % dan 83 % ga), bu interaktiv topshiriqlar, multimediya vositalari hamda hamkorlikdagi faoliyatning o'quvchilarni faol subyekt sifatida jalb etganini ko'rsatadi. Nazorat guruhida o'sish 13 foizni tashkil etdi. Mustaqil ishlash ko'nikmasi bo'yicha eng yuqori o'sish (34 %) tajriba guruhida kuzatildi. Bu raqamli platformalarda mustaqil topshiriqlarni bajarish, o'zini-o'zi nazorat qilish va reflektiv faoliyat mexanizmlarining shakllangani bilan bog'liq.

Ijtimoiy moslashuv darajasi ham tajriba guruhida sezilarli darajada oshib, 58

foizdan 85 foizga yetdi (27 % o'sish). Raqamli vositalar asosida tashkil etilgan hamkorlikdagi interaktiv faoliyat inklyuziv muhitda o'quvchilar o'rtasidagi muloqotni kuchaytirgan va ijtimoiy integratsiyani jadallashtirgan. Nazorat guruhida esa mazkur ko'rsatkichning o'sishi 8 foiz bilan cheklangan.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni oddiy qo'llash emas, balki ularni didaktik jihatdan asoslangan holda integratsiya qilish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Adaptiv dasturlar individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvni kuchaytirdi, vizual va audio qo'llab-quvvatlovchi vositalar esa alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun qulay o'quv muhitini yaratdi.

Statistik jihatdan kuzatilgan ijobiy farqlar tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida sezilarli tafovut mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa raqamli texnologiyalar inklyuziv ta'lim jarayonini individuallashtirish, differensiallashtirish va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim cheklovlar ham aniqlangan: texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, ayrim pedagoglarning raqamli kompetensiya darajasidagi tafovutlar hamda moslashtirilgan elektron resurslarning cheklanganligi jarayon samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun inklyuziv ta'limni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish kompleks yondashuvni – infratuzilmani takomillashtirish, metodik ta'minotni boyitish va pedagoglarning raqamli kompetensiyasini tizimli ravishda oshirishni talab etadi.

Umuman olganda, olingan natijalar raqamli texnologiyalar inklyuziv ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishini, o'quvchilarning bilish faolligi, mustaqil ishlash ko'nikmalari va ijtimoiy moslashuv darajasiga barqaror ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotladi.

MUHOKAMALAR

Mazkur tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarni inklyuziv ta'lim jarayoniga maqsadli va tizimli integratsiya qilish o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari, bilish faolligi hamda ijtimoiy moslashuv darajasiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini ishonchli tarzda tasdiqladi. Olingan empirik ma'lumotlar zamonaviy xalqaro ilmiy izlanishlar bilan uyg'unlikda bo'lib, inklyuziv ta'lim muhitida raqamli vositalardan foydalanish ta'lim jarayonining individuallashtirilishi va differensiallashuvini kuchaytirishini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, raqamli texnologiyalar o'quv materiallarini turli formatlarda (matn, audio, video, interaktiv elementlar) taqdim etish imkonini yaratib, turli ehtiyoj va qobiliyatga ega o'quvchilar uchun qulay hamda moslashuvchan o'quv muhitini shakllantiradi. Bu esa, ayniqsa, alohida ta'lim

ehtiyojlariga ega o'quvchilarning bilimni qabul qilish jarayonini yengillashtiradi va ularning ta'lim jarayonidagi faolligini oshiradi.

Tajriba va nazorat guruhlarini o'rtasida olib borilgan qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli vositalar qo'llanilgan tajriba guruhida o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalari, o'z-o'zini nazorat qilish va refleksiya qilish kompetensiyalari ancha yuqori darajada shakllangan. Bu holat raqamli texnologiyalarning nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari adaptiv o'quv dasturlari, multimediyaviy vositalari va interaktiv platformalardan foydalanish o'quvchilarning individual o'quv trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Bunday yondashuv har bir o'quvchining o'zlashtirish sur'ati, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda ta'limni tashkil etishga imkon beradi. Natijada, o'quvchilarning akademik natijalari bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy faolligi va o'ziga bo'lgan ishonchi ham ortadi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlanganki, raqamli texnologiyalar inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda kuchli pedagogik vosita bo'lishiga qaramay, ularning samaradorligi bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Xususan, ta'lim jarayonini pedagogik maqsadga muvofiq rejalashtirish, o'qituvchilarning raqamli kompetentligini oshirish, hamda inklyuziv muhitni texnik va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish hal qiluvchi omillar hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarni inklyuziv ta'lim tizimiga kompleks va tizimli ravishda joriy etish o'quvchilarning akademik yutuqlari, bilish faolligi hamda ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv zamonaviy ta'lim paradigmasi doirasida inklyuzivlikni ta'minlashning samarali vositasi sifatida alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Inklyuziv ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llashning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish va ularning ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlashga qaratildi. O'tkazilgan nazariy va amaliy tahlillar natijasida inklyuziv muhitda raqamli vositalardan maqsadli foydalanish o'quv jarayonini individuallashtirish, differensiallashtirish hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qilishi aniqlandi. Interaktiv platformalar, multimediyaviy resurslar va assistiv texnologiyalar o'quvchilarning bilish faolligini oshiradi, motivatsiyasini kuchaytiradi hamda ijtimoiy moslashuv jarayonini qo'llab-quvvatlaydi. Raqamli texnologiyalar orqali o'quv materiallarini moslashtirish imkoniyati inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari – teng

imkoniyat, qulaylik va individuallikni ta'minlashga yordam beradi

Raqamli texnologiyalar inklyuziv ta'limni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish hamda har bir o'quvchining shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Inklyuziv ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llashning metodik modelini ishlab chiqish, uning tarkibiy komponentlarini aniqlash hamda samaradorlik mezonlarini belgilash zarurligini ko'rsatdi. Kelgusida mazkur yo'nalishda kengroq tajriba-sinov ishlarini olib borish, turli toifadagi o'quvchilar uchun moslashtirilgan raqamli resurslar bazasini yaratish hamda baholash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, raqamli muhit o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi interaktiv hamkorlikni kuchaytirib, individual yondashuv asosida mustaqil ta'lim olish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi. Ayniqsa, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun moslashtirilgan elektron resurslar, multimediya vositalar va assistiv texnologiyalar ta'lim jarayonining qulayligi hamda samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, raqamli texnologiyalarning innovatsion imkoniyatlaridan samarali foydalanish inklyuziv ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi hamda o'quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va akademik kompetensiyalarini zamonaviy talablar asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda inson qadri – eng oliy qadriyat. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir). – Toshkent, 2023.
3. Kozlova N.S. Digital technologies in education // Вестник Мажковского государственного технического университета. – 2019.
4. Togni J. Development of an inclusive educational platform using open technologies and machine learning: A case study on accessibility enhancement // Computer Science. Human-Computer Interaction. 2025.
5. Florian L. Preparing teachers for inclusive education: Using inclusive pedagogy to enhance teaching and learning for all // Cambridge Journal of Education. 2019. – P. 173-187.
6. Abdullayev M.K., Maxmudova N.M. Inklyuziv ta'limda innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2021. № 3. – B. 45-52.



7. Atabayeva N. Inklyuziv ta'limni o'qitishda raqamli texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari // Nauka i tekhnologiya v sovremennom mire. – 4(11). – B. 142–147.
8. Khashimova M.K., Maxsudov V.G., Gaffarov F.H., Allamuradov A.A., Melieva Y., Ismoilova Y.T. Harmonization of gender relations and moral development // Turkish Journal of Computer and Mathematics Education. 2021. Vol. 12, № 4. – P. 77-82.
9. Turaevna I.Y. Morality as a component of the image of the modern teacher // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 2020. Vol. 8, № 2. – P. 141.
10. Ismoilova Y.T. Important aspects of forming critical thinking in school-age children in digital education conditions // International Journal of Formal Education. 2024. Vol. 3, № 2.
11. Ismailova Z.K., Riskulova K., Axmedov M.U., Ismoilova Y.T., Pulatova N.R. The role of electronic pedagogical tools in higher education // Journal of Critical Reviews. 2020. Vol. 7, № 5. – P. 396-398.
12. Исмоилова Ю.Т. Формирование педагогического мастерства и культуры речи будущего учителя в процессе профессиональной подготовки // Образование и воспитание. 2015. № 3. – С. 9-11.
13. Yulduz I., Umida M. Pedagogical features of the formation of pedagogical ethics in future teachers // Бюллетень науки и практики. 2021. Т. 7, № 5. – С. 503-508.

PEDAGOGIKA

LOYIHA ISHLARI ASOSIDA TADQIQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA OID ILG‘OR XORIJIY VA MILLIY TAJRIBALAR TAHLILI

MELIYEVA LOLA ESHBOYEVNA

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

Email: lolamelieva40@mail.com

Tel: +998 90 523-96-34

UDK: 372.853

Kalit so‘zlar:

loyihaga asoslangan ta’lim, tadqiqot kompetensiyasi, oliy ta’lim, ilmiy ko‘nikmalar, xorijiy tajriba, milliy ta’lim tizimi, talaba tadqiqotlari.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada loyiha asosidagi ta’lim (Project-Based Learning) yondashuvining talabalar tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirishdagi ahamiyati milliy va xorijiy tajribalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida loyiha asosidagi ta’limning talabalarda analitik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ilmiy ma’lumotlarni izlash, yig‘ish va tahlil qilish, ilmiy matn yozish hamda jamoada hamkorlikda tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi samaradorligi yoritilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu yondashuv talabalarning mustaqil izlanish olib borish faoliyatini faollashtiradi hamda ularning ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ushbu maqolada milliy ta’lim tizimida loyiha asosidagi ta’limni joriy etish jarayonida yuzaga kelayotgan institutsional va metodologik muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

АНАЛИЗ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО И НАЦИОНАЛЬНОГО ОПЫТА РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ НА ОСНОВЕ ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Ключевые слова:

проектное образование,

Аннотация:

В данной статье на основе национального и зарубежного опыта проанализировано значение подхода проектного обучения (Project-Based Learning) в



исследовательская компетенция, высшее образование, научные навыки, зарубежный опыт, национальная система образования, студенческие исследования.

формировании исследовательских компетенций студентов. В процессе исследования освещена эффективность проектного обучения в развитии у студентов аналитического и критического мышления, поиска, сбора и анализа научной информации, написания научного текста, а также формирования навыков проведения исследований в сотрудничестве в коллективе. Полученные результаты показывают, что данный подход активизирует самостоятельную исследовательскую деятельность студентов и положительно влияет на развитие их научно-исследовательских компетенций. Также в данной статье выявлены институциональные и методологические проблемы, возникающие в процессе внедрения проектного обучения в национальной системе образования, и разработаны научно-практические рекомендации, направленные на их устранение.

ANALYSIS OF ADVANCED FOREIGN AND NATIONAL EXPERIENCES IN DEVELOPING RESEARCH COMPETENCIES BASED ON PROJECT-BASED ACTIVITIES

Keywords:

project-based education, research competence, higher education, scientific skills, foreign experience, national education system, student research.

Abstract:

In this article, the significance of the project-based learning approach in the formation of students' research competencies is analyzed based on national and foreign experience. In the research process, the effectiveness of project-based learning in the development of analytical and critical thinking in students, the search, collection, and analysis of scientific information, the writing of scientific texts, and the formation of skills for conducting joint research in a team is highlighted. The obtained results show that this approach activates students' independent research activities and positively influences the development of their research competencies. Also, this article identifies institutional and methodological problems arising in the process of implementing project-based education in the national education system, and develops scientific and practical recommendations aimed at their elimination.



KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash jarayoni faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanib qolmay, balki ularning mustaqil fikrlash, ilmiy izlanish olib borish hamda murakkab muammolarni tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirishni ham taqozo etadi. Global miqyosda shakllanib borayotgan bilimga asoslangan iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish jarayonlari hamda mehnat bozorining o'zgaruvchan talablari oliy ta'lim muassasalaridan talabalarda tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali pedagogik mexanizmlarni joriy etishni talab qilmoqda. Shu munosabat bilan ko'plab rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimlarida loyiha ishlari asosida tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish yondashuvi keng qo'llanilmoqda [1, 39-43].

So'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimlarida talabalar tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali pedagogik texnologiyalaridan biri sifatida loyihaga asoslangan ta'lim (Project-Based Learning – PBL) keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuv talabalarning real hayotiy muammolarni hal qilish jarayonida bilim va ko'nikmalarni egallashiga, mustaqil izlanish olib borishiga hamda amaliy tajriba orttirishiga xizmat qiladi.

Loyihaga asoslangan ta'lim g'oyasi XX asr boshlarida pragmatik pedagogika vakillari tomonidan ilgari surilgan bo'lib, ayniqsa Jon Dyui tomonidan ishlab chiqilgan tajribaga asoslangan ta'lim konsepsiyasiga tayanadi [2]. Mazkur yondashuvga ko'ra, bilimlar faqat nazariy shaklda berilishi emas, balki talabaning faol amaliy faoliyati jarayonida o'zlashtirilishi ta'lim samaradorligini oshiradi.

Bugungi kunda PBL texnologiyasi AQSh, Yevropa davlatlari, Janubiy Koreya va Singapur kabi rivojlangan ta'lim tizimlarida talabalarning kreativ fikrlashi, tadqiqot olib borish qobiliyati hamda muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, ushbu yondashuv MDH mamlakatlari va Markaziy Osiyo davlatlari ta'lim tizimlarida ham bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro ta'lim standartlariga integratsiyalashuvni kuchaytirish hamda talabalarning ilmiy-tadqiqot salohiyatini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonida ta'lim jarayonining amaliy yo'naltirilganligini oshirish, talabalarning mustaqil izlanishlari va tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [3].

Shu bilan birga, milliy oliy ta'lim amaliyotida loyiha ishlari orqali talabalarning



tadqiqot kompetensiyalarini tizimli ravishda rivojlantirish masalasi hali yetarli darajada ilmiy o'rganilmagan. Ayniqsa, loyiha asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining talabalarning ilmiy fikrlashi, tahliliy qobiliyatlari hamda mustaqil tadqiqot olib borish ko'nikmalariga ta'siri bo'yicha empirik tadqiqotlar kam uchraydi. Shu bois xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, ularni qiyosiy tahlil qilish hamda milliy ta'lim tizimiga mos pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida loyiha ishlari asosida talabalarning tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash hamda ushbu jarayonning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Loyihaga asoslangan ta'lim konsepsiyasi bo'yicha xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng ko'lamlı tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, J.W. Thomas loyihaga asoslangan ta'limning asosiy tamoyillarini tizimlashtirib, uning an'anaviy ta'limdan asosiy farqi talabaning bilimlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol va mustaqil ravishda bilimni quruvchi subyekt sifatida ishtirok etishida ekanini ta'kidlaydi [4].

J.S. Krajcik va N. Shin esa PBL modelining beshta asosiy komponentini ajratib ko'rsatgan: haydovchi savol (driving question), o'rganishning real konteksti, hamkorlikdagi faoliyat, texnologiyalardan foydalanish hamda yakuniy mahsulot yaratish [5, 275-297]. Ushbu komponentlar tadqiqot kompetensiyalarining shakllanishi uchun zarur muhitni yaratadi, chunki talaba loyiha jarayonida muammoni aniqlash, ma'lumot to'plash, ularni tahlil qilish va natijalarni taqdim etish bosqichlaridan izchil o'tadi.

AQSh oliy ta'lim tizimida loyiha ishlari orqali tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish keng o'rganilgan yo'nalishlardan biridir. S. Bellning ta'kidlashicha, Amerika universitetlarida PBL modeli ayniqsa muhandislik, tibbiyot va tabiiy fanlar yo'nalishlarida faol qo'llanilib, talabalarning tanqidiy fikrlash, ma'lumotlar bilan ishlash hamda ilmiy kommunikatsiya ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi [1, 39-43].

Yevropa tajribasida esa Daniyadagi Aalborg universiteti modeli alohida e'tiborga loyiq. Ushbu universitetda 1974-yildan buyon qo'llanib kelinayotgan "Aalborg PBL modeli" talabalarning birinchi kursdan boshlab guruhıy loyiha ishlari orqali tadqiqot kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ushbu model UNESCO tomonidan muhandislik ta'limidagi ilg'or amaliyotlardan biri sifatida e'tirof etilgan [6, 141-161].

Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida, xususan Singapur, Malayziya va

Janubiy Koreyada ham PBL modeli faol joriy etilgan. Singapur Politexnika instituti hamda Respublika Politexnika institutida loyihaga asoslangan ta'lim o'quv dasturlarining muhim tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan bo'lib, talabalar har semestrda kamida bitta interdisiplinar loyiha ustida ishlaydilar [7]. Janubiy Koreyada esa KAIST (Korea Advanced Institute of Science and Technology) universitetida PBL modeli magistratura va doktorantura bosqichlarida tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri sifatida qo'llaniladi.

MDH mamlakatlarida, xususan Rossiya Federatsiyasida loyiha faoliyati orqali tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha muayyan tajriba to'plangan. E.S. Polat Rossiya oliy ta'lim tizimida loyiha metodining qo'llanilishini tahlil qilib, loyiha ishlari talabalarning ilmiy-tadqiqot madaniyatini shakllantirish, mustaqil axborot izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita ekanini asoslab beradi [8]. Biroq MDH mamlakatlarida PBL modelining joriy etilishi ko'pincha an'anaviy ma'ruza-seminar tizimining ustunligi, o'qituvchilarning metodologik tayyorgarligidagi kamchiliklar hamda moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi sababli sekinlashmoqda.

O'zbekiston kontekstida loyiha asosida ta'lim berishga oid tadqiqotlar nisbatan yaqinda faollasha boshlagan. J.G. Yo'ldoshev O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida loyiha usulining qo'llanilish holatini tahlil qilib, ushbu yondashuv asosan xorijiy tillar, axborot texnologiyalari va iqtisodiyot yo'nalishlarida qisman joriy etilganini, biroq tizimli va izchil tarzda amalga oshirilmayotganini qayd etadi [9, 45-52]. D.A. Raximova esa universitetlarda talabalarning tadqiqot kompetensiyalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlab, mavjud baholash tizimi ko'proq bilim reproduksiyasiga yo'naltirilgani hamda tadqiqot ko'nikmalarini yetarli darajada aks ettirmasligini ko'rsatadi [10, 31-38].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy tajribada PBL modeli talabalarning tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida keng e'tirof etilgan. Milliy kontekstda esa ushbu yondashuvni joriy etish jarayoni hali shakllanish bosqichida bo'lib, uni tizimli ravishda tatbiq etish uchun ilmiy-metodik asoslarni yanada takomillashtirish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sistematik adabiyotlar tahlili (systematic literature review) metodologiyasidan foydalanildi. Ushbu metodologiya doirasida loyihaga asoslangan ta'lim (Project-Based Learning – PBL) modelining talabalarda tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishdagi nazariy asoslari va amaliy tajribasi ilmiy manbalar asosida o'rganildi.

Tahlil jarayonida induktiv va deduktiv yondashuvlar uyg'un holda qo'llanilib, xorijiy ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy qarashlar hamda empirik natijalar milliy oliy ta'lim tizimi konteksti bilan qiyosiy tahlil asosida umumlashtirildi.

Tadqiqot jarayonida loyihaga asoslangan ta'limning pedagogik mohiyati, uning ta'lim jarayonidagi strukturaviy komponentlari hamda talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga ta'siri tahlil qilindi. Xususan, loyiha asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida talabalarning muammoni aniqlash, ma'lumotlarni izlash va yig'ish, ularni tahlil qilish, ilmiy xulosalar chiqarish hamda natijalarni taqdim etish kabi bosqichlarda faol ishtirok etishi tadqiqot kompetensiyalarining shakllanishida muhim omil sifatida ko'rib chiqildi.

Shuningdek, tahlil davomida xalqaro ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan nazariy yondashuvlar hamda amaliy tajribalar milliy oliy ta'lim tizimining mavjud amaliyoti bilan qiyosiy tarzda o'rganildi. Buning natijasida loyiha asosida tashkil etilgan ta'lim modelining mahalliy ta'lim muhitida qo'llanish imkoniyatlari, uning afzalliklari hamda mavjud muammolari aniqlashtirildi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqotning nazariy asoslarini mustahkamlash hamda keyingi tahlil va xulosalar uchun ilmiy asos yaratishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar tahlili natijasida turli mamlakatlar ta'lim tizimlarida loyihaga asoslangan ta'lim (Project-Based Learning – PBL) modelining qo'llanish darajasi hamda uning talabalarning tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Tahlil jarayonida PBL modelining joriy etilish darajasi, tadqiqot kompetensiyalarini baholash tizimi, o'qituvchilarning metodologik tayyorgarligi hamda interdistsiplinar yondashuv kabi bir qator muhim mezonlar asosida xorijiy va milliy tajribalar solishtirildi. Ushbu qiyosiy tahlil natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Xorijiy va milliy tajribalarning qiyosiy tahlili

Mezon	AQSh	Yevropa (Daniya, Finlyandiya)	Janubiy- Sharqiy Osiyo	O'zbekiston
PBL modelining joriy etilish darajasi	Yuqori, ayniqsa STEM sohalarda	Yuqori, tizimli yondashuv (Aalborg modeli)	O'rta-yuqori, o'quv dasturiga integratsiyalash gan	Past, boshlang'ich bosqichda



Tadqiqot kompetensiyalarini baholash tizimi	Ko‘p bosqichli rubrikalar va portfolio	Loyiha natijalari va jarayonni baholash	Yakuniy mahsulot va taqdimot asosida	An’anaviy baholash ustun
O‘qituvchilarning PBL bo‘yicha tayyorgarligi	Maxsus treninglar va sertifikatlar	Universitetlararo PBL markazlari	Davlat darajasida qo‘llab-quvvatlash	Tizimli tayyorgarlik yetarli emas
Interdistsiplinar yondashuv	Keng qo‘llaniladi	Loyiha ishlarining asosiy tamoyili	Qisman joriy etilgan	Juda kam qo‘llaniladi

1-jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda PBL modeli ta’lim tizimining muhim va barqaror komponentiga aylangan. Xususan, AQSh oliy ta’lim muassasalarida loyiha ishlari ayniqsa STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yo‘nalishlarida keng qo‘llanilib, talabalar bakalavriat bosqichidayoq real ilmiy muammolarni tahlil qilish hamda amaliy tadqiqotlar olib borish jarayoniga jalb etiladi. Bunday yondashuv talabalarning tanqidiy fikrlash, analitik tahlil hamda ilmiy kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yevropa tajribasida, xususan Daniya va Finlyandiya universitetlarida loyiha asosida ta’lim tizimli ravishda tashkil etilgan. Bu davlatlarda loyiha faoliyati o‘quv rejasining ajralmas qismi bo‘lib, talabalar o‘qish jarayonining katta qismini guruhviy tadqiqot loyihalari ustida ishlash orqali o‘tkazadilar. Aalborg universiteti modeli bunga yaqqol misol bo‘lib, unda talabalarning tadqiqot kompetensiyalari bosqichma-bosqich shakllantirilishi ta’minlanadi.

Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida esa PBL modeli g‘arbiy ta’lim tajribasini milliy ta’lim tizimi xususiyatlariga moslashtirish orqali joriy etilgan. Singapur va Janubiy Koreya universitetlarida loyiha ishlari o‘quv dasturlarining muhim tarkibiy qismi sifatida qo‘llanilib, talabalar semestr davomida bir nechta jamoaviy loyihalarda ishtirok etadilar. Ushbu tajriba talabalar o‘rtasida hamkorlik ko‘nikmalari hamda jamoaviy tadqiqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida esa loyiha asosida ta’lim berish amaliyoti hali shakllanish bosqichida ekani kuzatiladi. Ko‘plab universitetlarda loyiha ishlari mavjud bo‘lsa-da, ularning tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan. Xususan, tadqiqot jarayonini baholash mezonlari, o‘qituvchilarning metodologik tayyorgarligi hamda interdistsiplinar yondashuvlarni keng joriy etish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili asosida loyiha ishlari orqali rivojlantirilishi mumkin bo'lgan tadqiqot kompetensiyalarining tarkibiy tuzilishi ham aniqlashtirildi. Ushbu kompetensiyalarning asosiy komponentlari va ularning loyiha faoliyati jarayonida shakllanish bosqichlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Loyiha ishlari orqali rivojlantiriladigan tadqiqot kompetensiyalari tarkibi

Tadqiqot kompetensiyasi komponenti	Loyiha ishidagi shakllanish bosqichi	Rivojlangan mamlakatlar tajribasidagi holat	O'zbekistondagi holat
Muammoni aniqlash va tadqiqot savolini shakllantirish	Loyiha mavzusini tanlash va rejalashtirish	Talabalar mustaqil muammo tanlaydi, mentor yo'naltiradi	Ko'pincha o'qituvchi tomonidan tayinlanadi
Adabiyotlar tahlili va axborot savodxonligi	Ma'lumotlar yig'ish bosqichi	Elektron bazalar va ilmiy resurslardan keng foydalaniladi	Resurslar cheklangan, elektron bazalarga kirish kam
Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish metodologiyasi	Loyihani amalga oshirish bosqichi	Sifat va miqdoriy metodlar o'rgatiladi	Metodologik tayyorgarlik yetarli emas
Ilmiy yozuv va natijalarni taqdim etish	Yakuniy hisobot va taqdimot bosqichi	APA, IEEE kabi standartlarga rioya qilinadi	Yagona standart shakllanmagan
Jamoaviy tadqiqot va hamkorlik ko'nikmalari	Butun loyiha jarayonida	Guruhiy ish va peer review madaniyati rivojlangan	Individual ish ustunlik qiladi

2-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, loyiha ishlari jarayonida tadqiqot kompetensiyalarining barcha muhim komponentlari – muammoni aniqlash, axborot izlash, metodologik savodxonlik, ilmiy yozuv hamda jamoaviy tadqiqot ko'nikmalari izchil ravishda shakllanishi mumkin. Biroq ushbu jarayonning samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muhiti, mavjud resurslar hamda o'qituvchilarning metodologik tayyorgarligiga bog'liq.

Xorijiy tajribada talabalar loyiha faoliyatining har bir bosqichida muayyan tadqiqot ko'nikmalarini egallaydilar va bu jarayon maxsus ishlab chiqilgan baholash mezonlari hamda rubrikalar orqali muntazam monitoring qilinadi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida esa loyiha ishlari ko'pincha yakka tartibda bajariladi hamda baholash

jarayoni asosan yakuniy natijaga qaratiladi. Natijada tadqiqot faoliyatining o‘zi – muammoni aniqlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarish jarayonlari yetarli darajada baholanmay qoladi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib shuni ta’kidlash joizki, xorijiy tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Har bir mamlakatning ta’lim tizimi o‘ziga xos madaniy, institutsional va resurs imkoniyatlariga ega. Shu sababli O‘zbekiston uchun eng maqbul yondashuv xorijiy tajribaning samarali elementlarini milliy ta’lim kontekstiga moslashtirish orqali joriy etishdan iborat.

Xususan, Aalborg universitetining bosqichma-bosqich tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish modeli O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari uchun muhim metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Biroq ushbu modelni samarali joriy etish uchun o‘qituvchilarning malakasini oshirish, baholash tizimini modernizatsiya qilish hamda ta’lim jarayonini zarur ilmiy va texnologik resurslar bilan ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, loyiha faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi institutsional mexanizmlar – universitetlar qoshida tadqiqot markazlari, laboratoriyalar hamda mentorlik dasturlarini tashkil etish ham PBL modelining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan qiyosiy tahlil loyihaga asoslangan ta’lim modeli talabalarning tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali pedagogik mexanizm ekanini ko‘rsatdi. Xorijiy ta’lim tizimlarida PBL modeli ta’lim jarayoniga tizimli ravishda integratsiyalashgan bo‘lib, u talabalarning muammoni aniqlash, ilmiy axborotni izlash va tahlil qilish, natijalarni ilmiy asosda taqdim etish hamda jamoaviy tadqiqot faoliyatida ishtirok etish ko‘nikmalarini izchil shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida esa loyiha faoliyatini tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish vositasi sifatida keng joriy etish uchun metodik asoslarni takomillashtirish, o‘qituvchilarning metodologik tayyorgarligini kuchaytirish hamda baholash tizimini modernizatsiya qilish zarurligi aniqlanadi. Shu bois loyiha asosida ta’limni milliy ta’lim kontekstiga moslashtirish hamda uni bosqichma-bosqich joriy etish talabalarning ilmiy-tadqiqot salohiyatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Olib borilgan adabiyotlar tahlili natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi.

Birinchidan, loyihaga asoslangan ta’lim (PBL) modeli talabalarning tadqiqot kompetensiyalarini (muammoni aniqlash, ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, ilmiy yozuv hamda jamoaviy tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini) rivojlantirishning

zamonaviy va ilmiy asoslangan samarali vositasi ekanligi ko'plab xorijiy tadqiqotlarda tasdiqlangan.

Ikkinchidan, rivojlangan mamlakatlar tajribasida PBL modeli ta'lim tizimiga tizimli ravishda integratsiya qilingan bo'lib, u maxsus baholash mezonlari, o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari hamda fanlararo (interdistsiplinar) yondashuvlar orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Uchinchidan, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida loyiha ishlari asosida tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish amaliyoti hali boshlang'ich bosqichda bo'lib, bu borada tizimli yondashuv, metodologik tayyorgarlik hamda zarur ilmiy-axborot resurslari bilan ta'minlash masalalarida ma'lum bo'shliqlar mavjud.

Tahlil natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- oliy ta'lim muassasalarida PBL modelini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha aniq yo'l xaritalarini ishlab chiqish;
- o'qituvchilarning loyihaga asoslangan ta'lim metodologiyasi bo'yicha malakasini oshirishga qaratilgan maxsus dasturlarni tashkil etish; talabalarning tadqiqot kompetensiyalarini baholash uchun ko'p bosqichli rubrikalar va portfolio tizimini joriy etish;
- universitet kutubxonalari hamda elektron ilmiy resurslar bazasini kengaytirish; shuningdek, xorijiy universitetlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish orqali tajriba almashish mexanizmlarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur tadqiqot yo'nalishini kelgusida empirik izlanishlar bilan davom ettirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida PBL modelini tajriba-sinov asosida joriy etish hamda uning talabalarning tadqiqot kompetensiyalariga ta'sirini miqdoriy va sifat jihatdan baholash orqali yanada chuqur ilmiy natijalarga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bell S. Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future // The Clearing House: A Journal of Educational Strategies. 2010. 83(2). – P. 39-43.
2. Dewey J. Experience and Education. – New York: Kappa Delta Pi, 1938.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
4. Thomas J. W. A Review of Research on Project-Based Learning. – San Rafael, CA: Autodesk Foundation, 2000.
5. Krajcik J. S., Shin N. Project-Based Learning // Sawyer R. K. (Ed.). The



- Cambridge Handbook of the Learning Sciences. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – P. 275-297.
6. Kolmos A., de Graaff E. Problem-Based and Project-Based Learning in Engineering Education // Johri A., Olds B. (Eds.). Cambridge Handbook of Engineering Education Research. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – P. 141-161.
 7. O'Grady G., Yew E. H. J., Goh K. P. L., Schmidt H. G. One-Day, One-Problem: An Approach to Problem-Based Learning. – Singapore: Springer, 2012.
 8. Полат Е. С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М: Академия, 2020.
 9. Yo'ldoshev J. G. O'zbekiston oliy ta'limida loyiha usulini qo'llashning dolzarb masalalari // Oliy ta'limda innovatsiyalar. 2021. №3(15). – B. 45-52.
 10. Raximova D. A. Talabalar tadqiqot kompetensiyalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish masalalari // Ta'lim va tarbiya. 2022. №4(22). – B. 31-38.



PEDAGOGIKA

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI MUTAXASSISLARINI PEDAGOGIK JARAYONNI LOYIHALASHTIRISHGA TAYYORLASH

HAMZAYEVA DILDORA MUHTORBOY QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Maktabgacha ta’lim” kafedrası magistri

Email: dildorahamzayeva@gmail.com

UDK: 373.2:37.091.3

<https://orcid.org/0009-0006-1905-5719>

Kalit soʻzlar:

maktabgacha ta’lim,
pedagogik jarayon,
loyihalashtirish,
kasbiy tayyorgarlik,
pedagogik
kompetensiya.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari mutaxassislari pedagogik jarayonni loyihalashtirishga tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida pedagogik jarayonni loyihalashtirishga yoʻnaltirilgan kasbiy kompetensiyalar tizimi aniqlashtirildi hamda mutaxassislarni tayyorlash jarayonini tashkil etishning modeli taklif etildi. Shuningdek, pedagogik jarayonni loyihalashtirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va refleksiv faoliyatni integratsiyalash asosida samaradorlikni oshirish mexanizmlari ishlab chiqildi. Modelning amaliy ahamiyati tajriba-sinov ishlari orqali asoslab berildi hamda uning natijalari mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasini sezilarli oshirishini koʻrsatdi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mutaxassislarning faoliyatini takomillashtirish, ta’lim jarayonini tizimli rejalashtirish hamda ta’lim sifatini barqaror oshirishga xizmat qiladi.

ПОДГОТОВКА СПЕЦИАЛИСТОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ К ПРОЕКТИРОВАНИЮ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА

Ключевые слова:

дошкольное
образование,
педагогический

Аннотация: В данной статье исследованы современные подходы к подготовке специалистов дошкольных образовательных организаций к проектированию педагогического процесса. В ходе исследования была

процесс,
проектирование,
профессиональная
подготовка,
педагогическая
компетенция.

уточнена система профессиональных компетенций, направленных на проектирование педагогического процесса, а также предложена модель организации процесса подготовки специалистов. Также разработаны механизмы повышения эффективности на основе интеграции инновационных педагогических технологий и рефлексивной деятельности при проектировании педагогического процесса. Практическая значимость модели была обоснована экспериментальной работой, результаты которой показали значительное повышение уровня профессиональной подготовки специалистов. Результаты исследования служат совершенствованию деятельности специалистов в дошкольных образовательных организациях, систематическому планированию образовательного процесса и устойчивому повышению качества образования.

PREPARATION OF SPECIALISTS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS FOR THE DESIGN OF THE PEDAGOGICAL PROCESS

Keywords:

preschool education, pedagogical process, design, professional training, pedagogical competence.

Abstract:

This article examines modern approaches to preparing specialists of preschool educational organizations for the design of the pedagogical process. During the study, the system of professional competencies aimed at designing the pedagogical process was clarified, and a model for organizing the process of training specialists was proposed. Mechanisms for increasing effectiveness based on the integration of innovative pedagogical technologies and reflexive activity in the design of the pedagogical process have also been developed. The practical significance of the model was substantiated through experimental work, and its results showed a significant increase in the level of professional training of specialists. The research results serve to improve the activities of specialists in preschool educational organizations, systematic planning of the educational process, and sustainable improvement of the quality of education.



KIRISH

Bugungi globallashuv va innovatsion rivojlanish sharoitida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish mutaxassislardan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya hamda pedagogik jarayonni ilmiy asosda loyihalash ko'nikmalariga ega bo'lishni talab etadi. Yosh avlodni erkin fikrlaydigan, ijtimoiy faol va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tizimining o'рни beqiyosdir. Shu bois mazkur bosqichda faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

2019-yil 16-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-595) maktabgacha ta'lim sohasini tubdan modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Ushbu qonun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifatli ta'lim muhitini yaratish, tarbiyachi va mutaxassislarning kasbiy malakasini oshirish hamda pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etishni ta'minlashga qaratilgan. Qonunda bolalarning aqliy, jismoniy, nutqiy va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta'minlash, ularni maktab ta'limiga tayyorlash standartlarini joriy etish hamda ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng tatbiq etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan farmonlarida pedagogik ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish ustuvor vazifa sifatida e'tirof etilgan. Mazkur hujjatlar pedagogik ta'lim sifatini oshirish, oliy ta'lim jarayoniga xalqaro standartlarni joriy etish hamda maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim sohalari uchun malakali mutaxassislar tayyorlashning yaxlit tizimini shakllantirishga yo'naltirilgan [2]. 2025-yil 28-aprelda qabul qilingan PF-73-son Farmonida ham pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilish, ta'lim dasturlarini yangilash va ilg'or xorijiy tajribani joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [3].

Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarni pedagogik jarayonni loyihalashtirishga tayyorlash masalasining dolzarbligini yanada oshiradi. Chunki bugungi kunda pedagogik jarayonni puxta rejalashtira oladigan, ta'lim faoliyatini ilmiy asosda tashkil eta biladigan mutaxassislarning yetishmasligi maktabgacha ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash, kasbiy kompetensiyalarni tizimli shakllantirish hamda pedagogik jarayonni loyihalashni o'quv jarayoniga integratsiyalash muhim vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik jarayonni loyihalashtirishga tayyorlashning zamonaviy talablari

mutaxassislarning nafaqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini, balki refleksiv faoliyat yuritish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash qobiliyatini ham rivojlantirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun mutaxassislar tayyorlash jarayonida ilmiy asoslangan metodik vositalardan foydalanish, kompetensiyaga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish hamda pedagogik jarayonni rejalashtirish va loyihalash bo'yicha yangi yondashuvlarni joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarni pedagogik jarayonni loyihalashtirishga tayyorlashda zamonaviy yondashuvlarni aniqlash, kasbiy kompetensiyalar tizimini takomillashtirish hamda tayyorlash jarayonini tashkil etishning modelini ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzu doirasida olib borilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarni pedagogik jarayonni loyihalashtirishga tayyorlash masalasi zamonaviy ta'lim tizimida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ko'plab tadqiqotchilar pedagogik jarayonni oldindan puxta rejalashtirish, maqsad va kutilayotgan natijalarni aniq belgilash orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydilar. Bu yondashuv pedagogik faoliyatni tizimli tashkil etish va natijadorlikni kafolatlashda asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Xususan, A. Avliyoqulov va N. Sayidahmedov o'z ilmiy izlanishlarida pedagogik jarayonni loyihalashtirish mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi bilan chambarchas bog'liq ekanini asoslab berganlar. Ularning fikricha, pedagogik jarayonni loyihalash faqat metodlarni tanlash bilangina cheklanmay, balki ta'lim mazmuni, shakllari va kutilayotgan natijalarni yagona tizim sifatida ko'ra olishni talab etadi [4, 45-62]. Mazkur yondashuv pedagogdan kompleks fikrlash va tizimli yondashuvni talab qiladi.

Shu bilan birga, M. Usboyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pedagogik jarayonni loyihalashtirish jarayonida mutaxassislarning tahliliy hamda refleksiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim omil sifatida e'tirof etiladi [5, 33-50]. Bu esa pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va uni takomillashtirishga yo'naltirilgan yondashuvni shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Mantiqan davom ettiradigan bo'lsak, A. Jo'raev va G. Shodiyeva tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash jarayonida pedagogik faoliyatni puxta rejalashtirish bolalarning mustaqil fikrlashi hamda ijodiy faolligini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy asoslab berilgan [6, 27-42].

Milliy tadqiqotlar bilan bir qatorda, xorijiy olimlar tomonidan ham pedagoglarni kasbiy tayyorlash va pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari keng o'rganilgan. Jumladan, Linda Darling-Hammond pedagoglarni samarali tayyorlash nazariya va amaliyot integratsiyasi asosida tashkil etilganda yuqori natija berishini ta'kidlaydi [8]. John Hattie esa ta'lim natijadorligi ko'p jihatdan pedagogning professional mahorati hamda muntazam teskari aloqa jarayonlariga bog'liqligini ilmiy asoslab bergan [9, 296]. Shuningdek, Michael Fullan ta'lim tizimidagi barqaror rivojlanish pedagoglarning uzluksiz kasbiy o'sishini ta'minlash orqali amalga oshirilishini qayd etadi [10]. OECD xalqaro tadqiqotlarida ham maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda pedagoglarni zamonaviy yondashuvlar asosida tayyorlash muhim omil sifatida e'tirof etilgan [11].

Mazkur ilmiy qarashlar nazariy jihatdan Lev Vygotskyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi bilan ham uzviy bog'liqdir. Ushbu nazariyaga ko'ra, pedagog bolalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini loyihalashtirishi zarur. Bu esa mutaxassisdan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya, pedagogik tahlil va puxta rejalashtirish ko'nikmalarini talab etadi [7, 320].

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni loyihalashtirishga yo'naltirilgan tayyorgarlik tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, reflektiv va tahliliy fikrlashni rivojlantirish hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois, mutaxassislarning pedagogik jarayonni ilmiy asosda loyihalashga tayyorligi ta'lim sifatini oshirish va bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mutaxassislarni pedagogik jarayonni loyihalashtirishga tayyorlash jarayonini o'rganishga qaratildi. Metodologik yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish orqali tarbiyalanuvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, mutaxassislarning pedagogik loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi: pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov (eksperiment), suhbat, anketa, faoliyat mahsullarini tahlil qilish hamda qiyosiy tahlil.

Tajriba-sinov ishlari Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanidagi 22-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tkazildi. Unda jami 60 nafar 5-6 yoshli

tarbiyalanuvchi hamda 12 nafar maktabgacha ta'lim mutaxassisi ishtirok etdi. Ishtirokchilar pedagogik ta'sir yo'nalishiga ko'ra uch guruhga ajratildi:

Innovatsion rivojlantirish guruhi (eksperimental) – mashg'ulotlar interaktiv usullar hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etildi. Ushbu guruhda 20 nafar tarbiyalanuvchi (10 nafar qiz va 10 nafar o'g'il) hamda 4 nafar pedagog ishtirok etdi.

Hamkorlikka asoslangan rivojlantirish guruhi (eksperimental) – pedagoglar, ota-onalar va bolalar hamkorligiga tayangan holda pedagogik jarayonni birgalikda rejalashtirish va amalga oshirishga yo'naltirildi. Bu guruhda 20 nafar tarbiyalanuvchi (12 nafar o'g'il va 8 nafar qiz) hamda 4 nafar pedagog qatnashdi.

Nazorat guruhi – ta'lim jarayoni an'anaviy metodlar asosida olib borildi. Mazkur guruhda 20 nafar tarbiyalanuvchi (10 nafar o'g'il va 10 nafar qiz) hamda 4 nafar pedagog ishtirok etdi.

Eksperiment to'rt hafta davomida uch bosqichda amalga oshirildi:

– *Tayyorgarlik (diagnostik) bosqichi*. Ushbu bosqichda bolalarning kognitiv faolligi, ijodiy tasavvuri va muloqot ko'nikmalari dastlabki diagnostika asosida aniqlab olindi. Baholash jarayonida kuzatuv, suhbat va maxsus topshiriqlardan foydalanildi. Shuningdek, mutaxassislarning pedagogik jarayonni rejalashtirish bo'yicha dastlabki kompetensiya darajasi ham o'rganildi.

– *Asosiy (shakllantiruvchi) bosqich*. Bu bosqichda pedagogik jarayon loyiha usuli asosida tashkil etildi. Mashg'ulotlar bolalarning guruhda ishlashi, amaliy va ijodiy mahsulotlar yaratishi hamda muammoli vaziyatlarni birgalikda hal etishiga yo'naltirildi. Shu bilan birga, mutaxassislar pedagogik jarayonni oldindan loyihalash, maqsad va kutilayotgan natijalarni aniq belgilash, innovatsion mashg'ulot ssenariylarini ishlab chiqish hamda reflektiv tahlil qilish jarayonlarida faol ishtirok etdilar.

– *Yakuniy (nazorat-tahliliy) bosqich*. Tajriba yakunida bolalardagi rivojlanish dinamikasi qayta diagnostika asosida baholandi. Olingan natijalar eksperimental va nazorat guruhlari kesimida taqqoslanib, pedagogik ta'sir samaradorligi tahlil qilindi. Shu bilan birga, mutaxassislarning pedagogik jarayonni loyihalash bo'yicha kasbiy o'sish ko'rsatkichlari ham aniqlashtirildi.

Pedagogik jarayonni loyihalash jarayoniga quyidagi innovatsion yondashuv va texnologiyalar integratsiya qilindi:

“Pedagogik jarayonni loyihalashtiraman” – mashg'ulotlarni oldindan modellashtirish, interaktiv va ijodiy topshiriqlarni puxta rejalashtirish;

“Hamkorlikda ishlaymiz” – bolalarda jamoada ishlash va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish;

“Muammoli vaziyatni yechamiz” – analitik va tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi topshiriqlar;

“Raqamli hikoya yaratamiz” – media vositalari yordamida voqealarni izchil ifodalash hamda nutqiy faollikni rivojlantirish.

Tadqiqot natijalari asosida maktabgacha ta’lim tashkiloti mutaxassislarini pedagogik jarayonni loyihalashtirishga tayyorlashning mualliflik modeli ishlab chiqildi hamda uning tarkibiy komponentlari tizimli ravishda umumlashtirilib, tegishli jadvalda keltirildi.

1-jadval

Maktabgacha ta’lim mutaxassislarini pedagogik jarayonni loyihalashtirishga tayyorlash modeli

Model komponenti	Mazmuni	Amalga oshirish shakllari	Kutiladigan natijalar
Nazariy-metodologik komponent	Pedagogik jarayonni loyihalashtirish asoslari, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion texnologiyalar	Ma’ruza, seminar, mustaqil o‘rganish	Pedagogik jarayonni ilmiy asosda rejalashtirish ko‘nikmasi shakllanadi
Metodik-amaliy komponent	Mashg‘ulotlarni loyihalashtirish, STEAM, interaktiv metodlar, differensial ta’lim	Amaliy mashg‘ulotlar, treninglar, modellashtirish	Mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish kompetensiyasi rivojlanadi
Refleksiv-dagnostik komponent	Monitoring, baholash, refleksiv tahlil, individual rivojlanish kartalari	Kuzatuv, test, portfolio, tahlil	Pedagogik faoliyatni takomillashtirish malakasi shakllanadi
Innovatsion-kommunikativ komponent	AKT vositalari, jamoaviy rejalashtirish, ota-ona bilan hamkorlik	Workshop, loyiha metodi, muhokama	Pedagogik hamkorlik va innovatsion faoliyat rivojlanadi

Mazkur metod va texnologiyalar bolalarning mustaqil fikrlashini, ijodiy tasavvurlarini, muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatini hamda muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qildi.

NATIJALAR

Hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mutaxassislarni pedagogik jarayonni loyihalashtirishga tayyorlash jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida mashg'ulotlar tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot yakuniy natijalari eksperimental va nazorat guruhleri o'rtasida sezilarli farq mavjudligini ko'rsatdi.

Xususan, innovatsion rivojlantirish guruhida ishtirok etgan mutaxassislarning 74 foizi pedagogik jarayonni loyihalashtirishda tahliliy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etib, mustaqil pedagogik qarorlar qabul qilgan, 67 foizi esa ijodiy pedagogik yechimlar taklif qilgan. Nazorat guruhida esa mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 40 foiz va 29 foizni tashkil etdi. Aniqlangan tafovutlar statistik jihatdan ishonchli deb baholandi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan interaktiv faoliyat mutaxassislarning mustaqil pedagogik qaror qabul qilish va ijodiy yechim ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantirishda an'anaviy yondashuvlarga nisbatan ancha yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

1-jadval

Tadqiqot guruhleri natijalarining taqqoslanishi (foizlarda)

Ko'rsatkichlar	Boshlang'ich bosqich	Yakuniy bosqich Nazorat guruhi	Yakuniy bosqich Innovatsion rejalashtirish guruhi
Mustaqil fikr bildirganlar	12%	40%	74%
Ijodiy yechim taklif qilganlar	14%	29%	67%
Tahliliy fikrlashni qo'llaganlar	24%	40%	74%
Hamkorlikda faol ishtirok etganlar	18%	35%	69%



Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, innovatsion pedagogik texnologiyalar (interaktiv mashg'ulotlar, media va didaktik materiallar bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni modellashtirish) mutaxassislarning pedagogik jarayondagi faol ishtirokini sezilarli darajada oshirgan. Ayniqsa, "Pedagogik jarayonni loyihalashtiraman", "Hamkorlikda ishlaymiz" va "Muammoli vaziyatni yechamiz" kabi faoliyat turlari ijodiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan.

Suhbat va muhokama metodlari mutaxassislarda boshqalar fikrini hurmat bilan qabul qilish, muqobil qarashlarni tahlil qilish va samarali yechim topish ko'nikmalarini shakllantirgan. Loyihaviy faoliyat tahlili shuni ko'rsatdiki, mutaxassislar pedagogik mashg'ulotlarni loyihalash jarayonida amaliy va ijodiy natijalarga erishishga intilganlar.

Umuman olganda, tadqiqot davomida qo'llanilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar an'anaviy metodlarga nisbatan yuqori samaradorlikni namoyon etdi. Mazkur yondashuvlar pedagogik jarayonni ilmiy asosda rejalashtirish, mustaqil tahlil qilish, ijodiy fikrlash hamda hamkorlikda faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga keng imkoniyat yaratadi.

MUHOKAMALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mutaxassislarni pedagogik jarayonni loyihalashtirishga tayyorlash jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash ularning intellektual, ijodiy va pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari shuni tasdiqladiki, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon mutaxassislarning shaxsiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarda ijodiy yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ushbu natijalar G. Selevko tomonidan ilgari surilgan pedagogik texnologiyaning konseptuallik, tizimlilik va diagnostiklik mezonlariga mos kelishini tasdiqlaydi [12, 256]. Innovatsion rivojlantirish guruhi natijalari nazorat guruhi ko'rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgani pedagogik jarayonni loyihalash orqali kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligining empirik tasdig'i sifatida baholanishi mumkin.

Shu bilan birga, olingan natijalar L.S. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Mutaxassislar pedagogik jarayonni loyihalashda o'zaro hamkorlik qilish, fikr almashish va muammoli vaziyatlarni birgalikda hal etish orqali yangi bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. Bu esa ularning kasbiy rivojlanishini izchil va samarali shakllantirishga xizmat qiladi [7].

O'rganilgan tajriba shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachining roli mazmunan o'zgarib bormoqda. Endilikda u faqat bilim beruvchi emas, balki pedagogik jarayonni loyihalash orqali hamkorlik muhitini yaratadigan, bolalar va hamkasblarining ijodiy faolligini rag'batlantiradigan faol tashkilotchi sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat zamonaviy ta'lim paradigmasi talablariga to'liq mos keladi hamda ta'lim jarayonini sifatli tashkil etishda innovatsion yondashuvlarning samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, innovatsion pedagogik texnologiyalarni pedagogik jarayonni loyihalash bilan tizimli integratsiya qilish mutaxassislarining kognitiv, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mutaxassislarni pedagogik jarayonni loyihalashtirishga tayyorlash jarayoni tizimli, uzluksiz va ilmiy asosda tashkil etilishi zarur [13, 32].

XULOSA

Tadqiqot natijalaridan xulosa qiladigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mutaxassislarni pedagogik jarayonni loyihalashtirishga tayyorlash jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash ularning mustaqil pedagogik fikrlashi, ijodiy qaror qabul qilish va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Bu esa ta'lim jarayonini faqat bilim berishga yo'naltirilgan faoliyatdan shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi tizimga aylantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida tarbiyachining yangi kasbiy roli – innovatsion fikrlovchi, pedagogik jarayonni loyihalashtiruvchi hamda hamkorlik muhitini tashkil etuvchi subyekt sifatida namoyon bo'lgani aniqlandi. Shu jihatdan, maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni tizimli joriy etish bolalarda mustaqil o'rganish motivatsiyasini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashning samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, mutaxassislarni pedagogik jarayonni loyihalashtirishga tayyorlash jarayonida muntazam seminarlar, treninglar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish, ularni interaktiv hamda raqamli texnologiyalar bilan ishlashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayoniga media vositalari, raqamli taqdimotlar, interaktiv dasturlar va vizual materiallarni keng joriy etish mutaxassislarining mustaqil pedagogik fikrlash va ijodiy qarorlar ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash va ularni pedagogik jarayonning innovatsion faoliyatiga jalb etishga qaratilgan metodik

tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mutaxassislarni pedagogik jarayonni loyihalashtirishga tayyorlashda innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish ta'lim sifatini oshirish, bolalarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-sonli qonuni. – Toshkent, 16-dekabr 2019. <https://lex.uz/docs/-4333639>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-73-sonli farmoni. – Toshkent, 28-aprel 2025. <https://lex.uz/docs/7499786>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlariga malaka toifasini berish tartibini takomillashtirish yuzasidan"gi PF-79-sonli qaror. – Toshkent, 26-may 2023. <https://lex.uz/docs/-6476175>
4. Avliyoqulov A., Sayidahmedov N. Pedagogik jarayonni loyihalashtirish va innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent. 2021. – B. 45-62.
5. Usboyeva M. Bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodologiyasi. – Toshkent. 2020. – B. 33-50.
6. Jo'raev A., Shodiyeva G. Bolalarni ijodiy qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish metodlari. – Toshkent. 2019. – B. 27-42.
7. Выготский Л.С. Психология развития человека. – М.: Педагогика, 2005. – С. 320.
8. Darling-Hammond L. Powerful Teacher Education: Lessons from Exemplary Programs. – San Francisco: Jossey-Bass, 2006.
9. Hattie J. Visible Learning for Teachers: Maximizing Impact on Learning. – London; New York: Routledge, 2012. – P. 296.
10. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2016.
11. OECD. Starting Strong III: A Quality Toolbox for Early Childhood Education and Care. – Paris: OECD Publishing, 2012.
12. Селевко Г. К. Педагогические технологии: концептуальный, системный и диагностический подходы. – М.: Просвещение, 2010. – С. 256.
13. Yuldasheva S. M. Yosh davrlar psixologiyasi. – Toshkent, 2016. – B. 32.

PEDAGOGIKA

INGLIZ TILI CHET TILI SIFATIDA O‘QITILADIGAN SINFLARDA OG‘ZAKI NUTQ KO‘NIKMASINI O‘RGATISHDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

SAYFULLAYEV XURSHID JAMOLXONOVICH

Samarqand davlat universitetining Urgut filiali

“Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi

Email: sayfullayevxurshid88@gmail.com

UDK: 378.147:37.018.43

<https://orcid.org/0009-0006-2907-9906>

KUCHIMOVA FARANGIZ ABDUG‘ANI QIZI

Samarqand davlat universitetining Urgut filiali

Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti talabasi

Email: kuchimovafarangiz03@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-1489-8962>

Kalit so‘zlar:

madaniyatlararo kompetensiya, og‘zaki nutq ko‘nikmalari, EFL sinfi, kommunikativ kompetensiya, kommunikativ yondashuv, madaniy integratsiya, ijtimoiy-madaniy nazariya, madaniyatlararo muloqot.

Annotatsiya:

Ushbu maqola ingliz tili darslarida og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishga ta’sir etuvchi pedagogik omillarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosini L.Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi, M.Byramning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya modeli hamda kommunikativ yondashuv tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqot natijalari madaniyatlararo komponentlarning tizimli va maqsadli qo‘llanilishi o‘quvchilarning nutq faolligini sezilarli darajada oshirishini, ularning kommunikativ kompetensiyasini boyitishini hamda real hayotiy muloqot vaziyatlariga tayyorgarligini mustahkamlashini ko‘rsatdi. Shuningdek, mazkur yondashuv o‘quvchilarda madaniy sezgirlik, tolerantlik va samarali muloqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Mazkur tadqiqot ingliz tili ta’limida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatdan samarali va strategik muhim yo‘nalishi ekanini nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab beradi.

РАЗВИТИЕ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ НАВЫКАМ УСТНОЙ РЕЧИ В КЛАССАХ, ГДЕ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК ПРЕПОДАЕТСЯ КАК ИНОСТРАННЫЙ

Ключевые слова: межкультурная компетенция, навыки устной речи, класс EFL, коммуникативная компетенция, коммуникативный подход, культурная интеграция, социокультурная теория, межкультурная коммуникация.

Аннотация: Данная статья направлена на выявление педагогических факторов, влияющих на формирование межкультурной компетенции в процессе развития навыков устной речи на уроках английского языка. Методологическую основу исследования составляют социокультурная теория Л.Выготского, модель межкультурной коммуникативной компетенции М.Бырама и принципы коммуникативного подхода. Результаты исследования показали, что системное и целенаправленное использование межкультурных компонентов значительно повышает речевую активность учащихся, обогащает их коммуникативную компетенцию и укрепляет их готовность к реальным жизненным ситуациям общения. Также было установлено, что данный подход служит развитию у учащихся культурной чуткости, толерантности и навыков эффективного общения. Данное исследование теоретически и практически обосновывает, что формирование межкультурной компетенции в обучении английскому языку является методически эффективным и стратегически важным направлением развития навыков устной речи.

DEVELOPMENT OF INTERCULTURAL COMPETENCE IN TEACHING ORAL SPEECH SKILLS IN CLASSES WHERE ENGLISH IS STUDIED AS A FOREIGN LANGUAGE

Keywords: intercultural competence, oral speech skills, EFL class, communicative

Abstract: This article is aimed at identifying pedagogical factors influencing the formation of intercultural competence in the process of developing oral speech skills in English lessons. The methodological basis of the research is the sociocultural theory of L.Vygotsky, the model of intercultural communicative competence of M.Byram, and the principles

competence, communicative approach, cultural integration, sociocultural theory, intercultural communication.

of the communicative approach. The results of the study showed that the systematic and targeted use of intercultural components significantly increases the speech activity of students, enriches their communicative competence, and strengthens their readiness for real-life communication situations. It was also determined that this approach serves the development of cultural sensitivity, tolerance, and effective communication skills in students. This study theoretically and practically substantiates that the formation of intercultural competence in English language learning is a methodologically effective and strategically important direction for the development of oral speech skills.

KIRISH

Globalashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro hamkorlikning kengayishi hamda axborot almashinuvining kuchayishi chet tillarini o'rganishga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Bugungi kunda tilni bilish faqat grammatik qoidalar va leksik birliklarni o'zlashtirish bilangina cheklanmaydi, balki turli madaniyat vakillari bilan samarali, moslashuvchan va mazmunli muloqot olib borish qobiliyatini ham nazarda tutadi. Ayniqsa, ingliz tilining global aloqa vositasi sifatida keng qo'llanilishi EFL muhitida tahsil olayotgan o'quvchilardan nafaqat kommunikativ, balki madaniyatlararo kompetensiyaning ham rivojlangan bo'lishini talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, ingliz tili darslarida og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni madaniy mazmun bilan boyitilgan holda tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki real muloqot sharoitida til o'rganuvchi nafaqat to'g'ri gapira olishi, balki suhbatdoshining madaniy qadriyatlarini, ijtimoiy me'yorlari va kommunikativ xatti-harakatlarini ham anglay olishi zarur. Bu esa til ta'limida madaniyatlararo yondashuvni kuchaytirishni taqozo etadi.

So'nggi yillarda chet til o'qitish metodikasida kommunikativ yondashuv, ijtimoiy-madaniy nazariya hamda madaniyatlararo ta'lim konsepsiyalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotchilar speaking mashg'ulotlariga madaniy komponentlarni integratsiya qilish o'quvchilarning nutq faolligini oshirishi, ularning motivatsiyasini kuchaytirishi, tanqidiy fikrlashini rivojlantirishi hamda turli kommunikativ vaziyatlarda erkin harakat qilishiga yordam berishini ta'kidlaydilar. Biroq amaliy tajribada ko'plab darslarda madaniy jihatlar yetarli darajada yoritilmay, asosiy urg'u ko'pincha grammatik tuzilmalar va til shakllarini o'zlashtirishga qaratilib qolmoqda.

Mazkur tadqiqot ingliz tili darslarida og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi EFL sharoitida speaking mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarning kommunikativ hamda madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metod va usullarni belgilashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy til ta‘limida chet tilini o‘rgatish jarayoni faqat grammatik bilimlarni shakllantirish bilangina cheklanmay, balki o‘quvchilarning kommunikativ hamda madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda. So‘nggi yillarda maktab ingliz tili darslariklari speaking ko‘nikmalarini rivojlantirish va madaniyatlararo yondashuvni integratsiya qilishga qaratilgan topshiriqlar va yetarlich manbalar bilan taminlanmoqda. Dunyo miqyosida nutqni rivojlantirishda madaniy omillarning roli, kommunikativ yondashuvning samaradorligi hamda o‘quvchilarning real muloqotga tayyorgarligini oshirish masalalari hanuz o‘z dolzarbligini yo‘qotmadi.

Madaniyatlararo kompetensiya tushunchasining nazariy asoslari M. Byram tomonidan ishlab chiqilgan modelda keng yoritilgan. Ushbu modelga ko‘ra, madaniyatlararo kompetensiya bilim, munosabat, ko‘nikma va tanqidiy madaniy ong komponentlaridan tashkil topadi. M. Byram madaniyatni til o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning nafaqat lingvistik salohiyatini, balki ijtimoiy muloqot qobiliyatini ham rivojlantirishini ta‘kidlaydi [1]. Ushbu yondashuv ingliz tili darslarida speaking mashg‘ulotlarini madaniy kontekst bilan boyitish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Til o‘rganish jarayonining ijtimoiy tabiati L. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasida o‘z ifodasini topgan. Ushbu nazariyaga ko‘ra, bilimlar individual tarzda emas, balki ijtimoiy muloqot va hamkorlik jarayonida shakllanadi. L. Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasi o‘qituvchi hamda tengdoshlar bilan o‘zaro hamkorlik speaking ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi [3]. Ingliz tili darslarida juftlik va guruhli faoliyatlar orqali tashkil etilgan suhbatlar ushbu nazariyaning amaliy ifodasi sifatida qaraladi.

Shuningdek, kommunikativ yondashuv til o‘qitishda og‘zaki nutqni rivojlantirishning yetakchi metodik tamoyillaridan biri sifatida e‘tirof etiladi [4]. Mazkur yondashuvga binoan, til birliklari alohida qoidalar majmui sifatida emas, balki real hayotdagi muloqot jarayonida ma‘no ifodalash vositasi sifatida o‘zlashtiriladi. Shuning uchun dars jarayonida o‘quvchini faol nutqiy faoliyatga jalb



etish, ularni muloqot ishtirokchisiga aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi. J. Harmer speaking mashg'ulotlarida rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar, juftlik va guruhli ish shakllari, shuningdek autentik materiallardan foydalanish o'quvchilarning nutqiy faolligini kuchaytirishi, erkin fikr bildirishiga sharoit yaratishini ta'kidlaydi [7]. Bunday topshiriqlar sun'iy mashqlardan farqli ravishda tabiiy muloqot muhitini yuzaga keltirib, o'quvchilarning kommunikativ ehtiyojini rag'batlantiradi.

C. Kramersch til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq hodisa ekanini qayd etib, og'zaki nutqni rivojlantirish jarayonida madaniy kontekstni inobatga olish zarurligini asoslab beradi. Uning fikricha, tilni madaniyatdan ajratgan holda o'qitish o'quvchini haqiqiy muloqotga to'liq tayyorlay olmaydi [6]. Shu bois speaking faoliyatini tashkil etishda nutqiy vaziyatlarning ijtimoiy va madaniy jihatlarini yoritish muhim metodik talab hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, madaniyatlararo yondashuv speaking ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Madaniy materiallar bilan boyitilgan darslar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularning dunyoqarashini kengaytiradi hamda real hayotiy muloqotga tayyorligini kuchaytiradi. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati ushbu masalani umumiy xalqaro kontekstda yoritadi va EFL muhitida, xususan O'zbekiston ta'lim tizimi sharoitida madaniyatlararo kompetensiyani speaking orqali rivojlantirish masalasi yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli, mazkur tadqiqot ingliz tili darslarida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishni mahalliy ta'lim kontekstida tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishni maqsad qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot Samarqand viloyati, Urgut tumani, 156-umumta'lim maktabining 6-“B” sinfida tahsil olayotgan 33 nafar o'quvchi ishtirokida olib borildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish hamda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdan iborat bo'ldi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida Michael Byram tomonidan ishlab chiqilgan madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya modeli tanlandi. Mazkur model quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi: bilim (til va madaniyatga oid ma'lumotlar), munosabat (muloqotga ochiqlik va ijobiy yondashuv), ko'nikma (til vositalarini amaliy qo'llash) hamda tanqidiy madaniy ong (madaniyatlararo tahlil va refleksiya qobiliyati). Tadqiqot jarayonida ushbu komponentlar speaking mashg'ulotlarida madaniy materiallardan foydalanish samaradorligini baholash mezonini sifatida qo'llanildi.

Shuningdek, tadqiqot Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy nazariyasiga tayandi. Ushbu nazariyaga ko'ra, bilim va ko'nikmalar individual ravishda emas, balki ijtimoiy muloqot hamda hamkorlik jarayonida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotda juftlikdagi suhbatlar, guruhli munozaralar va rolli o'yinlar orqali o'quvchilarda "yaqin rivojlanish zonasi" (Zone of Proximal Development, ZPD)ni yuzaga keltirish imkoniyatlari tahlil qilindi.

"Yaqin rivojlanish zonasi" o'quvchining mustaqil ravishda bajara olmaydigan, biroq o'qituvchi yoki tajribali tengdosh ko'magida bajarishi mumkin bo'lgan vazifalar doirasini anglatadi. Speaking mashg'ulotlarida o'quvchilar yangi ibora va dialoglarni mustaqil tuzishda qiynalgan hollarda, juftlik va guruhli faoliyatlar orqali bosqichma-bosqich qo'llab-quvvatlandi. Bu jarayon ularni yuqoriroq til ko'nikmalari darajasiga olib chiqishga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida o'quvchilar shadowing metodi asosida native speaker nutqini takrorlash, matndan ibora va so'z birikmalarini ajratib olib, ularni mustaqil nutqqa moslashtirish kabi mashqlarni bajardilar. Natijada ular avval yordam bilan bajarilgan vazifalarni keyinchalik mustaqil ravishda qo'llash darajasiga erishdilar.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. Kuzatish – o'quvchilarning dars jarayonidagi nutq faolligi, xatolari va ishtirok darajasi muntazam qayd etildi.
2. Suhbat – o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishi, motivatsiyasi hamda jarayonni qiyinlashtiruvchi psixologik omillar o'rganildi.
3. Ijodiy mashqlar va shadowing – mustaqil so'z birikmalari yaratish, talaffuz va intonatsiyani rivojlantirishga qaratildi.
4. Ijodiy psixologik muhit yaratish – o'quvchilarda xato qilishdan qo'rqmaslik ko'nikmasini shakllantirishga e'tibor qaratildi. Ularga til o'rganish jarayoni tabiiy ravishda xatolar orqali kechishi, ingliz tilida muloqot esa turli madaniyat va davlat vakillari o'rtasida kommunikativ ko'priklar vazifasini bajarishi tushuntirildi. Bu yondashuv o'quvchilarning nutqdagi faolligi va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirdi.
5. Native speaker ishtiroki – maktabga Filippindan tashrif buyurgan ingliz tili o'qituvchisi darslarga jalb qilindi. Muloqot faqat ingliz tilida olib borilgani sababli o'quvchilar real kommunikativ vaziyatga kirishish imkoniyatiga ega bo'ldilar va ularning og'zaki nutq ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi.

Umuman olganda, tanlangan metodologik yondashuv speaking ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini madaniyatlararo kompetensiya bilan integratsiyalashgan holda tizimli, izchil va nazariy jihatdan asoslangan tarzda tahlil qilish imkonini berdi.



NATIJALAR

Nazariy hamda kontekstual tahlillar shuni ko'rsatdiki, ingliz tili darslarida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoniga madaniyatlararo kompetensiyani integratsiya qilish pedagogik samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Samarqand viloyati Urgut tumani 156-umumta'lim maktabining 6-"B" sinfi 2-guruhida tahsil olayotgan 33 nafar o'quvchi ishtirokida 2 oy davomida olib borilgan tajriba-sinov ishlarida speaking ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida shadowing metodi, madaniy mazmundagi materiallar, ijodiy topshiriqlar hamda native speaker ishtiroki tizimli ravishda qo'llanildi. Shu bilan birga, o'quvchilarda xato qilishdan qo'rqmaslik va mustaqil nutq faoliyatini amalga oshirish uchun qulay psixologik muhit yaratildi.

Tajriba boshida o'quvchilarda hissiy to'siqlar kuzatildi. Jumladan, tengdoshlari oldida uyalish va ingliz tilida gapirish qiyin degan ishonch sababli 21 nafar o'quvchi (taxminan 65%) speaking mashg'ulotlarida faol ishtirok etmasligini, bunga asosan xato qilishdan qo'rqish omili sabab bo'layotganini bildirdi. Qolgan 12 nafar o'quvchi (taxminan 35%) esa mashg'ulotlarda nisbatan faol qatnashdi. Kuzatuvlar natijasida ushbu faol o'quvchilarning aksariyati ingliz tilini real hayotda qo'llash, xorijda ta'lim olish yoki sayohat qilish kabi aniq maqsadlarga ega ekani aniqlandi.

Tajriba davomida o'quvchilar shadowing metodi orqali native speaker nutqini takrorlash, matndan ibora va so'z birikmalarini ajratib olib mustaqil nutqqa moslashtirish, shuningdek, juftlik va guruhli faoliyatlar asosida rolli o'yinlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Mazkur metodlar o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, til o'rganish va muloqot uzluksiz jarayon ekanini anglash, shuningdek, ularni faqat vazifa bajaruvchi o'quvchi darajasidan mustaqil fikrlovchi va ijodkor shaxs darajasiga ko'tarishga xizmat qildi.

Tajriba yakunida o'tkazilgan kuzatishlar ijobiy dinamikani ko'rsatdi: 27 nafar o'quvchi (taxminan 81%) erkinroq gapira boshladi, 24 nafar o'quvchi (taxminan 75%) darslarda faol ishtirok etdi. Eng muhim natijalardan biri sifatida xato qilishdan qo'rqish darajasi 21 nafardan 7 nafargacha (taxminan 21%) kamaygani qayd etildi. Shuningdek, o'quvchilarning ijodkorligi, yangi ibora va konstruksiyalarni mustaqil yaratish qobiliyati sezilarli darajada oshdi. Shadowing metodi hamda madaniy materiallardan tizimli foydalanish natijasida ularning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasi ham izchil rivojlangani aniqlandi.

Umuman olganda, tajriba natijalari speaking mashg'ulotlariga madaniyatlararo komponentlarni integratsiya qilish o'quvchilarning nutq faolligi, motivatsiyasi va kommunikativ tayyorgarligini oshirishda samarali pedagogik mexanizm ekanini tasdiqladi.

MUHOKAMALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, speaking mashg'ulotlariga madaniyatlararo komponentlarni integratsiya qilish o'quvchilarning og'zaki nutq faolligini sezilarli darajada oshirdi. Shadowing metodi, madaniy mazmundagi materiallar, ijodiy topshiriqlar hamda native speaker ishtiroki o'quvchilarning til birliklarini chuqurroq tushunishi, madaniy kontekstni anglash darajasi, xato qilishdan qo'rqmaslik ko'nikmasi va yangi iboralarni mustaqil yaratish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qildi.

Michael Byramning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya modeli nuqtai nazaridan olingan natijalar quyidagi komponentlar orqali izohlanadi. Bilim komponenti o'quvchilarning til birliklari va madaniy ma'lumotlarni anglash darajasi oshganini ko'rsatdi. Munosabat komponenti ularning muloqotga ochiqligi, ijobiy yondashuvi va xato qilishdan qo'rqmaslik holatining shakllanganini namoyon etdi. Ko'nikma komponenti og'zaki nutqni real vaziyatlarda amaliy qo'llash qobiliyatining rivojlanganini tasdiqladi. Tanqidiy madaniy ong esa o'quvchilarning ijodkorlik darajasi, yangi iboralar va nutq konstruksiyalarini mustaqil yaratish imkoniyatining kengayganida aks etdi.

Shuningdek, Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy nazariyasiga tayangan holda tashkil etilgan juftlik va guruhli faoliyatlar hamda rolli o'yinlar o'quvchilarning "yaqin rivojlanish zonasi" doirasida yangi til ko'nikmalarini egallashiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Mazkur yondashuv orqali o'quvchilar avval mustaqil bajara olmagan vazifalarni o'qituvchi yoki tengdosh ko'magida bajarib, keyinchalik ularni mustaqil ravishda qo'llash darajasiga erishdilar.

Amaliy jarayonlar shuni ko'rsatdiki, pedagogik dizaynning puxtaligi hamda interaktiv mashg'ulotlarning tizimli tashkil etilishi speaking ko'nikmalarini rivojlantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Juftlik va guruh faoliyatlari, shadowing mashqlari hamda native speaker ishtiroki o'quvchilarning kommunikativ ishonchini mustahkamlash, real muloqotga tayyorgarligini kuchaytirish va nutq faolligini oshirishga xizmat qildi. Bunda o'qituvchining roli faqat bilim beruvchi sifatida emas, balki ta'lim jarayonini yo'naltiruvchi moderator va fasilitator sifatida namoyon bo'ldi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari an'anaviy EFL darslarida madaniyatlararo kompetensiyani speaking mashg'ulotlariga integratsiya qilish pedagogik samaradorlikni oshirish, o'quvchilarning nutq faolligi va ijodkorligini rag'batlantirish hamda ularning real kommunikativ vaziyatlarga tayyorgarligini kuchaytirishda muhim metodik omil ekanini tasdiqlaydi.



XULOSA

Mazkur tadqiqot EFL ta'limida speaking ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishning pedagogik ahamiyatini aniqlashga qaratildi. Olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatdiki, speaking ko'nikmalarini samarali rivojlantirish faqat lingvistik bilimlar bilan cheklanmaydi, balki o'quvchilarning turli madaniy kontekstlarni anglash, ularni tahlil qilish va moslashish qobiliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Speaking mashg'ulotlariga madaniyatlararo komponentlarni integratsiya qilish o'quvchilarning nutq faolligini oshiradi, kommunikativ ishonchini mustahkamlaydi hamda real hayotiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. To'g'ri tanlangan madaniy materiallar, rolli o'yinlar, muhokamalar va loyiha asosida o'qitish kabi metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va tanqidiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari Michael Byramning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya modeli hamda Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy nazariyasini amaliy jihatdan tasdiqladi. Ya'ni speaking ko'nikmalari ijtimoiy hamkorlik, interaktiv faoliyat va madaniy kontekstga asoslangan mashg'ulotlar orqali samaraliroq rivojlanadi.

Amaliy jihatdan, o'quv dasturlariga madaniyatlararo elementlarni tizimli ravishda kiritish va interaktiv, hamkorlikka asoslangan metodlardan keng foydalanish EFL ta'limi sifatini oshirish, o'quvchilarning kommunikativ tayyorgarligini kuchaytirish hamda ularni global muloqot muhiti uchun samarali tayyorlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Byram M. Teaching and assessing intercultural communicative competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997.
2. Byram M., Gribkova B., Starkey H. Developing the intercultural dimension in language teaching. – Strasbourg: Council of Europe, 2002.
3. Vygotsky L. S. Mind in society: The development of higher psychological processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
4. Richards J. C. Teaching listening and speaking: From theory to practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
5. Brown H. D. Principles of language learning and teaching. – New York: Pearson Education, 2007.
6. Kramsch C. Context and culture in language teaching. – Oxford: Oxford



- University Press, 1993.
7. Harmer J. How to teach English. – Harlow: Longman, 2007.
 8. Byram M. From foreign language education to education for intercultural citizenship. Clevedon: Multilingual Matters, 2008.
 9. Deardorff D. K. The SAGE handbook of intercultural competence. Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2009.
 10. Ellis R. Task-based language learning and teaching. Oxford: Oxford University Press, 2003.



PEDAGOGIKA

JALOLIDDIN RUMIY TA'LIMOTI – AQLIY TARBIYA MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRUVCHI PEDAGOGIK VOSITA

USMONOVA OYDIN SHERALI QIZI

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

“Pedagogik ta’lim” kafedrası tayanch doktoranti

Email: oydinusmonova765@gmail.com

UDK: 37.015.3:159.955

<https://orcid.org/0009-0005-0941-9777>

Kalit soʻzlar:

Rumiy ta’limoti,
aqliy tarbiya,
tafakkur, kreativ
fikrlash, innovatsion
yondashuv,
muammoli ta’lim,
oʻquv mashgʻulotlari,
tanqidiy fikrlash.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumiy ta’limotining mazmun-mohiyati, uning didaktik qarashlari hamda zamonaviy ta’lim tizimidagi pedagogik imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Alloma qalamiga mansub asarlarda ilgari surilgan ma’naviy-axloqiy, intellektual va irfoniy gʻoyalar alaba shaxsida aqliy tarbiyani shakllantirish hamda rivojlantirishning muhim omili sifatida ilmiy nuqtai nazardan asoslab beriladi. Tadqiqot doirasida aqliy tarbiyaning tarkibiy qismlari, ularning talaba tafakkuriga koʻrsatadigan ta’siri, shuningdek, mazkur jarayonda samaradorlikni ta’minlovchi pedagogik vosita va mexanizmlar ochib beriladi. Auditoriya hamda auditoriyadan tashqari mashgʻulotlarda mutafakkir merosidan foydalanishning amaliy yoʻllari koʻrsatilib, bunday yondashuv talabalarda tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish, muammolarni oqilona hal etish, bilimlarni chuqur oʻzlashtirish hamda hamkorlikda ishlash koʻnikmalarini mustahkamlashga xizmat qilishi asoslanadi.

УЧЕНИЕ ДЖАЛАЛУДДИНА РУМИ – ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СРЕДСТВО, СОВЕРШЕНСТВУЮЩЕЕ СОДЕРЖАНИЕ УМСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ

Ключевые слова:

Учение Руми,
интеллектуальное

Аннотация:

В данной статье научно проанализированы сущность и содержание учения великого мыслителя Джалалиддина Руми, его дидактические взгляды и



воспитание,
мышление,
креативное
мышление,
инновационный
подход,
проблемное
обучение,
учебные занятия,
критическое
мышление.

педагогические возможности в современной системе образования. Духовно-нравственные, интеллектуальные и мистические идеи, выдвинутые в произведениях ученого, научно обоснованы как важный фактор формирования и развития умственного воспитания личности студента. В рамках исследования раскрываются компоненты умственного воспитания, их влияние на мышление учащегося, а также педагогические средства и механизмы, обеспечивающие эффективность в данном процессе. Показаны практические пути использования наследия мыслителя на аудиторных и внеаудиторных занятиях, обосновано, что такой подход служит развитию у студентов критического и креативного мышления, рациональному решению проблем, глубокому усвоению знаний и укреплению навыков совместной работы.

THE TEACHING OF JALALUDDIN RUMI – A PEDAGOGICAL TOOL FOR IMPROVING THE CONTENT OF MENTAL EDUCATION

Keywords:

Rumi's teachings,
intellectual
education, thinking,
creative thinking,
innovative approach,
problem-based
learning,
learning sessions,
critical thinking.

Abstract:

In this article, the essence of the teachings of the great thinker Jalaluddin Rumi, his didactic views, and pedagogical possibilities in the modern education system were scientifically analyzed. The spiritual, moral, intellectual, and mystical ideas put forward in the works of the scholar are scientifically substantiated as an important factor in the formation and development of intellectual education in the student's personality. Within the framework of the study, the components of mental education, their influence on student thinking, as well as pedagogical tools and mechanisms ensuring effectiveness in this process are revealed. Practical ways of using the thinker's heritage in classroom and extracurricular activities are shown, and such an approach serves to develop critical and creative thinking in students, rational problem-solving, deep assimilation of knowledge, and strengthening the skills of working in cooperation.



KIRISH

XXI asr – bilim va tafakkur avlodi shakllanayotgan davrdir. Mamlakatimizda ta'lim va tarbiya sohasini takomillashtirish, ayniqsa shaxsning aqliy salohiyatini rivojlantirish masalasi muhim davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni fuqarolarning bilim olish huquqini ta'minlash, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik yondashuvlar hamda innovatsiyalarni joriy etishning ustuvor tamoyillarini belgilab beradi [1]. Mazkur hujjatning asosiy maqsadlaridan biri uzluksiz va samarali ta'lim-tarbiya tizimini yaratish bo'lib, u har bir shaxsning aqliy, ma'naviy hamda ijtimoiy salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi" doirasida ham ta'lim tizimida milliy qadriyatlar, yuksak ma'naviyat va innovatsion pedagogik yondashuvlarni mustahkamlash vazifalari belgilangan [2]. Ushbu strategik yo'nalishlar ta'lim mazmunini boyitish, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish hamda yoshlarni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalashni ustuvor vazifa sifatida namoyon etadi.

Ana shunday sharoitda Sharqning buyuk mutafakkiri – Jaloliddin Rumiy ta'limotida ilgari surilgan aqliy tarbiya va ruhiy kamolot g'oyalari pedagogika fani uchun chuqur nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Rumiy merosi inson tafakkuri chegaralarini kengaytirish, aqliy barkamollikni rag'batlantirish va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik vosita sifatida talqin etiladi. Uning qarashlari faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki yosh avlodni mustaqil fikrlash, o'z-o'zini tahlil qilish hamda ezgu maqsadlar sari intilish ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan yaxlit falsafiy-pedagogik yondashuvni ifodalaydi. Shu bois, Rumiy ilgari surgan pedagogik fikrlar bilan O'zbekiston ta'lim tizimining zamonaviy qonuniy-huquqiy asoslari o'rtasidagi uyg'unlikni aniqlash, aqliy tarbiya mazmunini boyitish masalasi bugungi pedagogik tadqiqotlarda muhim ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda davlat ta'lim siyosatida shaxsning har tomonlama kamoloti, mustaqil tafakkuri va intellektual salohiyatini rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilangan ekan, tarixiy-ma'naviy merosdan samarali foydalanish zarurati yanada ortadi. Shu nuqtai nazardan, Rumiy ta'limoti inson aqlini tarbiyalash, tafakkurni yuksaltirish va ichki komillikka erishish g'oyalari bilan pedagogik jarayon uchun muhim metodologik manba bo'la oladi. Zero, olim G.V. Izbullayeva ta'kidlaganidek, "Alloma tomonidan keltirilgan shaxs shakllanishi va tarbiyasidagi ma'naviy-axloqiy mezonlar aniqligi va tushunarliliigi bilan ajralib turadi" [3].

Aqliy tarbiya mazmuni faqat fakt va bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmay, balki o‘quvchining fikrlash madaniyatini, mushohada yuritish qobiliyatini hamda ma’naviy-intellektual mas’uliyatini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Jaloliddin Rumiy ta’limotida tafakkurni uyg‘otish hikmatlar, savol-javoblar va ramziy hikoyatlar vositasida amalga oshiriladi. Mazkur usullar pedagogik nuqtai nazardan interfaol metodlar, muammoli ta’lim hamda dialogik yondashuvlarning tarixiy ildizlari sifatida talqin etilishi mumkin.

Rumiy insonni “fikrlovchi va anglovchi mavjudot” sifatida sharhlaydi. Uning qarashlarida aql – haqiqatni anglash vositasi, tafakkur esa komillikka eltuvchi yo‘ldir. Jumladan, “Masnaviy” asarida mutafakkir ilmni oddiy ma’lumot to‘plash emas, balki qalb va ong uyg‘unligida yuzaga keladigan chuqur idrok sifatida izohlaydi. Bunday yondashuv zamonaviy pedagogikada muhim o‘rin tutayotgan reflektiv fikrlash, tanqidiy tafakkur hamda mustaqil xulosa chiqarish kompetensiyalari bilan uyg‘unlashadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Jaloliddin Rumiy ta’limotining aqliy tarbiya mazmunini takomillashtiruvchi pedagogik vosita sifatidagi imkoniyatlarini ochib berish maqsadida kompleks yondashuv asosida metodologik tamoyillar belgilab olindi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlari, xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident farmon va qarorlarida belgilangan shaxs kamoloti, intellektual salohiyatni rivojlantirish hamda milliy-ma’naviy merosdan samarali foydalanish tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Tarixiy-mantiqiy tahlil metodi – Jaloliddin Rumiy merosining shakllanish jarayoni, uning pedagogik qarashlari hamda aql va ilm haqidagi g‘oyalarini tarixiy manbalar asosida o‘rganish va izchil tahlil qilishda qo‘llanildi.
2. Nazariy tahlil va sintez metodi – Rumiy asarlarida, xususan, Masnaviyda ilgari surilgan fikrlarni umumlashtirish, ularni zamonaviy pedagogika nazariyalari bilan qiyoslash hamda aqliy tarbiya mazmuni bilan uyg‘un jihatlarini aniqlash maqsadida tatbiq etildi.
3. Qiyosiy-komparativ metod – tasavvufiy-pedagogik qarashlar bilan zamonaviy ta’lim konsepsiyalaridagi aqliy tarbiya talqinlarini solishtirish orqali ularning umumiy va farqli jihatlarini ochib berildi.
4. Interpretatsiya (talqin) metodi – Rumiy hikmatlari va ramziy hikoyatlarining pedagogik mazmunini ochib berish hamda ularning aqliy tarbiyaga ta’sir



mexanizmini ilmiy jihatdan izohlashda qoʻllanildi.

5. Tizimli yondashuv – aqliy tarbiyani shaxs kamolotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida koʻrib chiqish hamda Rumiyl taʼlimotini pedagogik jarayonning yaxlit tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlarini aniqlashda metodologik asos boʻlib xizmat qildi.

Tadqiqotning metodologik tamoyillari sifatida ilmiylik, obyektivlik, tarixiylik va uzviylik prinsiplari asos qilib olindi. Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uygʻunligi hamda zamonaviy pedagogik kompetensiyalarga tayanish yondashuvi ustuvor yoʻnalish sifatida belgilandi.

Mazkur metodologik yondashuv Jaloliddin Rumiyl taʼlimotini nafaqat falsafiy-maʼnaviy meros sifatida, balki aqliy tarbiya mazmunini boyituvchi samarali pedagogik vosita sifatida ilmiy asosda tahlil qilish imkonini berdi.

NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida Jaloliddin Rumiyl taʼlimotining aqliy tarbiya mazmunini takomillashtirishdagi pedagogik imkoniyatlari nazariy jihatdan asoslab berildi va quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

Birinchidan, Rumiyl asarlarida aql va ilm tushunchalarining chuqur falsafiy-pedagogik mazmunda talqin etilishi aniqlandi. Mutafakkir aqlni insonni komillikka yetaklovchi asosiy qudrat sifatida baholaydi. Uning qarashlarida bilim – shunchaki tashqi axborotni oʻzlashtirish emas, balki anglash, tafakkur qilish va shaxsning oʻz ustida ishlashi jarayonidir. Mazkur yondashuv zamonaviy taʼlim tizimida ilgari surilayotgan tanqidiy fikrlash, reflektiv yondashuv hamda mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalari bilan uygʻunligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Shuningdek, alloma asarlarida bugungi taʼlimiy prinsiplarga mos jihatlar ham koʻzga tashlanadi. Jumladan, “Alloma qarashlarida parchani bir butunga keltirish, bir butunni esa qismlarga ajratib oʻrganish xususiyatlari mavjud boʻlib, bu holat taraqqiyot talabi boʻlmish taʼlimdagi integratsiya va differensiallashuv qoidalariga toʻla mos keladi” [4].

Ikkinchidan, “Masnaviy” asarida qoʻllanilgan ramziy hikoyatlar, savol-javob usuli hamda didaktik misollar oʻquvchi tafakkurini faollashtirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita sifatida talqin qilindi. Tadqiqot natijalariga koʻra, ushbu usullar muammoli taʼlim, dialogik metod va interfaol yondashuvlarning tarixiy ildizlari bilan hamohang ekanligi aniqlandi. Bu esa Rumiyl merosining didaktik qiymatini yanada oshiradi.

Uchinchidan, Rumiyl taʼlimotida aqliy tarbiya axloqiy va maʼnaviy kamolot bilan uzviy bogʻliqlikda talqin etilishi asoslab berildi. Yaʼni aqlni tarbiyalash jarayoni



shaxsning ichki poklanishi, o'zini anglash va mas'uliyat hissini shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Olim Leonard Lewisohn Rumiylar tafakkurida aql va ishq (ma'rifat) qarama-qarshi qo'yilmasdan, balki komil inson kamolotida o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi [5]. Bu holat aqliy tarbiyaning nafaqat intellektual, balki ma'naviy-intellektual mazmunga ega ekanligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, Rumiylar merosini zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlari aniqlanib, aqliy tarbiya mazmunini boyitishda quyidagi yo'nalishlar samarali ekanligi asoslandi:

- hikmat va ramziy matnlar asosida tahliliy fikrlashni rivojlantirish;
- talabalarda mushohada yuritish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'z-o'zini tahlil qilish hamda reflektiv tafakkurni rivojlantirish.

Shuningdek, tadqiqot davomida Rumiylar ta'limotining milliy pedagogik meros bilan uyg'unligi hamda O'zbekiston ta'lim siyosatida belgilangan shaxsning har tomonlama kamolotini ta'minlash vazifalari bilan metodologik jihatdan mos kelishi aniqlandi.

Umuman olganda, olingan natijalar Rumiylar ta'limoti aqliy tarbiya mazmunini boyituvchi, tafakkur madaniyatini rivojlantiruvchi hamda pedagogik jarayon samaradorligini oshiruvchi muhim nazariy manba va amaliy vosita ekanligini ko'rsatadi.

MUHOKAMALAR

Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning bilish qobiliyati hamda tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi [6]. Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida aqliy tarbiya o'quvchining tanqidiy fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal qila olishi, mustaqil qaror qabul qilishi hamda reflektiv tafakkur yurita olishi bilan bog'liq holda talqin etiladi. Jaloliddin Rumiylar ta'limotida ham aql insonni haqiqat sari yetaklovchi ichki nur sifatida izohlanadi. Mazkur jihat konstruktivistik yondashuv bilan hamohang bo'lib, bilimning tayyor shaklda berilmasligi, balki shaxsning faol tafakkuri jarayonida shakllanishini nazarda tutadi.

Shu bilan birga, Rumiylar qarashlarida aqliy kamolot ma'naviy-axloqiy poklanish bilan uzviy bog'liqlikda talqin etiladi. Zamonaviy dunyoviy pedagogikada esa ko'proq intellektual kompetensiyalarga ustuvor ahamiyat beriladi. Bu holat ilmiy muhokama uchun muhim masalani yuzaga keltiradi: aqliy tarbiyani faqat kognitiv jarayon sifatida emas, balki ma'naviy-intellektual birlik doirasida ko'rib chiqish

zarur. Mazkur yondashuv ta'lim samaradorligini oshirishda yaxlitlik prinsipini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Rumiy asarlarining ramziy va tasavvufiy uslubda bayon etilgani ularni bevosita o'quv jarayoniga tatbiq etishda puxta metodik yondashuvni talab qiladi. Har bir hikmat yoki ramziy hikoyani o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ta'lim bosqichi hamda pedagogik maqsadlarga mos ravishda talqin etish zarur. Aks holda, mazmunning chuqur falsafiy qatlamlari to'liq anglanmasligi mumkin. Demak, Rumiy merosidan foydalanish ilmiy-metodik jihatdan asoslangan yondashuvni talab etadi.

Muhokamalar jarayonida aniqlanishicha, Rumiy ta'limotining pedagogik imkoniyatlari nafaqat gumanitar fanlarda, balki umumiy ta'lim jarayonida ham samarali qo'llanishi mumkin. Xususan, uning hikoyatlari orqali mantiqiy tahlil qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash hamda ramziy fikrlashni rivojlantirish kabi ko'nikmalarni shakllantirish mumkin. Bu esa aqliy tarbiyaning amaliy komponentlarini yanada boyitadi.

Umuman olganda, Jaloliddin Rumiy ta'limotini zamonaviy pedagogik tizim bilan integratsiya qilish ilmiy asoslangan va metodik jihatdan puxta ishlab chiqilgan yondashuvni talab etadi. Uning g'oyalari aqliy tarbiyani ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish orqali ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari Jaloliddin Rumiy ta'limoti aqliy tarbiya mazmunini takomillashtirishda muhim nazariy hamda metodologik manba bo'la olishini ko'rsatdi. Rumiy qarashlarida aql inson kamolotining yetakchi omili sifatida talqin qilinadi; ilm va tafakkur jarayoni esa ichki anglash, mushohada hamda o'z-o'zini takomillashtirish bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi. Mazkur yondashuv zamonaviy ta'lim tizimida ilgari surilayotgan mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur va reflektiv yondashuv kompetensiyalari bilan mazmunan uyg'unlashadi.

Shuningdek, Rumiy ta'limotida aqliy va ma'naviy kamolotning o'zaro integralligi alohida ta'kidlanadi. Bu holat aqliy tarbiyani faqat kognitiv rivojlanish bilan cheklamasdan, balki shaxsning ma'naviy-intellektual barkamolligi bilan bog'liq holda talqin qilish zarurligini asoslaydi. Bunday yondashuv O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan barkamol shaxsni tarbiyalash maqsadlari bilan hamohangdir.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, Rumiy qalamiga mansub "Masnaviy" va boshqa asarlarda qo'llanilgan ramziy hikoyatlar, savol-javob usullari hamda didaktik misollar o'quvchilarning tafakkur jarayonini faollashtirishga xizmat qiluvchi samarali

pedagogik vosita sifatida talqin etilishi mumkin. Zotan, ingliz olimi William Chittick ta'kidlaganidek, "Masnaviyda qo'llanilgan hikoyatlar, ramziy masallar va dialogik (savol-javob) usullar shunchaki adabiy bezak emas, balki tafakkurni uyg'otish va o'quvchini bosqichma-bosqich chuqurroq anglash sari yo'naltirish uchun mo'ljallangan pedagogik vositalardir" [7]. Ushbu metodik imkoniyatlar aqliy tarbiyani nafaqat bilim berish jarayoni, balki fikrlash madaniyatini shakllantirish vositasi sifatida ko'rib chiqishga zamin yaratadi.

Umuman olganda, Jaloliddin Rumi merosi aqliy tarbiya mazmunini boyituvchi, pedagogik jarayon samaradorligini oshiruvchi hamda shaxsning ichki intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqaruvchi muhim ilmiy-amaliy manba hisoblanadi. Uning g'oyalarini zamonaviy ta'lim tizimiga metodik jihatdan asoslangan holda integratsiya qilish aqliy tarbiyaning mazmun va shakllarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni: O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.
3. Izbullayeva G. V. Oliy ta'limda Jaloliddin Rumiyning ma'naviy merosidan foydalanish metodikasi. – Toshkent: «Navro'z» nashriyoti, 2015. – B. 16.
4. Izbullayeva G. V. Oliy ta'limda Jaloliddin Rumiyning ma'naviy merosidan foydalanish metodikasi. – Toshkent: «Navro'z» nashriyoti, 2015. – B. 13.
5. Leonard Lewisohn L. Rumi: Past and Present, East and West: The Life, Teaching and Poetry of Jalal al-Din Rumi. – Oxford: Oneworld Publications, 2000.
6. Toxtaxodjayeva M. X., Nishonova S., Hasanboyev J., Usmonboyeva M., Madiyarova S., Qoldibekova A., Nishonova N., Sayidahmedov N. Pedagogika: darslik. – Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. – B. 232.
7. William Chittick W. C. The Sufi Path of Love: The Spiritual Teachings of Rumi. – Albany: State University of New York Press, 1983.



PEDAGOGIKA

TIMSS TADQIQOTINING KONSEPTUAL-DIAGNOSTIK IMKONIYATLARI TAHLILI

DARVISHXO‘JAYEV ABDURASHID ABDULXAKIMOVICH

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti

Xalqaro tadqiqotlar markazi yetakchi mutaxassisi

Email: abdurashid.abdulgakimovich@gmail.com

UDK: 37.091.33

<https://orcid.org/0009-0004-1614-9536>

Kalit so‘zlar:

TIMSS, IEA
kurrikulum modeli,
kognitiv sohalar,
diagnostika,
psixometrik
monitoring, ta’lim
sifati, mulohaza
yuritish, dalillarga
asoslangan
boshqaruv,
matritsali model.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada TIMSS xalqaro baholash dasturining metodologik asoslari hamda uning ta’lim tizimidagi tizimli muammolarni aniqlashdagi diagnostik imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda IEA kurrikulum modelining uch darajali iyerarxiyasi (mo‘ljallangan, amalga oshirilgan va erishilgan) hamda kognitiv sohalar (bilish, qo‘llash, mulohaza yuritish) o‘rtasidagi matritsali bog‘liqlik ilmiy jihatdan asoslangan. TIMSS 2023 natijalari misolida O‘zbekiston ta’lim tizimida kuzatilayotgan kognitiv uzilishlar, xususan, o‘quvchilarda tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi hamda ta’lim jarayonining reproduktiv xarakterga moyilligi tahlil qilinadi. Maqola yakunida xalqaro baholash standartlarini milliy tizimga integratsiya qilish – ta’lim menejmentida “dalillarga asoslangan boshqaruv” mexanizmini joriy etishning fundamental omili ekanligi isbotlangan.

АНАЛИЗ КОНЦЕПТУАЛЬНО-ДИАГНОСТИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ИССЛЕДОВАНИЯ TIMSS

Ключевые слова:

TIMSS, модель
учебного плана
IEA, когнитивные
области,

Аннотация: В данной статье научно проанализированы методологические основы международной программы оценки TIMSS и ее диагностические возможности в выявлении системных проблем в системе образования. В исследовании научно обоснована матричная связь между



диагностика,
психометрический
мониторинг,
качество
образования,
рассуждение,
управление
на основе
фактических
данных,
матричная модель.

трехуровневой иерархией (предназначенной, реализованной и достигнутой) модели куррикулума IEA и когнитивными сферами (познание, применение, рассуждение). На примере результатов TIMSS 2023 анализируются когнитивные нарушения, наблюдаемые в системе образования Узбекистана, в частности, недостаточное формирование у учащихся навыков критического и логического мышления, а также склонность образовательного процесса к репродуктивному характеру. В заключение статьи доказано, что интеграция международных стандартов оценки в национальную систему является фундаментальным фактором внедрения механизма “управления, основанного на доказательствах” в образовательном менеджменте.

ANALYSIS OF THE CONCEPTUAL AND DIAGNOSTIC CAPABILITIES OF THE TIMSS STUDY

Keywords:

Mazkur maqolaning maqsadi matematika va informatika fanlarini integratsiyalash asosida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslarini yoritish, ushbu yondashuvning ta'lim jarayonidagi pedagogik ahamiyatini tahlil qilish hamda integratsiyalashgan ta'lim samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat. Shuningdek, maqolada fanlararo integratsiyaning o'quvchilarning bilimlarni chuqur o'zlashtirishi, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishi hamda bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy ta'lim tizimida fanlararo integratsiya, raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda o'quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish masalalari pedagogika fanining dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, matematika va informatika fanlarining o'zaro uyg'unligi o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, balki ularni amaliy faoliyatda samarali qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini ham kengaytiradi. Shu sababli ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy manbalarda matematika va informatika fanlarini integratsiyalash o'quvchilarning mantiqiy hamda algoritmik tafakkurini kompleks rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Integrativ yondashuv matematik tushunchalarni algoritmlash, dasturlash va modellashtirish jarayonlari bilan bog'lash orqali nazariy bilimlarning amaliy ahamiyatini kuchaytiradi. Xususan, F.M. Melsova va I.Ch. Shermanov o'z tadqiqotlarida matematik tushunchalarni dasturiy muhit yordamida modellashtirish asosida o'qitish o'quvchilarning tahliliy va tizimli fikrlash ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ilmiy jihatdan asoslab berganlar [1].

Matematika ta'limi metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda



o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish masalasi alohida e'tibor qaratilgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda matematik nutqni rivojlantirish, masalalarni mustaqil tahlil qilish, kuzatish, taqqoslash hamda umumlashtirish jarayonlari o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishda muhim didaktik omillar sifatida ko'rsatib o'tiladi. Jumladan, M.A. Abdullayev matematika ta'limida masala yechish faoliyati o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirish hamda ularni amaliy vaziyatlarda qo'llash kompetensiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [2].

So'nggi yillarda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar va STEM yo'nalishlariga bo'lgan qiziqishning ortib borishi ham ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayonining innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilishi o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, A.A. Saytniyozov sun'iy intellekt asosidagi adaptiv o'qitish tizimlari o'quvchilarning individual xususiyatlari, bilim darajasi va o'zlashtirish sur'atini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini moslashtirish imkonini berishini ta'kidlaydi [4, 280].

Ba'zi ilmiy tadqiqotlarda raqamli platformalar va sun'iy intellektga asoslangan o'qitish vositalari ta'lim jarayonini individuallashtirish, differensial yondashuvni kuchaytirish hamda o'quv jarayonini samarali boshqarish imkonini berishi qayd etilgan. Natijada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifati oshadi, mustaqil o'rganish va o'zini o'zi rivojlantirish ko'nikmalari shakllanadi [3, 312]. Shu bilan birga, bunday yondashuvlar o'quvchilarda STEM yo'nalishlariga nisbatan barqaror qiziqish va kasbiy motivatsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi.

Pedagogika va psixologiya sohasidagi tadqiqotlarda matematik tafakkurni rivojlantirish o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlanadi. Ilmiy manbalarda muammoli vaziyatlar yaratish, mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish hamda masala yechish faoliyatini samarali tashkil etish o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning asosiy didaktik shartlari sifatida e'tirof etiladi [5].

Mashhur pedagog K.D. Ushinskiy ta'lim jarayonida o'quvchilar diqqatini faollashtirishda yangilik, qiziqish va faollik muhim omil ekanligini ta'kidlagan [8]. Metodik manbalarda ham o'qitish metodlarini tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim darajasi hisobga olinishi, nazariya bilan amaliyot uyg'unligi ta'minlanishi zarurligi qayd etiladi [6]. Ayniqsa, matematik masalalarni yechish jarayoni bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish hamda mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim didaktik vosita sifatida e'tirof etiladi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy qarashlar matematika va informatika fanlarini integrativ hamda innovatsion yondashuvlar asosida o‘qitish o‘quvchilarning mantiqiy, tahliliy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik asos bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi. Shu bois matematika va informatika fanlarini integratsiyalash asosida o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta‘lim tizimida muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot umumdidaktik tamoyillar, fanlararo integratsiya nazariyasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim hamda rivojlantiruvchi ta‘lim konsepsiyalariga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida matematika va informatika fanlarining mazmuniy yaqinligi, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda o‘quvchilarda mantiqiy tafakkurni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari falsafiy, pedagogik va psixologik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot muammosining nazariy asoslarini aniqlash va integratsiyalashgan ta‘limning pedagogik ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayoni uch bosqichda amalga oshirildi:

Birinchi bosqich (tayyorgarlik bosqichi)da mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar o‘rganildi hamda tahlil qilindi. Matematika va informatika fanlarini integratsiyalashning nazariy asoslari, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari hamda fanlararo integratsiyaning didaktik imkoniyatlari aniqlashtirildi. Shu bilan birga, tadqiqotning dolzarbligi asoslandi hamda uning ob‘ekti, predmeti, maqsad va vazifalari belgilandi.

Ikkinchi bosqich (tahliliy bosqich)da matematika va informatika fanlarini integratsiyalashgan holda o‘qitishning o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuriga ta‘siri tizimli ravishda o‘rganildi. Ushbu bosqichda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida fanlararo integratsiyaning amaldagi holati, matematika va informatika fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlari hamda darsliklarning integratsion imkoniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, algoritmik fikrlash, matematik modellashtirish va dasturlash elementlarining o‘quvchilarning bilish faoliyatiga ta‘siri o‘rganildi.

Uchinchi bosqich (yakuniy bosqich)da olingan natijalar umumlashtirildi, ilmiy-nazariy xulosalar shakllantirildi hamda tadqiqot natijalari tizimlashtirilib maqola shaklida rasmiylashtirildi.

Tadqiqot maqsadiga erishish va qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun nazariy va empirik metodlar majmuasidan foydalanildi.

Nazariy metodlar:

Tahlil va sintez – matematika va informatika fanlarini integratsiyalash

muammosiga oid ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar hamda o'quv-metodik manbalarni o'rganish va umumlashtirish;

Qiyosiy tahlil – turli tadqiqotchilarning fanlararo integratsiya va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga oid ilmiy qarashlarini taqqoslash;

Mantiqiy umumlashtirish – o'rganilgan nazariy materiallar asosida ilmiy xulosalar shakllantirish;

Kontent-tahlil – mavzuga oid ilmiy maqolalar, metodik manbalar va o'quv materiallarini mazmuniy jihatdan tahlil qilish;

Tizimli tahlil – matematika va informatika fanlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda integratsiya jarayonining didaktik jihatlarini kompleks o'rganish.

Empirik metodlar:

Kuzatuv – umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematika va informatika darslarini kuzatish orqali integratsiya elementlarining amalda qo'llanilishini o'rganish;

O'quv dasturlari va darsliklar tahlili – matematika va informatika fanlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda darsliklarning integratsion imkoniyatlarini aniqlash;

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish – fanlararo integratsiyani qo'llash bo'yicha mavjud metodik yondashuvlar va ilg'or pedagogik tajribalarni tahlil qilish.

Umuman olganda, qo'llanilgan metodologiya matematika va informatika fanlarini integratsiyalash asosida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish jarayonini tizimli ravishda o'rganish, uning pedagogik samaradorligini aniqlash hamda amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Matematika va informatika fanlarini integratsiyalash asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining samaradorligini aniqlash maqsadida o'quvchilarning mantiqiy va algoritmik tafakkuri rivojlanish darajasi tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida integratsiyalashgan darslar an'anaviy ta'lim shakllari bilan qiyosiy tahlil qilinib, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyati hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalaridagi o'zgarishlar o'rganildi.

Tadqiqot natijalari matematika va informatika fanlarini o'zaro integratsiyalashgan holda o'qitish o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Integratsiyalashgan mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar matematik tushunchalarni algoritmik shaklda ifodalashga, masalalarni bosqichma-bosqich tahlil qilishga hamda turli yechim variantlari ichidan eng maqbulini tanlashga o'rganadilar. Bu esa

o'quvchilarning fikrlash jarayonida izchillik, aniqlik va tizimlilikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, integratsiyalashgan ta'lim shakllari o'quvchilarning bilish faolligini oshiradi hamda ularni ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Xususan, matematik masalalarni algoritmlar asosida tahlil qilish, dasturlash elementlari orqali yechish hamda modellashtirish jarayonlari o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Bunday yondashuv o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va o'z fikrini asoslab berish ko'nikmalarini shakllantiradi. Natijada o'quvchilar bilimlarni tayyor shaklda qabul qilmay, balki ularni mustaqil ravishda izlab topish va qo'llash jarayonida faol ishtirok etadilar.

Olingan natijalar shuningdek, integratsiyalashgan darslar o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirishini ko'rsatdi. An'anaviy darslarga nisbatan bunday mashg'ulotlarda o'quvchilarning faolligi yuqori bo'lib, ular nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa bilimlarning yanada chuqur o'zlashtirilishi hamda uzoq muddat xotirada saqlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Muhokama jarayonida olingan natijalar ilgari olib borilgan mahalliy va xorijiy tadqiqotlar natijalari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan ta'lim modeli ko'plab tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan nazariy qarashlar bilan uyg'unlashadi va ularning ilmiy xulosalarini tasdiqlaydi. Xususan, matematik modellashtirish va algoritmlash elementlariga asoslangan o'qitish usullari o'quvchilarning mantiqiy hamda algoritmik tafakkurini rivojlantirishda samarali ekanligi mazkur tadqiqot natijalari bilan ham tasdiqlandi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari integratsiyalashgan ta'limni samarali joriy etishda o'qituvchining metodik tayyorgarligi muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda o'qituvchidan matematika va informatika fanlari bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lish bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish ko'nikmalari talab etiladi. Mazkur omillar ta'lim jarayonining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari matematika va informatika fanlarini integratsiyalash asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Ushbu yondashuv zamonaviy ta'lim talablariga mos kelib, raqamli jamiyat sharoitida mustaqil fikrlaydigan, muammoli vaziyatlarni tahlil qila oladigan va amaliy

faoliyatda bilimlarini samarali qo‘llay oladigan shaxslarni shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, matematika va informatika fanlarini integratsiyalash asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayoni o‘quvchilarning mantiqiy, algoritmik va tahliliy tafakkurini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega. Fanlararo integratsiya o‘quvchilarga bilimlarni alohida fanlar doirasida emas, balki yagona tizim sifatida o‘zlashtirish imkonini beradi, bu esa muammoli vaziyatlarga mantiqiy va izchil yondashuvni ta‘minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, matematika va informatika fanlarini uzviy bog‘liq holda o‘qitish o‘quvchilarning bilish faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda bilimlarni amaliy faoliyatda samarali qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, matematik tushunchalarni algoritmlar va dasturlash vositalari yordamida o‘zlashtirish o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, integratsiyalashgan ta‘lim yondashuvi o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ta‘lim samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan darslar zamonaviy ta‘lim talablariga mos keladi va raqamli jamiyat sharoitida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan, muammoli vaziyatlarda o‘z yechimini topa oladigan shaxslarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, matematika va informatika fanlarini integratsiyalash ta‘lim jarayonini takomillashtirishning samarali vositasi bo‘lib, ushbu yondashuvni umumta‘lim maktablari, akademik litseylar va kasbiy ta‘lim muassasalarida keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Kelgusida integratsiyalashgan ta‘lim metodlarini yanada rivojlantirish, tajriba-sinov ishlarini kengaytirish va ularning amaliy samaradorligini chuqurroq tadqiq etish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мелсова Ф. М., Шерманов И. Ч. Развитие аналитического мышления учащихся на основе интеграции предметов математики и информатики // International Journal of Scientific Researchers. – 2025. – Vol. 14, Issue 2.
2. Abdullayev M. A. O‘quvchilarda matematika darslarida mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish // “Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida” respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. 2024.



3. Xolmatov S., Qodirov B. Matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – B. 312.
4. Abduqodirov A. A., Begimqulov U. Sh. Informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 280.
5. Saytniyozov A. A. Digital technologies and social changes: opportunities, risks, and economic impacts // Latin American Journal of Education. 2025. Vol. 5, No. 6. – P. 93-96.
6. Saytniyozov A. A. The history of the development of informatics and its role in the modern era // American Journal of Education and Learning. 2025. Vol. 3, No. 10. – P. 258-261.
7. Saytniyozov A. A. The current role of artificial intelligence // FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities. 2025. Vol. 13, No. 10. – P. 368-372.
8. Ушинский К. Д. Человек как предмет воспитания. – Ташкент: Учитель, 1992.



PEDAGOGIKA

NEYROPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA SHAXSNING KOGNITIV RIVOJLANISHINI SHAKLLANTIRISH

SHAMSIDDINOV G'YOSJON HUSNIDDIN O'G'LI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

“Pedagogika” kafedrası 1-kurs tayanch doktoranti

Email: giyosjonshamsiddinov95@gmail.com

UDK: 37.015.3:159.9

<https://orcid.org/0009-0007-7010-6264>

Kalit soʻzlar:

neyropedagogika, kognitiv rivojlanish, miya plastiklik xususiyati, taʼlim samaradorligi, individual oʻrganish.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada neyropedagogik yondashuv asosida shaxsning kognitiv rivojlanishini shakllantirish muammolari tizimli va kompleks tarzda tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida inson miyasi faoliyatining oʻquv jarayoniga taʼsiri chuqur oʻrganilib, diqqat, xotira, tafakkur va idrok kabi asosiy kognitiv jarayonlar hamda taʼlim samaradorligi oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik ilmiy-nazariy asosda asoslab berilgan. Shuningdek, neyropedagogikaning taʼlim jarayonini individuallashtirish, oʻquvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va oʻquv faoliyatini optimallashtirishdagi metodik imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari neyropedagogik yondashuvni taʼlim amaliyotiga joriy etish shaxsning kognitiv rivojlanishini izchil, tizimli va samarali shakllantirishda muhim omil ekanligini koʻrsatadi.

ФОРМИРОВАНИЕ КОГНИТИВНОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ НА ОСНОВЕ НЕЙРОПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Ключевые слова:

нейропедагогика, когнитивное развитие, пластичность мозга, эффективность

Аннотация:

В данной статье системно и комплексно анализируются проблемы формирования когнитивного развития личности на основе нейропедагогического подхода. В процессе исследования глубоко изучено влияние деятельности мозга человека на учебный процесс, на научно-теоретической основе обоснована неразрывная связь между такими основными



образования,
индивидуальное
обучение.

когнитивными процессами, как внимание, память, мышление и восприятие, а также эффективность образования. Также раскрыты методические возможности нейропедагогики в индивидуализации образовательного процесса, развитии интеллектуального потенциала учащихся и оптимизации учебной деятельности. Результаты исследования показывают, что внедрение нейропедагогического подхода в образовательную практику является важным фактором последовательного, системного и эффективного формирования когнитивного развития личности.

SHAPING THE COGNITIVE DEVELOPMENT OF AN INDIVIDUAL BASED ON A NEUROPEDAGOGICAL APPROACH

Keywords:

neuropedagogy,
cognitive
development,
brain plasticity,
educational
effectiveness,
individual learning.

Abstract:

This article systematically and comprehensively analyzes the problems of forming the cognitive development of the individual based on a neuropedagogical approach. In the research process, the influence of human brain activity on the educational process was deeply studied, and the close relationship between such basic cognitive processes as attention, memory, thinking, and perception, as well as the effectiveness of education, was substantiated on a scientific and theoretical basis. Also, the methodological possibilities of neuropedagogy in individualizing the educational process, developing the intellectual potential of students, and optimizing educational activities are revealed. The research results show that the introduction of a neuropedagogical approach into educational practice is an important factor in the consistent, systematic, and effective formation of a person's cognitive development.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi globallashev, raqamlashtirish va fanlararo integratsiya jarayonlari ta'sirida tubdan o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda ta'limning asosiy maqsadi shaxsda faqat bilimlar majmuasini shakllantirish bilan cheklanmay, balki uning kognitiv salohiyatini, mustaqil fikrlash qobiliyatini, muammoni tahlil qilish hamda kreativ yechimlar ishlab chiqish kompetensiyalarini rivojlantirishdan iboratdir.



Shu bois ta'lim jarayonida shaxsning kognitiv rivojlanishini ta'minlash masalasi pedagogika fanining ustuvor ilmiy yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda [9].

An'anaviy pedagogik yondashuvlarda o'quv jarayoni ko'pincha bilimlarni uzatish va ularni nazorat qilishga yo'naltiriladi. Bunda o'rganish jarayonining ichki mexanizmlari, xususan, inson miya faoliyatining neyrofizologik qonuniyatlari yetarli darajada hisobga olinmaydi. Natijada o'quvchilarda bilimlarni mexanik yodlash, kognitiv charchoqning ortishi, diqqatning tez susayishi hamda o'rganishga bo'lgan motivatsiyaning pasayishi kabi salbiy holatlar kuzatiladi. Bu esa ta'lim samaradorligining pasayishiga olib keladi.

So'nggi yillarda neyrofanlar, kognitiv psixologiya va pedagogika integratsiyasi asosida shakllangan neyropedagogika yo'nalishi ta'lim jarayonini inson miya faoliyatiga mos ravishda tashkil etish imkonini bermoqda. Neyropedagogika o'rganish jarayonida miya qanday ishlashi, axborotni qanday qabul qilishi, qayta ishlashi va xotirada saqlash mexanizmlarini tahlil qiladi hamda ushbu ilmiy bilimlarni pedagogik amaliyotga tatbiq etishni maqsad qiladi. Mazkur yondashuv shaxsning kognitiv rivojlanishini uning individual va tabiiy xususiyatlariga mos holda shakllantirish imkonini beradi.

Kognitiv rivojlanish shaxsning bilish jarayonlari – diqqat, idrok, xotira, tafakkur, nutq va metakognitiv qobiliyatlarning izchil hamda barqaror rivojlanishini anglatadi. Ushbu jarayonlar bevosita miya faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ularning samaradorligi neyronlararo aloqalarning faolligi, miya plastiklik xususiyatlari hamda emotsional holat bilan chambarchas bog'langan. Shu sababli kognitiv rivojlanishni shakllantirishda pedagogik ta'sirlar miya faoliyatining ilmiy asoslangan qonuniyatlariga mos bo'lishi zarur.

Neyropedagogik tadqiqotlar o'rganish jarayonida emotsional holat, motivatsiya va individual tajribaning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. O'quv materialining samarali o'zlashtirilishi uchun diqqatning faollashuvi, ishchi xotiraning optimal yuklanishi hamda ijobiy emotsional fon ta'minlanishi lozim. An'anaviy ta'lim amaliyotida esa mazkur omillar ko'pincha yetarli darajada e'tiborga olinmaydi. Natijada o'quvchilar o'z kognitiv imkoniyatlarini to'liq namoyon eta olmaydi.

Respublika miqyosidagi ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, neyropedagogika yo'nalishidagi tadqiqotlar asosan umumiy nazariy tavsif bilan cheklanmoqda. Shaxsning kognitiv rivojlanishini shakllantirishga qaratilgan aniq pedagogik mexanizmlar, neyrokognitiv indikatorlar hamda mualliflik modellarini ishlab chiqish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

Mazkur tadqiqotda neyropedagogik yondashuv asosida shaxsning kognitiv



rivojlanishini shakllantirish masalasi kompleks ilmiy muammo sifatida qaraladi. Tadqiqot doirasida kognitiv rivojlanishning neyroilmiy asoslari, pedagogik mexanizmlari hamda ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mualliflik konseptual modeli ishlab chiqish orqali mazkur muammoni hal etishga qaratilgan ilmiy yangilik taklif etiladi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda neyropedagogik yondashuv asosida kognitiv rivojlanishni shakllantirishning nazariy va metodologik asoslari tizimlashtiriladi. Amaliy jihatdan esa tadqiqot natijalari o'quv jarayonini samarali tashkil etish, o'qituvchilarning neyropedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta'lim sifatini oshirishda qo'llanilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonini inson miya faoliyatining ilmiy asoslangan qonuniyatlariga mos ravishda tashkil etishga yo'naltirilgan neyropedagogik yondashuv shaxsning kognitiv rivojlanishini shakllantirishda muhim metodologik asos sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq respublika miqyosidagi ilmiy tadqiqotlarda neyropedagogik yondashuvning kognitiv rivojlanishga ta'siri hali ham tizimli va kompleks tarzda yetarli darajada o'rganilmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Neyropedagogik yondashuv zamonaviy pedagogika fanining integrativ yo'nalishlaridan biri bo'lib, u neyrobiologiya, kognitiv psixologiya hamda ta'lim nazariyasining o'zaro uyg'unlashuvi asosida shakllangan. Ushbu yondashuvning metodologik asoslari XX asrning ikkinchi yarmida kognitiv fanlar rivoji bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga kelgan bo'lib, o'rganish jarayonini inson miya faoliyati bilan integratsiyalash zaruratini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Shaxsning kognitiv rivojlanishi masalasi dastlab klassik psixologik maktab vakillari tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Lev Vygotsky o'zining madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida bilish jarayonlarining ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liqligini asoslab berdi. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi ta'lim jarayonida shaxsning intellektual o'sishini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ilmiy asoslashda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi [1].

Kognitiv rivojlanishning bosqichma-bosqich shakllanishi masalasi Jean Piaget tomonidan ishlab chiqilgan nazariyada atroflicha yoritilgan. Piagetning ta'kidlashicha, tafakkur tuzilmalari ontogenez jarayonida evolyutsion tarzda rivojlanadi hamda bilish faoliyati muayyan yosh bosqichlariga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Mazkur nazariya ta'lim jarayonini yosh va individual xususiyatlarga mos ravishda tashkil etish zarurligini ko'rsatadi [2].

Neyropedagogik yondashuvning amaliy jihatlari Eric Jensen tomonidan ilgari

surilgan “Brain-Based Learning” konsepsiyasida o‘z ifodasini topgan. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, ta‘lim jarayoni miya faoliyati qonuniyatlariga mos ravishda tashkil etilishi lozim. Jensen ta‘lim jarayonida stressni minimallashtirish, ijobiy emotsional muhit yaratish hamda o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlash orqali kognitiv rivojlanishni jadallashtirish mumkinligini ta‘kidlaydi [5].

Xalqaro miqyosda neyrofan va ta‘lim integratsiyasi masalasi OECD tomonidan e‘lon qilingan “Understanding the Brain: Towards a New Learning Science” hisobotida ham keng yoritilgan. Mazkur hujjatda neyroilmiy tadqiqotlar natijalaridan ta‘lim siyosatini ishlab chiqishda foydalanishning strategik ahamiyati alohida qayd etiladi hamda fanlararo integratsiya zarurligi asoslab beriladi [7].

O‘zbekiston olimlari tomonidan ham pedagogik texnologiyalar va shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim masalalari keng tadqiq etilgan. Xususan, B. Xodjayev va A. Abduqodirovlarning ilmiy ishlari zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini joriy etish orqali o‘quvchilarning bilish jarayonlarini rivojlantirish imkoniyatlarini ochib beradi [8]. Biroq ushbu tadqiqotlarda neyropedagogik yondashuvning kognitiv rivojlanish bilan bevosita integratsiyasi masalasi hali yetarli darajada tizimli yoritilmagan.

Shunday qilib, tahlil qilingan ilmiy manbalar neyropedagogik yondashuvning nazariy asoslari klassik psixologik konsepsiyalar hamda zamonaviy neyroilmiy tadqiqotlar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda neyropedagogik yondashuv asosida shaxsning kognitiv rivojlanishini shakllantirishning tizimli pedagogik modeli va amaliy mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy zarurati va dolzarbligini belgilaydi hamda neyropedagogik yondashuvni chuqurroq o‘rganish zaruratini asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot neyropedagogik yondashuv asosida shaxsning kognitiv rivojlanishini shakllantirish masalasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga yo‘naltirilgan bo‘lib, tadqiqot dizayni nazariy-analitik va konseptual modellashtirish xarakteriga ega. Tadqiqot jarayonida empirik tajriba-sinov ishlari o‘tkazilmagan bo‘lsa-da, tanlangan metodlar ilmiy xulosalarning ishonchliligi hamda mantiqiy asoslanganligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Metodologik nuqtai nazardan tadqiqot sistemali, shaxsga yo‘naltirilgan va neyroilmiy yondashuvlar uyg‘unligiga tayanadi. Bu esa shaxs kognitiv rivojlanishini nafaqat pedagogik jarayon, balki biologik va psixologik mexanizmlar bilan bog‘liq murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Nazariy tahlil metodi: Mazkur metod orqali neyropedagogika, kognitiv



rivojlanish, miya plastiklik xususiyati hamda o'rganish jarayonining neyrofiziologik asoslariga oid ilmiy manbalar chuqur tahlil qilindi. Nazariy tahlil jarayonida mahalliy va xorijiy tadqiqotlar o'rganilib, ularning asosiy g'oyalari tizimlashtirildi. Ushbu metod tadqiqot muammosining ilmiy kontekstini aniqlash hamda mavjud ilmiy qarashlar o'rtasidagi umumiylik va farqlarni belgilashga xizmat qildi. Shuningdek, nazariy tahlil an'anaviy pedagogik yondashuvlar bilan neyropedagogik yondashuvni qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi. Bu esa ilgari surilayotgan g'oyaning ilmiy asoslanganligini mustahkamladi.

Taqqoslash (komparativ) metodi: Taqqoslash metodi yordamida kognitiv rivojlanishni shakllantirishda qo'llaniladigan an'anaviy pedagogik metodlar va neyropedagogik yondashuv asosidagi metodlar solishtirildi. Ushbu metod shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sir etuvchi pedagogik omillarning samaradorligini nazariy jihatdan baholashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Taqqoslash jarayonida quyidagi mezonlar asos qilib olindi:

- diqqatni faollashtirish darajasi;
- ishchi va uzoq muddatli xotira jarayonlariga ta'siri;
- tafakkur hamda muammo yechish qobiliyatlarining rivojlanishi;
- o'rganishga bo'lgan motivatsiya va emotsional holat.

Tizimli yondashuv metodi: Tizimli yondashuv shaxsning kognitiv rivojlanishini murakkab va ko'p komponentli jarayon sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Ushbu metod asosida kognitiv rivojlanishning tarkibiy qismlari (diqqat, xotira, tafakkur, metakognitsiya) o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Tizimli yondashuv doirasida neyropedagogik ta'sir mexanizmlarining o'zaro aloqadorligi hamda ularning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuv imkoniyatlari aniqlashtirildi. Bu esa mualliflik konseptual modelini ishlab chiqishda metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Umumlashtirish va abstraksiyalash metodlari: Ushbu metodlar yordamida neyropedagogika sohasidagi turli ilmiy qarashlar umumlashtirildi hamda muhim nazariy xulosalar chiqarildi. Abstraksiyalash jarayonida ikkinchi darajali omillar chetga surilib, kognitiv rivojlanishga bevosita ta'sir etuvchi asosiy mexanizmlar ajratib ko'rsatildi. Umumlashtirish natijasida shaxsning kognitiv rivojlanishini shakllantirishda neyropedagogik yondashuvning ustuvor jihatlari aniqlanib, ular ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqotda shaxs kognitiv rivojlanishini baholash uchun neyrokognitiv indikatorlar majmuasi konseptual darajada asoslandi. Mazkur indikatorlar quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- diqqatning barqarorligi va selektivligi;
- ishchi xotiraning samaradorligi;

- axborotni qayta ishlash tezligi;
- tafakkurning moslashuvchanligi;
- metakognitiv refleksiya darajasi.

Ushbu indikatorlar empirik oʻlchovlar bilan tekshirilmagan boʻlsa-da, ilmiy-nazariy tahlil asosida shakllantirildi va kelgusida tajriba-sinov ishlarida qoʻllash imkoniyatini beradi.

NATIJALAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, neyropedagogik yondashuv asosida shaxsning kognitiv rivojlanishini shakllantirish jarayoni murakkab, koʻp bosqichli va tizimli xarakterga ega. Oʻtkazilgan nazariy tahlil, taqqoslash va modellashtirish natijalari shaxs kognitiv rivojlanishiga taʼsir etuvchi asosiy neyropedagogik mexanizmlarni aniqladi va ularning pedagogik jarayondagi funksional rolini ilmiy asos bilan tasdiqladi.

1. Kognitiv rivojlanishga taʼsir etuvchi neyropedagogik mexanizmlar.

Tadqiqot natijalariga koʻra, neyropedagogik yondashuv shaxsning kognitiv rivojlanishiga bevosita va bilvosita taʼsir etuvchi bir qator mexanizmlarni faollashtiradi. Ushbu mexanizmlar quyidagi asosiy yoʻnalishlarda namoyon boʻladi:

Diqqat jarayonining faollashuvi: Nazariy tahlil natijalari shuni koʻrsatdiki, neyropedagogik yondashuv asosida tashkil etilgan taʼlim jarayoni diqqatning barqarorligi va selektivligini oshiradi. Oʻquv materialining miya faoliyatiga mos tarzda tuzilishi, axborot hajmining optimal taqsimlanishi va sensor kanallarning uygʻun ishlatilishi diqqatni faollashtiruvchi asosiy omillar sifatida aniqlanadi.

Diqqatning faollashuvi kognitiv rivojlanishning boshlangʻich nuqtasi boʻlib, u orqali boshqa bilish jarayonlarining samaradorligi oshadi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, diqqatni hisobga olmagan taʼlim metodlari kognitiv rivojlanishni cheklab qoʻyadi.

Xotira jarayonlarining takomillashuvi: Neyropedagogik yondashuv asosida axborotni qayta ishlash jarayoni ishchi xotira va uzoq muddatli xotira oʻrtasidagi bogʻliqlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalariga koʻra, axborotni emotsional jihatdan boyitish, vizual va mantiqiy bogʻlanishlarni kuchaytirish xotira jarayonlarini samarali faollashtiradi. Xususan, miya plastiklik xususiyatlariga mos pedagogik taʼsirlar bilimlarning mustahkam oʻzlashtirilishini taʼminlaydi, kognitiv rivojlanishning barqarorligini oshiradi va bilimlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishiga imkon yaratadi.

Tafakkur va muammo yechish qobiliyatlarining rivojlanishi: Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, neyropedagogik yondashuv tafakkur jarayonlarini rivojlantirishda



muhim omil hisoblanadi. O‘rganish jarayonida analitik, tanqidiy va kreativ tafakkurni faollashtirishga qaratilgan metodlar shaxsning kognitiv rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Neyropedagogik yondashuv muammo yechish jarayonida miya faoliyatining turli zonalarini bir vaqtda faollashtirish imkonini beradi, bu esa tafakkurning moslashuvchanligi va samaradorligini oshiradi.

Metakognitiv jarayonlarning shakllanishi: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, neyropedagogik yondashuv shaxsda metakognitiv refleksiyaning rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchi o‘z o‘rganish jarayonini anglay boshlaydi, bilimlarni qanday o‘zlashtirayotganini tahlil qiladi va o‘qish strategiyalarini ongli ravishda boshqaradi.

Metakognitiv qobiliyatlarning rivojlanishi kognitiv rivojlanishning yuqori bosqichi hisoblanib, ta‘lim jarayonining samaradorligini uzoq muddatli nuqtai nazardan ta‘minlaydi.

2. Kognitiv rivojlanishni shakllantirishning mualliflik konseptual modeli.

Tadqiqot davomida olingan natijalar asosida neyropedagogik yondashuv yordamida shaxsning kognitiv rivojlanishini shakllantirishning mualliflik konseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu model quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

- Neyroilmiy asos – miya plastiklik xususiyatlari, neyronlararo aloqalar va emotsional ta‘sir mexanizmlari;
- Kognitiv komponent – diqqat, xotira, tafakkur va metakognitsiya;
- Pedagogik ta‘sir vositalari – metodlar, texnologiyalar va o‘qitish strategiyalari;
- Natijaviy komponent – barqaror kognitiv rivojlanish va o‘rganish samaradorligi.

Mazkur model ta‘lim jarayonida kognitiv rivojlanishni tizimli ravishda shakllantirish imkonini beradi va kelgusida empirik tadqiqotlar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

3. Neyrokognitiv indikatorlar tizimi.

Tadqiqot natijalari asosida shaxs kognitiv rivojlanishini baholash uchun neyrokognitiv indikatorlar majmuasi taklif etildi. Ushbu indikatorlar quyidagi ko‘rsatkichlarni qamrab oladi:

- diqqatning barqarorligi va boshqaruv darajasi;
- ishchi xotiraning sig‘imi va samaradorligi;
- axborotni qayta ishlash tezligi;
- tafakkurning moslashuvchanligi;
- metakognitiv refleksiya darajasi.

Mazkur indikatorlar empirik o‘lchovlar bilan boyitilishi mumkin bo‘lib, ular neyropedagogik yondashuvning samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb

etadi.

4. Neyropedagogik yondashuvning ta'lim samaradorligiga ta'siri.

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, neyropedagogik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni ta'lim samaradorligini oshiradi. O'quvchilar bilimlarni ongli va mazmunli o'zlashtiradi, o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiya kuchayadi va kognitiv charchoq kamayadi.

Shuningdek, neyropedagogik yondashuv shaxsning individual kognitiv xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi, bu esa differensial va individual ta'limni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot neyropedagogik yondashuv asosida shaxsning kognitiv rivojlanishini shakllantirish masalasini nazariy va empirik jihatdan kompleks tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayonida miya faoliyatining neyrofiziologik va kognitiv mexanizmlarini hisobga olish o'quvchilarning bilish jarayonlari – idrok, diqqat, xotira, tafakkur va metakognitiv kompetensiyalarining samarali rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

Birinchidan, neyropedagogik tamoyillar asosida tashkil etilgan ta'lim muhiti an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan o'quvchilarning kognitiv faolligini oshiradi va bilimlarni chuqurroq hamda barqarorroq o'zlashtirishni ta'minlaydi. Xususan, ko'pkanalli (multisensor) ta'lim, emotsional jihatdan qulay o'quv muhiti, refleksiv va metakognitiv mashg'ulotlarning tizimli qo'llanilishi o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, tadqiqot natijalari shaxsning kognitiv rivojlanishi individual neyropsixologik xususiyatlar bilan uzviy bog'liqligini tasdiqladi. O'quvchilarning yoshi, individual rivojlanish sur'ati, kognitiv uslubi va neyropsixologik holatini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni differensial va inkluziv ta'lim samaradorligini oshiradi. Bu holat neyropedagogik yondashuvning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi bilan metodologik jihatdan uyg'un ekanini ko'rsatadi.

Uchinchidan, tadqiqot davomida ishlab chiqilgan neyropedagogik model va metodik tavsiyalar ta'lim amaliyotiga joriy etish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi. Modelda kognitiv rivojlanishni bosqichma-bosqich qo'llab-quvvatlash, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi interaktiv hamkorlikni kuchaytirish, refleksiya va o'z-o'zini nazorat qilish mexanizmlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu model pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalar va

zamonaviy didaktik yondashuvlar bilan integratsiyalashgan holda samarali natija beradi.

To‘rtinchidan, tadqiqot natijalari neyropedagogikaning nafaqat ta‘lim sifati, balki shaxsning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini isbotladi. Kognitiv rivojlanishning yaxlit modeli orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, kreativlik va tanqidiy tafakkur kabi XXI asr kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydi: neyropedagogik yondashuvni ta‘lim tizimiga joriy etish ilmiy asoslangan va istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, shaxsning kognitiv rivojlanishini shakllantirish jarayoni neyropedagogik nuqtayi nazardan tizimli ravishda asoslab berildi va amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan model taklif etildi.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlar doirasida neyropedagogik yondashuvni raqamli ta‘lim muhitlari, sun‘iy intellektga asoslangan adaptiv o‘qitish tizimlari va kasbiy ta‘lim jarayonlariga integratsiya qilish masalalarini chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bu esa ta‘lim tizimining ilmiylik darajasini oshirish va shaxsning kognitiv rivojlanishini samarali ta‘minlashga xizmat qiladi

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
2. Piaget J. The Psychology of Intelligence. London: Routledge, 1950.
3. Gazzaniga M. Cognitive Neuroscience: The Biology of the Mind. – Cambridge: MIT Press, 2019.
4. Tokuhamma-Espinosa T. Mind, Brain, and Education Science. – New York: W.W. Norton, 2019.
5. Jensen E. Brain-Based Learning. – Thousand Oaks: Corwin Press, 2020.
6. Sousa D.A. How the Brain Learns. – California: Corwin, 2017.
7. OECD. Understanding the Brain: Towards a New Learning Science. – Paris: OECD Publishing, 2018.
8. Xodjayev B. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
9. Abduqodirov A.A. Zamonaviy ta‘lim texnologiyalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
10. Shamsiddinov G.H. “Ta‘lim jarayonida simulyatsion dasturiy vositalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini oshirish” // Filologiya va Pedagogika ilmiy-metodik elektron jurnali. 7, 2025. URL: <https://tilvaadabiyot.uz/bosh-sahifa/product/filologiya-va-pedagogika-elektron-jurnali-2025-yil-10-14-son>



11. Shamsiddinov G.H. “Ta’lim jarayonida pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini oshirish” // Filologiya va Pedagogika ilmiy-metodik elektron jurnali. 6, 2025. URL: <https://tilvaadabiyot.uz/bosh-sahifa/product/filologiya-va-pedagogika-elektron-jurnali-2025-yil-11-15-son>
12. Shamsiddinov G.H. “Ta’lim jarayonida grafik dasturiy vositalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini oshirish” // Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. 4, 2025. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17474403>

PEDAGOGIKA

INTERAKTIV O‘QUV METODLARI VA TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TALABALARDA VATANPARVARLIK TUYG‘ULARINI RIVOJLANTIRISH

ISMOILOV BEHRUZ ISROILOVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasida stajyor-o‘qituvchisi

Email: ubegzod51@gmail.com

UDK: 37.034

<https://orcid.org/0009-0008-4054-5845>

Kalit so‘zlar:

interaktiv metodlar,
pedagogik
texnologiyalar,
vatanparvarlik,
milliy qadriyatlar,
ta’lim jarayoni,
innovatsion
yondashuv,
fuqarolik mas’uliyati.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada interaktiv o‘quv metodlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida talabalarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Ta’lim jarayonida “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Munozara”, “Rol o‘ynash” hamda “Keystadi” kabi interaktiv metodlardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilingan. Mazkur metodlar orqali talabalar ongida milliy qadriyatlar, tarixiy meros va fuqarolik mas’uliyati tushunchalarini mustahkamlash imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, raqamli ta’lim texnologiyalari, multimedia vositalari va innovatsion pedagogik yondashuvlarning yoshlar dunyoqarashini kengaytirishdagi o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish va mustahkamlashda samarali vosita hisoblanadi.

РАЗВИТИЕ ПАТРИОТИЧЕСКИХ ЧУВСТВ У СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ И ТЕХНОЛОГИЙ

Ключевые слова:

интерактивные
методы,

Аннотация:

В данной статье рассматриваются вопросы формирования и развития у студентов патриотических чувств с использованием интерактивных методов

педагогические технологии, патриотизм, национальные ценности, образовательный процесс, инновационный подход, гражданская ответственность.

обучения и современных педагогических технологий. Проанализирована эффективность применения таких интерактивных методов, как «мозговой штурм», «кластер», «дискуссия», «ролевая игра» и «кейс-стади» в образовательном процессе. Обоснованы возможности укрепления в сознании студентов понятий национальных ценностей, исторического наследия и гражданской ответственности с помощью указанных методов. Также раскрыта роль цифровых образовательных технологий, мультимедийных средств и инновационных педагогических подходов в расширении мировоззрения молодежи. Результаты исследования показывают, что образовательный процесс, организованный на основе интерактивных методов, способствует развитию навыков самостоятельного мышления студентов и является эффективным средством формирования и укрепления их патриотических чувств.

DEVELOPING PATRIOTIC FEELINGS IN STUDENTS THROUGH INTERACTIVE LEARNING METHODS AND TECHNOLOGIES

Keywords:

interactive methods, pedagogical technologies, patriotism, national values, educational process, innovative approach, civil responsibility.

Abstract:

This article examines the formation and development of patriotic feelings in students through the use of interactive learning methods and modern pedagogical technologies. The effectiveness of applying interactive methods such as brainstorming, clustering, discussion, role-playing, and case study in the educational process is analyzed. The study substantiates the opportunities for strengthening students' understanding of national values, historical heritage, and civic responsibility through these methods. It also highlights the role of digital educational technologies, multimedia tools, and innovative pedagogical approaches in broadening the worldview of young people. The research findings indicate that an educational process organized on the basis of interactive methods not only develops students' independent thinking skills but also serves as an effective means of forming and strengthening their patriotic feelings.



KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma'naviy yetuk va vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashni dolzarb vazifalardan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirish davlat hamda jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Zero, yoshlarning vatanga bo'lgan muhabbati, milliy qadriyatlarga hurmati va fuqarolik mas'uliyati mamlakatning barqaror rivojlanishi va ijtimoiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, zamonaviy ta'lim tizimida nafaqat bilim berish, balki talabalarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda an'anaviy o'qitish usullari bilan bir qatorda interaktiv o'quv metodlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Interaktiv metodlar talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ularning dars jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash orqali bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, mazkur metodlar talabalarda milliy g'urur, fuqarolik pozitsiyasi va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ta'lim jarayonida muammoli ta'lim, bahs-munozara, "aqliy hujum", rol o'ynash hamda loyiha asosida o'qitish kabi interaktiv metodlardan foydalanish talabalarning nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki ularning ijtimoiy faolligi va vatanga sadoqat tuyg'ularini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishga, talabalarning ijodiy fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Mazkur maqolada interaktiv o'quv metodlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari, ularning ta'lim jarayonidagi o'rni hamda samarali qo'llash mexanizmlari atroflicha tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish masalasi pedagogika, psixologiya va ijtimoiy fanlar kesishmasida kompleks tarzda o'rganilib kelinmoqda. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi davrda O'zbekiston ta'lim tizimida milliy qadriyatlar, fuqarolik tarbiyasi va vatanparvarlikni rivojlantirish masalalariga alohida



e'tibor qaratildi. Bu esa mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borishni yanada dolzarb etib qo'ydi.

Vatanparvarlik tarbiyasining nazariy asoslari Sharq mutafakkirlari merosida ham muhim o'rin egallaydi. Xususan, Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyat taraqqiyoti va komil inson tarbiyasi o'zaro uzviy bog'liqligi ilmiy asoslab berilgan bo'lib, unda shaxsning ijtimoiy mas'uliyati, jamiyatga sadoqati va ma'naviy yetukligi muhim fazilatlar sifatida talqin etiladi [1, 25]. Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy va Alisher Navoiy asarlarida ham yurtga muhabbat, milliy o'zlikni anglash va ma'naviy barkamollik g'oyalari keng yoritilgan [2, 105].

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda interaktiv metodlar ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Xususan, John Dewey ta'lim jarayonida tajriba, faol ishtirok va amaliy faoliyat tamoyillarini asoslab, o'quvchini passiv tinglovchidan faol subyektga aylantirish zarurligini ta'kidlaydi [3, 76]. Uning pedagogik qarashlari bugungi kunda interaktiv o'qitish metodlarining nazariy asosini tashkil etadi.

Shuningdek, Lev Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bilim, ko'nikma va qadriyatlar ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi [4, 87]. Shu nuqtai nazardan, talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishda hamkorlikda o'qitish, bahs-munozara, loyihaviy faoliyat kabi interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy pedagog olimlar – N. Azizxo'jayeva va B. Qodirov tadqiqotlarida interaktiv metodlarning tarbiyaviy imkoniyatlari hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ustuvor jihatlari atroflicha yoritilgan [5, 64]. Ularning fikricha, "aqliy hujum", "bahs-munozara", "rol o'ynash", "klaster" kabi metodlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etish masalalari ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, masofaviy ta'lim platformalari, multimedia vositalari va virtual ta'lim muhitidan foydalanish talabalarning tarixiy ongini rivojlantirish, milliy identifikatsiyasini mustahkamlash hamda ularning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish imkonini beradi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, interaktiv o'quv metodlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabalarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ijtimoiy va ma'naviy fazilatlarni, xususan, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qo'yilgan maqsadga erishish uchun kompleks yondashuv asosida turli ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish orqali vatanparvarlik tarbiyasining nazariy asoslari, uning mazmun-mohiyati hamda shakllanish bosqichlari atroflicha o'rganildi. Shuningdek, interaktiv ta'lim metodlariga oid ilmiy manbalar qiyosiy tahlil qilinib, ularning tarbiyaviy imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Empirik tadqiqot metodlari doirasida talabalar o'rtasida so'rovnomma (anketa) o'tkazilib, ularning vatanparvarlikka oid qarashlari, qadriyatlari va fuqarolik pozitsiyasi o'rganildi. Pedagogik kuzatuv orqali talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligi, ijtimoiy munosabatlari hamda interaktiv metodlarga bo'lgan munosabati tahlil qilindi. Suhbat va intervyu metodlari esa olingan natijalarni chuqurlashtirish, ularning sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash imkonini berdi.

Tajriba-sinov ishlari Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1-2-bosqich talabalari ishtirokida tashkil etildi. Tajriba jarayonida interaktiv o'quv metodlarining vatanparvarlik tarbiyasiga ta'sirini aniqlash maqsadida maxsus ishlab chiqilgan pedagogik dastur asosida mashg'ulotlar olib borildi. Ushbu mashg'ulotlarda "aqliy hujum", "debat", "keys-stadi", "rol o'ynash" hamda loyihaviy ta'lim texnologiyasi kabi metodlardan tizimli va maqsadli foydalanildi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

- diagnostik bosqichda talabalarning vatanparvarlik tuyg'ularining boshlang'ich darajasi, ularning milliy qadriyatlarga munosabati hamda fuqarolik mas'uliyati aniqlab olindi;
- shakllantiruvchi bosqichda interaktiv metodlar asosida maxsus tashkil etilgan mashg'ulotlar orqali talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik ta'sir amalga oshirildi;
- nazorat bosqichida esa olingan natijalar tahlil qilinib, dastlabki ko'rsatkichlar bilan taqqoslandi va metodlarning samaradorligi baholandi.

Natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik metodlardan foydalanilib, xususan foiz ko'rsatkichlari asosida tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish hamda diagramma va jadvallar yordamida natijalarni vizuallashtirish amalga oshirildi.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatga asoslangan yondashuv hamda kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar talabalarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi va vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Mazkur tadqiqotda interaktiv o'quv metodlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish samaradorligi kompleks tarzda o'rganildi. Tajriba-sinov ishlari oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida tashkil etilib, unda nazorat va tajriba guruhlarida asosida qiyosiy tahlil olib borildi.

Tadqiqot jarayonida "Aqliy hujum", "Debat", "Keys-stadi", "Klaster", "Rol o'ynash" kabi interaktiv metodlar hamda raqamli ta'lim texnologiyalaridan tizimli foydalanildi. Ushbu yondashuvlar talabalarning o'quv jarayoniga faol jalb etilishini ta'minlab, ularning mavzuga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirdi. Natijada talabalar tarixiy meros, milliy qadriyatlar, davlat ramzlari va fuqarolik burchiga oid tushunchalarni chuqurroq anglay boshladilar hamda ularga nisbatan ongli munosabat shakllandi.

Tajriba guruhida o'tkazilgan diagnostik tahlillar va so'rovnomalar natijalari ijobiy dinamikani namoyon etdi. Xususan, talabalarning:

- Vatanga sadoqat, milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyati haqidagi bilimlari tizimlashdi;
- mustaqil fikrlash, tahlil qilish va o'z pozitsiyasini asoslab berish ko'nikmalari rivojlandi;
- jamoada ishlash va muloqot madaniyati darajasi oshdi;
- ijtimoiy faolligi va jamiyat hayotiga daxldorlik hissi kuchaydi.

Mazkur o'zgarishlar natijaviy ko'rsatkichlarda ham o'z aksini topdi. Nazorat va tajriba guruhlarida o'rtasidagi yakuniy natijalar qiyoslanganda, tajriba guruhida vatanparvarlik kompetensiyasining shakllanish darajasi sezilarli darajada yuqori ekanini aniqlandi. Xususan, yuqori darajadagi ko'rsatkichlar ulushi tajriba guruhida 20 foizdan 48 foizgacha oshgan bo'lsa, past darajadagi ko'rsatkichlar 36 foizdan 14 foizgacha kamaygan. Bu esa interaktiv metodlarning samaradorligini aniq ko'rsatadi.

1-jadval

Talabalarda vatanparvarlik kompetensiyasining shakllanish darajasi (% hisobida)

Ko'rsatkich darajasi	Nazorat (boshlang'ich)	Nazorat (yakuniy)	Tajriba (boshlang'ich)	Tajriba (yakuniy)
Yuqori	18 %	22 %	20 %	48 %
O'rta	46 %	50 %	44 %	38 %
Past	36 %	28 %	36 %	14 %

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, nazorat guruhida o'zgarishlar nisbatan past darajada bo'lgan bo'lsa, tajriba guruhida keskin ijobiy o'sish kuzatilgan. Ayniqsa, yuqori darajadagi ko'rsatkichlarning ortishi va past darajadagi ko'rsatkichlarning kamayishi interaktiv yondashuvning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, vatanparvarlik kompetensiyasining tarkibiy komponentlari bo'yicha ham sezilarli o'zgarishlar qayd etildi:

2-jadval.

Vatanparvarlik kompetensiyasi tarkibiy ko'rsatkichlarining o'zgarishi

№	Ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
1	Milliy qadriyatlarga hurmat	+4 %	+26 %
2	Fuqarolik mas'uliyati	+5 %	+28 %
3	Ijtimoiy faollik	+3 %	+24 %
4	Mustaqil fikrlash va pozitsiya bildirish	+6 %	+30 %
5	Davlat ramzlariga hurmat	+4 %	+22 %

Ushbu ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhida barcha komponentlar bo'yicha o'sish darajasi nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori. Ayniqsa, mustaqil fikrlash va fuqarolik mas'uliyati ko'rsatkichlarining sezilarli darajada oshishi interaktiv metodlarning shaxsiy rivojlanishga bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, mashg'ulotlar jarayonida milliy tarix va madaniyatga oid mavzularni interaktiv shaklda o'rganish talabalarda O'zbekiston taraqqiyoti, uning boy ma'naviy merosi va zamonaviy islohotlariga nisbatan barqaror qiziqishni shakllantirdi. Talabalar o'z fikrlarida mamlakat ravnaqiga shaxsiy hissa qo'shish zarurligini alohida ta'kidladilar.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari interaktiv o'qitish metodlari va innovatsion pedagogik texnologiyalar talabalarda nafaqat bilimlarni chuqurlashtirish, balki vatanparvarlik kabi yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda samarali vosita ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot yakunida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarni ta'lim amaliyotiga keng joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari interaktiv o'quv metodlari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirishning samarali vositasi ekanligini isbotladi. Tajriba-sinov ishlari davomida "Aqliy hujum", "Debat", "Keys-

stadi”, “Rol o‘ynash”, “Klaster” kabi metodlardan kompleks foydalanish talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligini oshirib, ularning mavzuga nisbatan ongli, mas’uliyatli va faol munosabatini shakllantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida talabalarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlar izchil ravishda kuzatildi:

- milliy qadriyatlarga hurmat va Vatanga sadoqat tuyg‘ularining mustahkamlanishi;
- fuqarolik pozitsiyasining shakllanishi hamda ijtimoiy faollikning ortishi;
- mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishi;
- jamoada ishlash malakalari va muloqot madaniyatining yuksalishi.

Interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning O‘zbekiston taraqqiyoti, uning boy tarixiy-madaniy merosi hamda zamonaviy islohotlariga nisbatan barqaror qiziqishini kuchaytirdi. Natijada ularda Vatan ravnaqiga daxldorlik hissi, shuningdek, jamiyat oldidagi shaxsiy mas’uliyat tuyg‘usi shakllandi.

Nazorat va tajriba guruhlarini natijalarining qiyosiy tahlili interaktiv yondashuv qo‘llanilgan guruhda vatanparvarlik kompetensiyasining yuqori darajasi sezilarli oshganini ko‘rsatdi. Ushbu natijalar ilgari surilgan ilmiy farazning to‘g‘riligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Umuman olganda, interaktiv o‘quv metodlari va innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning nafaqat bilim saviyasini oshirish, balki ularning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini, xususan, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish va rivojlantirishda muhim pedagogik omil ekanligi aniqlandi. Shu bois mazkur yondashuvni oliy ta’lim tizimida keng joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Forobiy A. N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent.: Fan, 1993. – B. 224.
2. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2005. – B. 160.
3. Vygotsky L. S. Mind in Society. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – P. 159.
4. Azizxo‘jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent.: TDPU, 2006. – 192 b.
5. Axmedov A. A. Oliy ta’limda interaktiv metodlar va ularning samaradorligi. – Toshkent: Ta’lim nashriyoti, 2018. – B. 145.

PEDAGOGIKA

TA'LIM JARAYONIDA DASTURIY TA'MINOT VOSITALARINING ROLI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

TURSUNOVA ZULAYXO OMONULAYEVNA

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

"Matematika" kafedrasi o'qituvchisi

Email: zulaykho.tursunova.86@mail.ru

UDK: 372.858

<https://orcid.org/0009-0005-4326-6984>

Kalit so'zlar:

dasturiy ta'minot vositalari, raqamli ta'lim, LMS tizimlari, Moodle, Canvas, MOOC platformalari, adaptiv ta'lim, sun'iy intellekt, gamifikatsiya, mustaqil ta'lim kompetensiyasi.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida dasturiy ta'minot vositalarining o'rni hamda ularning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga keng joriy etilishi natijasida o'quv jarayonining mazmuni, shakli va uni tashkil etish mexanizmlarida tub o'zgarishlar yuz berayotgani ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda Learning Management System (LMS) platformalari, xususan Moodle, Canvas va Blackboard tizimlarining o'quv jarayonini samarali boshqarish, ta'lim resurslarini tartibga solish va o'qituvchi hamda talaba o'rtasidagi interaktiv aloqani ta'minlashdagi imkoniyatlari keng tahlil etilgan. Shuningdek, MOOC platformalari, adaptiv ta'lim tizimlari, sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan o'quv trayektoriyalari hamda gamifikatsiya texnologiyalarining talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati alohida yoritilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida raqamli ta'lim muhitini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan HEMIS, UzMoodle va Bilim.uz platformalarining amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy dasturiy ta'minot vositalari ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quv faoliyatini samarali monitoring qilish hamda talabalarning mustaqil o'qish va o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

РОЛЬ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Ключевые слова: программное обеспечение, цифровое образование, LMS системы, Moodle, Canvas, MOOC платформы, адаптивное обучение, искусственный интеллект, геймификация, компетенция самостоятельного обучения.

Аннотация: В данной статье анализируется роль программных средств в современном образовательном процессе и тенденции их развития. На научной основе освещено, что в результате широкого внедрения цифровых технологий в систему образования происходят коренные изменения в содержании, форме и механизмах организации учебного процесса. В исследовании широко проанализированы возможности платформ Learning Management System (LMS), в частности Moodle, Canvas и Blackboard в эффективном управлении учебным процессом, регулировании образовательных ресурсов и обеспечении интерактивной коммуникации между преподавателем и студентом. Также особо подчеркивается значение платформ MOOC, адаптивных образовательных систем, персонализированных образовательных траекторий на основе искусственного интеллекта и геймификационных технологий в развитии компетенций самостоятельной работы студентов. Кроме того, проанализированы проводимые реформы по формированию цифровой образовательной среды в системе высшего образования Узбекистана, в том числе практическая значимость платформ HEMIS, UzMoodle и Bilim.uz. Результаты исследования показывают, что современные программные средства являются важным фактором индивидуализации образовательного процесса, эффективного мониторинга учебной деятельности и формирования компетенций самостоятельного обучения и саморазвития студентов.

THE ROLE AND DEVELOPMENT TRENDS OF SOFTWARE TOOLS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Keywords: software tools,

Abstract: This article analyzes the role of software tools in the modern educational process and their development trends.



digital education,
LMS systems,
Moodle, Canvas,
MOOC platforms,
adaptive learning,
artificial intelligence,
gamification,
independent
learning competence.

As a result of the widespread introduction of digital technologies into the education system, fundamental changes are taking place in the content, form, and mechanisms of the educational process. The study extensively analyzed the capabilities of Learning Management System (LMS) platforms, in particular Moodle, Canvas, and Blackboard systems, in effective management of the educational process, regulation of educational resources, and ensuring interactive communication between the teacher and the student. The importance of MOOC platforms, adaptive learning systems, personalized learning trajectories based on artificial intelligence, and gamification technologies in the development of students' independent work competencies is also highlighted. In addition, the practical significance of the reforms being implemented to form a digital educational environment in the higher education system of Uzbekistan, including the HEMIS, UzMoodle, and Bilim.uz platforms, was analyzed. The research results show that modern software tools are an important factor in the individualization of the educational process, effective monitoring of educational activities, and the formation of students' independent learning and self-development competencies.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida dasturiy ta'minot vositalari endilikda faqat yordamchi texnik resurs sifatida emas, balki ta'lim jarayonining mazmuni, tashkiliy modeli va kutilayotgan natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari, bilimlar iqtisodiyotining shakllanishi, uzluksiz ta'lim konsepsiyasining kengayishi hamda kredit-modul tizimining joriy etilishi natijasida an'anaviy auditoriya markazlashgan ta'lim modeli bosqichma-bosqich talabaga yo'naltirilgan, moslashuvchan va ma'lumotlarga asoslangan o'quv faoliyati modeliga almashmoqda.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lsa, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi barcha sohalar qatori ta'lim tizimini ham chuqur raqamlashtirishni nazarda tutadi. Bu esa dasturiy ta'minot vositalarini nafaqat texnologik infratuzilma sifatida, balki ularning didaktik, metodik va boshqaruv imkoniyatlarini kompleks o'rganishni

dolzarb ilmiy masalaga aylantiradi [1].

Dasturiy ta'minot vositalarining ta'lim jarayonidagi roli ko'p qirrali va tizimli xarakterga ega. Bir tomondan, ular o'quv kontentini markazlashtirish, tizimlashtirish va turli formatlarda (matn, audio, video, interaktiv resurslar) taqdim etish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, topshiriqlarni berish, baholash, monitoring va qayta aloqa jarayonlarini avtomatlashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, mazkur vositalar talabalarning individual o'quv trayektoriyasini shakllantirish, ularning o'zlashtirish darajasini real vaqt rejimida kuzatish hamda differensial yondashuv asosida pedagogik qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi [2].

Ayniqsa, kredit-modul tizimi sharoitida dasturiy platformalar auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim faoliyatini mazmunli tashkil etish, uning natijalarini shaffof va ob'ektiv baholash hamda akademik faoliyatni boshqarishning samarali vositasiga aylanmoqda. Shu jihatdan, raqamli ta'lim muhiti talaba, o'qituvchi va ta'lim resurslari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni integratsiyalovchi, o'z-o'zini boshqarish va refleksiya ko'nikmalarini rivojlantiruvchi kompleks pedagogik ekotizim sifatida talqin etilishi maqsadga muvofiqdir.

MATERIAL VA TADQIQOT USULLARI

Ta'limda eng keng qo'llaniladigan dasturiy vositalar qatoriga LMS (Learning Management System) tizimlari kiradi. Ushbu tizimlarning asosiy vazifasi o'quv kurslarini yaratish, ta'lim resurslarini joylashtirish, topshiriqlarni boshqarish, baholash jarayonini tashkil etish, o'quv jarayonini tahlil qilish (analitika) hamda o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikatsiyani yagona raqamli muhitda integratsiyalashdan iborat. Bugungi kunda Moodle, Canvas va Blackboard xalqaro miqyosda eng keng tarqalgan LMS platformalari hisoblanadi.

Moodle ochiq kodli va yuqori darajada moslashuvchan LMS sifatida ko'plab ta'lim muassasalarida muvaffaqiyatli joriy etilgan. Uning rasmiy manbalarida tizim xavfsiz, kengaytiriladigan va individual ehtiyojlarga moslashtiriladigan platforma sifatida ta'riflanadi. Moodle o'qituvchilarga o'quv kurslarini yaratish, testlar tuzish, topshiriqlarni qabul qilish, baholash hamda natijalar bo'yicha batafsil hisobotlar olish imkonini beradi. Ayniqsa, tizimning learning analytics imkoniyatlari alohida ahamiyatga ega: unda o'quv jarayoni bo'yicha yig'ilgan ma'lumotlar asosida talabalar faoliyati tahlil qilinadi, ularning o'zlashtirish darajasi baholanadi va hatto mashinaviy o'qitish elementlari orqali muvaffaqiyat ehtimoli prognoz qilinadi [3]. Bu jihatlar Moodle'ni oddiy kontent joylashtirish platformasidan ko'ra, mustaqil ta'limni monitoring qilish va boshqarishning samarali vositasiga aylantiradi.

Canvas LMS esa o'zining qulay va intuitiv interfeysi, keng integratsiya



imkoniyatlari hamda individual yondashuvni qo‘llab-quvvatlovchi funksiyalari bilan ajralib turadi. Rasmiy manbalarda u veb-asoslangan LMS sifatida tavsiflanib, kurs va foydalanuvchi analitikasi, rivojlangan kommunikatsiya vositalari hamda faol o‘qitishni qo‘llab-quvvatlovchi modullarni o‘z ichiga oladi. Canvas’ning muhim funksiyalaridan biri – Mastery Paths mexanizmi bo‘lib, u talabaning oldingi topshiriqlardagi natijalariga qarab keyingi o‘quv materiallari yoki topshiriqlarni avtomatik tarzda differensial taqsimlash imkonini beradi. Mazkur yondashuv personalizatsiyalashgan ta’limni amalga oshirish, differensial o‘qitishni tashkil etish hamda talabaning individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Blackboard Learn esa ko‘proq institutsional boshqaruv, baholash tizimlari, ma’lumotlar analitikasi hamda mastery learning elementlari bilan ajralib turadi. Anthology tomonidan taqdim etilgan Blackboard Learn reliz tavsiflarida assessment and grading, data and analytics, mastery learning hamda learning pathways kabi funksional bloklar alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Mazkur tizimning muhim afzalligi shundaki, u yirik oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv kurslari, foydalanuvchi rollari, baholash mezonlari va ma’lumotlar oqimini kompleks boshqarish imkonini beradi [5]. Mustaqil ta’limni tashkil etishda esa Blackboard Learn adaptiv release mexanizmi, rivojlangan analitika va baholash vositalari orqali talabaning faolligini monitoring qilish hamda individual pedagogik yordam ko‘rsatish imkoniyatini yaratadi.

Shunday qilib, LMS tizimlarining evolyutsiyasida aniq tendensiya kuzatiladi: dastlab ular asosan o‘quv materiallarini joylashtirish va topshiriqlarni yig‘ish funksiyasini bajargan bo‘lsa, bugungi kunda ular learning analytics, differensial o‘quv yo‘llari (differentiated pathways), avtomatlashtirilgan qayta aloqa (automated feedback) hamda talabalar faolligini monitoring qilish kabi ilg‘or imkoniyatlar bilan boyib bormoqda. Bu o‘zgarish ta’lim jarayonida nazoratga yo‘naltirilgan yondashuvdan talabaning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan modelga o‘tishni anglatadi.

Ta’lim dasturiy ta’minotining rivojlanishidagi yana bir muhim yo‘nalish – MOOC (Massive Open Online Courses) platformalaridir. Coursera, edX, FutureLearn hamda Udacity kabi platformalar dunyoning yetakchi universitetlari tomonidan yaratilgan kurslarni global auditoriyaga taqdim etish orqali ta’lim kontentining ommaviylashuviga xizmat qilmoqda. MOOC platformalarining asosiy afzalligi shundaki, ular talabaning mustaqil o‘rganish ehtiyojlariga to‘liq mos keladi: foydalanuvchi kursni o‘z tempi asosida o‘zlashtiradi, video ma’ruzalar, testlar, forumlar va peer-review mexanizmlari orqali bosqichma-bosqich rivojlanadi hamda

ko‘pincha mikrosertifikat yoki sertifikatga ega bo‘ladi [6]. Bu model ayniqsa kredit-modul tizimi sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki unda talabanning mustaqil o‘quv yuklamasi rasmiy ta‘lim natijalarining ajralmas qismi hisoblanadi.

MOOC platformalari bilan LMS tizimlari o‘rtasidagi asosiy farq shundaki, LMS ko‘proq muayyan ta‘lim muassasasi doirasidagi formal o‘quv jarayonini boshqarishga xizmat qiladi, MOOC esa keng omma uchun ochiq, modulli va asosan o‘zini o‘zi boshqarishga asoslangan ta‘lim muhitini ifodalaydi [7]. Biroq hozirgi zamonaviy tendensiya ushbu ikki modelning yaqinlashuvi bilan xarakterlanadi: ko‘plab universitetlar o‘z LMS tizimlariga MOOC elementlarini, jumladan mikroo‘qitish, video asosli mustaqil o‘rganish hamda kompetensiyaga asoslangan baholash mexanizmlarini integratsiya qilmoqda.

Dasturiy ta‘minot vositalarining rivojlanishidagi uchinchi muhim yo‘nalish – adaptiv ta‘lim va sun‘iy intellekt elementlariga asoslangan personalizatsiya hisoblanadi. Adaptiv ta‘lim tizimlari talabanning avvalgi o‘quv natijalari, faoliyat sur‘ati, xatolari, kontent bilan ishlash odatlari hamda baholash ko‘rsatkichlarini tahlil qilgan holda unga mos topshiriqlar, qo‘shimcha resurslar va individual tavsiyalarni taqdim etadi [8]. Bu jarayonda Canvas dagi Mastery Paths, Blackboard Learn dagi learning pathways hamda Moodle tizimidagi analitik funksiyalar ushbu tendensiyaning amaliy ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Sun‘iy intellekt asosidagi personalized learning paths konsepsiyasi shundan iboratki, har bir talaba uchun yagona chiziqli o‘quv kursi emas, balki uning tayyorgarlik darajasi, ehtiyojlari va o‘zlashtirish xususiyatlariga mos dinamik o‘quv yo‘li shakllantiriladi [9]. Bu ayniqsa mustaqil ta‘limni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki samarali o‘quv topshirig‘i talabanning imkoniyatlariga mos bo‘lishi – ya‘ni haddan tashqari oson ham, ortiqcha murakkab ham bo‘lmasligi lozim. Sun‘iy intellekt texnologiyalari yordamida topshiriq murakkabligini moslashtirish, xatolarni tahlil qilish asosida individual tavsiyalar berish, o‘zlashtirilmagan mavzularni aniqlash hamda reflektiv savollarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Shu jihatdan, zamonaviy dasturiy ta‘minot rivojlanishining asosiy tendensiyasi oddiy kontentni raqamlashtirishdan o‘quv jarayonini intellektual qo‘llab-quvvatlash bosqichiga o‘tayotganini ko‘rsatadi.

Ta‘lim dasturiy vositalarining rivojlanishida yana bir muhim va barqaror yo‘nalish – gamifikatsiyadir. Gamifikatsiya – o‘yin mexanizmlarini no‘yin muhitga joriy etish orqali o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va motivatsion qilishga qaratilgan yondashuvdir. Ball (points), badge (yutuq belgisi), leaderboard (reyting jadvali), progress bar (rivojlanish ko‘rsatkichi), quest (vazifalar tizimi) va streak (uzluksiz faoliyat) kabi elementlar talabanning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish hamda



mustaqil ishlashga undashda keng qo'llaniladi [10].

Gamifikatsiya ayniqsa auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim jarayonida samarali hisoblanadi, chunki bu sharoitda tashqi nazorat nisbatan kamayadi va ichki motivatsiya asosiy omilga aylanadi. O'yin elementlari topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajariladigan, aniq natijaga yo'naltirilgan hamda emotsional jihatdan jalb etuvchi faoliyatga aylantiradi. Ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, gamifikatsiya o'quv motivatsiyasini oshirish, faol ishtirokni kuchaytirish va o'rganish jarayonining davomiyligini ta'minlash orqali mustaqil ta'lim kompetensiyasining motivatsion hamda refleksiv komponentlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

O'zbekistonda oliy ta'limni raqamlashtirish davlat siyosati darajasida izchil qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, 2019-yilda qabul qilingan Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi hamda 2020-yildagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur joriy etish, raqamli ta'lim muhitini shakllantirish va boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu esa oliy ta'lim tizimida dasturiy ta'minot vositalarining rolini yanada kuchaytirib, ularni strategik rivojlanish omiliga aylantirmoqda.

Amaliyotda ushbu jarayon bir qator milliy platformalar orqali namoyon bo'lmoqda. Jumladan, HEMIS oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv jarayoni, ma'muriy boshqaruv, ilmiy faoliyat hamda moliyaviy operatsiyalarni qamrab oluvchi yagona axborot tizimi sifatida faoliyat yuritmoqda. Mazkur platforma to'liq LMS funksiyalarini bajarmasa-da, ta'lim jarayonini raqamli boshqarish, talaba faoliyatini monitoring qilish va institutsional samaradorlikni oshirish uchun muhim infratuzilmaviy asosni yaratadi.

Shuningdek, UzLMS platformasi malaka oshirish, qisqa muddatli kurslar va onlayn ta'lim dasturlarini tashkil etishga xizmat qiluvchi elektron muhit sifatida rivojlanmoqda. Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi tomonidan taqdim etilayotgan resurslar – interaktiv kurslar, metodik materiallar, normativ-huquqiy hujjatlar va pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilgan xizmatlar – mamlakatda raqamli ta'limning nafaqat alohida OTMlar darajasida, balki tarmoq miqyosida ham tizimli shakllanayotganini ko'rsatadi.

Biroq O'zbekiston sharoitida mavjud imkoniyatlar bilan bir qatorda muayyan muammolar ham saqlanib qolmoqda. Ko'plab oliy ta'lim muassasalarida Moodle platformasining lokal versiyalaridan foydalanilayotgan bo'lsa-da, u ko'pincha ta'lim jarayonini transformatsiya qiluvchi muhit sifatida emas, balki oddiy fayl almashish va

topshiriqlarni yuklash vositasi darajasida qo'llanilmoqda. Shu sababli, keyingi bosqichdagi asosiy vazifa – mavjud platformalarni talabning mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantiruvchi darajaga ko'tarishdan iborat. Bu esa ularni personalizatsiya, o'z-o'zini monitoring qilish, avtomatlashtirilgan qayta aloqa (feedback), rivojlangan analitika hamda o'zbek tilidagi sifatli kontent bilan boyitishni talab etadi.

Xorijiy universitetlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, dasturiy ta'minot vositalari eng yuqori samarani faqatgina kontent ombori sifatida emas, balki yaxlit o'quv ekotizimi sifatida qo'llanilganda beradi. Masalan, AQSh va Yevropa oliy ta'lim muassasalarida Canvas va Blackboard Learn asosidagi kurslar odatda haftalik mustaqil o'quv modullari, o'z-o'zini tekshiruvchi testlar (quizlar), analitik panellar va progress-tracking tizimlari bilan integratsiyalashgan holda tashkil etiladi [11]. Bunday yondashuv talabning nafaqat topshiriqlarni bajarishini, balki o'z o'quv faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarini aniqlash va mustaqil ravishda rivojlanish strategiyasini belgilash imkonini beradi.

Shuningdek, Moodle platformasidan foydalanadigan ko'plab xorijiy universitetlarda learning analytics va reporting vositalari orqali talabalar faolligi, topshiriqlarni bajarish intizomi, platformaga kirish chastotasi hamda o'zlashtirish dinamikasi muntazam tahlil qilinadi [12]. Ushbu ma'lumotlar o'qituvchilar uchun faqat nazorat vositasi bo'lib qolmay, balki talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlash, individual yordam ko'rsatish va ta'lim strategiyalarini moslashtirishda muhim pedagogik instrument sifatida xizmat qiladi. Ayrim ilg'or ta'lim muassasalarida esa gamifikatsiya elementlari va mikro-kredit (micro-credentials) tizimlari joriy etilib, talabalarni mustaqil o'rganishga rag'batlantirishning samarali mexanizmlari ishlab chiqilgan.

XULOSA

losa qilib aytganda, ta'lim jarayonida dasturiy ta'minot vositalarining roli faqatgina o'quv kontentini elektron shaklga o'tkazish bilan cheklanib qolmaydi. Bugungi kunda ular ta'lim jarayonini kompleks boshqarish, individual o'quv trayektoriyalarini shakllantirish, talabalar mustaqil faoliyatini monitoring qilish, o'quv motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim natijalarini analitik asosda takomillashtirishning muhim instrumentiga aylanmoqda.

Zamonaviy rivojlanish tendensiyasi quyidagi izchil bosqichlar orqali namoyon bo'lmoqda: LMS → learning analytics → personalizatsiya → sun'iy intellektga asoslangan ta'lim (AI-assisted learning). Mazkur evolyutsiya ta'lim tizimining oddiy raqamlashtirish bosqichidan intellektual boshqaruv va moslashuvchan o'qitish



modeliga o'tayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, kredit-modul tizimi sharoitida ushbu tendensiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu tizimda talabanning mustaqil o'quv faoliyati qo'shimcha komponent emas, balki asosiy ta'lim natijalarining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Natijada, talabanning o'z-o'zini boshqarish, mustaqil o'rganish va refleksiya qilish kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning markaziy vazifasiga aylanmoqda.

Shu nuqtai nazardan, talabalar mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan, personalizatsiya, analitika va sun'iy intellekt imkoniyatlarini o'zida mujassam etgan takomillashtirilgan dasturiy ta'minot modelini ishlab chiqish mazkur tadqiqotning mantiqiy davomi va ilmiy zaruratini belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2020.
3. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. – 2005.
4. Bates A.W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. – Vancouver: Tony Bates Associates Ltd., 2015.
5. Laurillard D. Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology. – New York: Routledge, 2012.
6. Anderson T., Dron J. Three Generations of Distance Education Pedagogy // International Review of Research in Open and Distance Learning. – 2011.
7. Azevedo R., Aleven V. (eds.). International Handbook of Metacognition and Learning Technologies. – New York: Springer, 2013.
8. Kapp K. The Gamification of Learning and Instruction. – San Francisco: Pfeiffer, 2012.
9. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From Game Design Elements to Gamefulness: Defining Gamification // Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference. – 2011.
10. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результат образования. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.



11. Хуторской А.В. Компетентностный подход в образовании. – М.: Педагогика, 2003.
12. Полат Е.С. Педагогические технологии дистанционного обучения. – М.: Академия, 2006.
13. Abduqodirov A.A. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2010.
14. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2015.
15. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2012.
16. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.



PEDAGOGIKA

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA MUTAXASSIS KADRLARGA BO'LGAN EHTIYOJ VA UNI HAL ETISH YO'LLARI

XURRAMOVA ZARNIGOR NURIDDIN QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

"Tarix va falsafa" kafedrası magistranti

Email: nurijahonxurramov807@gmail.com

Tel: +998 99 555-31-70

UDK: 373.2:378.046.04

<https://orcid.org/0009-0005-7935-4040>

Kalit so'zlar:

maktabgacha ta'lim,
pedagog kadrlar,
kasbiy malaka,
malaka oshirish,
qayta tayyorlash,
sirtqi ta'lim,
innovatsion
yondashuvlar,
ta'lim sifati,
pedagogik
texnologiyalar.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning kasbiy malakasini oshirish hamda sohani kompleks rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida sohada mavjud dolzarb muammolar, jumladan, oliy ma'lumotli pedagog kadrlar yetishmasligi, o'rta maxsus ma'lumotga ega tarbiyachilar ulushining yuqoriligi hamda ularni qayta tayyorlash imkoniyatlari o'rganilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim sohasida xalqaro standartlarga mos pedagoglarni tayyorlash, malaka oshirish tizimini takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishning amaliy mexanizmlari yoritilgan. Tizimni rivojlantirish jarayonida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, sirtqi ta'lim shakllari, qisqa muddatli malaka oshirish kurslari, oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda xorijiy mutaxassislarni jalb etishning ahamiyati ilmiy asosda yoritib berilgan.

ПОТРЕБНОСТЬ В КАДРАХ-СПЕЦИАЛИСТАХ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ПУТИ ЕЕ РЕШЕНИЯ

Ключевые слова:

дошкольное
образование,
педагогические

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы подготовки квалифицированных педагогических кадров для системы дошкольного образования Республики Узбекистан, повышения их профессиональной

кадры, профессиональная квалификация, повышение квалификации, переподготовка, заочное обучение, инновационные подходы, качество образования, педагогические технологии.

квалификации и комплексного развития сферы. В ходе исследования были изучены актуальные проблемы, существующие в сфере, в том числе нехватка педагогических кадров с высшим образованием, высокая доля воспитателей со средним специальным образованием и возможности их переподготовки. Также освещены практические механизмы подготовки педагогов, соответствующих международным стандартам в сфере дошкольного образования, совершенствования системы повышения квалификации и внедрения инновационных подходов. В процессе развития системы на научной основе освещены приоритетные направления государственной политики, формы заочного обучения, краткосрочные курсы повышения квалификации, усиление сотрудничества с высшими учебными заведениями и важность привлечения иностранных специалистов.

THE NEED FOR SPECIALIST PERSONNEL IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM AND WAYS TO SOLVE IT

Keywords: preschool education, teaching staff, professional qualifications, advanced training, retraining, correspondence education, innovative approaches, quality of education, pedagogical technologies.

Abstract: This article analyzes the issues of training qualified pedagogical personnel for the preschool education system of the Republic of Uzbekistan, improving their professional qualifications, and the comprehensive development of the sphere. In the research process, current problems in the field were studied, including the shortage of teaching staff with higher education, the high proportion of educators with secondary specialized education, and the possibilities of their retraining. Also, practical mechanisms for training teachers in accordance with international standards in the field of preschool education, improving the system of professional development, and introducing innovative approaches are highlighted. In the process of developing the system, the priority directions of state policy, forms of correspondence education, short-term advanced training courses, strengthening cooperation with higher educational

institutions, and the importance of attracting foreign specialists are highlighted on a scientific basis.

KIRISH

Ta'lim har qanday mamlakat taraqqiyotining muhim strategik omillaridan biri bo'lib, jamiyatning intellektual, ijtimoiy va madaniy rivojlanish darajasini belgilaydi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimi shaxs kamolotining dastlabki bosqichi sifatida bolalarning kognitiv, axloqiy hamda ijtimoiy rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur bosqichdagi ta'lim sifati ko'p jihatdan pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi, kompetensiyasi hamda ularning uzluksiz malaka oshirish jarayoniga bog'liq.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish hamda oliy ma'lumotli mutaxassislar yetishmovchiligini kamaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur yo'nalishda sirtqi va kechki ta'lim shakllarini kengaytirish, qisqa muddatli qayta tayyorlash hamda malaka oshirish kurslarini tashkil etish, shuningdek, xalqaro hamkorlik asosida ilg'or pedagogik tajribalarni joriy etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning zamonaviy bilim, ko'nikma va metodik yondashuvlarni egallash imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Mazkur tadqiqot maktabgacha ta'lim tizimidagi pedagog kadrlarning hozirgi holatini tahlil qilish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash hamda malakali mutaxassislar sonini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda, ayniqsa, pedagoglarning professional rivojlanish dasturlari, metodik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda xalqaro standartlarga mos yondashuvlarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Shu nuqtai nazardan, malakali pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon kelajak avlodning har tomonlama barkamol, intellektual salohiyatli va axloqiy jihatdan yetuk bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktabgacha ta'lim tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish masalasi pedagogika fanining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu borada ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim sifati bevosita

pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi darajasi, metodik savodxonligi hamda uzluksiz professional rivojlanish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq.

Xususan, N. Ibragimova o‘z tadqiqotida maktabgacha ta‘lim muassasalarida oliy ma‘lumotli pedagog mutaxassislar yetishmasligi ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini asoslab bergan [1]. U pedagoglarning nazariy bilimlari bilan amaliy ko‘nikmalari o‘rtasidagi nomutanosiblik bolalarning rivojlanish natijalarida ham aks etishini ta‘kidlaydi. S. Tursunov esa pedagog kadrlar salohiyatini oshirishda xalqaro tajribani o‘rganish, xorijiy mutaxassislarni jalb etish hamda xalqaro standartlarni milliy ta‘lim tizimiga moslashtirish muhimligini qayd etadi [2]. Uning fikricha, bunday integratsion yondashuv pedagoglarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodikalarni egallashiga xizmat qiladi.

A. Karimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda malaka oshirish markazlari faoliyati, xususan, qisqa muddatli hamda kaskad usulida tashkil etilgan kurslar pedagog xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini tizimli ravishda oshirishga imkon berishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [3].

Shu bilan birga, maktabgacha ta‘lim pedagogikasi va metodikasiga oid klassik ilmiy qarashlar ham mazkur muammoni anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, F. Frebel maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o‘yin faoliyatining yetakchi o‘rin tutishini ilmiy jihatdan asoslab, pedagogning yo‘naltiruvchi rolini alohida ta‘kidlagan [4]. Y.I. Tixeeva esa maktabgacha ta‘lim jarayonida nutqni rivojlantirish, bilish faolligini qo‘llab-quvvatlash hamda ta‘limning tarbiyaviy xarakterini kuchaytirish masalalarini chuqur tadqiq etgan [5]. Mazkur nazariy yondashuvlar bugungi kunda ham zamonaviy maktabgacha ta‘lim metodikasining shakllanishida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlar asosan pedagoglarning malakasini oshirishning ayrim jihatlari yoki metodik yo‘nalishlarini yoritishga qaratilgan. Biroq mustaqillik yillarida O‘zbekiston maktabgacha ta‘lim tizimida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar, pedagog kadrlar tayyorlash tizimidagi o‘zgarishlar hamda mavjud muammolarning kompleks tahlili yetarli darajada umumlashtirilmagan. Mazkur tadqiqot aynan pedagog kadrlar tayyorgarligi va ularning malakasini oshirish jarayonini tizimli yondashuv asosida tahlil qilishi bilan mavjud ilmiy izlanishlarni to‘ldiradi hamda ularning mantiqiy davomi sifatida namoyon bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta‘lim tizimida pedagog kadrlar tayyorgarligi hamda ularning malakasini oshirish masalalarini o‘rganishda kompleks yondashuv



qo'llanildi. Xususan, taqqoslash, tahliliy va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy statistika ma'lumotlari hamda hukumat qarorlari tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida oliy ma'lumotli va o'rta maxsus ma'lumotga ega pedagoglar ulushi, malaka oshirish kurslarining qamrovi, sirtqi ta'lim imkoniyatlari hamda xorijiy ekspertlarning jalb etilishi kabi ko'rsatkichlar o'rganildi. Shuningdek, hududlar kesimida taqqoslash ishlari olib borilib, tanlab olingan maktabgacha ta'lim muassasalari misolida malaka oshirish kurslarining samaradorligi hamda pedagoglarning professional tayyorgarlik darajasi baholandi.

Mazkur metodologiya asosida pedagog kadrlar tayyorgarligi hamda ularning malakasini oshirish jarayonining ta'lim sifati va tizim samaradorligiga ta'siri tizimli ravishda tahlil qilindi. Natijada sohada mavjud muammolar, ularning sabablari hamda ularni bartaraf etishning amaliy yo'nalishlari aniqlashtirildi.

NATIJALAR

Olib borilgan o'rganish va tahlillar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida pedagog kadrlarning kasbiy malakasi hamda ta'lim sifati so'nggi yillarda sezilarli darajada yaxshilangani aniqlandi. Xususan, 2017-2022-yillar davomida o'rta maxsus ma'lumotga ega pedagoglarni oliy ma'lumotli mutaxassislar sifatida tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi izchil yo'lga qo'yildi. Natijada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan oliy ma'lumotli pedagoglar soni ortib, bu ta'lim jarayonining samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonida kaskad usuli samarali qo'llanilmoqda. Xorijiy mutaxassislar ishtirokida uch bosqichli qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etilib, ushbu tizim orqali 14 ming nafar pedagogning kasbiy kompetensiyasi rivojlantirildi. Shu bilan birga, sirtqi ta'lim shakllari orqali oliy ta'lim muassasalarida o'rta maxsus ma'lumotga ega pedagoglarni oliy ma'lumotli mutaxassis sifatida tayyorlash jarayoni ham jadal sur'atlarda kengaytirildi [2].


Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini sifatida har tomonlama sog'lom, intellektual va axloqiy jihatdan barkamol bola shaxsini shakllantirish hamda ularni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Shu bois hududlarda tashkil etilayotgan seminar va treninglar pedagoglarning nazariy bilimlari hamda amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Hududiy tahlillar, jumladan Surxondaryo viloyati misolida, kadrlar tarkibidagi o'zgarishlar dinamikasini yaqqol ko'rsatadi. 2016-2017-yillarda viloyat maktabgacha

ta'lim tizimida 288 nafar mudira, 19 nafar metodist, 1615 nafar tarbiyachi, 274 nafar musiqa rahbari hamda 34 nafar psixolog faoliyat yuritgan. Keyingi yillarda respublika miqyosida amalga oshirilgan islohotlar natijasida nafaqat kadrlar soni, balki ularning sifat ko'rsatkichlari hamda ta'lim qamrovi darajasi ham sezilarli darajada oshdi. Xususan, 2021-yil yakuniga kelib maktabgacha ta'lim tizimidagi oliy ma'lumotli pedagoglar sonini 3040 nafardan 3494 nafarga yetkazish rejalashtirilgani bu boradagi tizimli ishlarning amaliy natijasini ko'rsatadi (1-rasm).

1-rasm

2019-2022-yillarda maktabgacha ta'lim tizimi pedagog xodimlarining o'sish



Ko'k rang – Oliy ma'lumotli pedagoglar (ulushi % da).

Sariq rang – O'rta maxsus ma'lumotli pedagoglar (ulushi % da).

Raqam – Umumiy pedagoglar soni (nafar).

1-rasmda keltirilgan 2019-2022-yillar oralig'idagi statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, sohada faoliyat yuritayotgan pedagoglar soni yil sayin barqaror ravishda oshib borgan. Xususan, 2019-yilda jami pedagoglar soni 4115 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 7342 nafarga yetgan, ya'ni kadrlar salohiyati qariyb 78 % ga oshgan [6].

Diagramma ko'rsatkichlariga ko'ra, xodimlarning ma'lumot darajasi bo'yicha ham ijobiy dinamika kuzatiladi. Agar 2019-yilda oliy ma'lumotli mutaxassislar ulushi 35,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, tizimli islohotlar natijasida 2022-yil yakuniga kelib ushbu ko'rsatkich 38 % gacha ko'tarilganini ko'rish mumkin. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nafaqat miqdor, balki sifat ko'rsatkichlari ham yaxshilanib borayotganidan dalolat beradi.

Kelajak avlodni komil inson, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning o'rni beqiyosdir. Shu bois ular mustahkam g'oyaviy e'tiqodga ega, har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkurli, o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega hamda pedagogik muloqot madaniyatini puxta egallagan bo'lishi zarur.

Shuningdek, pedagoglar pedagogik-psixologik hamda metodik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib, turli pedagogik vaziyatlarda tez va to'g'ri qaror qabul qila olishi, vaziyatni tahlil qilish, baholash va samarali yechim topish qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi.

Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan pedagogika kollejlari bitiruvchilari to'g'risidagi ma'lumotlar ham kadrlar salohiyatini oshirish masalasining dolzarbligini ko'rsatadi. 2020-2021-o'quv yilida viloyatdagi pedagogika kollejlari bo'yicha jami 577 nafar bitiruvchi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi diplomi olgan. Ulardan 565 nafari ish bilan ta'minlangan bo'lib, 527 nafari maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha faoliyat boshlagan.

1-jadval

Surxondaryo viloyati mavjud pedagogika kollejlari bitiruvchilari haqida ma'lumot (2020-2021)

№	Viloyat	Tuman va shahar	Ta'lim muassasasi	Bitiruvchilar	Bitiruvchilarning ishga joylashishi	Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha
	JAMI:			577	565	527
1	Surxondaryo viloyati	Angor tumani	Angor pedagogika kolleji	200	196	200
2	Surxondaryo viloyati	Qiziriq tumani	Qiziriq pedagogika kolleji	115	112	90
3	Surxondaryo viloyati	Sherabod tumani	Sherabod pedagogika kolleji	72	70	72
4	Surxondaryo viloyati	Qumqurg'on tumani	Qumqurg'on pedagogika kolleji	190	187	165

Mazkur ko'rsatkichlar hududda o'rta maxsus ma'lumotga ega pedagog kadrlar zaxirasi mavjudligini ko'rsatsa-da, oliy ma'lumotli mutaxassislar ulushini oshirish zaruratini ham tasdiqlaydi. Shu maqsadda maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi, kechki va sirtqi bo'limlarida o'qitish hajmini kengaytirish, shuningdek, qisqa muddatli qayta tayyorlash hamda malaka oshirish



kurslarini yoʻlga qoʻyish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon pedagoglarni zamonaviy va innovatsion yondashuvlar asosida har tomonlama rivojlantirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, “Ilk qadam” davlat oʻquv dasturi, Bola taraqqiyoti kartasi hamda Davlat talablari asosida ishlash uchun zarur metodik majmualar, didaktik materiallar va oʻquv-uslubiy qoʻllanmalar bilan taʼminotni kuchaytirish ham maktabgacha taʼlim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

MUHOKAMALAR

Oʻrganishlar shuni koʻrsatdiki, Surxondaryo viloyatida maktabgacha taʼlim tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish boʻyicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar samarali natijalar bermoqda. 2017-2022-yillar davomida oʻrta maxsus maʼlumotga ega pedagoglarni oliy maʼlumotli mutaxassis sifatida tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi izchil faoliyat yuritdi. Mazkur davr mobaynida maktabgacha taʼlim tashkilotlarida oliy maʼlumotli pedagoglar soni sezilarli darajada oshdi. Bu esa taʼlim sifati hamda bolalarni maktabga tayyorlash jarayoniga bevosita ijobiy taʼsir koʻrsatdi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, malakali pedagoglarni tayyorlashda kaskad usuli samarali qoʻllanilmoqda. Xorijiy mutaxassislarni jalb etish, uch bosqichli qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini tashkil etish hamda sirtqi boʻlimlar orqali oʻrta maxsus maʼlumotga ega pedagoglarni oliy taʼlim muassasalarida oʻqitish tizimli natijalarni taʼminladi. Natijada 14 000 dan ortiq pedagog malakasini oshirdi, bu esa maktabgacha taʼlim sifatini yaxshilashga bevosita hissa qoʻshdi [6].

Viloyat boʻyicha statistik maʼlumotlar 2016-2021-yillar davomida pedagogik kadrlar soni va sifatida sezilarli oʻsish kuzatilganini koʻrsatadi. Xususan, 2016-2017-oʻquv yilida viloyatda 288 nafar mudira, 19 nafar metodist, 1 615 nafar tarbiyachi, 274 nafar musiqa rahbari hamda 34 nafar psixolog faoliyat yuritgan. 2018-2019-oʻquv yillarida esa nafaqat viloyatda, balki respublika miqyosida ham kadrlar sifati va taʼlim qamrovi darajasi oshgan. 2021-yil yakuniga qadar oliy maʼlumotli pedagoglar sonini 3 040 nafardan 3 494 nafarga yetkazish rejalashtirilgan edi [6].

Viloyatdagi pedagogika kollejlari bitiruvchilari ham taʼlim tizimiga munosib hissa qoʻshmoqda. 2020-2021-yillarda jami 577 nafar bitiruvchi oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi diplomini oldi. Ularning aksariyati maktabgacha taʼlim muassasalarida faoliyat yuritmoqda. Bu esa tizimni malakali kadrlar bilan taʼminlash imkoniyatini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, sirtqi, kechki va kunduzgi boʻlimlar orqali oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilarini jalb etish, qisqa muddatli kurslarda mutaxassislarni qayta tayyorlash hamda pedagoglarni innovatsion yondashuvlar



asosida rivojlantirish tizim samaradorligini yanada oshirmoqda [6].

Natijalar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tizimida pedagog kadrlar malakasini oshirish bolalarni har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan va ilmiy tafakkurga ega shaxslar sifatida tarbiyalash uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Bu jarayonda pedagoglarning pedagogik-psixologik bilimlari, metodik mahorati hamda turli vaziyatlarni tezkor hal etish qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkazilayotgan seminarlar, metodik majmualar, didaktik materiallar hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi kabi qo'llanmalar pedagoglarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qilmoqda [7].

Tizimli chora-tadbirlar natijasida viloyatda pedagogik kadrlar soni va sifati oshib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati sezilarli darajada yaxshilandi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda malakali pedagoglar yetishmasligi saqlanib qolayotganligi aniqlanib, ushbu yo'nalishda qo'shimcha e'tibor va resurslar ajratish zarurligi qayd etildi.

XULOSA

Surxondaryo viloyati misolida o'tkazilgan tadqiqotlar va statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimida pedagog kadrlar soni 4115 nafardan 7342 nafarga, ya'ni qariyb 78 % ga oshgan. Oliy ma'lumotli mutaxassislar ulushining 38 % ga yetgani ijobiy ko'rsatkich bo'lsa-da, hududlar kesimidagi tahlillar, xususan Qiziriq va Qumqo'rg'on tumanlarida pedagogika kolleji bitiruvchilarining barchasi ham o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashmayotganini ko'rsatmoqda.

Tizimda pedagog kadrlar salohiyatini yanada oshirish uchun kollej bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashning elektron monitoring tizimini yo'lga qo'yish, o'rta maxsus ma'lumotli kadrlarni sirtqi va kechki ta'lim shakllari orqali bosqichma-bosqich oliy ma'lumotli mutaxassislarga aylantirish hamda chekka hududlarda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida metodik seminarlar ko'lamini kengaytirish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi maktabgacha ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish bilan birga, viloyatdagi kadrlar yetishmovchiligi muammosini bartaraf etishga xizmat qiladi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ibragimova N. Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash muammolari. – Toshkent: Pedagogika nashriyoti, 2017. – B. 128.
2. Tursunov S. Xorijiy ekspertlarni jalb qilish va pedagog malakasini oshirish. – Toshkent: Ilm, 2018. – B. 142.
3. Karimov A. Maktabgacha ta'limda malaka oshirish kurslari va kaskad usuli samaradorligi. – Toshkent: Oliy va o'rta maxsus ta'lim, 2019. – B. 156.
4. Фребель Ф. «Будем жить для наших детей». 1840.
5. Тихеева Е.И. «Институт для умственно отсталых детей». 1907.
6. Davlat statistika qo'mitasi. Maktabgacha ta'lim tizimi statistik ma'lumotlari, 2017-2022. – Toshkent.: Davlat statistika qo'mitasi, 2022.
7. Ilk qadam Davlat dasturi. Maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga oid metodik qo'llanmalar va didaktik materiallar. – Toshkent.: Ta'lim vazirligi nashriyoti, 2020.

PEDAGOGIKA

OLIY TA'LIMDA O'QUV MASHG'ULOTLARINING TARBIYAVIY POTENSIALINI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

FAYZIYEVA MAFTUNA ILXOMOVNA

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

"Iqtisodiyot va muxandislik fanlari" kafedrasida assistenti

Email: maftuna.fayziyeva.89@bk.ru

UDK: 378.147

Kalit so'zlar:

oliy ta'lim, tarbiyaviy potensial, pedagogik shartlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, o'qituvchi shaxsiyati, interaktiv metodlar, shaxs rivojlanishi, kompetensiyaviy yondashuv.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida o'quv mashg'ulotlarining tarbiyaviy potensialini samarali ro'yobga chiqarishning nazariy-metodologik asoslari hamda pedagogik shartlari har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida talabalarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashda o'qituvchi shaxsiyatining yetakchi o'rni, interaktiv va innovatsion ta'lim metodlarining tarbiyaviy samaradorligi, shuningdek, kompetensiyaga asoslangan ta'lim yondashuvining tarbiya jarayonidagi imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi. Nazariy tahlil natijasida ishlab chiqilgan integratsion model ta'lim va tarbiya jarayonlarining uzviy bog'liqligini ta'minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari pedagogik shartlarning tizimli va izchil amalga oshirilishi oliy ta'lim muassasalarida barkamol shaxsni tarbiyalash, ma'naviy barqarorlikni mustahkamlash hamda ta'lim sifati samaradorligini oshirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РЕАЛИЗАЦИИ ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА УЧЕБНЫХ ЗАНЯТИЙ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Ключевые слова:

высшее образование, теоретико-методологические основы и педагогические воспитательный потенциал, педагогические условия, духовно-

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются условия эффективной реализации воспитательного потенциала учебных занятий в системе высшего образования Узбекистана. В процессе исследования научно-теоретически обосновывается ведущая роль



нравственное воспитание, личность преподавателя, интерактивные методы, развитие личности, компетентный подход.

личности учителя в обеспечении духовно-нравственной зрелости студентов, воспитательная эффективность интерактивных и инновационных методов обучения, а также возможности компетентного подхода в образовательном процессе. Разработанная в результате теоретического анализа интеграционная модель служит обеспечению неразрывной связи образовательных и воспитательных процессов. Результаты исследования показывают, что систематическая и последовательная реализация педагогических условий является важным фактором воспитания гармонично развитой личности в высших учебных заведениях, укрепления духовной устойчивости и повышения эффективности качества образования.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR REALIZING THE EDUCATIONAL POTENTIAL OF ACADEMIC CLASSES IN HIGHER EDUCATION

Keywords:

higher education, educational potential, pedagogical conditions, spiritual education, teacher personality, interactive methods, personality development.

Abstract:

This article comprehensively analyzes the theoretical and methodological foundations and pedagogical conditions for the effective realization of the educational potential of training sessions in the higher education system of Uzbekistan. In the research process, the leading role of the teacher's personality in ensuring the spiritual and moral development of students, the educational effectiveness of interactive and innovative teaching methods, as well as the possibilities of a competency-based educational approach in the educational process are scientifically and theoretically substantiated. The integrated model, developed as a result of theoretical analysis, serves to ensure the organic connection of educational and upbringing processes. The research results show that the systematic and consistent implementation of pedagogical conditions is an important factor in the upbringing of a harmoniously developed personality in higher educational institutions, strengthening spiritual stability, and increasing the effectiveness of the quality of education.



KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonlari va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining strategik omili sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. U nafaqat yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, balki inson kapitalini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish hamda jamiyatning ma'naviy-axloqiy barqarorligini ta'minlashda yetakchi ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha mo'ljallangan ta'limni rivojlantirish strategiyasida ta'lim jarayonini insonparvarlik g'oyalari, innovatsion tafakkur hamda milliy qadriyatlarga sodiqlik asosida tashkil etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan [1].

Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlari faqat bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan cheklanib qolmay, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, unda ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik ongini va ma'naviy yetuklikni shakllantirishning muhim vositasi sifatida qaralishi zarur. Zamonaviy ta'lim amaliyoti esa ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvlarning jadal kirib kelishi bilan bir qatorda, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish o'rtasida muvozanatni ta'minlash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Bugungi kunda talabalarni faqat intellektual jihatdan tayyorlash yetarli bo'lmay, ularning axloqiy, estetik va ijtimoiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish oliy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, kasbiy bilimlar bilan bir qatorda, shaxsiy mas'uliyat, tolerantlik, fuqarolik faolligi va ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Talabalarni faqat intellektual jihatdan tayyorlash bilan cheklanib qolmasdan, ularning axloqiy, estetik va ijtimoiy kompetensiyalarini ham rivojlantirish oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kasbiy bilim bilan bir qatorda, shaxsiy mas'uliyat, tolerantlik va ijtimoiy faollik kabi fazilatlarni shakllantirish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Oliy ta'lim to'g'risida"gi Qonuni" da oliy ta'lim muassasalarining yoshlarni vatanparvarlik, ijtimoiy faollik, axloqiy poklik va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash borasidagi mas'uliyati alohida ta'kidlangan [2]. Bu esa o'quv mashg'ulotlarining tarbiyaviy potensialini to'liq ro'yobga chiqarishni taqozo etib, o'qituvchidan yuqori darajadagi pedagogik mahorat, innovatsion tafakkur, kasbiy madaniyat va shaxsiy namuna ko'rsatishni talab qiladi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim fanlari mazmunida tarbiyaviy komponent nazariy jihatdan e'tirof etilgan bo'lsa-da, amaliyotda u ko'pincha fragmentar va tizimsiz tarzda amalga oshirilmoqda. Bu holat o'quv mashg'ulotlarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotganini



anglatadi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi oliy ta'lim tizimida o'quv mashg'ulotlarining tarbiyaviy potensialini samarali ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi pedagogik shartlar tizimini ishlab chiqish va uni ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- oliy ta'limda ta'lim va tarbiya jarayonlarining uzviyligini ta'minlovchi, kognitiv, affektiv va ijtimoiy komponentlarni integratsiyalashga asoslangan o'quv-tarbiya jarayonining strukturaviy-funksional modeli ishlab chiqildi;
- o'quv mashg'ulotlarining tarbiyaviy potensialini ochib beruvchi pedagogik shartlar tizimi (maqsadli integratsiya, innovatsion metodika, o'qituvchining shaxsiy namunasi, faol ta'lim muhiti va reflektiv monitoring) yagona mexanizm sifatida asoslandi;
- LMS platformalari orqali tarbiyaviy kontentni integratsiya qilish asosida masofaviy ta'lim sharoitida shaxsiy qadriyatlarni shakllantirishning metodik asoslari ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida o'quv mashg'ulotlarining nafaqat bilim berish, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlashdagi o'rni tobora ortib bormoqda. Shu bois, ta'lim va tarbiya jarayonlarining uzviyligini ta'minlash masalasi pedagogika fanida muhim ilmiy muammo sifatida qaraladi. Ushbu muammoning nazariy ildizlari hamda zamonaviy talqinlarini aniqlash maqsadida klassik pedagogik qarashlar, milliy pedagogik meros va xalqaro yondashuvlar tahlil qilindi.

1. Klassik va nazariy pedagogik yondashuvlar.

Pedagogika fanining asoschisi sifatida tan olingan Ya.A. Komeński o'zining "Buyuk didaktika" asarida ta'lim va tarbiyaning uzviy birligi g'oyasini ilgari surgan. Uning "tabiiy muvofiqlik" prinsipi o'quv jarayonida shaxsning axloqiy shakllanishini ta'limning asosiy natijalaridan biri sifatida talqin etadi [3]. Ushbu yondashuv bugungi kunda ham o'quv mashg'ulotlarining tarbiyaviy mohiyatini anglashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Psixologik-pedagogik yo'nalishda L.S. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi o'quv mashg'ulotining samaradorligini talaba va o'qituvchi o'rtasidagi ijtimoiy muloqot hamda hamkorlik orqali izohlaydi [4]. Bu esa o'z navbatida, ta'lim jarayonining nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy imkoniyatlarini ham kengaytiradi.



Shuningdek, J. Dewey o‘zining pragmatik pedagogik qarashlarida ta’limni “hayotga tayyorgarlik” emas, balki “hayotning o‘zi” sifatida talqin etadi. Uning fikricha, o‘quv mashg‘ulotlarining tarbiyaviy ahamiyati talabaning amaliy faoliyatga jalb etilishi, jamoaviy muammolarni hal qilish jarayonida ijtimoiy mas’uliyatni anglashida namoyon bo‘ladi [5].

2. Milliy pedagogik meros va jadidchilik falsafasi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘quv mashg‘ulotlarining tarbiyaviy mazmuni milliy pedagogik meros bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ta’lim jarayoni aql va ruh uyg‘unligiga asoslangan holda talqin etilib, har bir darsning asosiy maqsadi komil insonni shakllantirishdan iborat ekanligi ta’kidlanadi [6]. Ushbu g‘oya zamonaviy pedagogik konsepsiyalar bilan uyg‘un holda o‘quv mashg‘ulotlarining tarbiyaviy potensialini anglashga xizmat qiladi.

Jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy pedagogik faoliyatida ilm-fanni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qiladi [7]. Uning qarashlariga ko‘ra, ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki ma’naviy kamolotga erishish vositasi sifatida ham xizmat qilishi zarur. Bu yondashuv hozirgi oliy ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari bilan hamohangdir.

3. Zamonaviy xalqaro yondashuvlar va kompetensiyaviy paradigma.

Bugungi kunda global ta’lim makonida UNESCO tomonidan ilgari surilgan “Learning to be” va “Learning to live together” tamoyillari ta’limning tarbiyaviy komponentini belgilovchi muhim konseptual asos sifatida qaralmoqda [8]. Mazkur yondashuvlar talabalarning nafaqat kasbiy bilimlarini, balki global fuqarolik ongini, ijtimoiy mas’uliyatini va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Shuningdek, OECD tomonidan ishlab chiqilgan “Learning Compass 2030” modeli oliy ta’limda tarbiyaviy komponentni kompetensiyaviy integratsiya asosida talqin etadi. Ushbu model doirasida tanqidiy fikrlash, empatiya va o‘z-o‘zini boshqarish kabi ko‘nikmalar o‘quv mashg‘ulotlarining muhim tarbiyaviy natijalari sifatida e’tirof etiladi [9].

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, klassik, milliy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ta’lim va tarbiya jarayonlarining uzviyligi umumiy g‘oya sifatida e’tirof etilgan. Biroq, oliy ta’lim muassasalarida, ayniqsa, texnik va tabiiy fanlar kesimida o‘quv mashg‘ulotlarining tarbiyaviy potensialini amaliy jihatdan ro‘yobga chiqarish mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur holat oliy ta’lim tizimida fanlararo integratsiyaga asoslangan, tizimli pedagogik shartlar va samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot oliy ta'lim tizimida o'quv mashg'ulotlarining tarbiyaviy potensialini aniqlash, tahlil qilish va tizimlashtirishga qaratilgan bo'lib, kompleks nazariy-tahliliy yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot metodologiyasi pedagogik jarayonlarni tarixiylik, tizimlilik va funktsionallik tamoyillari asosida o'rganishni nazarda tutadi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini ta'lim va tarbiya birligi g'oyasiga tayanuvchi klassik hamda zamonaviy pedagogik konsepsiyalar tashkil etadi. Metodologik yondashuv quyidagi darajalarda amalga oshirildi:

Falsafiy daraja: Tadqiqotda insonparvarlik va dialektik yondashuvlar asos qilib olindi. Bunda talaba shaxsi oliy qadriyat sifatida qaralib, uning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi uzluksiz va o'zaro bog'liq jarayon sifatida talqin etildi.

Umumilmiy daraja: Tizimli va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar qo'llanildi. O'quv jarayoni o'zaro bog'liq komponentlardan (maqsad, mazmun, metod, natija) tashkil topgan yaxlit tizim sifatida tahlil qilindi.

Xususiy-ilmiy daraja: Tadqiqotda L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-konstruktivistik yondashuvi, J. Deweyning tajribaga asoslangan ta'lim konsepsiyasi, Ya.A. Komeńskining tabiiy muvofiqlik prinsipi, shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdulla Avloniyning milliy pedagogik qarashlari metodologik asos sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi:

– Nazariy tahlil va umumlashtirish: Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro ta'lim strategiyalari hamda O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari tizimli ravishda o'rganildi.

– Qiyosiy-pedagogik tahlil: Milliy oliy ta'lim tajribasi rivojlangan davlatlar (xususan, Finlyandiya va Janubiy Koreya) ta'lim modellari bilan taqqoslandi, natijada umumiy va o'ziga xos jihatlar aniqlandi.

– Modellashtirish: Tadqiqot natijalari asosida o'quv jarayonining mazmuniy, metodik va tarbiyaviy komponentlarini integratsiyalovchi "integratsion tarbiyaviy model" ishlab chiqildi.

– Interpretativ tahlil: UNESCO va OECD tomonidan ilgari surilgan kompetensiyaviy yondashuvga oid konsepsiyalar milliy ta'lim sharoitiga moslashtirildi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Konseptual bosqich – muammoning qo'yilishi, ilmiy adabiyotlar va me'yoriy-huquqiy manbalarni tanlash va tizimlashtirish;
2. Analitik bosqich – mavjud o'quv dasturlari va metodik materiallarning

- tarbiyaviy imkoniyatlarini tahlil qilish hamda qiyosiy o'rganish;
3. Sintetik bosqich – olingan natijalarni umumlashtirish, integratsion modelni ishlab chiqish va amaliy tavsiyalarni shakllantirish.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Oliy ta'lim tizimida o'quv mashg'ulotlarining tarbiyaviy potensialini amalga oshirish jarayoni faqatgina bilim va axborot uzatish bilan cheklanmay, balki talaba shaxsining ichki ma'naviy transformatsiyasini ta'minlovchi kompleks pedagogik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarbiyaviy samaradorlikka erishish uchun ta'lim mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllari o'rtasida dialektik uyg'unlikni ta'minlash muhim shart hisoblanadi.

1. Tarbiyaviy potensialning tarkibiy modelini aniqlash natijalari.

Tadqiqot davomida o'quv mashg'ulotlarining tarbiyaviy potentsiali to'rt asosiy komponent asosida tizimlashtirildi (1-jadval).

1-jadval

O'quv mashg'ulotlari tarbiyaviy potensialining tarkibiy elementlari

Komponent	Mazmuniy mohiyati	Kutilayotgan natija
Axloqiy komponent	Halollik, adolat, bag'rikenglik, pedagogik etika	Axloqiy barqarorlik va shaxsiy poklik
Ijtimoiy komponent	Hamkorlik, ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik ong	Jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasi
Estetik komponent	San'at, madaniyat va milliy qadriyatlar	Ma'naviy-estetik didning shakllanishi
Intellektual komponent	Tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv	Mustaqil va kreativ tafakkur

Natijalar shuni ko'rsatadiki, mazkur komponentlarning o'quv jarayonida o'zaro integratsiyalashuvi talabaning nafaqat kasbiy jihatdan, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Ushbu holat ijtimoiy-madaniy yondashuv nuqtayi nazaridan talqin etilganda, o'quv mashg'uloti talaba uchun qadriyatlar almashinuvi va ijtimoiy tajriba orttirish maydoni sifatida namoyon bo'lishi aniqlanadi.

2. Pedagogik shartlar tizimining samaradorligi.

Tadqiqot jarayonida o'quv mashg'ulotlarining tarbiyaviy potensialini ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi beshta asosiy pedagogik shart aniqlanib, ularning funksional ahamiyati asoslab berildi:

Maqsadli integratsiya: Fan dasturlariga tarbiyaviy maqsadlarning tizimli



ravishda kiritilishi ta'lim mazmunini boyitadi hamda kasbiy bilimlarni axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtiradi. Ayniqsa, texnik va iqtisodiy yo'nalishlarda kasbiy etika, ekologik mas'uliyat kabi tushunchalarning integratsiyasi ta'limning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi.

Innovatsion metodlar: Keys-stadi, loyiha asosida o'qitish, debat va muammoli ta'lim metodlari talabaning faolligini oshirib, uni o'quv jarayonining faol subyektiga aylantiradi. Ushbu metodlar orqali talaba nafaqat bilimni o'zlashtiradi, balki mustaqil fikr yuritish, o'z pozitsiyasini asoslash va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

O'qituvchi shaxsiyati: Tadqiqot natijalari o'qituvchining shaxsiy fazilatlari va pedagogik madaniyati tarbiyaviy jarayonning samaradorligida hal qiluvchi omil ekanligini ko'rsatdi. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki qadriyatlar tizimini shakllantiruvchi ma'naviy yetakchi sifatida namoyon bo'lishi zarur.

Ijtimoiy faol muhit: Auditoriyadan tashqari faoliyatlar – ijtimoiy loyihalar, volontyorlik, jamoaviy tashabbuslar – talabalarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon nazariy bilimlarning real hayotiy qadriyatlarga aylanishini ta'minlaydi.

Monitoring va refleksiya: Tarbiyaviy natijalarni baholash faqat akademik ko'rsatkichlar bilan cheklanmasligi lozim. Talabaning kommunikativ madaniyati, jamoaviy ishlash qobiliyati, ijtimoiy faolligi kabi ko'rsatkichlar refleksiv monitoring asosida tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

3. Xalqaro va milliy tajriba kontekstida muhokama.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim tizimlarida tarbiyaviy komponent kompetensiyaviy yondashuv asosida talqin qilinadi. Xususan, rivojlangan davlatlar tajribasida ta'lim samaradorligi uning insonparvarlik va ijtimoiy yo'naltirilganlik darajasi bilan baholanadi.

Milliy pedagogik meros va zamonaviy xalqaro yondashuvlarning integratsiyasi esa ta'lim jarayonining mazmunan boyishiga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, o'quv mashg'ulotlarida milliy qadriyatlar bilan global kompetensiyalar uyg'unligini ta'minlash muhim metodik yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

4. Raqamli ta'lim muhitida tarbiyaviy potensial.

Tadqiqot natijalari raqamli ta'lim muhitida ham tarbiyaviy potensialni samarali amalga oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, LMS platformalarida:

- etik muhokama forumlari,
- ma'naviy-tarbiyaviy modullar,
- refleksiv topshiriqlar

joriy etilishi orqali talabalarning qadriyatga asoslangan fikrlashini rivojlantirish



mumkin.

Olingan natijalar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, o'quv mashg'ulotlarining tarbiyaviy potensialini amalga oshirish kognitiv, affektiv va ijtimoiy komponentlarning o'zaro integratsiyasiga asoslanadi. Pedagogik shartlar tizimli va izchil ravishda joriy etilgan taqdirda, oliy ta'lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim ijtimoiy institutga aylanadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida o'quv mashg'ulotlarining tarbiyaviy potensialini samarali amalga oshirish ta'lim va tarbiya jarayonlarining uzviy integratsiyasiga asoslangan murakkab, ammo zarur pedagogik tizim ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o'quv mashg'ulotlarining tarbiyaviy ahamiyati ularning mazmuni, metodlari va subyektlararo muloqoti orqali talabanning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatishida namoyon bo'ladi.

Ilmiy tahlillar asosida o'quv mashg'ulotlarining tarbiyaviy potentsiali axloqiy, ijtimoiy, estetik va intellektual komponentlar birligida shakllanishi asoslandi. Ushbu komponentlarning o'zaro uyg'unlashuvi talabanning har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlovchi va fuqarolik mas'uliyatiga ega shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan pedagogik shartlar tizimi – maqsadli integratsiya, innovatsion metodlardan foydalanish, o'qituvchi shaxsiyatining yetakchi roli, ijtimoiy faol ta'lim muhitini yaratish hamda monitoring va refleksiya mexanizmlarini joriy etish – oliy ta'limda tarbiyaviy samaradorlikni ta'minlovchi asosiy omillar sifatida e'tirof etildi. Ayniqsa, o'qituvchining axloqiy yetakchilik roli va shaxsiy namunasining ustuvorligi tarbiyaviy jarayonning markaziy elementi ekanligi isbotlandi.

Shuningdek, interaktiv metodlar va raqamli ta'lim platformalaridan samarali foydalanish talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va tarbiyaviy jarayonni zamonaviy shakllarda tashkil etish imkonini berishi aniqlandi. Bu esa ta'lim jarayonida an'anaviy yondashuvlardan kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan modelga o'tish zaruratini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, pedagogik shartlarning tizimli va izchil amalga oshirilishi oliy ta'lim muassasalarida nafaqat yuqori malakali mutaxassis, balki ma'naviy yetuk, ijtimoiy mas'uliyatli va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, milliy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini



ta'minlash hamda jamiyatning ma'naviy-axloqiy poydevorini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi. Ta'lim to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida: Farmon, 2019-yil 8-oktyabr, PF-5847-son. – Toshkent, 2019.
3. Komenskiy, Ya. A. Buyuk didaktika. – Toshkent: O'qituvchi, 1975. – B. 320.
4. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – P. 159.
5. Dewey, J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – P. 116 .
6. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – B.. 160.
7. Behbudiy, M. Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi. – Samarqand, 1913. – B. 24.
8. UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – P. 68.
9. OECD. Teaching for the Future: Competency-based Education Frameworks. – Paris: OECD iLibrary, 2023. – P. 120.

PEDAGOGIKA

BIOLOGIYA O'QITUVCHISINING ZAMONAVIY KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TA'LIM MUHITINING NAZARIY ASOSLARI

RAXMATOVA SALIMA TOGAYMURADOVNA

Termiz davlat pedagogika instituti

“Kimyo-biologiya” kafedراسi dotsenti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Email: raxmatova2022@gmail.com

UDK: 371.14:37.011.3

<https://orcid.org/0009-0009-8848-6706>

Kalit so'zlar:

raqamli texnologiyalar, uzluksiz kasbiy faoliyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, immersiv, zamonaviy ta'lim, raqamli bilimlar.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarni zamonaviy metodikalarga o'rgatishga qaratilgan milliy markazlar faoliyatini onlayn va oflayn shakllarda samarali tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini raqamli ta'lim muhiti asosida takomillashtirish imkoniyatlari, uning asosiy komponentlari hamda didaktik tamoyillari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kompetensiyaviy sifatlari va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar aniqlashtirilgan. Tadqiqot natijalari pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ta'lim amaliyotiga samarali joriy etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СОВРЕМЕННОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЯ БИОЛОГИИ

Ключевые слова: цифровые **Аннотация:** В данной статье освещены вопросы использования цифровых технологий в эффективной

технологии, непрерывная профессиональная деятельность, информационно-коммуникационные технологии, иммерсивные технологии, современное образование, цифровые знания.

организации деятельности национальных центров, направленных на обучение будущих педагогов современным методикам в онлайн и офлайн формах. Также проанализированы возможности совершенствования профессионально-методической подготовки будущих учителей биологии на основе цифровой образовательной среды, ее основные компоненты и дидактические принципы. В процессе исследования выявлены педагогические условия, служащие развитию компетентностных качеств и креативных способностей будущих учителей биологии. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение в совершенствовании системы подготовки педагогических кадров, повышении качества образования и эффективном внедрении современных образовательных технологий в образовательную практику.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN IMPROVING THE MODERN PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF BIOLOGY TEACHERS

Keywords: digital technologies, continuous professional activity, information and communication technologies, immersive technologies, modern education, digital knowledge.

Abstract: This article highlights the issues of using digital technologies in the effective organization of the activities of national centers aimed at training future teachers in modern methods in online and offline forms. Also, the possibilities of improving the professional and methodological training of future biology teachers based on the digital educational environment, its main components, and didactic principles were analyzed. In the course of the research, pedagogical conditions that serve the development of competence qualities and creative abilities of future biology teachers were identified. The research results have important scientific and practical significance in improving the system of training pedagogical personnel, improving the quality of education, and effectively introducing modern educational technologies into educational practice.



KIRISH

Hozirgi kunda global texnologik taraqqiyot, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Raqamli transformatsiya jarayoni ta'lim mazmuni, shakli va metodlarini yangilashni, pedagogik faoliyatni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etishni talab etmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlar, jumladan biologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar hamda raqamli ta'lim vositalaridan samarali foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Biologiya fanini o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash o'quv jarayonini yanada vizual, interaktiv va samarali tashkil etish imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar, multimediyalar resurslari, elektron platformalar hamda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish biologik jarayonlarni chuqurroq anglashga, murakkab biologik hodisalarni modellashtirishga va o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini zamonaviy raqamli ta'lim muhitiga mos ravishda takomillashtirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli ta'lim muhiti o'quv jarayonini individuallashtirish, differensial yondashuvni ta'minlash hamda o'quvchilarning mustaqil bilim olish kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bunday muhit o'qituvchidan nafaqat fan bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishni, balki raqamli texnologiyalar, elektron resurslar va interaktiv platformalardan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishni ham talab etadi. Shu jihatdan biologiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llash, o'quv materiallarini multimediyalar vositalari, virtual laboratoriyalar hamda interaktiv ta'lim platformalari asosida taqdim etish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish hamda masofaviy ta'lim platformalarini qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari kengaymoqda. Raqamli ta'lim muhiti pedagoglarning o'zaro hamkorligini kuchaytirish, tajriba almashish hamda innovatsion metodlarni ta'lim amaliyotiga joriy etish uchun qulay pedagogik sharoitlarni yaratadi. Natijada o'quv jarayonining sifat va samaradorligi oshadi hamda o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi ortadi.



Shu munosabat bilan biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini raqamli ta'lim muhiti asosida takomillashtirishning nazariy asoslarini o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotning maqsadi biologiya o'qituvchisining zamonaviy kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda raqamli ta'lim muhitining nazariy asoslarini tahlil qilish hamda uning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta'lim tizimida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar butun dunyo miqyosida kuzatilmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quv jarayonini innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish hamda ta'lim sifatini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning XXI asr kompetensiyalarini shakllantirish, jumladan, tanqidiy fikrlash, mustaqil ta'lim olish, muammolarni hal qilish hamda raqamli vositalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [1, 2].


Raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida ham yangi yondashuvlarni talab qiladi. Jumladan, biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va raqamli resurslardan samarali foydalanish kompetensiyalariga asoslanishi zarur. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etish ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, biologiya o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini modernizatsiya qilish zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti talablariga mos ravishda amalga oshirilishi zarur. M. Isabayeva ta'kidlaganidek, bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, metodik kompetensiyalarni rivojlantirish hamda ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin [3].

Axborot texnologiyalari predmet faoliyatiga bog'liq holda quyidagicha tasniflanadi (1-rasm):

1-rasm


Predmet faoliyatiga bog'liq holda axborot texnologiyalarining tasnifi



Axborot texnologiyalari ma'lumotlarga ishlov berish tipiga muvofiq quyidagicha tasniflanadi (2-rasm):

2-rasm

Ma'lumotlarga ishlov berish tipiga muvofiq axborot texnologiyalarining tasnifi.



Shuni ta'kidlash kerakki, mazkur tasnif shartli ravishda berilgan, chunki ko'pgina axborot texnologiyalari o'zida boshqa turdagi axborotlarni ham mujassamlashtiradi. Masalan, matnli protsessorlar murakkab bo'lmagan hisoblashlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Shuningdek, biologiyani o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining metodik jihatdan qo'llanilishi ham ma'lum tasnifga ega.

Biologiyani o'qitish samaradorligini oshiradigan muhim shartlardan biri – turli ko'rgazmali vositalardan oqilona foydalanishdir. Bu esa o'quv materiallarini chuqurroq o'zlashtirish, bilim sifatini oshirish va mustahkamlashda muhim ahamiyat



kasb etadi.

Biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi shundaki, kompyuter texnologiyalari yordamida ta'lim oluvchilar bilim olish jarayonini yangi, sifat jihatdan yuqori darajada amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, ushbu texnologiyalar ta'lim oluvchilarning o'z shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun keng sharoit yaratad

Shuningdek, ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi biologiya o'qituvchisining kasbiy va metodik tayyorgarligiga yangi talablarni qo'yimoqda. Mazkur yondashuv o'qituvchidan nafaqat fan bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishni, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'quv jarayonini innovatsion metodlar asosida tashkil etish hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishni talab etadi.

Biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish jarayonida ularning shaxsiy sifatlari ham muhim o'rin tutadi. Jumladan, o'qituvchining tashkiliy qobiliyati, kommunikativ kompetensiyasi, ilmiy yangiliklarga ochiqligi hamda o'z kasbiy faoliyatini muntazam tahlil qilib borishi uning kasbiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Bundan tashqari, o'qituvchilarning zamonaviy raqamli texnologiyalar, metodlar va pedagogik vositalarni o'rganishi hamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llashi ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

V.G. Reshetnikov pedagoglarning tashkiliy-metodik qo'llab-quvvatlash tizimini bir necha tarkibiy komponentlarga ajratadi. Unga ko'ra, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish uchun diagnostik-tahliliy, qadriyatli, metodik va prognostik komponentlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur komponentlar o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini monitoring qilish, metodik yordam ko'rsatish hamda pedagogik faoliyat istiqbollari belgilashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot biologiya o'qituvchisining zamonaviy kasbiy-metodik tayyorgarligini raqamli ta'lim muhiti asosida takomillashtirishning nazariy va metodik asoslarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishning tarkibiy tuzilishi, didaktik modeli, shakl, usul va vositalari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarini o'rganish va tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi.

Raqamli ta'lim muhitida biologiya o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-didaktik model interaktiv axborot-ta'lim resurslaridan samarali foydalanish, mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish



hamda pedagoqlarning shaxsiy-kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur model biologiya o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy tayyorlash tizimining maqsad va vazifalari, mazmuni, tuzilishi, shakllari hamda o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologik jihatdan tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi hamda faoliyatga asoslangan yondashuv tamoyillariga tayanadi. Bundan tashqari, ta'limni raqamlashtirish, masofaviy va aralash ta'lim modellarining ilmiy-nazariy asoslari ham tadqiqotning metodologik poydevorini tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning quyidagi metodlaridan foydalanildi:

Nazariy tahlil – biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligiga oid pedagogik, psixologik hamda metodik adabiyotlarni o'rganish va umumlashtirish;

Taqqoslash va tizimlashtirish – mavjud pedagogik yondashuvlar, metodlar va modellarni qiyosiy tahlil qilish hamda ularni tizimlashtirish;

Modellashtirish – biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan raqamli ta'lim modelini ishlab chiqish;

Kuzatish – raqamli ta'lim muhitida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlari jarayonini pedagogik jihatdan tahlil qilish;

So'rovnoma va anketa – bo'lajak biologiya o'qituvchilarining raqamli kompetensiyalari, metodik tayyorgarligi hamda o'quv motivatsiyasini aniqlash;

Pedagogik tajriba-sinov ishlari – ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar va modelning samaradorligini amaliyotda tekshirish;

Matematik-statistik tahlil – tajriba jarayonida olingan natijalarni qayta ishlash hamda ularning ishonchliligini aniqlash.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Tahliliy bosqich – tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, muammoning nazariy holati o'rganildi hamda tadqiqot maqsadi, vazifalari va gipotezasi aniqlandi.

2. Loyihalash bosqichi – biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan raqamli ta'lim modeli ishlab chiqildi.

3. Tajriba-sinov bosqichi – ishlab chiqilgan model va metodik tavsiyalar amaliyotga joriy etilib, ularning samaradorligi tahlil qilindi.

4. Yakuniy bosqich – olingan natijalar umumlashtirilib, ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini


takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy-didaktik model ishlab chiqildi va uning tarkibiy komponentlari ilmiy jihatdan asoslandi. Mazkur model biologiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, metodik faoliyatini takomillashtirish hamda raqamli ta'lim muhitida samarali pedagogik faoliyat olib borish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasida biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish jarayonida kasbiy yaratuvchanlik (kreativlik) parametrlariga ustuvor ahamiyat berish zarurligi aniqlandi. Shu asosda uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirish, xususan magistratura bosqichi hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlari o'rtasida uzviylikni ta'minlash maqsadida magistratura bosqichi uchun "Biologiyaning konseptual asoslari" nomli darslik ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Zamonaviy ta'lim muhitida biologiya o'qituvchisi innovatsion faoliyat sub'ekti sifatida faoliyat yuritib, ta'lim jarayonini tashkil etishda yangi pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llash orqali innovatsion rivojlanish jarayonining muhim ishtirokchisiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan biologiya o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-didaktik model quyidagi tarkibiy komponentlarni o'z ichiga olishi asoslab berildi (2-rasm):

3-rasm.

Biologiya o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-didaktik model quyidagi tarkibiy komponentlari.





Mazkur komponentlar biologiya o'qituvchisining kasbiy faoliyatini tahlil qilish, pedagogik jarayonni rejalashtirish, metodik faoliyatni samarali tashkil etish hamda ta'lim jarayonining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra biologiya o'qituvchilarini metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimida metodik blok muhim o'rin egallashi aniqlandi. Ushbu blok quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- axborot-metodik yo'nalish;
- tashkiliy-metodik yo'nalish;
- amaliy (tajriba asosida qo'llash) yo'nalishi [6, 122].

Tashkiliy-metodik modul pedagoqlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishga qaratilgan turli metodik tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, muammoli-maqсадli seminarlar, ilmiy-metodik seminarlar, loyihalashga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, davra suhbatlari, vebinarlar, mavzuli individual hamda jamoaviy maslahatlar tashkil etish biologiya o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Biologiya o'qituvchilarining tashkiliy-metodik qo'llab-quvvatlash samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etishi aniqlashtirildi:

- biologiya o'qituvchisining nafaqat kasbiy, balki ma'naviy rivojlanishini ta'minlash;
- pedagogning kasbiy identikligi hamda kasbiy qadriyatlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- pedagoqlarning kasbiy faoliyatida uchraydigan muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyasini rivojlantirish;
- pedagoqlarning kasbiy rivojlanish motivatsiyasini rag'batlantirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish;
- pedagoqlarning kasbiy yutuqlarini baholash tizimini takomillashtirish hamda ularning kasbiy karerasini qo'llab-quvvatlash.

Ta'lim jarayonini raqamlashtirish biologiya o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash, ya'ni "hayot davomida ta'lim olish" tamoyilini amalga oshirish uchun muhim shartlardan biri hisoblanadi. Raqamli ta'lim muhiti o'qituvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish, bilim almashish hamda pedagogik tajribalarni kengaytirish imkoniyatlarini yaratadi [7].

Ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, biologiya o'qitish jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan qo'llanilayotgan o'qitish metodlariga bog'liq. Raqamli ta'lim muhitida biologiya o'qituvchilarining kasbiy rivojlanish jarayonida qo'llaniladigan o'qitish metodlari pedagoqlar faoliyatini malaka



oshirishdan ko‘zlangan maqsadlarga yo‘naltirish bilan birga ularning bilish faoliyatini ham faollashtiradi.

Yangi metodikalarni o‘rgatishda qo‘llaniladigan metodlar quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish;
- tinglovchilarning bilish faoliyati hamda kasbiy rivojlanish jarayonini faollashtirish;
- pedagoglar va tinglovchilarning hamkorlikdagi faoliyatini samarali boshqarish.

Shuni ta’kidlash joizki, biologiya o‘qituvchilarini yangi metodikalarga o‘rgatish jarayonida milliy markazlarda ishlab chiqilgan metodlar tizimi biologiya o‘qitishning an’anaviy metodlari hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llaniladi. Ushbu metodlar tizimining asosini didaktik va interaktiv metodlar tashkil etadi. Jumladan, passiv, aktiv hamda interaktiv metodlardan kompleks foydalanish biologiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

MUHOKAMALAR

Biologiya o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan metodik tizim malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayonida tinglovchilar kontingenti shakllangandan so‘ng samarali faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Mazkur tizimning muhim xususiyati shundan iboratki, unda tinglovchilarning faol ishtiroki asosiy komponentlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki pedagoglarning kasbiy rivojlanish jarayoni faqatgina nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanib qolmay, balki amaliy faoliyat jarayonida metodik ko‘nikmalarni shakllantirishni ham nazarda tutadi.

Biologiya o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi pedagogning faol ishtirokisiz amalga oshirilmaydi. Shu sababli mazkur jarayonda biologiya o‘qitish metodikasi bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lgan, pedagogik faoliyatni zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil eta oladigan hamda kattalarni o‘qitishning o‘ziga xos metodlari va tashkiliy shakllaridan samarali foydalanishga qodir o‘qituvchining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday o‘qituvchi pedagogik jarayonni tashkil etishda metodologik, psixologik va didaktik yondashuvlardan kompleks foydalanadi hamda tinglovchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik muhitni shakllantiradi.

Biologiya o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish tizimining asosiy maqsadi pedagoglarda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Shu bois mazkur



tizimning yakuniy natijasi sifatida tinglovchilarda pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik darajasini ifodalovchi kasbiy kompetentlikning shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining yakuniy komponenti pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan natijaviy ko'rsatkichlar bilan belgilanadi.

Mazkur tadqiqot doirasida "kasbiy kompetentlik" tushunchasi tinglovchining integrativ bilimlari, ko'nikma va malakalari asosida kasbiy-pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Bunday kompetentlik pedagogdan nafaqat nazariy bilimlarni, balki pedagogik jarayonni tashkil etish, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda o'quv jarayonini boshqarish ko'nikmalarini ham talab etadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik rivojlanishini raqamli ta'lim muhitida tashkil etish alohida pedagogik yondashuvlarni talab etadi. Ta'limni raqamlashtirish jarayoni o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, ularning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zaruratini ham yuzaga keltiradi. Shu sababli biologiya o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida quyidagi ilmiy-amaliy vazifalarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

- o'qituvchilarni yosh, tajriba va bilim darajasiga ko'ra differensial yondashuv asosida tayyorlash;
- biologiya fanini zamonaviy metodika asosida o'qitishga ilmiy-amaliy jihatdan tayyorlash;
- pedagoglarni milliy va umuminsoniy ta'lim-tarbiya tajribalari bilan tanishtirish;
- o'qituvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish hamda innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash;
- malaka oshirish jarayonidan so'ng pedagoglarning ilmiy-metodik saviyasini uzluksiz ravishda rivojlantirish;
- o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muloqot madaniyatini takomillashtirishning zamonaviy usullarini joriy etish;
- pedagoglarni ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik hamda ilmiy-metodik tavsiyalar bilan ta'minlash;
- yosh va tajribali o'qituvchilar o'rtasida pedagogik hamkorlikni rivojlantirish.

Shu tariqa, biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini raqamli ta'lim muhitida rivojlantirish pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish, innovatsion pedagogik faoliyatni qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, biologiya o'qituvchisining zamonaviy kasbiy–metodik tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli ta'lim muhiti muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish o'qituvchining pedagogik mahoratini oshiradi, o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi va biologiya fanini o'qitish samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu bois, biologiya o'qituvchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonlarida raqamli ta'lim muhitidan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi “Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4805-son qarori. <https://lex.uz>
3. Змеев С. И. Андрагогика: основы теории, истории и технологии обучения взрослых. – М.: ПЕР СЭ, 2007. – С. 272.
4. Дмитриева Е. А. Опыт создания предметной информационно-образовательной среды // Ярославский педагогический вестник. 2020. № 3 (114). – С. 51-57. DOI: 10.20323/1813-145X-2020-3-114-51-57.
5. Муслимов Н. А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-метodik асослари: пед. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент: ТДПУ, 2007. – Б. 47.
6. Моор П. К., Моор С. М. Виртуальное взаимодействие в современном образовательном пространстве // Электронное образование: перспективы использования SMART-технологий : материалы III Международной научно-практической видеоконференции. – Тюмень : ТюмГНГУ, 2016. – С. 170.
7. Wit M., Dompsele H. How to create a digital learning environment consisting of various components and acting as a whole? http://www.eunis.org/download/2017/EUNIS_2017_paper_16.pdf
8. Raxmatova S. T. Biologiya o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini ta'minlashda izchillik masalalari // International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. 2021. Vol. 1, Issue 3. – P. 102-105.



9. Raxmatova S. T. Biologiya fan o'qituvchilarining innovatsion faoliyatga metodik tayyorgarligini ta'minlashning ayrim masalalari // *Academia: Research in Educational Sciences*. 2021. Vol. 2, Issue 11. – P. 648-654.
10. Raxmatova S. T. Educational-methodical complex of the discipline as a means of developing self-educational activities of students // *Academia Globe: Inderscience Research*. 2021. Vol. 2, Issue 10. – P. 26-30.
11. Raxmatova S. T. Raqamli ta'lim muhitida biologiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligini orttirish mazmuni va sharoitlari // *Mug'allim hem uzluksiz bilimlendiriw ilmiy-metodikaliq jurnali*. – Qaraqalpaqstan, 2020. № 6/1. – B. 30-34.
12. Raxmatova S. T. Malaka oshirish tizimida biologiya o'qituvchilarining metodik kompetensiyasini takomillashtirish – dolzarb pedagogik muammo sifatida // *Uzluksiz ta'lim jurnali*. – Toshkent, 2021. Maxsus son. – B. 109-113.
13. Raxmatova S. T. Problems of professional and methodical training of biology teachers in the system of professional development // *Science, innovations and education: problems and prospects: materials of the 11th International scientific and practical conference*. – Tokyo, Japan, 2022. – P. 450-454.
14. Raxmatova S. T. Biologiya o'qituvchilarining malaka oshirish tizimida kasbiy-metodik tayyorgarligini ta'minlash masalalari // *Zamonaviy jamiyatda fan va ta'limning rivojlanish istiqbollari: muammo va yechimlar: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari*. – Surxondaryo, 2021. – B. 688-692.

PEDAGOGIKA

TA'LIM-TARBIYANING TARIXIYLIK, MILLIYLIK, UMUMINSONIYLIK QONUNIYATI

CHORIYEV IKROM ABDUSHUKUROVICH

O'zbekiston Respublikasi OTFIV huzuridagi

Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi mutaxassisi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Tel: +998 90 139-40-32

UDK: 373.3:502.4

Kalit so'zlar:

tarixiylik, milliylik, umuminsoniylik, ta'lim-tarbiya, qonuniyat, UNESCO, metod, prinsip, vosita, tadqiqot, qadriyat.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada ta'lim-tarbiyaning insoniyat jamiyati paydo bo'lgan davrdan boshlab uzluksiz rivojlanib kelgani, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'рни va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim-tarbiyaning tarixiylik, milliylik va umuminsoniylik qonuniyatlari, ularning o'zaro bog'liqligi hamda pedagogik jarayonda namoyon bo'lish xususiyatlari yoritilgan. Maqolada ta'lim-tarbiyaning jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy va madaniy rivojlanishiga ta'siri, pedagogik merosdan foydalanish zarurati asoslab berilgan. Tadqiqot jarayonida tarixiy-tahliliy, qiyosiy, tizimli yondashuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan hamda olingan natijalar ta'lim tizimini takomillashtirishga xizmat qilishi ta'kidlangan.

ЗАКОН ИСТОРИЧНОСТИ, НАЦИОНАЛЬНОСТИ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧНОСТИ ВОСПИТАНИЯ И ОБРАЗОВАНИЯ

Ключевые слова:

историчность, национальность, общечеловечность, образование и воспитание, закономерность, UNESCO, метод, принцип, средство,

Аннотация: В данной статье научно освещается развитие образования и воспитания с момента возникновения человеческого общества, а также их роль и значение в развитии общества. Рассматриваются закономерности историчности, национальности и общечеловечности воспитания и образования, их взаимосвязь и особенности проявления в педагогическом процессе. Особое внимание уделяется использованию педагогического наследия и национальных ценностей в системе образования. В

исследование,
ценность.

исследованиях применены историко-аналитический, сравнительный и системный методы. Полученные результаты могут быть использованы для совершенствования системы образования и воспитания.

THE LAW OF HISTORICITY, NATIONALITY AND UNIVERSALITY IN EDUCATION AND UPBRINGING

Keywords:

historicity,
nationality,
universality,
education and
upbringing, law,
UNESCO, method,
principle, tool,
research, value.

Abstract:

This article examines the development of education and upbringing since the emergence of human society and highlights their role in social progress. The study analyzes the laws of historicity, nationality, and universality in education, their interrelation, and their manifestation in the pedagogical process. Particular attention is given to the effective use of pedagogical heritage and national values in modern education. Historical-analytical, comparative, and systemic research methods were applied in the study. The findings of the research contribute to improving the education and upbringing system and enhancing its theoretical and practical foundations.

KIRISH

Bugungi kunda globallashuv zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotining muhim xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'lib, u jamiyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda ma'naviy-mafkuraviy sohalarini qamrab olmoqda. Milliy chegaralarni tobora shartli holga keltirayotgan globallashuv jarayonlari natijasida dunyoda yagona texnologik va axborot makonining shakllanishi kuzatilmoqda. Xususan, texnologik globallashuv zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi bilan bog'liq bo'lsa, siyosiy globallashuv davlatlar o'rtasidagi hamkorlik, integratsiya va boshqaruv tizimlaridagi o'zgarishlarni ifodalaydi. Shu bilan birga, fan, madaniyat, ta'lim va axloq sohalaridagi yangilanishlar ijtimoiy-madaniy globallashuv jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Globallashuv sharoitida axborot oqimining tezlashuvi, innovatsion pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar uyg'unligini ta'minlash, yosh avlodni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan bir qatorda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash zaruratini kuchaytirmoqda. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya tizimining mazmunini globallashuv

talablari asosida takomillashtirish, uning milliylik va umuminsoniylik jihatlarini chuqur o‘rganish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ta’lim-tarbiya insoniyat jamiyati tarixiy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib kelgan. Inson tomonidan yaratilgan ijtimoiy tajribalarni yosh avlodga yetkazish, ularni hayotga, mehnatga va kasb-hunarga tayyorlash, ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon tarixiylik, milliylik va umuminsoniylik tamoyillariga asoslanib, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida “Ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”, – deya ta’kidlangan.

ASOSIY QISM

Pedagogik fikrlar va ta’limotlar, avvalo, insoniyat tomonidan yaratilgan ilm va ma’naviyat xazinasidan samarali foydalanish yo‘llarini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, ular ta’lim-tarbiya qonuniyatlari, prinsip va vositalari haqida zarur bilim hamda ko‘nikmalarni shakllantirishning samarali usullarini boyitadi. Tarixiylik qonuniyati har bir muammoning kelib chiqishi, uning jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti jarayonida sinovdan o‘tgan ilmiylik prinsipiga asoslanishini anglatadi. Shu bois pedagogik merosdan ta’lim-tarbiya tizimida foydalanish muayyan qonuniyatga aylangan.

Bunday izchillik va vorisiylik insoniyatni hozirgi davrdagi yuksak taraqqiyot bosqichiga olib keldi. O‘tmish merosini qadrlagan va undan samarali foydalangan xalq buyuk ijtimoiy, ma’naviy hamda iqtisodiy qudratga ega bo‘lib bormoqda. XXI asr ko‘pincha ma’naviyat asri sifatida e’tirof etilmoqda. Jumladan, UNESCOning 1996-yildagi yig‘ilishida: “Agar insoniyat XXI asrda yashab qolishni istasa, Konfutsiy ta’limotini o‘rganishi zarur”, degan xulosaga kelingani ta’kidlanadi.


Shuningdek, zardushtiylik, tasavvuf, buddizm ta’limotlari hamda Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Konstantin Ushinskiy kabi mutafakkirlarning insonshunoslik borasidagi qarashlari har bir xalq va yosh avlodning intellektual hamda ma’naviy jihatdan boyishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu merosning

eng zarur durdonalaridan bahramand bo'lish jamiyat taraqqiyoti va barkamol shaxsni shakllantirishning muhim omillaridan biridir.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiyaning mohiyati, mazmuni, metodlari va qonuniyatlari ko'pincha badiiy uslubda insonning ezgu fazilatlarini madh etgan asarlarda aks etgan. Shu bois mumtoz adabiyot ta'lim-tarbiya vositasi sifatida xizmat qilgan va pedagogika tarixi bilan uzviy bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Ta'lim-tarbiya nazariyasi insonshunoslik ta'limoti hamda insonni o'rganuvchi fanlar tarixi bilan chambarchas bog'liq holda, jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlari asosida so'nggi uch ming yil davomida bosqichma-bosqich rivojlanib kelgan. Natijada barkamol shaxs, komil inson modeli tobora boyitilib, takomillashtirilib borilgan. Insoniy o'zlikni anglash, bilim va ma'naviyatni yuksaltirish, barkamol shaxsni shakllantirish jarayonida ushbu tarixiy tajribadan tizimli ravishda foydalanish samarali natijalarni ta'minlaydi.

Insonshunoslikda tarixiylik prinsipiga amal qilinishini quyidagi tuzilma orqali ifodalash mumkin:



Ta'lim-tarbiyada milliylik qonuniyati hayotda o'z isbotini topgan muhim tamoyillardan biridir. U milliy qadriyatlar, mintaqaning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy



imkoniyatlariga asoslanadi. Sharqda Xitoy, Koreya kabi davlatlar hamda Yevropa va Amerika qit'asidagi qator mamlakatlar xalqlarining keyingi ikki asr davomida erishgan yutuqlari aynan milliy taraqqiyot yo'liga tayanilganini ko'rsatadi.

Avval Renessansning beshigi bo'lgan O'zbekistonning qariyb bir asr davomida mustamlaka bo'lib qolganligi, ta'lim-tarbiyada milliy ildizlarning uzilganligi, boy ma'naviy qadriyatlardan mahrum etilganligi sababli XX asrda ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotda ortda qolganligi ham tarixiy saboq sifatida e'tirof etiladi. Ma'lumki, ta'lim-tarbiyada milliylik xalqning asrlar davomida hayotda sinovdan o'tgan qadriyatlari, ma'naviy xazinasi, ajdodlar merosi, etnik xususiyatlari va hikmatlarini o'rganish hamda rivojlantirish jarayonini anglatadi.

Professor Muhammadjon Quronov, Oynisa Musurmonova, R.X. Jo'rayev, Rohatoy Safarova, H. Ibragimov kabi olimlar tomonidan milliy ta'lim-tarbiyaning metodologik asoslari ishlab chiqilgan. Shuningdek, Begali Qosimov, Malik Murodov, Anvar Choriyev, Najmiddin Komilov, Qiyomiddin Nazarov, Tal'at Mahmudov, Abdurahim Erkayev kabi olimlar tomonidan milliy tarbiyaning falsafiy asoslari yaratilgan. Mustaqillikdan keyin ushbu ilmiy qarashlar milliy g'oya va ma'naviyat targ'ibotining muhim tayanchiga aylanishiga, xalqimizning o'zligini anglashiga hamda milliy g'ururining tiklanishiga asos bo'ldi.

Demak, milliylik – muayyan xalq va millatga xos bo'lgan, uni boshqalardan ajratib turuvchi xususiyatlar majmuasidir. Milliylik millatning tarixi, qadriyatlari, an'analari, madaniyati va yashash tarzida yaqqol namoyon bo'ladi. Milliylikni anglash uchun millatlar o'rtasidagi farq va tafovutlarni o'rganish bilan birga, ularni yaqinlashtiruvchi jihatlarga ham jiddiy e'tibor qaratish zarur. Chunki boshqa millatlarning yutuqlari va ijobiy tajribalarini o'rganish hamda ularni ijodiy o'zlashtirish milliylikni boyitadi va rivojlantiradi.

Insoniyat tarixida XX asr milliylikning o'sishi va milliy davlatchilik tamoyillarining ustuvorlik kasb etishi bilan xarakterlanadi. Milliylik baynalmilallik bilan uzviy bog'liq holda yagona tizimni tashkil etadi. Baynalmilallikka tayanish, boshqa millatlarning yutuqlari va ilg'or tajribalarini o'rganish hamda ularni hayotga mos ravishda joriy etish milliylikni boyitish va rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Baynalmilallik esa, o'z navbatida, millatlarda mavjud bo'lgan eng yuksak yutuqlar asosida rivojlanadi. O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash uchun milliylik masalalarini chuqur va har tomonlama tahlil qilish hamda ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, milliyligimiz – bu tariximizni, madaniyatimizni, an'alarimizni, boy ma'naviyatimizni va milliy ruhiyatimizni chuqur o'rganish hamda ularni jahon hamjamiyatiga tanitish orqali yanada yuksaladi.




Milliylikning, ya'ni muayyan millatga xos jihatlar, xususiyatlar, ma'naviy va ruhiy qirralarning tobora ko'payib, boyib borishi millatlarning rivojlanishi, yuksalishi va gullab-yashnashining zaruriy shartidir. Hozirgi insoniyat o'z taraqqiyotida uch asosiy manba va uch tayanchga suyanadi. Bular – umuminsoniy sivilizatsiya, bozor iqtisodiyoti va millatlardir. Insoniyat o'z rivojlanish jarayonida millatdan mukammalroq ijtimoiy va etnik birlikni hali topa olmagan. Bozor iqtisodiyoti va iqtisodiy munosabatlarni harakatga keltiruvchi, moddiy va ma'naviy boyliklarni rivojlantiruvchi hamda sivilizatsiyani mustahkamlovchi asosiy kuch ham aynan millatlardir.

Shunday ekan, jamiyatdagi barcha faoliyat millatlarning istiqbolini ochish, ularning rivojlanishi va taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Bu jarayon esa milliylikning yanada boyishi, rang-barang va mazmunan chuqurlashishini talab etadi.

Pedagogika tarixiga oid turkum tadqiqotlar ta'lim-tarbiyaning tarixiylik va milliylik tamoyillari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy jihatdan asoslab beradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy va madaniy merosdan foydalanishda tarixiylik va milliylikning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular shaxsni har tomonlama kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiylik, avvalo, har bir tushuncha va kategoriyaning kelib chiqishi (etimologiyasi), uning bugungi kundagi mazmun-mohiyati hamda tarixiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik prinsip hisoblanadi.

Bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirgan holda, milliy ta'lim-tarbiyada pedagogik merosimizdan foydalanish tizimini quyidagi tuzilma asosida ifodalash mumkin:



XULOSA

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishda tarixiylik va milliylik tamoyillariga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy pedagogik merosdan samarali foydalanish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy va madaniy merosdan foydalanish yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois



pedagogik merosni o'rganish, uni zamonaviy ta'lim tizimiga joriy etish hamda milliy qadriyatlarni rivojlantirish barqaror taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi gazetasi. – 2020. – 17-yanvar.
2. Malik Murod. O'zbek qadriyatlari: 1-kitob. – Toshkent: Mehnat, 1992. – 256 b.
3. Najmiddin Komilov. Tasavvuf yoki komil inson haqida: 1-kitob. – Toshkent, 1996. – 320 b.
4. Anvar Choriyev. Inson falsafasi. Inson to'g'risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti: 1-kitob. – Toshkent, 1998. – 280 b.
5. Abdurahim Erkayev. Ma'naviyat – millat nishoni. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – 192 b.
6. Anvar Choriyev, N. Choriyev. Pedagogika tarixi metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2010. – 304 b.
7. Anvar Choriyev, I. Choriyev. Pedagogikaning fanlararo bog'liqlik metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2011. – 288 b.

PEDAGOGIKA

FIZIKA TA'LIMIDA TARIXIY EKSPERIMENTLAR ASOSIDA O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

SOATOVA HANIFA SUYUNOVNA

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi

Email: soatovahanifa8@gmail.com.

UDK: 53:37.02

<https://orcid.org/0009-0003-9235-6265>

Kalit so'zlar:

fizika ta'limi,
tarixiy
eksperimentlar,
tadqiqotchilik
ko'nikmalari,
ilmiy tafakkur,
pedagogik
texnologiya,
eksperimental
o'qitish.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada fizika ta'limida tarixiy eksperimentlar asosida o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi yoritilgan. Tadqiqot jarayonida Galileo Galiley va Maykl Faradiy tajribalari asosida tashkil etilgan darslarning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali tahlil qilindi. Olingan natijalar tarixiy eksperimentlarga asoslangan o'qitish metodikasi o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ilmiy tafakkuri hamda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, mazkur yondashuv o'quvchilarning fizika faniga bo'lgan qiziqishini oshirishga ham xizmat qilishi aniqlandi.

ФОРМИРОВАНИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ЭКСПЕРИМЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ФИЗИКЕ

Ключевые слова:

обучение физике,
исторические
эксперименты,
исследовательские
навыки, научное
мышление,
педагогические

Аннотация:

В данной статье освещена методика формирования исследовательских навыков учащихся на основе исторических экспериментов в физическом образовании. В ходе исследования была проанализирована эффективность уроков, организованных на основе опытов Галилео Галилея и Майкла Фарадея, посредством экспериментальной работы. Полученные результаты показали, что методика

технологии,
экспериментальное
обучение.

обучения, основанная на исторических экспериментах, эффективна в развитии самостоятельного мышления, научного мышления и исследовательских навыков учащихся. Также было установлено, что этот подход служит повышению интереса учащихся к физике.

DEVELOPING STUDENTS' RESEARCH SKILLS BASED ON HISTORICAL EXPERIMENTS IN PHYSICS EDUCATION

Keywords:

physics education,
historical
experiments,
research skills,
scientific thinking,
pedagogical
technologies,
experimental
learning.

Abstract:

This article highlights the methodology for forming students' research skills based on historical experiments in physics education. In the research process, the effectiveness of lessons organized on the basis of the experiments of Galileo Galilei and Michael Faraday was analyzed through experimental work. The obtained results showed that the teaching methodology based on historical experiments is effective in the development of students' independent thinking, scientific thinking, and research skills. It was also determined that this approach serves to increase students' interest in physics.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qila olishi hamda tadqiqotchilik ko'nikmalariga ega bo'lishi ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, fizika ta'limida o'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish, ularni eksperimental faoliyatga jalb etish va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarida fizika fanini o'qitishda o'quvchilarning tajriba o'tkazish, kuzatish hamda ilmiy xulosalar chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligi alohida belgilangan [1].

Xususan, fizika faniga oid davlat ta'lim talablarida o'quvchilarning "fizik hodisalarni kuzatish, tajribalar o'tkazish va ularning natijalarini tahlil qilish orqali ilmiy xulosalar chiqarish" ko'nikmalariga ega bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi [1]. Ushbu talablar fizika ta'limida an'anaviy bilim berishdan ko'ra, o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, fizika fanining rivojlanish tarixida muhim o'rin tutgan eksperimentlardan foydalanish o'quvchilarda ilmiy bilimlarning shakllanish

jarayonini chuqurroq anglashga yordam beradi. Tarixiy eksperimentlar asosida tashkil etilgan o'quv faoliyati o'quvchilarning muammoni qo'yish, gipoteza ilgari surish, tajriba o'tkazish va xulosa chiqarish kabi tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda samarali metodik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Fizika fanining rivojlanish tarixi ko'plab eksperimental kashfiyotlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular ilmiy bilimlarning shakllanishida muhim rol o'ynagan. Bu jarayon ilm-fanning o'ziga xos xususiyatini yaqqol namoyon etadi. Jumladan, Bill Bryson ta'kidlaganidek, "ilm-fan bu tayyor haqiqatlar to'plami emas, balki insoniyatning xatolar, izlanishlar va kashfiyotlar orqali haqiqatga yaqinlashish jarayonidir" [2]. Ushbu fikr fizika ta'limida tarixiy eksperimentlardan foydalanishning metodik ahamiyatini asoslab beradi.

Jumladan, Galileo Galileyning erkin tushish tajribalari, Isaac Newton tomonidan shakllantirilgan mexanika qonunlari hamda Michael Faraday olib borgan elektromagnit hodisalarga oid tadqiqotlar o'quvchilarda ilmiy tafakkurni rivojlantirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu eksperimentlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o'quvchilar ilmiy bilimlarning qanday shakllanishini anglaydi, sabab-oqibat bog'lanishlarini tahlil qiladi hamda mustaqil xulosalar chiqarishga o'rganadi.

Shu bilan birga, an'anaviy o'qitish usullarida ko'pincha tayyor bilimlarni berishga urg'u berilishi natijasida o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyati yetarli darajada rivojlanmay qolmoqda. Bu esa fizika faniga bo'lgan qiziqishning pasayishiga olib kelishi mumkin. Mazkur muammoni hal etishda tarixiy eksperimentlar asosida tashkil etilgan o'quv faoliyati samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – fizika ta'limida tarixiy eksperimentlar asosida o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Fizika ta'limida o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika hamda fizika o'qitish metodikasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammo kompetensiyaviy yondashuv, muammoli ta'lim va eksperimental faoliyatni rivojlantirish asosida keng qamrovda tadqiq etilmoqda.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, fizika ta'limida eksperiment asosiy didaktik vosita sifatida e'tirof etiladi. Jumladan, Richard Feynman tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko'ra, fizik bilimlarning ishonchliligi eksperiment orqali



tasdiqlanadi va o'quvchilar bilimni faol izlanish jarayonida egallashi lozim [3].

Fizika tarixiga oid tadqiqotlarda ilmiy bilimlarning shakllanishi eksperimental faoliyat bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan. Xususan, Bill Brysonning *A Short History of Nearly Everything* asarida ilmiy taraqqiyot izlanishlar, tajribalar va kashfiyotlar orqali bosqichma-bosqich shakllanishi ko'rsatib berilgan [2]. Bu esa fizika ta'limida tarixiy eksperimentlardan foydalanishning nazariy asoslarini mustahkamlaydi.

Rus metodist olimlari, jumladan Aleksey Vasilyevich Pyoryshkin o'z tadqiqotlarida fizika darslarida laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarning ahamiyatini asoslab bergan [4]. Shuningdek, Lev Landau va Evgeny Lifshitz ilmiy ishlarida nazariya va eksperiment o'rtasidagi uzviy bog'liqlik chuqur tahlil qilingan [5].

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham fizika ta'limi metodikasini takomillashtirishga oid qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, M. Ochilov va Sh. Xolboyevlar fizika darslarida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqqanlar [6]. N. Saidaxmedov pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etishning nazariy asoslarini yoritib, o'quvchilarning ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi [7].

Shuningdek, R. Ishmuhamedov va M. Abduqodirovlar tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning fikricha, o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish uchun dars jarayonida interfaol metodlar hamda amaliy mashg'ulotlardan keng foydalanish zarur [8].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, fizika ta'limida eksperimental yondashuv keng o'rganilgan bo'lsa-da, aynan tarixiy eksperimentlar asosida o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi yetarli darajada tizimli ravishda ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqotda fizika ta'limida tarixiy eksperimentlar asosida o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayoni nazariy va amaliy bosqichlarni o'z ichiga oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda fizika ta'limida tarixiy eksperimentlar asosida o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini o'rganish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Dastlab, nazariy tahlil metodi asosida fizika o'qitish



metodikasiga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlar, o'quv dasturlari va normativ hujjatlar tizimli ravishda o'rganildi. Ushbu bosqichda muammoning ilmiy asoslari, mavjud yondashuvlar hamda tadqiqotning konseptual modeli ishlab chiqildi. Shuningdek, pedagogik kuzatish metodi orqali o'quvchilarning dars jarayonidagi bilish faolligi, mustaqil fikrlashi va eksperimental faoliyatdagi ishtiroki tahlil qilindi.

Amaliy bosqichda pedagogik tajriba-sinov ishlari asosiy metod sifatida qo'llanilib, tarixiy eksperimentlarga asoslangan darslarning samaradorligi aniqlashtirildi. Tadqiqot jarayonida so'rovnoma va test sinovlari yordamida o'quvchilarning bilim darajasi hamda tadqiqotchilik ko'nikmalari baholandi. Olingan natijalar matematik-statistik usullar asosida qayta ishlanib, nazorat va tajriba guruhlari o'rtasidagi farqlar qiyosiy tahlil qilindi. Mazkur metodlar majmuasi tadqiqot natijalarining ishonchliligi va obyektivligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tadqiqotning obyekti umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika fanini o'qitish jarayoni bo'lsa, predmeti esa ushbu jarayonda tarixiy eksperimentlar asosida o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarning mazmuni hamda ularning samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot Surxondaryo viloyatidagi umumta'lim maktablarida tashkil etildi va amaliy sinov ishlari bevosita ta'lim jarayonida olib borildi. Tadqiqot bazasi sifatida tanlangan maktablarda fizika fanini o'qitish jarayoni kuzatilib, tarixiy eksperimentlarga asoslangan metodikaning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali aniqlashtirildi.

Tadqiqotda jami 54 nafar o'quvchi ishtirok etdi, shundan 28 nafari nazorat guruhini, 26 nafari esa tajriba guruhini tashkil etdi. Shuningdek, tajriba jarayonida ikki nafar fizika o'qituvchisi faol ishtirok etib, ular tomonidan darslar tegishli metodika asosida olib borildi hamda o'quvchilarning o'quv faoliyati muntazam kuzatib borildi.

Tadqiqot uch bosqichda – diagnostik, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlarida amalga oshirildi. Diagnostik bosqichda o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasi, fizika faniga bo'lgan qiziqishi hamda tadqiqotchilik ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi aniqlashtirildi. Bu maqsadda test sinovlari, so'rovnomalar va pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida nazorat va tajriba guruhlari o'rtasidagi dastlabki ko'rsatkichlar tahlil qilinib, ularning deyarli teng darajada ekanligi aniqlandi hamda keyingi bosqich uchun zarur metodik yondashuvlar belgilab olindi.

Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhida fizika darslari tarixiy eksperimentlarga asoslangan metodika asosida tashkil etildi. Ushbu bosqichda o'quvchilarga mashhur olimlar tomonidan o'tkazilgan tajribalar asosida muammoli

vaziyatlar yaratildi, ularni mustaqil izlanishga yo‘naltirishga alohida e‘tibor qaratildi. Dars jarayonida o‘quvchilar gipoteza ilgari surish, tajriba o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi tadqiqotchilik faoliyatiga faol jalb etildi. Nazorat guruhida esa an‘anaviy o‘qitish metodlari qo‘llanildi. Ushbu bosqich davomida o‘quvchilarning bilish faolligi va mustaqil ishlash ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlar muntazam kuzatib borildi.

Nazorat bosqichida esa tajriba yakunida o‘quvchilarning bilim darajasi va tadqiqotchilik ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlar qayta baholandi. Bu bosqichda dastlabki diagnostika natijalari bilan yakuniy natijalar qiyosiy tahlil qilindi hamda tarixiy eksperimentlarga asoslangan metodikaning samaradorligi aniqlashtirildi. Olingan ma‘lumotlar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar asoslab berildi. Natijalar ushbu metodikaning o‘quvchilarning ilmiy tafakkuri va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda ijobiy ta‘sir ko‘rsatganini tasdiqladi.

1a- rasm

Galileo Galilei erkin tushish tajribasini integratsiya qilish.





Mazkur tajriba mexanika bo'limida "Erkin tushish harakati" mavzusini o'qitishda qo'llanildi. Dars boshida o'quvchilarga muammoli savol berildi: "Og'ir va yengil jismlar bir xil balandlikdan tashlansa, qaysi biri tezroq yerga tushadi?" O'quvchilar o'z taxminlarini (gipotezalarini) ilgari surdilar. Shundan so'ng tarixiy kontekst berilib, Galileo Galilei tomonidan o'tkazilgan tajriba mazmuni tushuntirildi.

Amaliy qismda o'quvchilar turli massali jismlarni bir xil balandlikdan tashlab, ularning tushish vaqtini kuzatdilar. Ayrim hollarda aniqlikni oshirish uchun qiya tekislikdan foydalanildi. O'quvchilar o'lchov natijalarini jadvalga kiritib, tahlil qildilar va jismlar erkin tushishda bir xil tezlanish bilan harakat qilishini mustaqil ravishda xulosa qildilar. Ushbu jarayon o'quvchilarda kuzatish, taqqoslash va ilmiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirdi.

Ib-rasm.

Maykl Faraday elektromagnit induksiya tajribasini integratsiya qilish.



Ushbu tajriba “Elektromagnit induksiya” mavzusini o‘rganishda qo‘llanildi. Dars boshida o‘quvchilarga quyidagi muammoli savol berildi: “Magnit maydonning o‘zgarishi elektr tokini hosil qila oladimi?” O‘quvchilar o‘z fikrlarini bildirdilar hamda gipotezalar ilgari surdilar. So‘ngra Michael Faraday tomonidan olib borilgan tarixiy tajriba haqida qisqacha ma’lumot berildi.

Amaliy mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilar g‘altak (induktor), magnit va galvanometrda foydalanib tajriba o‘tkazdilar. Magnit g‘altakka kiritilganda yoki undan chiqarilganda galvanometrda elektr tokining hosil bo‘lishi kuzatildi. O‘quvchilar ushbu jarayonni tahlil qilib, magnit maydonning o‘zgarishi natijasida induksion tok hosil bo‘lishini aniqladilar. Tajriba natijalari asosida ular sabab-oqibat bog‘lanishini tushunib yetdilar va nazariy xulosani mustaqil ravishda shakllantirdilar.

Tarixiy eksperimentlarni dars jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilar quyidagi tadqiqotchilik ko‘nikmalarini amaliy faoliyat asosida egalladilar:

- muammoni qo‘yish va gipoteza ilgari surish;
- tajriba o‘tkazish va natijalarni qayd etish;
- olingan natijalarni tahlil qilish hamda ilmiy xulosa chiqarish.

2-rasm.

O‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarining kompetensiya modeli (radar diagramma).

Tadqiqotchilik ko‘nikmalarining kompetensiya modeli (Radar diagramma)




Diagramma mazmunida 5 ta asosiy ko‘nikmaning shakllanish jarayoni aks ettirilgan: muammoni aniqlash, gipoteza ilgari surish, tajriba o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish.

Tajriba natijalari foiz ko'rsatkichlari asosida tahlil qilindi hamda guruhlar o'rtasidagi farqlarni aniqlashda qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi.

Qo'llanilgan metodologiya tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash bilan birga, tarixiy eksperimentlarga asoslangan o'qitish metodikasining samaradorligini kompleks baholash imkonini berdi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Tadqiqot davomida tarixiy eksperimentlar asosida tashkil etilgan o'qitish metodikasining samaradorligini aniqlash maqsadida nazorat va tajriba guruhlarida o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalari diagnostika va yakuniy baholash natijalari asosida qiyosiy tahlil qilindi. Dastlabki bosqichda har ikki guruh o'quvchilarining bilim darajasi va tadqiqotchilik ko'nikmalari deyarli bir xil ko'rsatkichlarda ekanligi aniqlandi. Bu esa tajriba natijalarining obyektivligini ta'minlash uchun muhim shart bo'lib xizmat qildi.

1-jadval.

Tajriba-sinov ishlari natijalari.

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi (%)	Tajriba guruhi (%)
Muammoni tushunish	62	85
Gipoteza tuzish	58	82
Tajriba o'tkazish	60	88
Xulosa chiqarish	65	87

Shakllantiruvchi bosqich yakunida tajriba guruhida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, muammoni aniqlash va qo'yish ko'nikmasi bo'yicha o'quvchilar ulushi 60 % dan 85 % gacha oshdi, gipoteza ilgari surish ko'nikmasi 55 % dan 82 % gacha, tajriba o'tkazish ko'nikmasi 58 % dan 88 % gacha, natijalarni tahlil qilish ko'nikmasi 62 % dan 86 % gacha hamda xulosa chiqarish ko'nikmasi 63 % dan 87 % gacha o'sdi. Nazorat guruhida esa ushbu ko'rsatkichlar nisbatan past darajada o'sib, o'rtacha 5-10 % atrofida o'zgarish kuzatildi.

Natijalarni darajalar kesimida tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida "a'lo" darajadagi o'quvchilar ulushi sezilarli darajada ortdi, "qoniqarli" darajadagi o'quvchilar soni esa kamaydi. Bu esa tarixiy eksperimentlarga asoslangan metodika o'quvchilarning yuqori darajadagi tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, o'quvchilarning mustaqil tajriba o'tkazish va ilmiy xulosa chiqarish ko'nikmalarida sezilarli o'sish kuzatildi.

Olingan natijalar matematik-statistik usullar asosida qayta ishlanib, tajriba va

nazorat guruhlari o'rtasidagi farqlar ishonchli ekanligi aniqlandi. Qiyosiy tahlillar natijasida tarixiy eksperimentlarga asoslangan o'qitish metodikasi an'anaviy yondashuvga nisbatan samaraliroq ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shuningdek, o'quvchilarning fizika faniga bo'lgan qiziqishi ortgani va ularning dars jarayonidagi faolligi oshgani ham kuzatildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari fizika ta'limida tarixiy eksperimentlardan foydalanish o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi hamda ushbu metodikaning amaliy ahamiyatini tasdiqladi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, tarixiy eksperimentlardan foydalanish o'quvchilarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi, balki ularning fanga bo'lgan qiziqishini ham oshiradi. Ayniqsa, Galileo Galiley va Maykl Faraday kabi olimlarning real tajribalari asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda ilmiy merosga nisbatan hurmat va qiziqish uyg'otdi. Bu esa o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish orqali ta'lim samaradorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

XULOSA

Fizika ta'limida tarixiy eksperimentlar asosida o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ushbu metodikaning o'quvchilarning ilmiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi.

Kelgusida ushbu metodikani keng joriy etish va raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari (Fizika fani bo'yicha). – Toshkent, 2021. – B. 45.
2. Bryson B. A Short History of Nearly Everything. – London: Doubleday, 2003. – P. 544.
3. Feynman R. The Feynman Lectures on Physics. – California: Addison-Wesley, 1964.
4. Пёрышкин А. В. Физика. 7–9 классы. – М: Дрофа, 2010.
5. Ландау Л. Д., Лифшиц Е. М. Курс теоретической физики. – Москва: Наука, 1988.
6. Ochilov M., Xolboyev Sh. Fizika o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
7. Saidaxmedov N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent:



Innovatsiya, 2012.

8. Ishmuhamedov R., Abduqodirov M. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2013.



MUNDARIJA:

IJTIMOIIY FANLAR

1. **Xasanova N. I., Ro'ziyeva M. R.** *Rus mustamlakachiligi davrida ta'lim tizimidagi o'zgarishlar (XIX asr oxiri – XX asr boshlarida).....* 5-13
2. **Tursunov J. A.** *Samarqanddagi muqaddas qadamjolar: tarixiy va madaniy meros nuqtai nazaridan tahlil.....* 14-25
3. **Кум М. А., Зуёева М. Э.** *Эвфемизация тем смерти и болезни в русском языке.....* 26-34
4. **Melikov O. M., Xurramova F. B.** *Tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish (O'zbekiston bank tizimi misolida).....* 35-47
5. **Ahatova D. B.** *O'zbek va ingliz badiiy matnlarida stilistik tarjima muammolari.....* 48-56
6. **Amanova O. Ch.** *O'zbek va ingliz xalq ertaklarining tipologik va qiyosiy tahlili.....* 57-64

TABIIY FANLAR

7. **Abirayev I. M., Soatova M. H.** *Funksiyalar sinfi haqida tushuncha.....* 65-80

PEDAGOGIKA

8. **Khaydarova U. P.** *Courtroom narratives in Scott Turow's fiction as a pedagogical tool in legal education.....* 81-92
9. **Yang H.** *Legal and practical issues of copyright protection in Uzbekistan's digital education.....* 93-99
10. **To'raxonov F. B.** *Ta'lim klasteri sharoitida ixtisoslashgan maktab o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik determinantlari.....* 100-107
11. **Boboqulova D. M.** *O'quvchilarda tadbirkorlik va iqtisodiy tarbiya barqarorligini takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillar.....* 108-117
12. **Азизова Р. И.** *Инновационные педагогические технологии в формировании профессиональных компетенций специалистов по физической культуре и спорту.....* 118-126



13. **Shokirov P. K.** *Pedagogik muhitda sport o'yinlarining ta'limiy ahamiyati.....* 127-134
14. **Donayeva N. N.** *Raqamli muhit sharoitida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishning pedagogik strategiyalari.....* 135-145
15. **Pardayeva R. E.** *Talabalarda deontologik madaniyatni takomillashtirish tamoyillari.....* 146-159
16. **Dusyorova L. Sh.** *Talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishda Top-10 universitetlar tajribasi va strategiyalari.....* 160-169
17. **Norboyeva S. M.** *Globalashuv sharoitida talaba-yoshlarning tayanch ma'naviy kompetensiyalarni rivojlantirishda milliy qadriyatlardan foydalanish yo'llari.....* 170-178
18. **Hukimayev K. X.** *Jismoniy tarbiya darslari orqali axloqiy fazilatlarini takomillashtirishning bugungi kundagi holati.....* 179-187
19. **Baydjanova D. K.** *Ingliz tili materiallari asosida talabalarida umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning diagnostik vositalari.....* 188-196
20. **Xolmatov O. O.** *Bo'lajak o'qituvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish mazmuni.....* 197-206
21. **Narzulloyev A. S.** *Fizika o'qitishda maktab va repetitorlik mashg'ulotlari mazmunini integratsiyalashning didaktik asoslari.....* 207-214
22. **Ismoilova Y. T.** *Raqamli texnologiyalar asosida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish.....* 215-226
23. **Meliyeva L. E.** *Loyiha ishlari asosida tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishga oid ilg'or xorijiy va milliy tajribalar tahlili.....* 227-237
24. **Hamzayeva D. M.** *Maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarini pedagogik jarayonni loyihalashtirishga tayyorlash.....* 238-248
25. **Sayfullayev X. J., Kuchimova F. A.** *Ingliz tili chet tili sifatida o'qitiladigan sinflarda og'zaki nutq ko'nikmasini o'rgatishda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish.....* 249-258
26. **Usmonova O. Sh.** *Jaloliddin Rumiy ta'limoti – aqliy tarbiya mazmunini takomillashtiruvchi pedagogik vosita.....* 259-266
27. **Darvishxo'jayev A. A.** *TIMSS tadqiqotining konseptual-diagnostik imkoniyatlari tahlili.....* 267-277



28. **Ziyoyeva M. E.** *Interaktiv ta'lim texnologiyalarining ta'lim tizimini shakllantirishdagi o'rni.....* 278-287
29. **Normurodov S. S., Saytniyazov A. A.** *Matematika va informatika fanlarini integratsiyalash asosida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish.....* 288-297
30. **Shamsiddinov G'. H.** *Neyropedagogik yondashuv asosida shaxsning kognitiv rivojlanishini shakllantirish.....* 298-308
31. **Ismoilov B. I.** *Interaktiv o'quv metodlari va texnologiyalar yordamida talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish.....* 309-316
32. **Tursunova Z. O.** *Ta'lim jarayonida dasturiy ta'minot vositalarining roli va rivojlanish tendensiyalari.....* 317-326
33. **Xurramova Z. N.** *Maktabgacha ta'lim tizimida mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyoj va uni hal etish yo'llari.....* 327-336
34. **Fayziyeva M. I.** *Oliy ta'limda o'quv mashg'ulotlarining tarbiyaviy potensialini amalga oshirishning pedagogik shartlari* 337-346
35. **Raxmatova S. T.** *Biologiya o'qituvchisining zamonaviy kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli ta'lim muhitining nazariy asoslari.....* 347-359
36. **Choriyev I. A.** *Ta'lim-tarbiyaning tarixiylik, milliylik, umuminsoniylik qonuniyati.....* 360-367
37. **Soatova H. S.** *Fizika ta'limida tarixiy eksperimentlar asosida o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish.....* 368-378



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining
“**Tadbirkorlik va pedagogika**” ilmiy-uslubiy jurnali
2020-yil 18-sentabrda 1114-raqamli guvohnoma bilan
ro‘yxatga olingan. Har chorakda bir marotaba chop etiladi.
Jurnalda nashr etilgan maqolalar <https://inlibrary.uz/>, <https://slib.uz/uz/>,
<https://scholar.google.com> platformalarida indekslanadi.

Terishga berildi: 25.03.2026-yil.
Bosishga ruxsat etildi: 31.03.2026-yil.
Qog‘oz bichimi 60*84 1/8. Adadi – 50 ta.
Nashr tabog‘i – 13,5. Buyurtma № 1-T.

Manzilimiz: 190507, Surxondaryo viloyati
Denov shahri Sharof Rashidov ko‘chasi 360-uy.
info_dtpi@yedu.uz, dtpi@yexat.uz
+998-95-650-77-57

Maqola nashr ettirish maqsadida bog‘lanish uchun:
+998 90 976-76-98. URL: <https://t.me/MrScott98>

Maqolalarda keltirilgan fikr va raqamlar uchun mualliflar javobgardir.



TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA

ILMIY-USLUBIY JURNAL

ISSN 2181-2659